

ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ АДЛИЯ ВАЗИРЛИГИ

ТОШКЕНТ ДАВЛАТ ЮРИДИК ИНСТИТУТИ

Д.Қ. Ахмедов, Г.Ю. Юлдашева

**ИНСОН ҲУҚУҚЛАРИ УМУМЖАҲОН
ДЕКЛАРАЦИЯСИГА**

ШАРҲЛАР

**INSON HUQUQLARI UMUMJAHON
DEKLARATSIYASIGA**

SHARHLAR

ТОШКЕНТ – 2009

Ахмедов Д.Қ., Юлдашева Г.Ю.
Инсон ҳуқуқлари Умумжаҳон декларациясига.
шарҳлар. –Т.: ТДЮИ нашриёти, 2009. 192 бет.
Сарлавҳада: Ўзбекистон Республикаси Адлия
вазирлиги, ТДЮИ.

Масъул муҳаррир: ю.ф.д. **Б.И.Исмоилов**

Тақризчи: ю.ф.д. **О.З. Муҳаммаджонов**

Мазкур шарҳ инсон ҳуқуқлари бўйича халқаро ҳуқуқий ҳужжатлар ҳамда Ўзбекистон Республикасининг амалдаги қонунчилиги нормалари ва амалиёти ҳисобга олинган ҳолда тайёрланган.

Ушбу нашр инсон ҳуқуқлари Умумжаҳон декларацияси расмий матни, шунингдек мазкур ҳужжатнинг ҳар бир моддасига атрофлича шарҳларни ўз ичига олади.

Шарҳлар кенг китобхонлар оmmasига ва инсон ҳуқуқлари билан кизикувчи ўқувчиларга мўлжалланган.

© Д.Қ. Ахмедов, Г.Ю. Юлдашева.

© Тошкент давлат юридик институти, 2009 йил.

ИНСОН ҲУҚУҚЛАРИ УМУМЖАҲОН ДЕКЛАРАЦИЯСИ

1948 йил 10 декабрь

МУҚАДДИМА

Инсоният оиласининг ҳамма аъзоларига хос кадр-қиммат ва уларнинг тенг, ажралмас ҳуқуқларини тан олиш, эркинлик, адолат ва бутун жаҳон тинчлик асоси эканлигини эътиборга олиб;

инсон ҳуқуқларини менсимаслик ва уни поймол этиш инсоният виждони қийналадиган ваҳшиёна ишлар содир этилишига олиб келганини, кишилар сўз эркинлиги ва эътиқод эркинлигига эга бўладиган ҳамда кўрқув ва муҳтожликдан холи шароитда яшайдиган дунёни яратиш инсонларнинг эзгу интилишидир, деб эълон қилинганлигини эътиборга олиб;

инсон охирги чора сифатида зулм ва истибдодга қарши исён кўтаришга мажбур бўлишининг олдини олиш мақсадида инсон ҳуқуқлари конун кучи билан ҳимоя этилиши зарур эканлигини эътиборга олиб;

халқлар ўртасида дўстона муносабатларни ривожлантиришга кўмаклашиш зарурлигини эътиборга олиб;

Бирлашган Миллатлар халқлари инсоннинг асосий ҳуқуқларига, шахснинг кадр-қимматига, эркак ва аёлнинг тенг ҳуқуқлилигига, ўз эътиқодларини Низомда тасдиқланганликлари ҳамда янада кенгрок эркинликда ижтимоий тараққиёт ва турмуш шароитларини яхшилашга кўмаклашишга аҳд қилганликларини эътиборга олиб;

аъзо бўлган давлатлар Бирлашган Миллатлар Ташкилоти билан ҳамкорликда инсон ҳуқуқлари ва асосий эркинликларини ҳурмат қилиш ва унга риоя қилишга кўмаклашиш мажбуриятини олганлигини эътиборга олиб;

мазкур ҳуқуқлар ва эркинликларнинг характерини тушуниш ушбу мажбуриятларнинг тўлиқ адо этилиши учун катта аҳамиятга эга бўлишини эътиборга олиб;

Бош Ассамблея

мазкур Инсон ҳуқуқлари умумжаҳон декларациясини барча халқлар ва барча давлатлар бажаришга интилиши лозим бўлган вазифа сифатида эълон қилар экан, бундан муддао шуки, ҳар бир инсон ва жамиятнинг ҳар бир ташкилоти доимо ушбу Декларацияни назарда тутган ҳолда маърифат ва таълим йўли билан бу ҳуқуқ ва эркинликларнинг ҳурмат қилинишига кўмаклашиши, миллий ва

халқаро тараққийпарвар тадбирлар орқали ҳам унинг бажарилиши таъминланишига, Ташкилотга аъзо бўлган давлатлар халқлари ўртасида ва ушбу давлатларнинг юрисдикциясидаги ҳудудларда яшаётган халқлар ўртасида умумэтироф ва самарали тан олинishiга интилишлари зарур.

Инсон ҳуқуқ ва эркинликлари – шундай универсал қадриятларки, улар учун шахс ҳуқуқларини муҳофаза қилиш борасида ягона халқаро-ҳуқуқий стандартларни ўрнатиш характерлидир. Бугунги кунга келиб инсоннинг асосий ҳуқуқ ва эркинликлари ҳеч бир давлатнинг соф ички иши бўлмай қолди. Фуқароларнинг умумэтироф этилган ҳуқуқ ва эркинликларини таъминлаш алоҳида бир давлатнинггина иши эмас, балки халқаро ҳамжамиятнинг асосий мақсадидир.

Инсон ҳуқуқлари деганда, одатда, инсон шахсининг ажралмас ҳуқуқлари назарда тутилади. Инсон ҳуқуқлари концепцияси ирқи, танасининг ранги, жинси, тили, дини, сиёсий ёки бошқа қарашлари, миллий ёки ижтимоий келиб чиқиши, хусусий мулкнинг мавжудлиги, табақаси ёхуд бошқа мавқеидан қатъи назар, ҳар бир киши ўз инсонлик ҳуқуқидан фойдаланиш ҳуқуқига эгаллигини эътироф этади. Инсон ҳуқуқлари юридик жиҳатдан инсон ҳуқуқларига оид миллий ва халқаро-ҳуқуқий меъёрлар билан кафолатланади, улар алоҳида шахслар ёки кишилар гуруҳларини инсон шахсининг эркинлиги ва қадр-қимматини поймол қилувчи ҳаракатлардан ҳимоя қилади. Бу меъёрлар турли халқаро шартномаларда, халқаро одатларда, халқаро ҳуқуқ тамойилларида ва бошқа ҳуқуқий меъёрлар манбаларида ўз аксини топган. Инсон ҳуқуқлари муҳофазасига оид қонунлар давлат зиммасига жиддий ва муайян масъулиятни юклайди ва давлатларга баъзи фаолият турларини амалга оширишни тақиқлайди. Шу билан бирга, қонун инсон ҳуқуқларини тўлиқ белгиламайди. Инсон ҳуқуқлари – бу ҳар бир киши инсон бўлганлиги учун эга бўлган ҳуқуқлардир. Халқаро шартномалар ва бошқа ҳуқуқ манбалари, қондага кўра, алоҳида шахс ва гуруҳларни ўз инсоний ҳуқуқларини амалга оширишларига тўсқинлик қилувчи ташкилотлар ва давлатларнинг ҳаракатлари ёки ҳаракатсизлигидан расман ҳимоя қилишга хизмат қилади.

Инсон ҳуқуқларининг энг муҳим хусусиятлари:

- улар ҳар бир инсоннинг қадр-қиммати ва қадриятини ҳурмат қилишга асосланган;

- улар универсалдир, яъни барча инсонларга баб-баробар, ҳеч бир камситишларсиз қўлланилади;

- улар ажралмасдир, яъни ҳеч ким ўз инсоний ҳуқуқларидан маҳрум этилиши мумкин эмас, бундан маълум ҳолатлар мустасно, жумладан: агар суд томонидан у ёки бу шахс жиноят қилишда айбдорлиги исботланса, озодлик ҳуқуқи чекланиши мумкин;

- улар бўлинмас, ўзаро алоқадор ва боғлиқдир, зеро инсоннинг бир ҳуқуқини таъминлаб бошқасига эътибор бермаслик мумкин эмас. Бир ҳуқуқнинг бузилиши бошқа ҳуқуқнинг ҳам бузилишига олиб келади. Шу сабабли инсоннинг барча ҳуқуқларига тенг аҳамиятли ҳамда ҳар бир инсоннинг кадр-қиммати ва кадриятини таъминлашда тенг даражада зарур деб қараш лозим.

Бугунги кунда, Инсон ҳуқуқлари умумжаҳон декларацияси барчанинг диққат марказида турибди. Декларация (лотин тилидан declaration- баёнот, эълон) – давлат, ҳукумат, партия, ташкилот номидан баёнот қилиш; асосий тамойилларни тантанали суръатда эълон қилиш, шунингдек, ушбу тамойиллар баён этилган ҳужжатдир.

Биринчидан, Декларация давлатлар шахсининг ҳуқуқий мақомини тавсифлашга, ҳар бир инсонга тегишли, давлатлар ҳурмат қилишлари ва таъминлашлари зарур бўлган ҳуқуқлар рўйхатини аниқлашга ҳаракат қилинган энг биринчи халқаро ҳужжат.

БМТ Низомида шахс ҳуқуқларини ҳурмат қилиш мажбуриятининг белгилаб қўйилиши, айнан қандай ҳуқуқлар ҳақида сўз бораётганлиги, яъни инсон ҳуқуқлари рўйхати хусусидаги саволга жавоб беришни такозо қилди. БМТ Низоми ишлаб чиқиляётганда унга инсон ҳуқуқлари рўйхатини киритиш таклиф қилинганди. Аммо бу таклифлар қўллаб-қувватланмади, чунки халқаро ташкилотнинг таъсис ҳужжати бўлмиш Низомга бундай коидаларни киритиш ноўрин эди. Бундан ташқари, рўйхатнинг киритилиши ҳуқуқларни тақдим этиш, уларнинг амалга оширилишини кафолатлаш, назорат механизми ва бошқа жараёнларни қатъий белгилашни талаб этарди. Қолаверса, инсон ҳуқуқлари рўйхатига қўшимча киритиладиган бўлса, Низомга ўзгартириш киритилиши лозим бўларди, бу эса анчайин мураккаб жараёндир.

Шу сабабли инсон ҳуқуқлари бўйича мустақил ҳужжат тузиш лозим, деб қарор қилинди ва Инсон ҳуқуқлари умумжаҳон декларацияси ана шундай ҳужжат бўлди. Бинобарин, Умумжаҳон декларацияси – БМТ Низомининг ўзига хос давоми аниқроқ айтганда, ундаги кўрсатмаларининг амалга оширилишидир. Умумжаҳон

декларациясига инсон ҳуқуқ ва эркинликларининг универсал мажмуаси сифатида қараш мумкин. Кейинчалик у сезиларли даражада кенгайтирилган ва тўлдирилганлигига қарамасдан, бутунги кунда ҳеч ким инсоннинг асосий ҳуқуқлари рўйхати Умумжаҳон декларациясида баён этилганлари билангина чегараланади, деб даъво ҳам қилмайди. Давлатларнинг 1948 йилги бу келишувини инсон ҳуқуқлари бўйича ҳамкорликнинг бошланғич нуктаси дейиш мумкин.

Иккинчидан, давлатлар инсон ҳуқуқлари бўйича ҳамкорликдаги ҳаракатларини белгилаб олишга интилган энг биринчи халқаро ҳужжат юридик мажбурият эмас, балки тавсия сифатида қабул қилингани ҳам жуда оқилона иш дейиш мумкин. Нима учун деганда, БМТ бир бутун халқаро шартномани ишлаб чиқа бошлаганда, бу иш бир неча ўн йилларга чўзилиб кетиши мумкинлигини тасаввур қилиш қийин эмас. Ҳуқуқий мажбурият юқловчи қонун-қоидаларни белгилашда давлатлар тавсияномаларни қабул қилишга қараганда анчагина эҳтиёткорлик билан ёндашади. Инсон ҳуқуқлари бўйича Пактларни ишлаб чиқиш 18 йилга (бу ҳам унинг асоси бўлмиш-Инсон ҳуқуқлари умумжаҳон декларацияси мавжудлигида) чўзилди. Пактларнинг кучга кириши учун эса, яна 10 йил керак бўлди – улар 1976 йилдан бошлабгина ҳаётга татбиқ қилинди.

Учинчидан, Инсон ҳуқуқлари умумжаҳон декларацияси давлатларнинг ички қонунчилиги учун асос бўлди. Қолаверса, у нафақат кўпгина давлатларнинг конституциялари асосини, балки кенг маънодаги миллий қонунчиликнинг ҳам ўзагини ташкил қилди. Бу жуда муҳим, зеро миллий қонунга индивид инсон ҳуқуқлари соҳасида биринчи навбатда дуч келади. Бежизга Умумжаҳон декларациясининг Муқаддимасида “...инсон ҳуқуқлари қонун кучи билан ҳимоя этилиши зарур...” деб қайд этилмаган. Шу тариқа, бошиданок инсон ҳуқуқлари бўйича халқаро алоқаларнинг асосий йўналишлари белгилаб олинди ва бунда давлатларнинг ички чоратadbирлари, миллий меъёрларнинг ишлаб чиқилиши, қолаверса, ваколатли давлат органларининг қонун кўрсатмаларини ҳаётга татбиқ қилиш ва унинг бузилиши ҳолларида зарур чораларни кўриш бўйича фаолияти асосий деб кўрсатилди.

Тўртинчидан, Умумжаҳон декларацияси инсон ҳуқуқларига оид меъёрларни бирхиллаштириш асосларини ўрнатди. Декларациянинг Муқаддимасида: “...мазкур ҳуқуқлар ва эркинликларнинг характерини ялпи тушуниш ушбу

мажбуриятларнинг тўлик адо этилиши учун катта аҳамиятга эга”,- деб қайд этилган, яъни жаҳоннинг турли нуқталаридаги хилма хил сиёсий тизимга эга давлатларда инсон ҳуқуқлари бир хил талқин этиладиган ҳолатга эришишга қарор қилинди. Бошқача қилиб айтганда, Умумжаҳон декларацияси инсон ҳуқуқлари соҳасида “стандартлаштириш”ни бошлаб берди. Лекин бу маънода у дастлабки қадам бўлди, холос. Инсон ҳуқуқларининг белгиланган рўйхатини ривожлантириш, аниқлаштириш ва тўлдиришнинг зарурийлиги ва муқаррарлиги масаласи юзага чиқди. Пировардида Умумжаҳон декларациясидаги фикрлар ва ғоялар инсон ҳуқуқларига оид кўплаб келишувларда кенгайтирилди ва аниқлаштирилди.

1-модда

Ҳамма одамлар ўз кадр-қиммати ҳамда ҳуқуқларида эркин ва тенг бўлиб туғиладилар. Уларга ақл ва виждон ато қилинган, бинобарин бир-бирларига нисбатан биродарлик руҳида муносабатда бўлишлари керак.

Ҳеч кимнинг эркинлиги қонуний ижозат ёки рухсат беришни талаб этмайди, лекин бошқалар билан кадр-қиммат ва ҳуқуқда тенглик ўз шахсий эркинлигининг бошқалар эркинликлари билан чегараланишини кўзда тутати. Шахсий ҳаётнинг дахлсизлиги ва унга бўлган ҳурмат – бу шахсий эркинликнинг ёки уни чеклашнинг бир кўринишидир.

Эркинликка бўлган конституциявий ҳуқуқ энг муҳим ижтимоий манфаатлардан бири бўлиб, шахснинг талабларини ҳар томонлама қондириш учун зарур шароитларни яратибгина қолмай, жамиятнинг демократик ривожланишини ҳам таъминлайди.

Эркинлик ҳуқуқи билан узвий боғлиқ бўлган ҳуқуқлардан бири шахсий дахлсизлик ҳуқуқидир. Шахсий дахлсизлик инсоннинг индивидуал ҳаётига нисбатан ҳар қандай ташқи аралашувга йўл қўйилмасликни назарда тутати ва бу тушунча ўз ичига жисмоний ҳамда руҳий дахлсизликни камраб олади.

Шахснинг жисмоний дахлсизлигини таъминлаш унинг ҳаёти, саломатлиги, жинсий дахлсизлигига, жисмоний эркинлигига ҳам давлат номидан унинг органлари ёки мансабдор шахслар томонидан ҳамда алоҳида фуқаролар томонидан қандай бўлмасин тажовуз қилинишидан етарлича давлат қафолатини яратишни назарда тутати. Руҳий дахлсизликни таъминлаш шахснинг руҳий ва маънавий саломатлигига, инсон онгининг интеллектуал ва иродавий соҳасига тажовуздан ҳимоялашга қаратилган чора-тадбирлар мажмуасини камраб олади. Эркинлик ҳуқуқи эркинликнинг айнаи ўзидир, яъни исталган қонуний ҳаракатларни амалга ошириш имкониятидир. Ушбу ҳуқуқда бошқа инсонлар, айниқса инсонларга нисбатан мажбурий чоралар қўллаш имконига эга мансабдор шахсларнинг эркинлиги учун чекловлар мавжуд. Инсоннинг ҳаёти, саломатлиги, обрўси ва кадр-қимматини камраб олувчи шахсий дахлсизлик у билан узвий алоқадир. Ҳеч ким куч ёки таҳдид остида инсонни бирор-бир ҳаракат қилишга мажбурлаш, қийноққа солиш, тинтув ўтказиш ёки саломатлигига зарар етказиш ҳуқуқига эга эмас. Инсон ўз тақдирини ўзи белгилаш, ўз ҳаёт йўлини ўзи танлаш (оила қуриш, сайловда

қатнашиш, ишга кириш ва б.) ҳуқуқига эга. Шахс эркинлиги ва хавфсизлигининг янада кучлироқ кафолатлари фуқаролар ва мансабдор шахсларнинг ҳар қандай ноқонуний ҳаракатларини жиноий-ҳуқуқий тақиқлаш шаклида юзага чиқади. Ушбу эркинликни чеклашга фақат қонун асосида ва қонуний шаклларда рухсат берилади, барча мажбурлаш чоралари суд орқали амалга оширилиши лозим.

Шахс эркинлигини кафолатловчи бир қатор меъёрлар давлат органларининг юрисдикция фаолиятини белгиловчи қонунчиликда ифодаланган. Чунончи, жиноят ишлари бўйича суд жараёнида келтириш, ушлаш, ҳибсга олиш, шахсий тинтув ва бошқа, ўз характерига кўра мажбурловчи бўлган ҳаракатларга, қонунда келтирилган асослар бўлгандагина ва уларда кўрсатилган тартибдагина рухсат берилади.

Халқаро ҳужжатларнинг тизимли таҳлилидан шу нарса кўринадики, уларда “эркинлик” тушунчаси кенг талқин этилади ҳамда ўз ичига ҳам биологик, ҳам ижтимоий ҳаётни камраб олади. Эркинлик ҳуқуқи ўз ичига шахсий (яшаш жойини танлаш эркинлиги, кўчиш эркинлиги, ҳаракат эркинлиги ва ҳ.к.), сиёсий (фикрлаш эркинлиги, сўз эркинлиги ва ҳ.к.), касбий (меҳнат қилиш эркинлиги, ижод эркинлиги ва ҳ.к.) ҳаётда амалга оширилувчи аниқ қонуний ҳуқуқлар мажмуасини камраб олади. “Эркинлик” тушунчасининг бу каби кенг кўламдаги талқини Конституцияда ва бошқа қонун-ҳужжатларида у ёки бу шахс эркинлигининг намоён бўлишига бағишланган алоҳида меъёрлар мавжудлиги билан инкор этилмайди, зеро бунда фақатгина қонунчилик учун оддий бўлган амалиёт – қонунга умумий меъёрлар билан биргаликда энг муҳим, махсус меъёрларни киритиш намоён бўлади.

Инсон ҳуқуқ ва эркинликларига оид умумэтироф этилган меъёрларнинг алоҳида ўрни Ўзбекистон Республикаси Конституциясининг Муқаддимасида ўз тасдиғини топган. Биринчи бор инсон ҳуқуқлари, аниқроқ айтганда, қонун олдида тенглик ҳуқуқи Ўзбекистон Республикасининг 1991 йил 31 августда қабул қилинган “Ўзбекистон Республикасининг давлат мустақиллиги асослари тўғрисида”ги Конституциявий Қонунда мустаҳкамлаб қўйилди. Мазкур Қонуннинг 15-моддасида шундай дейилади: “Ўзбекистон Республикаси ҳудудида Инсон ҳуқуқлари умумжаҳон декларациясига мувофиқ Ўзбекистон Республикаси фуқаролиги жорий қилинади.

Ўзбекистон Республикасининг барча фуқаролари миллати, элати, ижтимоий мансублиги, диний қарашлари ва ақидасидан қатъи назар, бир хил фуқаролик ҳуқуқига эгадирлар ва республика Конституцияси ҳамда қонунлари ҳимоясидадирлар”

Ўзбекистон Республикаси халқаро ҳуқуқда кўзда тутилган инсон ва фуқаро ҳуқуқлари ва эркинликларини эътироф этади. Шунга мувофиқ Конституция миллий ҳуқуқ тизимига инсон ва фуқаронинг ҳуқуқ ва эркинликларининг асосий халқаро манбалари бўлмиш 1948 йилдаги Инсон ҳуқуқлари умумжаҳон декларациясининг, 1966 йилдаги Иқтисодий, ижтимоий ва маданий ҳуқуқлар тўғрисидаги халқаро пактнинг, 1966 йилдаги Фуқаролик ва сиёсий ҳуқуқлар тўғрисидаги халқаро пактнинг аксарият қоидаларини киритади.

Ўзбекистон Республикаси Конституциясида халқимиз, миллатимиз, давлатимизга оид қадриятлар ҳамда инсоният ҳуқуқий маданиятидаги барча илғор қарашлар ўзаро уйғунликда ўз инъикосини топган.

Халқаро ҳамжамият томонидан умумэътироф этилган инсон ҳуқуқ ва эркинликларини тан олган ҳолда, Ўзбекистон Республикаси ўз тарафидан уларнинг поймол этилишига йўл қўймаслик, уларни татбиқ этиш учун шароит яратиш ва уларнинг амалга оширилишини қафолатлаш мажбуриятини олади.

Конституцияда қўлланилган “ҳуқуқ” ва “эркинлик” тушунчалари ўртасидаги фарқ шартлидир. Ҳар иккала тушунча ҳар кимнинг ҳам инсон, ҳам давлат фуқароси сифатида ўз хатти-ҳаракатининг шакли ва меъёрини танлашдаги қонуний эътироф этилган имкониятини англатади.

Шу билан бирга, “эркшлик” тушунчаси кўпроқ шахс мустақиллиги доирасини намойиш этувчи, унинг ички дунёси (виждон, ақида, фикрлаш, бадий, илмий, техник ва бошқа шаклдаги ижод, таълим олиш эркинлиги)га аралашувдан ҳимоя қилувчи қонуний ҳуқуқларига боғлиқдир.

“Ҳуқуқ” тушунчаси кўпроқ давлат томонидан қандайдир ижобий ҳаракатларни ёки инсоннинг муайян ижтимоий-сиёсий, хўжалик тузилмалари фаолиятида қатнашиш ҳуқуқларини назарда тутади.

Инсон ва фуқаро асосий ҳуқуқ ва эркинликларининг алоҳида ҳуқуқий хусусиятлари, уларнинг амалга оширилишидаги ўзига хослик ушбу ҳуқуқлар ва эркинликларнинг қуйидаги жиҳатларида акс этган:

а) улар шахс ҳуқуқий мавқеининг асосини ташкил қилади, турли меъёрий ҳужжатларда белгиланган бошқа барча ҳуқуқ ва эркинликларнинг замирида ётади. Чунончи, меҳнат ҳуқуқи меъёрларидан келиб чиқувчи барча ҳуқуқлар меҳнат ҳақидаги конституциявий қонунларга; ижтимоий таъминот ҳуқуқи соҳасида белгиланган ҳуқуқлар – тегишли конституциявий равишда белгиланган асосий ҳуқуққа; фуқароларнинг соғлиқни сақлаш соҳасидаги ҳуқуқлари – саломатликни муҳофаза қилиш ҳуқуқига асосланади. Фуқароларнинг ҳаётнинг у ёки бу соҳасидаги ҳуқуқ ва эркинликлари асосий ҳуқуқ ва эркинликлардан келиб чиқади. Шу сабабли шахснинг ҳуқуқий ҳолатида асосий ҳуқуқ ва эркинликлар муҳим ҳисобланади;

б) улар субъектларнинг кенг кўламдаги доирасига йўналтирилган, ҳар бир инсон ёки ҳар бир фуқарога бириктирилган. Конституциявий меъёрлардан ташқари, бошқа ҳуқуқий меъёрлар билан ўрнатиладиган барча ҳуқуқ ва эркинликлар шахснинг турли мавқеларга (ишчи ва хизматчи, мулк эгалари, турар жой ижарачилари, харидорлар, аризачилар, жавобгарлар ва ҳ.к.) эга эканлигидан далолат беради;

в) улар умумийлик билан характерланади: улар ҳаммага, ҳар бир инсон ёки ҳар бир фуқарога истисносиз тенг ва ягонадир. У ёки бу ҳуқуқни асосий деб эътироф этишда, давлат ушбу ҳуқуқнинг барча амалга ошира олиши имкониятидан келиб чиқади. Асосий ҳуқуқ ва эркинликлар кенгайиши тегишли ижтимоий-иқтисодий омиллар вужудга келиши билан изоҳланади. Фуқаронинг асосий ҳуқуқ ва эркинликлари бошқа ҳуқуқ ва эркинликлардан юзага келиш сабаблари билан ажралиб туради. Ана шундай ягона сабаб – бу фуқароликка эга бўлишдир. Улар фуқаронинг ҳуқуққа эга бўлиш қобилиятини амалга ошириши билан боғлиқ эмас ва ҳуқуқ субъекти сифатида ҳар бир фуқарога тегишлидир. Бу асосий ҳуқуқ ва эркинликлар шахснинг давлат билан бош алоқаларини, унинг фуқаро сифатидаги мавқеини ифодалашидан далолат беради. Улар шахс ихтиёрига кўра кенгайтирилмайди ва камайтирилмайди, унга фуқаро бўлгани боис тегишли бўлади, унинг ҳуқуқий мавқеидан ажралмайди ва фақат фуқароликдан маҳрум бўлгандагина йўқотилиши мумкин;

г) улар татбиқ қилиш механизмнинг ўзига хослиги билан ажралиб туради. Инсон ва фуқаро, бошқа барча ҳуқуқ ва эркинликларга, ўз ҳуқуқий лаёқатини аниқ бир ҳуқуқий муносабатларда иштироки жараёнида қўллаш орқали эга бўлиши

мумкин. Асосий ҳуқуқ ва эркинликлар эса, муайян соҳадаги ҳар қандай ҳуқуқий муносабатларнинг омили, ҳуқуқий муносабатлар ҳар бир иштирокчисининг доимий, ажралмас ҳуқуқи сифатида намоён бўлади.

д) белгилаб қўйишнинг алоҳида юридик шаклига эгадир. Улар давлатнинг олий юридик кучга эга меъёрий-ҳуқуқий ҳужжати – Конституцияда мустаҳкамлаб қўйилади;

е) улар кучайтирилган ҳуқуқий ҳимоя билан таъминланади, яъни конституциявий меъёрлар, уларни мустаҳкамловчи қоидалар амалдаги Конституция доирасида муҳофазаланади ва улар янги Конституция қабул қилмай туриб ўзгартирилиши мумкин эмас.

2-модда

Ҳар бир инсон ирки, тана ранги, жинси, тили, дини, сиёсий ёки бошқа этнокодларидан, миллий ёки ижтимоий келиб чиқиши, мол-мулки, табақаси ёки бошқа ҳолатидан қатъи назар ушбу Декларацияда эълон қилинган барча ҳуқуқ ва барча эркинликка эга бўлиши зарур.

Бундан ташқари, инсон мансуб бўлган мамлакат ёки ҳудуднинг сиёсий, ҳуқуқий ёки халқаро мақомидан, ушбу ҳудуд мустақилми, васийми, ўз-ўзини идора қиладими ёки бошқача тарзда чекланганлигидан қатъи назар бирор бир айирмачилик бўлмаслиги керак.

Ҳар бир давлат миллий чегаралари ҳудудида кўпчилик аҳолидан ажралиб турувчи алоҳида этник, тил ёки диний хусусиятларга эга шахслар гуруҳлари истиқомат қиладилар. Ҳар бир гуруҳнинг ўзига хослигини сақлаб қолиш ва барча камсонли аҳоли орасида, шунингдек, камсонли ва кўпсонли аҳоли ўртасида уйғун муносабатларни қўллаб-қувватлаш этник ва маданий ранг-барангликни ривожлантиришда жуда муҳим аҳамият касб этади, шу сабабли давлатлар тенглик, камситмаслик ва сиёсий мустақиллик каби олий кадрятларни ўз фуқароларининг турли гуруҳлари ҳуқуқларини ҳурмат қилиш муҳофаза қилиш билан уйғунлаштиришга интиладилар.

Декларацияда эълон қилинган ирк, тана ранги, жинс, тил, дин, сиёсий ёки бошқа қарашлар, миллий ёки ижтимоий келиб чиқиши, мулкӣ, табақавий ёки бошқа ҳолатлардаги ҳар қандай фарқлардан қатъи назар, барча ҳуқуқлар ва барча

эркинликларга эга бўлиш имконияти камсонли гуруҳлар муаммосига қизиқиш уйғотди.

Шу кунга қадар камсонли миллатлар ҳуқуқий мавқеининг асосий ҳолатларини белгилаб берувчи бир қатор халқаро ҳуқуқий ҳужжатлар қабул қилинган бўлиб, уларни ички қонунчиликни ривожлантиришда асос сифатида қўллаш лозим. Умумий ёндашувлар, шубҳасиз, муҳим аҳамиятга эга, лекин улар муайян муаммоларни ҳал этиш имконини бермайди, шу сабабли ҳозирга қадар алоҳида мамлакатлар қонунчилиги, аниқроғи – қонунни қўллаш амалиёти асосий рол ўйнамоқда. Энг яхши юридик воситалар ҳам, агар уларни татбиқ қилиш қийин бўлса, самарасиз ҳисобланади. Инсон ва фуқаронинг умумий ҳолда ҳуқуқ ва эркинликлари тенглигининг замонавий халқаро-ҳуқуқий мувофиқлаштириш асослари Бирлашган Миллатлар Ташкилоти Низомида белгилаб қўйилган, деб ҳисобланади, ҳолбуки, камсонли миллатларнинг алоҳида ҳуқуқлари ушбу ҳужжатда зикр этилмаган.

Бугунги кунга қадар тенг ҳуқуқчиликнинг асосий мезонларини белгиловчи, ички қонунчиликни ривожлантиришда асос сифатида фойдаланилиши зарур бўлган бир қатор халқаро ҳуқуқий ҳужжатлар қабул қилинган. Ушбу универсал халқаро ҳужжатларга Инсон ҳуқуқлари умумжаҳон декларацияси, 1966 йилдаги “Иқтисодий, ижтимоий ва маданий ҳуқуқлар тўғрисидаги халқаро пакт”, 1966 йилдаги “Фуқаролик ва сиёсий ҳуқуқлар тўғрисидаги халқаро пакт” (унинг қабул қилиниши туфайли давлатнинг камсонли миллатлар ҳуқуқларини ҳимоя қилиш мажбуриятига алоҳида эътибор берилди) қиради. Тенг ҳуқуқчилик тамойилининг шаклланишида қуйидаги ҳужжатлар муҳим рол ўйнади: Таълим соҳасида камситишга қарши кураш тўғрисидаги конвенция (1960 й.), Ирқий камситишларнинг барча шакллари тугатиш ҳақидаги халқаро конвенция (1965 й.), Ирқ ва ирқий хурофотлар тўғрисидаги декларация (1978 й.), Дин ёки эътиқод асосидаги камситиш ҳамда муросасизликнинг барча шакллари тугатиш тўғрисидаги декларация (1981 й.), Ривожланишга бўлган ҳуқуқ тўғрисидаги декларация (1986 й.), Бола ҳуқуқлари тўғрисидаги конвенция (1989 й.), Миллий ёки этник, диний ва тил жиҳатдан озчиликка мансуб шахслар ҳуқуқлари тўғрисидаги декларация (1992 й.), Вена декларацияси ва Ҳаракатлар дастури (1993 й.) қиради. Минтақавий аҳамиятга эга халқаро ҳуқуқий ҳужжатлардан Инсон ҳуқуқлари ва асосий эркинликларини ҳимоя қилиш тўғрисидаги Европа конвенцияси (1950 й.), Европада

хавфсизлик ва ҳамкорлик кенгашнинг якунловчи ҳужжати (1975 й.), ЕХХҚга аъзо-давлатлар вакилларининг 1986 йилдаги Вена учрашуви якуний ҳужжати (1989 й.), ЕХХҚ Инсоний мезонлар Конференциясининг Копенгаген кенгаши ҳужжати (1990 й.), Янги Европа учун Париж хартияси (1990 й.), Минтақавий тиллар ёки камсонли аҳоли тиллари Европа хартияси (1992 й.), Камсонли миллатларни ҳимоя қилиш бошланғич конвенцияси (1995 й.), Инсон ҳуқуқлари тўғрисидаги Америка конвенцияси (1969 й.), Инсон ва халқлар ҳуқуқлари Африка хартияси (1981 й.), Мустақил Давлатлар Ҳамдўстлиги инсон ҳуқуқлари ва эркинликлари конвенцияси (1995 й.)га эътибор қаратиш лозим.

Уқорида келтирилган ҳужжатлар камсонли миллатлар ҳуқуқ ва эркинликларининг халқаро-ҳуқуқий институти шаклланганлигидан далолат беради.

1990 йилда Европада хавфсизлик ва ҳамкорлик конференцияси томонидан қабул қилинган Янги Европа учун Париж хартияси камсонли миллатлар ҳуқуқларини келгусидаги саккиз устувор йўналиш сафига қўшди. Камсонли миллатларнинг ҳуқуқий муҳофазаси ва уларнинг тинч яшашини таъминлаш жаҳон ҳамжамиятининг энг муҳим муаммосига айланди, унинг ҳал этилишига нафақат алоҳида бир давлатдаги сиёсий аҳвол, балки замонавий дунё тарихий тараққиётининг бориши ҳам боғлиқдир.

Камсонли миллатларга кўпчиликни ташкил этувчи шахсларга берилган даражада ҳуқуқларнинг берилиши зарурий шарт бўлса-да, уларнинг ҳуқуқий ҳолати амалда тенг бўлишини таъминламайди. Ҳозирги дунёда камсонли миллатлар ҳуқуқларини таъминлаш ва ҳимоя қилишнинг турли хил усуллари қўлланилади: бу уларнинг глобал ёки минтақавий характердаги халқаро ҳуқуқий мувофиқлаштириш ҳам, давлат микёсида бошқариш ҳам, шунингдек, давлатларнинг бир қисмида ёки маҳаллий бошқарув ҳам бўлиши мумкин.

Мазкур усулларнинг ҳар бири ўз тарафдорлари ва рақибларига эга, шу сабабли адабиётларда халқаро стандартларни ўрнатиш ва ҳар бир давлатдан уларни бажаришни талаб этиш таклифини ҳам, камсонли миллатлар ҳуқуқларини мувофиқлаштириш улар истиқомат қилаётган мамлакатнинггина иши бўлиб, фақат давлатнинг ички ҳуқуқлари асосида амалга оширилиши керак, деган даъвои ҳам учратиш мумкин. Ушбу иккала фикр ҳам етарлича асосланган, чунки бир томондан, ҳар бир давлатнинг ўзига хос сиёсий ҳаётга эгаллиги

хамма учун умумий универсал қоидалар тизимини ишлаб чиқиш имконини бермайди, бошқа томондан эса, камсонли гуруҳлар ҳуқуқлари, шубҳасиз, инсоннинг асосий ҳуқуқлари сирасига киради ва, бинобарин, халқаро даражада ҳимоя қилиниши лозим.

Инсон ҳуқуқлари тенг ҳуқуқлилиққа қўллаган ҳолда шартли равишда икки гуруҳга бўлиниши мумкин: биринчи гуруҳга инсон ҳуқуқлари муҳофазасининг умумий тартиби доирасида ҳимоя қилиниши мумкин бўлган ҳуқуқлар киради, иккинчи гуруҳга ҳимоя қилиш учун алоҳида қафолатлар мавжуд бўлгандагина татбиқ қилиш мумкин бўлган ҳуқуқлар – камсонли гуруҳларнинг этник, маданий, диний ва тил хусусиятини таъминловчи, бу билан уларнинг ўзига хослигини сақлаб қолувчи ҳуқуқлар киради. Фақат индивидуал ва жамоавий ёндашувларнинг синтези доирасидагина (камчиликнинг алоҳида гуруҳ сифатида ҳуқуқларини ҳимоя қилиш) аҳолининг ўзига хос тавсифга эга тоифаларини ифодаловчи камсонли гуруҳларга мансуб шахсларнинг ҳам, умуман бундай гуруҳларнинг ҳам ҳуқуқлари самарали татбиқ қилиниши мумкин.

Камсонли миллатлар муҳофазаси муаммосини самарали ҳал этиш асосида қўшимча юридик қафолатлар билан таъминланувчи тенглик ва камситмаслик тамойиллари ётади. Шунини қайд этиш зарурки, ҳар қандай давлатнинг миллий сиёсатининг асосий мақсади – ўз фуқароларининг амалда тенглигига эришишдан иборат. Тенг ҳуқуқлилиқни ижтимоий тенглик билан ҳам, муайян этник гуруҳга нисбатан бебошлиқни тақиклаш билан ҳам аралаштириш мумкин эмас. Камсонли миллатлар мавқеи маъносида тенг ҳуқуқлилиқ – бу камчиликнинг турмуш шароитини асосий аҳоли турмуш шароитига яқинлаштириш ва ушбу жамоаларнинг ҳуқуқлари, эркинликлари ва мажбуриятларини этник кўпчилиқники билан тенглаштириш – она тилини, анъаналарини, динини қўллаш, миллий мактабларни ривожлантиришдир. Шу тариқа, ҳақиқий тенглик камсонли гуруҳлар сингиб кетишга қарши қафолатларни ўз ичига олган махсус ҳуқуқларга эга бўлгандагина эришилади.

Камситмаслик сиёсий, ижтимоий, иқтисодий ва маданий соҳаларда озчилик ҳуқуқларини поймол қилишга бўлган ҳар қандай уринишдан ҳимоя қилишни ўзида акс эттиради. Камситишни тақиклаш, жумладан, ирки, тили, дини, миллий ёки ижтимоий келиб чиқиши, тугилиши ёки бошқа жиҳатлар туфайли камситишни қамраб олади ва расман тенглик тамойилига асосланади. Бу тамойилга

биноан ҳуқук субъекти сифатида эътироф этилган инсон реал ҳаётда бошқа инсонлар амалда тенг бўлмаса-да, расман тенг ҳолатда бўлади.

Юқорида келтирилган тамойилларнинг татбиқ қилиниши ўз ҳолича камсонли миллатларнинг манфаатлари муҳофазасини етарли даражада таъминлашга қодир эмас: озчиликнинг кўпчилик томонидан табиий, деб қабул қилинувчи мавқега эришиши жараёни фақат уларнинг ҳаёт кечиришини ва этник ўзига хослигининг ривожланишини, камсонли миллатларнинг турмуш шароитини аҳолининг асосий миллий гуруҳи турмуш шароитига яқинлаштиришни таъминловчи махсус ҳуқуқлар беришни кўзда тутадиган алоҳида қафолатлар татбиқ қилингандагина бошланиши мумкин.

Қайд этиш лозимки, махсус ҳуқуқлар, яъни алоҳида расмий категорияларга мансуб шахслар фойдаланадиган ҳуқуқлар тушунчаси, инсон ҳуқуқларининг ташкилий унсури сифатида, замонавий юридик адабиётларда етарлича ёритилган. Махсус ҳуқуқларга афзаллик берувчи, бу ҳамжамиятлар ва уларга мансуб шахслар учун бошқа аҳолига нисбатан имтиёзли шароит яратувчи ҳуқуқлар деб эмас, озчиликни уларнинг ўзига хослиги ва анъналарини сақлаб қолиш учун зарур воситалар билан таъминлаш талаби, ўзларга хос хусусиятларни сақлаб қолиш учун алоҳида мавқега муҳтож нодоминант (етакчи бўлмаган) гуруҳларни муҳофаза қилиш, таълим нодоминант гуруҳларнинг ўз она тилисида олиб борилувчи мактаблар каби алоҳида ижтимоий дастурларни ўз ичига олувчи ижобий фаолият деб қараш керак.

Камсонли миллатларнинг халқаро шартномаларда кўзда тутилган махсус ҳуқуқлари анчагина кенг ва ранг-баранг, шу сабабли баъзи адабиётларда уларни индивидуал ва жамоавий ҳуқуқларга таснифлашга уринишлар кузатилади. “Жамоавий ҳуқуқлар” тушунчасининг таърифи етарлича бир маъноли бўлмай, турлича талқин этилади: жамоада, бошқа инсонлар билан ҳамкорликда татбиқ қилинувчи индивидуал ҳуқуқлар (“индивидуал ҳуқуқларнинг жамоавий мезони”); муайян гуруҳларга нисбатан инсон ва фуқаронинг умумий ҳуқуқлари; муайян тоифага мансуб индивидлар эга бўлган махсус ҳуқуқлар (“махсус ҳуқуқлар”); жамоавий ҳуқуқ субъектининг қонуний ҳуқуққа эгалиги – ташкилот; шартли ёки статистик гуруҳнинг ўзига хос ҳуқуқлари.

Шу билан бирга, камсонли миллатларнинг индивидуал ва жамоавий ҳуқуқлари бир-бирини истисно этувчи тушунчалар бўлмай,

факат биргаликда камсонли миллатларнинг манфаатлари муҳофазасини тўлиқ таъминлайди. Чунки жамоавий ҳуқуқлар инсоннинг худди шу камсонли миллатга мансуб бошқа инсонлар билан биргаликдагина татбиқ қила оладиган ҳуқуқларининг мажмуасини ифодалайди.

Юқорида келтирилган халқаро ҳужжатларга мувофиқ, камсонли миллатларга мансуб шахслар ҳуқуқлари ичида ўз этник, маданий, лисоний тил ёки диний ўзига хосликни эркин ифодалаш, сақлаб қолиш ва ривожлантириш асосий аҳамият касб этади. У ўз ичига, биринчи навбатда, айнан ўхшатиш – таққосланаётган шахсга ҳеч қандай салбий асоратларсиз тегишли этник озчиликка тенглаштириш ёки тенглаштиришни рад этиш ҳуқуқини қамраб олади. Унинг мантикий давоми эса мажбурий ассимиляцияни тақиқловчи меъёрдир. Ушбу ҳуқуқни ўз она тилини ўрганиш ёки ушбу тилда таълим олиш ҳуқуқи, ўз фамилия ва исмини она тилидаги транскрипцияда қўллаш, озчиликнинг тилларини хусусий ва жамоа ҳаётида ва имкон қадар, уларга мансуб шахслар ва маъмурий органлар ўртасида ишлатиш, маориф ва касбий тайёргарлик мақсадларида ўзларининг хусусий ўқув муассасаларини ташкил этиш, давлатнинг аралашувисиз ва чегаралардан катъи назар, озчилик тилида ахборот олиш ва алмашилиш, шунингек, ўз оммавий ахборот воситаларини таъсис этиш ва фойдаланиш орқали татбиқ қилиш кўзда тутилади. Шубҳасиз, ушбу барча ҳуқуқлар муайян бир шахсга тааллуқли бўлади, аммо уларнинг татбиқ қилиниши фуқаро ўзини бир ёки бир қанча белгилар бўйича ўхшатиши мумкин бўлган шахслар гуруҳи мавжуд бўлгандагина амалга ошиши мумкин. Шу сабабли ўзига хослик ҳуқуқи жамоавий ҳуқуқларга оид, деб топилган.

Камсонли миллатларнинг жамоавий ҳуқуқлари орасида сиёсий ҳуқуқлар муҳим ўрин тутуди: озчиликнинг гуруҳ сифатида мавжуд бўлиш ҳуқуқи, камсонли миллатларнинг қонуний тан олиниши ва уларнинг аломатларини белгилаш, ўз уюшмаларини тузиш ва уларнинг фаолиятини таъминлаш ҳуқуқи ва ҳ.к. бу соҳадаги махсус ҳуқуқлар озчиликнинг давлат ишларида, аъъанага кўра, уларнинг мамлакат умумий аҳолиси сонига ҳиссасидан келиб чиққан ҳолда ажратиладигандан кўра салмоқлироқ рол ўйнашини таъминлашга қаратилган. Сиёсий ҳуқуқларни татбиқ қилиш мақсадида, давлат зиммасига озчилик манфаатларига таъсир кўрсатувчи масалаларда уларнинг розилигин олиш, ҳеч бўлмаганда улар билан маслаҳатлашиш, қонун чиқарувчи ва бошқа органларда, жумладан,

хукуматлараро органларда вакилликни кафолатлаш, озчиликнинг манфаатларини миллий сиёсатда акс эттириш мақсадида камсонли миллатлар вакиллари бўлган расмий шахсларни махсус мансабларга ёки белгиланган ҳажмдаги мансабларга тайинлаш, шунингдек, камсонли миллатларнинг манфаатларини таъминлаш учун барча зарур чора-тадбирларни амалга ошириш мажбурияти юклатилади.

Камсонли миллатларга мансуб шахснинг индивидуал ҳуқуқларига умумий этник мансублик ёки умумий маданий мерос боғлаб турувчи бошқа мамлакатлар фуқаролари билан чегаралараро эркин ва тинч алоқа қилиш ҳуқуқини; маданий, диний, ижтимоий, иқтисодий ва давлат ҳаётида қатнашиш ҳуқуқини; ўз маданияти кадриятларидан фойдаланиш, ўз динига эътиқод қилиш ва диний ибодатларни бажариш ҳуқуқини киритиш мумкин. Ушбу ҳуқуқларга кўшимча равишда бир қатор бошқа муҳим кафолатлар мавжуд бўлиб, улар озчилик вакилларига тегишлидир, жумладан, уларга ҳуқуқ субъекти деб эътироф қилиниш ҳуқуқи, судларда тенг ҳуқуқли бўлиш, қонун олдида тенг бўлиш ва қонун билан баб-баробар ҳимоя қилиш кабилар қиради.

Инсон ҳуқуқларига ҳозирги замон халқаро ҳуқуқида устувор йўналиш сифатида қаралади. Аммо ҳуқуқ, агар у орқали қонунлаштирилган ҳаракатлар эркинлиги ҳеч қандай чегаралар билан чекланмаганда, ўзининг ижтимоий вазифасини бажара олмаган бўларди. Шу сабабли халқаро ҳужжатлар камсонли миллатларга анчагина катта ҳуқуқлар тақдим этибгина қолмай, муайян мажбуриятлар ҳам юклайди. Озчиликка мансуб ҳар қандай шахс давлат фуқароси сифатидаги мажбуриятларини оғишмай бажариши, умумжаҳон эътироф этган инсон ҳуқуқларини ва фундаментал эркинликларни ҳамда ўз давлатининг асосий аҳолиси ёки бошқа озчиликларнинг манфаатларини ҳурмат қилиши лозим. Камсонли миллатлар ўзлари яшаётган давлатнинг ҳудудий яхлитлиги ва сиёсий мустақиллиги тамойилига риоя қилишга мажбурдирлар. Бундан ташқари, миллий озчилик аҳолининг кўп қисмини ташкил қилувчи минтақаларда, ушбу миллатга мансуб бўлмаган, озчиликни ташкил қилувчилар бирор камситишдан азият чекмаслигини таъминлаш учун давлат барча зарур чораларни кўрмоғи лозим.

Конституциянинг 31-моддасига мувофиқ: “Ҳамма учун виждон эркинлиги кафолатланади. Ҳар бир инсон хоҳлаган динга эътиқод қилиш ёки ҳеч қайси динга эътиқод қилмаслик ҳуқуқига эга. Диний қарашларни мажбуран сингдиришга йўл қўйилмайди”

Ўзбекистонда 130 дан ортиқ миллат, элат ва этно-миллий гуруҳлар вакиллари уйғунликда ва тотувликда яшайдилар. Бугунги кунда республикада 140 дан ортиқ миллий маданий марказлар фаолият юритмоқда.

Мустақиллик республика диний жамоаларига ибодатларини эркин адо этиш ва ақидалари кўрсатмаларини бажара олишлари учун ўз жамоат ташкилотларини ташкил этиш имконини берди. Юртимиз Конституциясига мувофиқ, барча диний ташкилотлар, яъни Ўзбекистон мусулмонлари идораси ва Рус православ черковининг Тошкент ва Ўрта Осиё епархияси ҳам, унча катта бўлмаган диний жамоалар ҳам жамият ва конун олдида баробар ҳуқуқ ва мажбуриятларга эгадирлар.

Конфессиялараро мулоқотни ривожлантириш ва динлараро муносабатлар борасидаги давлат сиёсатини амалга ошириш мақсадида, Ўзбекистонда Дин ишлари бўйича кўмита фаолият олиб бормоқда; шунингдек, Конфессиялар ишлари бўйича кенгаш тузилган. Кенгаш таркибига Ўзбекистон мусулмонлари идораси, Рус православ черковининг Тошкент ва Ўрта Осиё епархияси, Рим-католик черкови, Евангель христиан-баптистлар черковлари иттифоқи, Тўлиқ Евангелия христианлари маркази, Евангелия-лютеран черкови, Тошкент яҳудийлар диний жамоаси раҳбарлари қиради.

Ҳозирда Адлия вазирлиги ва унинг тузилмавий бўлинмалари томонидан мамлакатда 16 та конфессияга мансуб 2222 диний бирлашма рўйхатга олинган. Асосий аҳолиси (88%) ислом динига эътиқод қилувчи Ўзбекистонда мусулмон диний ташкилотлари сони 2042 тани ташкил қилади, бу уларнинг умумий ҳажмининг 92 фоизи демакдир.

3-модда

Ҳар бир инсон яшаш, эркин бўлиш ва шахсий дахлсизлик ҳуқуқларига эгадир.

Инсоннинг яшаш ҳуқуқи – асосий, табиий ва ажралмас ҳуқуқи ҳисобланади. Бу ҳуқуқ инсон ҳуқуқлари ҳақидаги барча халқаро-ҳуқуқий ҳужжатлар ва жаҳоннинг деярли барча мамлакатлари конституцияларида инсоннинг ажралмас, конун билан ҳимояланадиган ҳуқуқи деб эълон қилинган.

Дастлаб яшаш ҳуқуқининг халқаро-ҳуқуқий регламентацияси 1948 йилдаги Инсон ҳуқуқлари умумжаҳон декларациясида берилганди. Бироз кейинроқ у геноцид жиноятини олдини олиш ва унинг учун жазолаш тўғрисидаги конвенцияда (1948 й.), Инсон ҳуқуқлари Америка конвенцияси 4-моддасида ва унинг Протоколида (1962 й.), Фуқаролик ва сиёсий ҳуқуқлар тўғрисидаги халқаро пактнинг 6-моддасида (1966 й.), ЭКОСОСнинг (1984 й.) 50-сонли “Ўлимга ҳукм қилинганларнинг ҳуқуқини ҳимоя қилишни кафолатловчи чора-тадбирлар” резолюциясида (1984 й.), Фуқаролик ва сиёсий ҳуқуқлар тўғрисидаги халқаро пактнинг ўлим жазосини бекор қилишга қаратирилган Иккинчи Факультатив протоколида (1989 й.), Инсон ҳуқуқлари ва асосий эркинликларини ҳимоя қилиш европа конвенциясида 6 ва 13-Протокол (1950 й.) ва бошқаларда мустаҳкамланди. Уларнинг барчасида, яшаш ҳуқуқи ҳар бир инсоннинг ажралмас ҳуқуқи сифатида қонун билан ҳимоя қилинади.

Яшаш ҳуқуқи бу борада юзага келувчи бошқа барча ҳуқуқ ва эркинликлар учун асос вазифасини ўтайди. Унда жаҳон цивилизациясининг мутлақ қадрияти акс этади, зеро инсон вафот этганда бошқа барча ҳуқуқлар ўз маъноси ва аҳамиятини йўқотади. Бу фундаментал ҳуқуқни икки жиҳатдан: биринчидан, шахснинг ўз ҳаётига давлат, унинг вакиллари ёки яққа шахслар томонидан бўладиган ҳар қандай ноқонуний тажовуздан озод бўлиш ҳуқуқи сифатида; иккинчидан, шахснинг ўз ҳаётини эркин тасарруф этиш ҳуқуқи сифатида ўрганиш мумкин.

Ишнинг моҳиятига кўра, бошқа барча ҳуқуқлар ушбу ўзак ҳуқуқ атрофида жамланади. Масалан, ижтимоий таъминот, соғлиқни сақлаш, атроф-муҳитга бўлган ҳуқуқлар, шунинг баробарида, шафқатсиз муносабат ва жазолардан озод бўлиш ҳуқуқи ҳам унинг самарали татбиқ қилинишини таъминловчи қўшимча воситалар сифатида юзага чиқади. Давлат ушбу ҳуқуқларни тан олишга ва инсон ҳаёти учун барча мавжуд воситалар ёрдамида муносиб шароитлар яратишга мажбурдир. Шахс ҳаёти ва саломатлигига қарши жиноятлар ўта оғир жиноий жазога тортилувчи ҳаракатлар тоифасига қиритилиши бежиз эмас.

Бу борадаги алоҳида муаммо – давлатнинг энг олий жазо чораси сифатида ўлим жазосини қўллаш ҳуқуқидир.

Яшаш ҳуқуқи Конституцияда ва тармоқ қонунларида белгиланган қонуний воситалар мажмуаси орқали таъминланади.

Инсоннинг яшаш ҳуқуқини татбиқ қилиниши бевосита ўлим жазосини бекор қилиш муаммоси билан боғлиқдир. “Халқаро амнистия” маълумотларига кўра, 2007 йилнинг сентябрь ойи ҳолатига:

92 та давлат ва ҳудудий тузилмалар ўлим жазосини бутунлай бекор қилди;

11та давлат ҳарбий жиноятлар каби ўта оғир жиноятларни истисно қилган ҳолда, барча жиноятлар бўйича ўлим жазосини бекор қилди;

23 та давлат ўлим жазосини жазо тури сифатида чиқариш ва амалга оширишга мораторий эълон қилдилар, яъни ушбу турдаги жазо қонунчиликда сақланса-да, амалда ҳукм қилинмайди ва амалга оширилмайди;

30 та давлат ўлим жазосини амалда қўлламайди: ушбу давлатлар қонунчилиги бундай жазо турини назарда тутуди, лекин кейинги 10 ва ундан ошиқ йил давомида ҳукмлар амалга оширилмаган.

Шу тариқа, жами 133 давлат ё ўлим жазосини қонунчилик тартибида бекор қилган ёки уни амалда қўлламаяпти.

Яна 64 давлат ўлим жазосини сақлаб қолган ва амалда қўллаб келмоқда, бироқ ҳибсга олинганларни амалда қатл этаётган мамлакатлар сони йилдан-йилга камайиб бормоқда.

Ўзбекистонда ўлим жазоси белгиланиши мумкин бўлган жиноятлар тури босқичма-босқич ва изчил камайиб бориши тенденцияси “Инсон, унинг ҳаёти, эркинлиги, шаъни, қадр-қиммати ва бошқа дахлсиз ҳуқуқлари олий қадрият ҳисобланади” (13-модда), шунингдек: “Яшаш ҳуқуқи ҳар бир инсоннинг узвий ҳуқуқидир. Инсон ҳаётига суиқасд қилиш энг оғир жиноятдир” (24-модда), дея эълон қилган Ўзбекистон Республикаси Конституциясида ҳамда Ўзбекистон Республикаси Жиноят кодекси (1994 йил 24 апрель) қабул қилинган вақтдан кузатила бошланди.

2007 йил 15 июлда Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлиси Сенатида маъқулланган Ўзбекистон Республикасининг “Ўлим жазосининг бекор қилинганлиги муносабати билан Ўзбекистон Республикасининг баъзи қонун-ҳужжатларига ўзгартиш ва қўшимчалар киритиш тўғрисида”ги Қонунига мувофиқ, Жиноят кодексидан ўлим жазоси олиб ташланди ва умрбод қамоқ жазосига ёки узоқ муддатга озодликдан маҳрум қилишга алмаштирилди.

Озодлик ва шахсий дахлсизлик ҳуқуқи инсоннинг эркинлигини, ўз хатти-ҳаракатларини мустақил белгилаш, ўзини, ўз вақтини ўзи бошқариш ҳуқуқини англатади. Бу ҳуқуқ

куйидагилардан таркиб топади: 1) шахснинг ўзини ўз ихтиёрига кўра бошқаришдаги индивидуал эркинлиги; 2) шахснинг жисмоний, маънавий ва руҳий дахлсизлиги. Озодликдан ноқонуний маҳрум этиш жиноят қонунчилигида жисмоний ёки руҳий зўрлик сифатида баҳоланади. Бироқ озодликни ёки дахлсизликни мажбурий чеклашни талаб қилувчи вазиятлар мавжуд. Бундай турдаги ҳаракатлар қонунга асосланиши лозим.

Фуқаро озодлигини чеклашнинг асосий мажбурий усулларига куйидагилар қиради: ҳибсга олиш, қамоққа олиш ва жиноят содир қилганликда айбланаётган шахсларни қамоқда сақлаш; ўзига ва атрофдагиларга хавф туғдирадиган руҳий беморларни мажбурий даволаш; оғир юкумли касалликларга чалинган беморларни вақтинчалик изоляциялаш ва даволаш; балоғатга етмаганларни интернатларга, махсус мактаблар ва шу қабиларга юбориш. Демократик давлатларда ушбу ҳолларда озодликни чеклашга, юқорида қайд этилганидек, қонун асосида ва фақат суд қарори билан йўл қўйилади. Шахс озодлигини ноқонуний чекланишидан қафолаш маъмурий, жиноят-процессуал ва жиноят ҳуқуқида батафсил белгилаб қўйилади.

Шахсий ҳаётни ҳурмат қилиш индивидуал озодликнинг жиҳатларидан биридир. Бу ҳуқуқ инсонга тақдим этилган ва давлат томонидан қафолатланган ўзи ҳақидаги ахборотни назорат қилиш, шахсий, интим характерга эга маълумотларнинг ошқор бўлишига тўсқинлик қилиш имкониятини англади. Шахсий ҳаётни индивиднинг ўзи томонидан, яъни ташқи таъсирдан холи равишда, назорат қилинадиган жисмоний ва руҳий муҳит деб таърифлаш мумкин. Қонунчилик бу муҳитга қира олмайди, лекин у ушбу муҳитни ҳар қандай ноқонуний аралашувдан ҳимоялаши лозим.

Қонун шахсий ҳаётнинг дахлсизлиги чегараларини, уни ноқонуний тажовуздан сақлаш шакллари белгилайди. Демократик ривожланган давлат фақат истисно ҳолатларда, қонун ва махсус суд қарори асосида инсон шахсий ҳаётининг дахлсизлигини бузиши, унинг хатлари ёки телефон ёхуд бошқа хабарлари мазмуни билан танишиши мумкин.

Шуниси равшанки, фуқаронинг шахсий ҳаётига оид маълумотларни йиғишга бўлган бундай зарурий эҳтиёж фақат жиноятчиликка қарши кураш мақсадида, шунингдек, бошқа фуқароларнинг саломатлиги ва хавфсизлигини муҳофаза қилиш мақсадидагина юзага келиши мумкин.

4-модда

Ҳеч ким қулликда ёки эркин ҳолатда сақланиши мумкин эмас; қуллик ва қул савдосининг барча кўринишлари тақиқланади.

Халқаро ҳуқуқда озодликни чеклаш ва қулликдан химоя қилиш нинг қонунийлиги масаласини белгилловчи халқаро-ҳуқуқий ҳужжатларнинг бутун бошли мажмуаси ишлаб чиқилган. Бу борадаги асосий универсал ҳужжатларга қуйидагилар киради: Инсон ҳуқуқлари умумжаҳон декларацияси, “Фуқаролик ва сиёсий ҳуқуқлар тўғрисида”ги ва “Иқтисодий, ижтимоий ва маданий ҳуқуқлар тўғрисида”ги халқаро пактлар. Озодликни чеклаш масаласини белгилловчи махсус ҳужжатларга қуйидагилар киради: Қийноқ ҳамда муомала ва жазолашнинг қаттиқ шартсиз, инсонийликка зид ёки кадр-қимматни камситувчи турларига қарши конвенция (1984 й.), Трансмиллий уюшган жиноятчиликка қарши конвенция (2000 й.), БМТнинг балоғатга етмаганлар устидан одил судловни амалга оширишдаги минимал стандарт қоидалари (“Пекин қоидалари” 1985 й.), Ҳар қандай кўринишда қўлга олинган ёки ҳибсда сақланаётган барча шахсларни химоя қилиш тамойиллари мажмуаси (1988 й.), Маҳбуслар билан муомалада бўлишнинг минимал стандарт қоидалари (1955 й.), Жиноятлар ва ҳокимиятни суистеъмол қилиниши қурбонлари учун одил судловнинг асосий тамойиллари декларацияси (1985 й.), БМТнинг қамоқда сақлаш билан боғлиқ бўлмаган чораларга оид минимал стандарт қоидалари (“Токио қоидалари” 1990 й.) ва б.

Қуллар савдосининг замонавий кўриниши одам савдоси бўлиб, трансмиллий уюшган жиноятчилик учун энг ривожланаётган ва ўта даромадли фаолият бўлиб қолди. Статистик маълумотлар кўплаб хорижий давлатларда одам савдоси ўсиб бораётталигини кўрсатмоқда.

БМТнинг расмий статистика маълумотларига кўра, ҳозирда дунёда тахминан 27 миллион нафар инсон қулликда сақланмоқда ва бу кўрсаткич янада ўсиб бормоқда.

БМТ тадқиқотлари далолат қилишича, энг кескин вазият Непал, Судан, Бирлашган Араб Амирликлари, Ҳиндистон, Габон, Гаити, Мьянма каби давлатлардадир. АҚШ Давлат департаменти маълумотларига кўра, дунё бўйлаб 4 миллиондан ошди киши ўз ихтиёрисиз сотилади, сотиб олинади, сақланади ва жўнатилади.

Халқаро экспертларнинг аниқлашларича, кул савдосидан жаҳон бўйича йиллик даромад 9,5 миллиард АҚШ долларига етади. Бошқа экспертларнинг баҳолашларича, ушбу бозорнинг умумий айланмаси 19 млрд. АҚШ долларига етади.

Одам савдосига жалб қилинган шахсларнинг асосий қисми жинсий хизматлар бозори улушига тўғри келади. Фоҳишабозлик анчадан буён жинсий ташкилотларнинг нафақат миллий, балки халқаро миқёсдаги фаолиятининг асосий даромадларидан бири бўлиб келмоқда. Бу савдонинг аксарият қурбонлари аёллар ва болалардир.

Амалдаги халқаро-ҳуқуқий ҳужжатлар ҳужжатни имзолаган ҳар бир давлатда бу турдаги ҳаракатни тақиқлаш ва у юзасидан жавобгарликни белгилаш мажбуриятини юклайди.

Кўрсатилган шакллардаги одам савдосини тақиқловчи ҳужжатларга қуйидагилар киради:

Куллик тўғрисидаги конвенция (1926 й.), Мажбурий меҳнат тўғрисидаги конвенция (1930 й.), Одам савдоси ва фоҳишаликнинг учинчи шахслар томонидан эксплуатация қилишга қарши кураш ҳақидаги конвенция (1949 й.), Кулликни, кулфурушликни, кулликка ўхшаш институтлар ва одатларни бекор қилиш ҳақидаги қўшимча конвенция (1966 й.), Инсонлар, айниқса аёллар ва болалар савдосининг олдини олиш ҳақидаги, Бирлашган Миллатлар ташкилотининг трансмиллий уюшган жиноятчиликка қарши конвенциясини тўлдирувчи Протокол (2000 й.).

Мазкур соҳада энг самарали ҳужжат БМТ Бош Ассамблеяси томонидан 2000 йил 15 ноябрдаги 55/25 – резолюцияси билан қабул қилинган БМТнинг трансмиллий уюшган жиноятчиликка қарши конвенцияси (Ўзбекистон парламенти томонидан 2003 йилда ратификация қилинган) ва Инсонлар, айниқса аёллар ва болалар савдосининг олдини олиш ҳамда унинг учун жазолаш ҳақидаги протокол бўлди.

Халқаро ҳуқуқ меъёрларига мувофиқ, инсонлар савдоси соҳасидаги жиноятлар сифатида қуйидагилар эътироф этилади:

1. Болаларни улардан бепул ишчи кучи сифатида фойдаланиш мақсадида ўғирлаш ва сотиш, уларни ўз исми ва асосий инсон ҳуқуқларидан маҳрум қилиш. Ота-оналар ёки васийлар томонидан мукофот эвазига ўз болаларини давлатманд шахсларга хизматга берилиши.

2. Аёлларни мукофот эвазига, рад этиш ҳукукини бермай, эрга бериш орқали уй қуллигига маҳкум этиш, шундай шартларда турмушга чиққан аёлларни бошқа шахсларга ёки мерос қилиб бериш.

3. Қарздорнинг меҳнати кўринишидаги, қарзнинг камайишига ҳисобланмайдиган ва ишнинг давомийлиги ҳамда характери чегараланмаган қарз тутқунлиги.

4. Ердан фойдаланувчининг крепостнойлик ҳолати, бунда фойдаланувчи қонун, олат ёки келишув бўйича бошқа шахсга тегишли ерда яшаши ва ишлаши, муайян ишни ушбу шахс учун мукофот эвазига ёки мукофотсиз бажариши шарт ва ўз аҳволини ўзгартира олмайди (1-модда). Дехқоннинг крепостной ҳолати миллий қонунчилик билан оқланиши мумкин эмас.

5. Миллий қонунчилик билан белгиланувчи мажбурий меҳнат. Бундай меҳнат фақат суд ҳукми билан, ижтимоий мақсадларда табиий офатларни, авариялар, ҳалокатларни бартараф қилишда, шунингдек, ҳарбий хизматда амалга ошиши мумкин. Бу ҳақда яна Фуқаролик ва сиёсий ҳуқуқлар ҳақидаги халқаро пакт (1966 й.)нинг 8-моддасида ҳам мустаҳкамланган. Бироқ ХМТнинг №29-сонли “Мажбурий ёки ғайрихатиёрий меҳнат ҳақида”ги конвенциясида суд ҳукмига кўра қаторга меҳнати ҳам тақиқланган.

5-модда

Ҳеч ким қийноққа ёки шафқатсиз, ғайриинсоний ёки кадр-қимматни хўрловчи муомала ва жазога дучор этилмаслиги керак.

Инсоннинг қийноқдан ва бошқа шафқатсиз, ғайриинсоний ёки кадр-қимматни хўрловчи муомала ёки жазодан ҳимояланиш ҳуқуқи биринчи бор Инсон ҳуқуқлари умумжаҳон декларациясида белгилаб берилди. 1975 йилда Барча шахсларни қийноқдан ва бошқа шафқатсиз, ғайриинсоний ёки кадр-қимматни хўрловчи муомала ёки жазодан ҳимоя қилиш декларацияси қабул қилинди.

Фуқаролик ва сиёсий ҳуқуқлар тўғрисидаги халқаро пактнинг 7-моддаси бу соҳадаги қонуний назорат кўламини бир қанча кенгайтиради: “Ҳеч ким қийноққа ва бошқа шафқатсиз, ғайриинсоний ёки кадр-қимматни хўрловчи муомала ёки жазога тортилиши мумкин эмас. Жумладан, ҳеч бир шахсда унинг эркин розилигисиз тиббий ёки илмий тажрибалар ўтказиш мумкин эмас”.

Қийноқ ҳамда муомала ва жазолашнинг қаттиқ шафқатсиз, инсонийликка зид ёки кадр-қимматни камситувчи турларига қарши конвенция (1984 й.) қийноқларнинг олдини олишга қаратилган махсус ҳужжат саналади. Конвенция БМТ нинг конвенциявий ҳужжатларидан бири бўлиб, 1984 йил 10 декабрда имзоланган (БМТ БАнинг 39/46-резолүцияси). 2004 йил бошига келиб конвенцияни 120 дан ортиқ давлат имзолади ёки ратификация қилди. Ўзбекистон Республикаси Парламенти Конвенцияни 1995 йил 31 августда ратификация қилган эди.

Конвенциянинг 1-моддасида “қийноқ” тушунчасига шундай таъриф берилади: “... бирор шахсга, ундан ёки учинчи шахсдан кўрсатма олиш ёки иқроор қилдириш мақсадида, у ёки учинчи шахс содир этган ёки содир этишликда гумон қилинаётган ҳаракат жазолаш, шунингдек, уни ёки учинчи шахсни кўрқитиш ёки мажбурлаш ёхуд барча кўринишдаги камситишга асосланган исталган сабабга кўра қасдан жисмоний ёки маънавий қаттиқ оғриқ ёки азоб берувчи ҳар қандай ҳаракат бўлиб, бунда оғриқ ва азоб давлат мансабдор шахси ёки расмий мавқеига эга шахс томонидан ёки уларнинг кўрсатмаларига биноан ёхуд улар хабардор бўлган икки сўзсиз розиликлари остида амалга оширилади”

Конвенциянинг 2-моддаси давлатлар зиммасига қийноқларнинг олдини олишга қаратилган самарали чоралар кўришни юклайди. Конвенция белгилайдики, “уруш ҳолати ва уруш таҳдиди, ички сиёсий беқарорлик ёки исталган бошқа фавқулодда ҳолат қийноқларни оқлай олмайди”

Бир қатор универсал ҳужжатлардан ташқари, ушбу ҳуқуқни таъминловчи минтақавий ҳужжатлар тўплами ҳам анча салмоқлидир. Инсон ҳуқуқларига оид барча минтақавий ҳужжатлар ҳам қийноқларни тақиқловчи меъёрларга эга. Инсон ҳуқуқларини ва асосий эркинликларини ҳимоя қилиш Европа конвенцияси (1950 й.) 3-моддаси, Инсон ҳуқуқлари ва асосий эркинликлари ҳақидаги Мустақил Давлатлар Ҳамдўстлиги конвенцияси (1995 й.) 3-моддаси, Инсон ва халқлар ҳуқуқлари ҳақидаги Африка хартияси (1981 й.) 5-моддаси, Индивидлар ва халқларнинг инсон ҳуқуқлари Осиё-Тинч океани декларацияси (1988 й.) 3-моддаси. Бундан ташқари, қийноқларни тақиқловчи меъёрлар тизимига Қийноқлар ва бошқа шафқатсиз, ғайриинсоний ёки кадр-қимматни хўрловчи муомала ёки жазолар олдини олиш Европа конвенцияси (1986 й.), Европа Кенгаши томонидан қабул қилинган Европа қамоқ қоидалари (1987 й.), ЕХХТ

Вена учрашувининг (1989 й.), ЕХХТ инсоний мезонлар бўйича конференцияси Копенгаген йиғилиши (1990 й.) якуний ҳужжатлари ва бошқалар киради.

Ўзбекистон Республикасида қийноқдан ва бошқа шафқатсиз, ғайринсоний ёки кадр-қимматни ҳўрловчи муомала ёки жазодан ҳимояланиш ҳуқуқи Ўзбекистон Республикаси Конституциясида, Жиноят, Жиноят-процессуал ва Жиноят-ижроия кодексларида белгилаб қўйилган. Конституциянинг 2-бўлими, 26-моддасига кўра: “Ҳеч ким қийноққа солиниши, зўравонликка шафқатсиз ёки инсон кадр-қимматини камситувчи бошқа тарздаги тазйикка дучор этилиши мумкин эмас”

Ўзбекистон Республикаси Жиноят-процессуал кодексининг 17-моддаси 2-қисмида: “Ҳеч ким қийноққа солиниши, зўравонликка, шафқатсиз ёки инсон шаъни ва кадр-қимматини камситувчи бошқа тарздаги тазйикка дучор этилиши мумкин эмас”, деб белгилаб қўйилган. Жиноят-ижроия кодексининг бу борадаги меъёрлари ҳам шу мазмундадир.

Авалроқ қайд этиб ўтилганидек, Жиноят ва Жиноят-процессуал кодексларидан ташқари, Ўзбекистон Республикаси Жиноят-ижроия кодекси ҳам миллий қонунчилик тизимида алоҳида ўрин эгаллайди. Унда жинойий ишлар содир этган шахсларнинг жазони ўташларига оид асосий тамойиллар ва меъёрлар белгилаб берилган.

Ўзбекистон жиноят-ижроия қонунчилиги тамойиллари халқаро меъёрлар талабларига мувофиқ ишлаб чиқилган. Жумладан, Фуқаролик ва сиёсий ҳуқуқлар ҳақидаги халқаро пактга кўра, “озодликдан маҳрум этилган барча шахслар инсоний муомалага ва инсон шахсиятига хос кадр-қимматлари ҳурмат қилиниши ҳуқуқига эгадирлар”. ЖИК 6-моддаси ушбу меъёрни тўлиқ такрорлайди. Ушбу меъёр Ўзбекистон жиноят-ижроия қонунчилигининг инсонпарварлик тамойилини акс эттиради. Кодексда жиноят-ижроия қонунчилигининг бошқа тамойиллари ҳам бегилаб қўйилган: қонунийлик, демократизм, маҳкумларнинг қонун олдида тенглиги, жазоларни ижро этишнинг турли хиллиги ва индивидуаллашганлиги, мажбурлаш чораларининг, судланганларни тўғри йўлга солиш воситаларининг ва қонунга бўйсунуш хатти-ҳаракатларини рағбатлантириш воситаларининг оқилона қўлланилиши, жазонинг ахлоқ тузатиш таъсири билан уйғунлаштириш каби.

Ўзбекистонда амалга оширилаётган демократик ўзгаришларнинг янги босқичи шароитида амалдаги қонунчилик меъёрлари

кийноқлардан ҳимоя қилишга оид инсон ҳуқуқларини таъминлаш соҳасидаги асосий стандартлар меъёрлари билан бойитиб борилди. Чунончи, ЖК, ЖПК меъёрларига 2003 йил 29 августда киритилган ўзгартишлар ва қўшимчалар натижасида ЖКнинг 235-моддаси диспозициясига “қийноқ” тушунчаси киритилди.

6-модда

Ҳар бир инсон қаерда бўлишидан қатъи назар, ўзининг ҳуқуқли субъект сифатида тан олиншига ҳақли.

Ҳуқуқ субъекти сифатида тан олинши ҳуқуқи инсон ҳуқуқларига оид халқаро стандартлардан бири бўлиб, Инсон ҳуқуқлари умумжаҳон декларацияси (1948 й.)нинг 12-моддасида, Фукаролик ва сиёсий ҳуқуқлар тўғрисидаги халқаро пактнинг 17-моддасида белгилаб қўйилган. Уларга кўра, ҳеч кимнинг шахсий ва оилавий ҳаётига ўзбошимчалик билан аралашувга йўл қўйилмайди ва ҳар бир киши бу каби аралашувдан қонун билан ҳимояланиш ҳуқуқига эга.

Ҳуқуқ субъекти сифатида тан олинши субъектив ҳуқуқи ўз тузилишига кўра икки ўзаро боғлиқ қонуний ҳуқуқлилиқ гуруҳини қамраб олади. Биринчиси шахсий ҳаёт дахлсизлигини таъминлаш бўлса, иккинчиси унинг сирлари дахлсизлигини таъминлашдир. Биринчи гуруҳ ҳуқуқлар турар жой дахлсизлиги, шахсий ҳужжатлар дахлсизлиги, ташқи кўриниш дахлсизлиги ва бошқаларни қамраб олади. Иккинчи гуруҳ эса, инсон шахсий ҳаётининг турли кўринишларига оид сирлар билан боғлиқ.

Замонавий юридик адабиётларда, амалдаги қонунчиликда бўлгани каби, шахсий ҳаёт эркинлиги, дахлсизлик ҳуқуқи хусусида ягона тушунча мавжуд эмас, шунингдек, шахсий ҳаёт тушунчасининг аниқ таърифи ҳам мавжуд эмас. Инсон ҳуқуқлари соҳасида бир гуруҳ мутахассислар шахсий ҳаёт дахлсизлиги ҳуқуқи бевосита фикрлаш, виждон ва дин эркинлиги, ўз фикрини ифодалаш эркинлиги, йиғилиш ва уюшмалар ташкил этиш эркинлиги, озодлик ҳуқуқи, адолатли ҳал этиш ва оила қуриш ҳуқуқлари билан боғлиқ, деган фикрдан келиб чиқадилар. Бунда улар таҳлил қилишда Инсон ҳуқуқлари ва асосий эркинликларини ҳимоя қилиш ҳақидаги Европа конвенциясининг 8-ва 12-моддаларини: шахсий ва оилавий ҳаётни, турар жой ва хат-хабарларни ҳурмат қилиш ҳуқуқи ва никоҳдан ўтиш ҳамда оила қуриш ҳуқуқини умумлаштирадилар.

Ҳуқуқ субъекти сифатида тан олиниш ҳуқуқи хусусий мулк ҳуқуқи ёки муаллифлик ҳуқуқи каби мураккаб таркибга эга ҳуқуқий институт бўлиб, индивиднинг алоҳида қонуний ҳуқуқларидан таркиб топади. Бу қонуний ҳуқуқлар рўйхати қонунлар ва халқаро ҳуқуқий ҳужжатларда белгилаб қўйилган, лекин бу борадаги ижтимоий алоқаларнинг мунтазам ривожланиши натижасида улар тўлиқ эмас.

Ҳуқуқ субъекти сифатида тан олиниш ҳуқуқи мазмуни индивиднинг ўз шахсий озодлигини татбиқ қилиш жараёнида унинг шахсий ҳаётига аралашувнинг рухсат берилган чегарасини белгилаш орқали аниқланади.

Ҳуқуқ субъекти сифатида тан олиш тизими Европада энг кенг ривожланган, у ерда ушбу ҳуқуқ бир қатор минтақавий ҳужжатлар билан таъминланган бўлиб, уларнинг энг аҳамиятлилари Инсон ҳуқуқлари ва асосий эркинликларини муҳофаза қилиш тўғрисидаги Европа конвенцияси (21-модда, 3-банд, 1950 й. 4 ноябрда қабул қилинган, 1953 й. 3 сентябрда қучга кирган), 1981 йил 28 январдаги Шахсий маълумотларнинг автоматлаштирилган тарзда қайта ишланишида шахс ҳимояси тўғрисидаги Европа конвенцияси, Европа парламенти ва Европа Иттифоқи Кенгашининг 1995 йил 24 октябрдаги Хусусий шахсларнинг шахсий маълумотларни қайта ишлашга нисбатан ҳуқуқларини ҳимоя қилиш ва бу маълумотларнинг эркин айланиши тўғрисидаги 95/46/ЕС; 1997 й. 15 декабрдаги Шахсий маълумотларни қайта ишлаш ва телекоммуникация тармоғида махфийликни ҳимоялаш тўғрисидаги 97/66/ЕС директивалари ва бошқалардир.

Инсон ҳуқуқлари ва асосий эркинликлари муҳофазаси тўғрисидаги Европа конвенциясида (8-модда) кўрсатилдики, “ҳар бир инсон ўз шахсий ва оилавий ҳаётининг ҳурмат қилиниши, ўз турар жойи дахлсизлиги ва хат-хабарлари махфийлиги ҳуқуқига эга.

Давлат органларининг ушбу ҳуқуқнинг амалга оширилишига аралашшига йўл қўйилмайди, қонунда белгиланган ҳолатлар бундан мустасно” Ушбу қоидалар Ўзбекистон Конституциясида мустаҳкамлаб қўйилган: “Ҳар ким эркинлик ва шахсий дахлсизлик ҳуқуқига эга” (25-модда).

“Ҳар ким ўз шаъни ва обрўсига қилинган тажовузлардан, шахсий ҳаётига аралашидан ҳимояланиш ва турар жойи дахлсизлиги ҳуқуқига эга.

Ҳеч ким қонун назарда тутган ҳоллардан ва тартибдан ташқари бировнинг турар жойига кириши, тинтув ўтказиши ёки уни қўздан

кечириши, ёзишмалар ва телефонда сўзлашувлар сирини ошкор қилиши мумкин эмас” (27-модда).

Шу тариқа, ҳуқуқ объекти сифатида бу ерда ҳар бир фуқаро шахсий ҳаётининг дахлсизлиги, шунингдек, унинг шахсий эркинлигини татбиқ қилиш юзага чиқмоқдаки, бу ўз ичига қуйидагиларни олади:

ўзини ўзи бошқариш эркинлиги (жумладан, ўзгалар назоратсиз қолиш) ҳуқуқи;

шахсий ҳаёт сирини (жумладан: шахсий сир, оилавий сир, ёзишмалар, телефондаги мулоқот, почта, телеграф ва бошқа хабарлар махфийлиги) ҳуқуқи;

шахсиятни ҳимоя қилиш (жумладан: ўз номини ҳимоя қилиш; ўз шаъни, кадр-қиммати ва обрўсини ҳимоя қилиш; миллий мансублигини ҳимоя қилиш; она тилидан фойдаланиш ва мулоқот, тарбия, таълим ва ижод тилини эркин танлаш ҳуқуқини ҳимоя қилиш) ҳуқуқи;

турар жойни ҳимоя қилиш ҳуқуқи (турар жой дахлсизлиги); яширин овоз бериш ҳуқуқи.

Яширин овоз бериш ҳуқуқи бу ерда фуқаронинг шахсий эркинлигининг бир қисми- овоз бериш эркинлигини татбиқ қилишнинг зарур шартини бўлмоқда.

Ҳуқуқ субъектликнинг субъектига қуйидагилар кирди:

ёши, фуқаролиги ва ишга лаёқатидан қатъи назар жисмоний шахслар;

конуний ворислар, жумладан, меросхўрлар – вафот этган ҳуқуқ эгасининг шахсий ҳаёти дахлсизлиги ҳуқуқи ўтган жисмоний ва юридик шахслар.

Ҳуқуқ субъекти сифатида тан олинган ҳуқуқи инсоннинг табиий ҳуқуқлари сирасига кириб, унинг асосий конституциявий ҳуқуқларидан бири ҳисобланади, инсонга у туғилгандан тегишли бўлади, ажралмайди ва бошқа йўллар орқали ўтмайди. Табиий ҳуқуқлар концепцияси биринчи бор Англия парламенти томонидан 1689 йилдаги Ҳуқуқлар ҳақидаги Биллда акс эттирилган, кейин 100 йил ўтгач, АҚШ Конституциясида Ҳуқуқлар ҳақидаги Биллда белгиланган.

Ҳуқуқ субъекти сифатида тан олинган ҳуқуқини конуний ҳимояси аввало конституциявий кафолатлар бериш орқали амалга оширилади: ўзбошимчалик билан ҳар кимнинг шахсий ҳаётига аралашувга конституциявий тақиқ (23,27-моддалар); давлат

органлари ва маҳаллий ўзини ўзи бошқариш органлари, уларнинг мансабдор шахсларнинг ҳар кимни унинг ҳуқуқ ва эркинликларига дахлдор ҳужжатлар ва материаллар билан танишиш имкониятини яратиб бериш конституциявий мажбуриятини юклаш, агар қонунда бошқа ҳолат кўзда тутилган бўлмаса (30-модда);

Бу каби ҳуқуқни чеклашнинг конституциявий асослари конституциявий тузум асосларини ҳимоя қилиш, ахлоқ қоидаларини, бошқа шахсларнинг саломатлиги, ҳуқуқлари ва қонуний манфаатларини ҳимоя қилиш, мамлакат мудофаасини, давлат хавфсизлигини таъминлаш ёки фавқулодда ҳолатлар бўлиши мумкин.

Фуқароларнинг **ҳуқуқ субъектлигини таъминловчи** ҳуқуқлар қаторида мурожаат қилиш, яъни петиция ҳуқуқини ҳам кўрсатиб ўтиш керак. Давлат органлари ва маҳаллий ўзини ўзи бошқариш органларига фуқароларнинг петициялари бузилган ҳуқуқларини тиклаш усулигина эмас, балки оммавий ишларни ҳал этишда сиёсий қатнашув шакли ҳамдир. Ушбу ҳуқуқнинг татбиқ қилиниши давлат ва жамоатчилик характеридаги масалаларни ҳал этишда фуқароларнинг шахсий ташаббуси ва шахсий қизиқишининг ривожланишини назарда тутади. Қоидага кўра, ёзма мурожаатларнинг берилиши ва кўрилиши, шунингдек, улар бўйича қарорлар қабул қилиниши тартибини қонун белгилайди.

Ушбу ҳуқуқнинг моҳияти фуқароларнинг ваколатли давлат органларига индивидуал ва жамоавий мурожаатлар йўллаш имкониятида намоён бўлади. Шикоят шаклидаги мурожаатлар, кўп ҳолларда фуқаронинг ҳокимият вакилларининг ноқонуний ҳаракати (ёки ҳаракатсизлиги) натижасида юзага келган субъектив ҳуқуқининг бузилишини бартараф этиш талабини ўзида акс эттиради. Шу сабабли таҳлил қилинаётган ҳуқуққа мансабдор шахсларнинг белгиланган тартибда ва белгиланган муддатларда улар бўйича асосли ва қонуний қарорлар қабул қилиш мажбурияти мувофиқ келади. Шикоятдан фарқли ўлароқ, таклиф ёки аризанинг предмети жамоатчилик қизиқиши, давлат органлари томонидан у ёки бу сиёсий ёки бошқа ҳодисани баҳолаш талаби ҳам бўлиши мумкин.

Конституциянинг 30-моддасига мувофиқ: “Ўзбекистон Республикасининг барча давлат органлари, жамоат бирлашмалари ва мансабдор шахслари фуқароларга уларнинг ҳуқуқ ва манфаатларига дахлдор бўлган ҳужжатлар, қарорлар ва бошқа материаллар билан танишиб чиқиш имкониятини яратиб бериши лозим”

Барча одамлар қонун олдида тенгдир ва ҳеч бир тафовутсиз қонун билан тенг ҳимоя қилиниш ҳуқуқига эгадир. Барча одамлар ушбу Декларацияга зид бўлган ҳар қандай камситишдан ва шундай камситишга ундайдиган ҳар қандай гиж-гижлашдан тенг ҳимоя қилиниш ҳуқуқига эгадир.

Камситиш ҳодисаси давлатлар пайдо бўлгандан бошлаб инсоният тарихининг барча ривожланиш босқичларида мавжуд бўлган. Камситиш (дискриминация – лот. Discriminatio - фарқлаш) - муайян фуқаролар тоифасини ирқий ёки миллий мансублиги, жинси, диний ва сиёсий қарашлар ва ҳ.к. бўйича ҳуқуқларини чеклаш ёки маҳрум қилиш.

Аммо XX асрнинг ўрталарига келибгина халқаро-ҳуқуқий тизим доирасида шахсни камситмаслик тамойили мустақамланди, у камситишни тақиқлади ва инсоният жамиятининг ҳар бир аъзосига баробар ҳуқуқ ва эркинликни кафолатлашни мақсад қилди. Камситишни халқаро миқёсда тақиқлаш миллий-ҳуқуқий тизимлар доирасида тегишли меъёрларнинг юзага келишига кучли туртки бўлди. Нисбатан қисқа муддат ичида камситишга қарши курашга оид кўплаб халқаро ва миллий меъёрий ҳуқуқий ҳужжатлар пайдо бўлди. Камситишга қарши кураш соҳасидаги халқаро ҳамжамият ва алоҳида давлатлар саъй-ҳаракатлари туфайли сезиларли муваффақиятларга эришилди, улар туфайли кўпгина тоифадаги инсонлар ҳуқуқ ва эркинликларга эга бўлдилар.

Шу билан бирга, кенг кўламдаги меъёрий ҳуқуқий база мавжудлигига қарамай, камситиш замонавий дунёнинг энг мураккаб, глобал характердаги, жаҳоннинг барча мамлакатларида мавжуд ва аҳолининг кенг қатламларига дахл қилувчи муаммоларидан бири бўлиб қолмоқда. У қуролли низолар ва халқаро беқарорлик келиб чиқишининг асосий сабабларидан биридир. Глобализациянинг оммавий миграция, терроризм, баъзи давлатлар ва йирик корпорацияларнинг максимал фойда чикариб олишга интилишлари ҳамроҳлик қилаётган янги шароитларида жамиятда кутбланиш, тенгсизлик кучаймоқда. Аввалгидек тенгсиз муносабатнинг қурбонлари аёллар, ногиронлар, маҳаллий халқлар, ишчи-мигрантлар, камсонли миллатлар ва бошқа гуруҳдаги инсонлар бўлиб қолмоқдалар. Ахборот-коммуникация технологияларининг ривожланиши жамиятда мурасизлик кайфиятининг тез ёйилишига сабаб бўлмоқда. Илмий тараққиётнинг ютуқлари камситиш учун асос

бўладиган янги белгилар, масалан, генетик меросхўрлик кабиларни юзага келтирмоқда.

Камситишнинг мавжудлиги камситишга қарши курашишга йўналтирилган халқаро-ҳуқуқий ҳужжатларнинг етарлича ишланмаганлиги ва самарасизлигидан далолат беради. Камситишнинг кўп кирраларда намоён бўлиши алоҳида тоифадаги инсонларни, жумладан маҳаллий халқларни, ногиронларни, наслига кўра камситиладиган шахсларни ҳимоя қилишга қаратилган янги халқаро шартномалар қабул қилишни талаб этади. Айни вақтда, халқаро шартнома органлар ва судлар томонидан камситмаслик тамойилининг қўлланиши тажрибаси камситмаслик тамойили мазмунини кенгайтириш лозимлигини кўрсатмоқда. Татбиқ этиш учун муомалада йўл қўйилмайдиган камситишлардан тийилишнинг ўзи кифоя қилмайди, тамойил давлатлар томонидан инсонларнинг ҳимоя қилинмаган қатламларини муҳофаза қилиш бўйича фаол чоратadbирлар қабул қилишни талаб этади. Камситмаслик тамойили аниқлаштирилишга, мазмунидаги мавҳумликни бартараф этишга муҳтож. Халқаро ҳуқуқнинг камситишга қарши кураш соҳасидаги катта салоҳиятини юзага чиқариш керак, зеро бутун инсониятнинг тинчлиги ва фаровонлиги кўп ҳолларда унинг татбиқ этилишига боғлиқдир.

8-модда

Ҳар бир инсон унга конституция ёки қонун орқали берилган асосий ҳуқуқлари бузилган ҳолларда нуфузли миллий судлар томонидан бу ҳуқуқларнинг самарали тикланиши ҳуқуқига эга.

Конституция ёки қонун орқали берилган асосий ҳуқуқлар бузилган ҳолларда нуфузли миллий судлар томонидан бу ҳуқуқларнинг самарали тикланиши ҳуқуқи шахс шаъни ва қадр-қимматининг самарали ҳимояси орқали таъминланади. Инсоннинг бу хусусиятлари ҳурмат қилиниш ҳуқуқи ва ўзгаларни ҳурмат қилиш мажбурияти билан тенг даражада қадрлидир. У ўз эркинлиги, тенглиги ва ҳимояланганлигини ҳис этадиган шахснинг ривожланиши билан эришилади. Қадр-қиммат инсонни таъсир кўрсатиш объектидан ҳуқуқий давлатнинг фаол субъектига айлантиради. Бу давлат инсонга ўзини баҳолаш, “ўз йўлини белгилаш” ва ўзи танлаган ҳаётий қадриятларни ҳимоя қилиш ҳуқуқини беради.

Қадр-қиммат инсон ҳуқуқларида намоён бўлади, уларни ҳимоя қилиш давлатнинг вазифасидир. Шу боис кенг маънода олиб қараганда, давлатнинг мақсади инсон қадр-қимматини асрашдан иборат, дейиш мумкин. Шу тариқа, “давлат халққа хизмат қилиши керак”, дейилганда биринчи навбатда давлат ҳар бир инсоннинг қадр-қиммати ҳимояланишини таъминлаши лозимлиги англашилади. “Инсон қадр-қиммати” тушунчасини инсоннинг бутун ҳаёти учун – туғилгандан то вафот этгунига қадар қўллаш мумкин. Аммо баъзи ҳолларда бу конституциявий тамойил зикр этилган ҳодисалардан кейин ҳам амалда бўлади. Мисол тариқасида марҳумнинг шахсий қадр-қимматини ҳимоя қилишни ва она қорнидаги ҳомиланинг ҳуқуқлари ҳақидаги баҳсларни келтириш мумкин.

Қадр-қимматни ҳимоя қилишнинг мақсадлари сифатида Конституциянинг кўплаб меъёрлари қатнашиши мумкин: муносиб ҳаёт ҳуқуқи, шахсий ҳаёт дахлсизлиги, инсоннинг ўз шаъни ва яхши номини ҳимоя қилиши, шахсий ҳаёт ҳақидаги ахборот йиғишнинг тақиқланиши, турар жойга куч ишлатиб кириб олишнинг тақиқланиши ва б.

Кўплаб жиноят ҳуқуқи ва жиноят процессуал меъёрлари инсон қадр-қимматига нисбатан ғамхўрлик билан суғорилган. Чунончи, Жиноят кодексида тухмат ва таҳқирлаш каби жиноят таркиблари кўзда тутилган. Жиноят-процессуал кодекси терговчидан тинтув ўтказилаётганда шахснинг интим ҳаётининг маълум бўлган ҳолатлари ошқор бўлмаслиги чора-тадбирларини кўриш, шахсий тинтув эса, тинтилаётган шахс билан бир жинсдаги одам томонидан, ўша жинсдаги гувоҳлар иштирокида ўтказилиши талаб этилади. Муносиб муомала ҳуқуқидан нафақат айбланувчилар, балки қамокда жазо муддатини ўтаётган маҳкумлар ҳам фойдаланадилар. Бундай меъёрлар кўп бўлиб, улар ҳуқуқнинг бошқа тармоқларида ҳам мавжуд. Улар инсон қадр-қимматини ҳимоя қилиш конституциявий ҳуқуқнинг аниқ татбиқини намоён этади.

Фуқаролик кодексида белгилаб қўйилган фуқаролик-ҳуқуқий кафолатлар алоҳида аҳамиятга эга. Бу ерда ҳаёт, саломатлик, қадр-қиммат, шахсий дахлсизлик, шаън ва яхши ном, ишчанлик обрўси, шахсий ҳаётнинг дахлсизлиги, шахсий ва оилавий сир, исм ва муаллифлик ҳуқуқи ва бошқа конституциявий шахсий ҳуқуқлар ва эркинликлар номоддий бойликлар сифатида таснифланади. Вафот этган кишига мансуб бўлган номулкий ҳуқуқлар ва бойликлар бошқа

кишилар томонидан, жумладан, ҳуқук эгасининг меросхўрлари томонидан амалга оширилиши ва ҳимоя қилиниши мумкин.

Агар фуқарога унинг шахсий ҳуқуқларини бузувчи ҳаракатлар орқали маънавий зарар (жисмоний ёки ахлоқий азобланиш) етказилган бўлса, у бузғунчининг зиммасига етказилган зарарнинг пул кўринишидаги компенсациясини тўлашни юклаш ҳуқуқига эга. Шаън, кадр-қиммат, ишчанлик обрўсини ҳимоя қилиш мақсадида фуқаро судга мурожаат қилиш ҳуқуқига эга, қолаверса, фуқаронинг ўлиmidан кейин ҳам шаъни ва кадр-қимматини ҳимоялаш кўзда тутилади. Фуқаронинг шаъни, кадр-қиммати ёки ишчанлик обрўсини бадном қилувчи маълумотларнинг тарқалишига оид талабларини қондириш тартиби Қонун билан белгиланган.

Аслида, бу шахсий ҳаёт ҳуқуқининг узвий қисми бўлиб, шахсий эркинлик ва инсон қадриятининг ажралмас унсури ҳамдир. Ҳеч ким турар жойга унда яшовчи шахсларнинг хоҳишига қарши ўлароқ кириш ҳуқуқига эга эмас, қонунда кўрсатилган ҳолларда ёки суд қарори асосида амалга ошириш бундан мустасно.

Конституциянинг 27-моддасига мувофиқ: “Ҳар ким ўз шаъни ва обрўсига қилинган тажовузлардан, шахсий ҳаётига аралаштидан ҳимояланиш ва турар жойи дахлсизлиги ҳуқуқига эга.

Ҳеч ким қонун назарда тутган ҳоллардан ва тартибдан ташқари бировнинг турар жойига кириши, тинтув ўтказиши ёки уни кўздан кечириши, ёзишмалар ва телефонда сўзлашувлар сирини ошкор қилиши мумкин эмас”.

Турар жойни кўриклаш ҳуқуқига унинг эгалари, қонуний ижарачилари ёки ижара шартномаси асосида унда яшовчилар эгадирлар. Бунда турар жой деб вақтинчалик истиқомат жойи (меҳмонхона, интернат, ётоқхона, пансионат) ҳам эътироф этилади. Дахлсизлик шахсий буюм ва ҳужжатларга ҳам татбиқ этилади, бу эса ноқонуний тинтув ва ҳужжатларни олиб қўйишга йўл бермайди. Аммо турар жойга бунга ҳуқуқи бор шахслар кўчиб кириши мумкин, бундай ҳаракатлар, ҳатто бошқа яшовчилар норози бўлган ҳолда ҳам, унинг дахлсизлигини бузиш ҳисобланмайди.

Ҳуқуқни муҳофаза қилиш органлари томонидан ноқонуний бостириб кириш ва тинтув ўтказишга қарши кафолат – бу турар жой дахлсизлигининг асосий мазмунидир, зеро бошқа барча ҳолатлар (алоҳида шахслар томонидан амалга оширилган) – аслида – одатий жиноятлардир (ўғрилиқ, босқинчилик ва б.). ноқонуний бостириб киришдан жабрланганлар зарарни тўлаш ва айбдор мансабдор

шахсларни жазолаш талаби билан судга муурожаат қилиш ҳуқуқига эгадирлар. Турар жой дахлсизлигини бузиш жиноят саналади.

9-модда

Ҳеч ким асоссиз қамалиши, ушланиши ёки қувғин қилиниши мумкин эмас.

Инсон ҳуқуқлари умумий назариясининг шаклланиши жараёнида **асоссиз қамалиш, ушланиш ёки қувғин қилинишдан ҳимоя ҳуқуқи** бир қатор халқаро-ҳуқуқий ҳужжатларда мустаҳкамланган бўлиб, улар орасида қуйидагилар алоҳида ўрин тутди: Мансабдор шахсларнинг ҳуқуқий тартибни сақлаб туриш бўйича хатти-ҳаракатлари кодекси (1979 й.), Мансабдор шахсларнинг ҳуқуқий тартибни сақлаб туриш бўйича хатти-ҳаракатлари кодексини самарали амалга ошириш учун раҳбарий тамойиллар (1985 й.) ва Суд органлари мустақиллигига тааллуқли асосий тамойилларни самарали амалга ошириш тадбирлари (1990 й.).

Чунончи, судлар мустақиллигини таъминловчи бешинчи тамойил сифатида Суд органлари мустақиллигига тааллуқли асосий тамойиллар (1985 й.)да белгиланганки: “Ҳар бир инсон белгиланган юридик тартибларни қўлловчи оддий суд ёки трибуналларда иши кўрилиши ҳуқуқига эга”

Асоссиз қамалиш, ушланиш ёки қувғин қилинишдан ҳимоя ҳуқуқи яна бир қатор инсон ҳуқуқлари ҳақидаги минтақавий ҳужжатларда ҳам ўз аксини топди. Масалан, Инсон ҳуқуқлари ва асосий эркинликларини ҳимоя қилиш ҳақидаги Европа конвенцияси (1950 й.)нинг 6,7-моддаларида ва унга ёзилган 7-сонли протоколнинг 2, 4-моддаларида мазкур ҳуқуқнинг батафсил таърифи берилган.

Одил судлов ҳуқуқининг асосий таркибий қисмлари қуйидаги тамойиллардир: одил судловни фақат суд амалга оширилиши, шахс шаъни ва кадр-қимматини ҳурмат қилиш, суд ҳокимиятининг мустақиллиги, одил судловнинг қонун ва суд олдида барчанинг баробарлиги тамойили асосида амалга оширилиши, одил судловнинг томонларнинг тортишувга қобилиятли эканлиги асосида амалга оширилиши, суд жараёнининг очиқлиги, суд жараёни тилини танлашнинг эркинлиги, процессуал ҳаракатлар ва қарорлардан шикоят қилиш эркинлиги.

Одил судловнинг фақат суд томонидан амалга оширилиши тамойили ҳокимиятнинг уч турга бўлиниши ва улардан бири суд

ҳокимияти эканлиги хусусидаги конституциявий ҳолатга бориб тақалади. Суд ҳокимиятининг вазифаси инсон ва фуқароларнинг ҳуқуқлари, эркинлиги ва қонуний манфаатларини ҳимоя қилишдир. У фуқаролик ва жиноят ишларига оид суд орқали қонун асосида амалга оширилади.

Шу тариқа, суд ҳокимиятининг вазифаси одил судловни амалга ошириш ҳисобланади. Суд томонидан одил судловнинг амалга оширилиши суднинг ўзига хос мавқеини назарда тутди – у одил судловни амалга оширувчи ягона орган саналади. Бошқа ҳеч қандай орган суд ҳокимияти каби функцияларга эга эмас.

Шуни қайд этиш лозимки, кўпгина демократик давлатларнинг конституциявий тажрибасида инсон ҳуқуқлари ва эркинликларини суд томонидан ҳимояланиши тамойили демократик давлатнинг асосий тамойиллари сифатида эътироф этилган.

Конституция “ҳимоя қилиш учун барча шароитлар таъминлаб берилди” мутлақ тамойилини белгилаган ҳолда шахс кадр-қимматини ҳимоя қилади. 27-модданинг матнида бу тамойил инсоннинг қийноққа солиниши, зўравонликка шафқатсиз ёки инсон кадр-қимматини камситувчи бошқа тарздаги тазйикқа дучор-этилишини тақиқлаш билан тўлдирилади. Шунингдек, ҳеч кимда унинг розилигисиз тиббий, илмий ёки бошқа тажрибалар ўтказилиши мумкин эмас.

10-модда

Ҳар бир инсон ҳуқуқ ва бурчларининг белгилаш ва унга қўйилган жиноий айбнинг қанчалик даражада асосли эканлигини аниқлаши учун тўлиқ тенглик асосида унинг иши ошқора ва адолат талабларига риоя қилинган ҳолда мустақил ва ҳолис суд томонидан кўриб чиқилиши ҳуқуқига эга.

Инсоннинг одил судлов ҳуқуқи инсоннинг асосий шахсий ҳуқуқларидан бири бўлиб, шахсий ҳуқуқ ва эркинликларни белгиловчи барча халқаро-ҳуқуқий ҳужжатларда мустаҳкамлаб қўйилган.

Фуқаролик ва сиёсий ҳуқуқлар тўғрисидаги халқаро пакт (1-қисм, 14-модда) меъёрлари ҳуқуқий бошқарувга қуйидагича аниқлик киритади: “Барча шахслар судлар ва трибуналлар олдида баробардирлар. Ҳар ким унга қарши ҳар қандай жиноий иш кўрилаётганда ёки бирор фуқаролик процессида унинг ҳуқуқ ва

мажбуриятлари аниқланаётганда ишни конун асосида тузилган ваколатли, мустақил ва холис суд томонидан адолатли ва очик муҳокама қилиниши ҳуқуқига эга. Матбуот ва омма одоб-ахлоқ, жамоат тартиби ёки демократик жамиятда давлат хавфсизлиги юзасидан ёки бунди томонларнинг шахсий ҳаёти талаб қилганида ёхуд – суд мақбул деб топган даражада – ошкоралик одил судлов манфаатларини бузадиган ҳолатларда бутун суд муҳокамасига ёки унинг бирор қисмига қўйилмаслиги мумкин, лекин жиноий ёки фуқаролик ишлари бўйича ҳар қандай суд қарори очик бўлиши лозим, вояга етмаганлар манфаатлари бошқасини талаб қилувчи ёки уйланишга оид баҳсларга ёхуд болаларга васийлик қилишга оид ишлар бундан мустасно” Айнан мана шу халқаро-ҳуқуқий конвенциявий ҳужжат - Пактда биринчи бор, одил суд жараёнининг асосий тамойиллари келтирилди: адолат, қонунийлик, суд олдида фуқароларнинг тенглиги, ошкоралик, ваколатлилиқ, мустақиллик ва холислиқ.

Қайд этиш лозимки, кўпчилик демократик давлатлар конституциявий тажрибасида инсон ҳуқуқлари ва эркинликларини судлар томонидан ҳимояланиши тамойили демократик давлатнинг асосий тамойилларидан бири сифатида эътироф этилган. АҚШ, Германия, Франция, Италия, Испания, Греция ва бошқа давлатлар конституцияларида инсоннинг одил судлов ҳуқуқи мустаҳкамлаб қўйилган.

Миллий ҳуқуққа келадиган бўлсак, инсоннинг одил судлов ҳуқуқи конституциявий даражада (Ўзбекистон Республикаси Конституциясининг 26, 106, 3-қисм 107 ва 116-моддалари), кодекслар (Ўзбекистон Республикаси Жиноят-процессуал, Фуқаролик-процессуал кодекслари) даражасида ва тўғридан-тўғри таъсирга эга қонунлар (Янги таҳрирдаги “Судлар тўғрисида”ги Ўзбекистон Республикаси Қонуни) даражасида мустаҳкамланган.

Ўзбекистон қонунчилигида одил судлов ҳуқуқи ва айбсизлик презумпцияси Ўзбекистон Конституциясининг 26-моддасида келтирилган. Конституциянинг 26-моддаси 1-қисмида шундай дейилади: “Жиноят содир этганликда айбланаётган ҳар бир шахснинг иши судда қонуний тартибда, ошқора кўриб чиқилиб, унинг айби аниқланмагунча у айбдор ҳисобланмайди. Судда айбланаётган шахсга ўзини ҳимоя қилиш учун барча шароитлар таъминлаб берилади” Ушбу меъёр мазмунидан келиб чиқадики, ҳар бир инсон, ҳуқуқий муносабатлар субъекти сифатида, адолатли суд муҳокамаси

хукукига эга, агар аниқроқ айтадиган бўлсак, одил судлов хукукига эга.

2005 йилнинг 8 августида Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Қамоққа олишга санкция бериш хукукини судларга ўтказиш тўғрисида”ги Фармони имзоланди. Бу Фармон мамлакатда амалга оширилаётган кенг кўламли суд-хуқуқ ислохотларининг янги босқичга кўтарилганини кўрсатди. Мазкур кадам Ўзбекистоннинг ўз зиммасига олган халқаро-хуқуқий мажбуриятларини, хусусан, Фукаролик ва сиёсий хуқуқлар тўғрисидаги халқаро пактнинг 9-модда, 3, 4-банди талабларини оғишмай бажаришга содикликнинг амалий тасдиғи бўлди. Фармонга мувофиқ, “Қамоққа олишга санкция бериш хукукини судлар ваколатига ўтказиш босқичма-босқич, чуқур ўрганиб чиқиш ва жиноят, жиноят-процессуал ва жиноят-ижроия этиш қонунчиликларига ва Ўзбекистон Республикаси идоравий меъёрий актлари тизимига тегишли ўзгартиш ва кўшимчалар киритилганидан сўнг амалга оширилади”

11-модда

1. Жиноят содир этганликда айбланган ҳар бир инсон ҳимоя учун барча имкониятлар таъминланган ҳолда, очиқ суд мажлиси йўли билан унинг айби қонуний тартибда аниқланмагунча айбсиз деб ҳисобланишга ҳақлидир.

2. Ҳеч ким содир этилган вақтда миллий қонунлар ёки халқаро хуқуқларга кўра жиноят деб топилмаган хатти-ҳаракати ёки фаолиятсизлиги учун жазога ҳукм қилиниши мумкин эмас. Шунингдек, жиноят содир этилган вақтда қўлланиши мумкин бўлган жазога нисбатан оғирроқ жазо берилиши мумкин эмас.

Айбсизлик презумпцияси одил судловни амалга оширишга тааллуқли барча асосий ҳужжатларда мустаҳкамлаб қўйилган (Инсон хуқуқлари умумжаҳон декларацияси 11-модда, Фукаролик ва сиёсий хуқуқлар тўғрисидаги халқаро пакт 14-модда, 2-банд).

Айбсизлик презумпцияси тамойили ҳозирги замон демократик давлатларда одил судловни амалга оширишнинг асосий тамойилларидан ҳисобланади.

Айбсизлик презумпцияси хуқуқ учун қандайдир янгилик саналмайди. Айбсизлик презумпциясининг илк кўринишларини Рим хусусий хуқуқида кўришимиз мумкин (*presumption boni viri*). Унинг моҳиятига кўра, фукаролик-хуқуқий муносабатларнинг ҳар бир

иштирокчиси беайб саналган (bona fide) ва агар кимдир бунинг аксини даъво қилса, буни исботлаб бериши лозим бўлган. Ким даъво қилса, ўша исботлайди - ei insumbit probatio qui dicit (non quingat).

Биринчи бор жиноят-процессуал институти сифатида айбсизлик презумпцияси 1789 йилдаги Инсон ва фукаро ҳуқуқлари Декларациясида ифодаланган. Декларациянинг 9-моддасида шундай дейилган: “Ҳамонки ҳар ким, то унинг айби исботланмагунча, айбсиз саналади, шахсни ҳибсга олиш зарур деб топилган ҳолатларда ҳар қандай ортиқча, зарур бўлмаган қаттиқ чоралар қонун билан кескин тўхтатилиши лозим”

Декларацияда ифодаланган тамойил айнан айбсизлик презумпцияси деб эмас, “зарур бўлмаган ҳар қандай қаттиққўлликни қўллаш”ни чеклаш деб таърифланган.

Луғатларда айбсизлик презумпцияси “айбсизлик презумпцияси (лотинча praesumptio – фактни, токи айби тасдиқланмагунча, юридик жиҳатдан ишончли деб тан олиш) қонунийликнинг жиноят-процессуал тамойилининг асосини ташкил қилади, одил судловнинг демократик ҳуқуқий тамойилларидан бири бўлиб, жиноят ишларини муҳокама этишда қонунийликни қафолатлайди”

Худди шунингдек, Инсон ҳуқуқлари ва асосий эркинликлари муҳофазаси тўғрисидаги Европа конвенцияси (1950 й.)нинг 6-модда 2-бандида шундай дейилади: “Жиноят содир этишда айбланаётган ҳар бир шахс, токи унинг айби қонунга мувофиқ исботланмагунча, айбсиз саналади” Шунингдек, Конвенциянинг 3-бандида аниқлаштирилганки: “Жиноят содир этганликда айбланувчи ҳар бир шахс камида қуйидаги ҳуқуқларга эга бўлади:

а) унга қўйилган айб характери ва асослари ҳақида унга тушунарли тилда тезликда ва батафсил хабардор қилиниши;

б) ўз ҳимоясини тайёрлаш учун етарли вақт ва имкониятга эга бўлиши;

в) ўзини шахсан ёки ўзи томонидан танланган ҳимоячи ёрдамида ҳимоялаш, агар ҳимоячи хизматини тўлашга етарли маблағи бўлмаса, одил судлов манфаатлари талаб қилган ҳолларда унга бепул тайинланган ҳимоячидан фойдаланиши;

г) унга қарши маълумот берган гувоҳларни сўроқ қилиш ёки ушбу гувоҳлар сўроқ қилиниши ҳуқуқига эга бўлиш, унга қарши маълумот берувчи гувоҳлар билан бир тартибда ўзининг гувоҳларини ҳам чақириш ва сўроқ қилиш ҳуқуқига эга бўлиш;

д) агар судда ишлатилаёган тилни тушунмаса ёки унда сўзлаша олмаса, бепул таржимон хизматидан фойдаланиш”

Ўзбекистон Республикаси Жиноят кодексининг 4-модда 2-бандида белгилаб қўйилганки, “Ҳеч ким суднинг ҳукми бўлмай туриб жиноят содир қилишда айбли деб топилиши ва қонунга хилоф равишда жазога тортилиши мумкин эмас”

Айбсизлик презумпцияси икки жиҳатга эга: 1) муайян жиноят таркибини аниқлаш ва уни содир этишда айбдор шахсни эътироф этиш қонунга қатъий амал қилган ҳолда амалга оширилиши лозим; 2) фақат суд ҳукми билангина шахс айбдор саналади ва айбланади, жазоланади ёки жиноят қонунчилигида кўзда тутилган бошқа қонуний таъсир чораларига тортилади.

Шахснинг айбдорлигини аниқлаш исботлаш тартибига амал қилиш билангина ҳал бўлмайди, балки биринчи навбатда жиноий жавобгарликка жалб қилиш учун асос борлигини аниқлаш лозим бўлади. Бундай умумий асос, Жиноят кодексининг 16-моддаси 2-бандига мувофиқ, жиноят қонунчилигида кўзда тутилган барча жиноят таркиби белгиларига эга ҳаракатни амалга ошириш саналади. Бу умумий асос ўзида амалий ва юридик асосларни қамраб олади. Шахсни жиноий жавобгарликка тортиш учун амалий асос шахс томонидан бажарилган ҳаракат ҳисобланади.

Айбсизлик презумпциясининг жиноят-процессуал тамойили Ўзбекистон Республикаси Жиноят-процессуал кодексининг 23-моддасида белгилаб қўйилган. Бу тамойилнинг моҳияти гумон қилинувчи ёки судланувчининг айбдорлигини исботлаш жараёнидан иборатдир, зеро, инсонни айбли деб ҳукм қилиш ва жиноят қонунчилигида кўрсатилган давлат мажбурлов чораларини қўллаш учун қонунда белгиланган тартибда муайян жиноятни айнан шу шахс амалга оширганлигини исботлаш лозим.

12-модда

Ҳеч кимнинг шахсий ва оилавий ҳаётига ўзбошимчалик билан аралашуш, уй-жойи дахлсизлигига, унинг ёзишмаларидаги сирларга ёки унинг номус ва шаънига ўзбошимчалик билан тажовуз қилиниши мумкин эмас. Ҳар бир инсон худди шундай аралашув ёки тажовуздан қонун орқали ҳимоя қилиниш ҳуқуқига эга.

Инсоннинг ўзбошимчалик билан шахсий ва оилавий ҳаётига аралашмаслик ҳуқуқи инсоннинг табиий ҳуқуқи бўлиб, инсонга

туғилганидан хос ва ажралмас асосий конституциявий ҳуқуқларидан саналади. У инсон ҳуқуқлари соҳасида халқаро стандартлардан бири саналади ва Инсон ҳуқуқлари умумжаҳон декларацияси (1948 й.) 12-моддасида, Фуқаролик ва сиёсий ҳуқуқлар тўғрисидаги халқаро пактнинг (1966 й.) 17-моддасида ва бошқа қатор халқаро-ҳуқуқий ҳужжатларда белгилаб кўйилган.

Бунда ҳуқуқ объекти бўлиб ҳар бир фуқаро шахсий ҳаётининг дахлсизлиги юзага чиқади. У фуқаронинг шахсий эркинлиги татбиқи бўлиб, ўз ичига: ўзини ўзи бошқариш (жумладан, кимнингдир назоратсиз қолиш), шахсий ҳаёт сири (жумладан; шахсий сир, оилавий сир, ёзишмалар, телефонда сўзлашувлар, почта, телеграф ва бошқа хабарлар сири), шахсиятни ҳимоя қилиш (жумладан, ўз номини ҳимоя қилиш; ўз шаъни, кадр-қиммати ва обрўсини ҳимоя қилиш, ўз миллий мансублигини ҳимоя қилиш; она тилидан фойдаланиш ва муомала, тарбия, таълим ва ижод тилини эркин танлаш ҳуқуқини ҳимоя қилиш), турар жойни ҳимоя қилиш (турар жой дахлсизлиги), яширин овоз бериш каби ҳуқуқларни қамраб олади.

БМТ БАНинг 1985 йил 13 декабрдаги 40/114 – сонли резолюциясида инсоннинг барча ҳуқуқлари ва асосий эркинликлари ажралмас ва ўзаро боғлиқ экани ва бир туркум ҳуқуқларни ривожлантириш ва ҳимоялаш давлатнинг бошқа ҳуқуқларни ривожлантириш ва ҳимоялашдан озод бўлиши учун сабаб ёки оқлов бўлиб хизмат қилмаслиги алоҳида кўрсатиб ўтилган.

Шахсий дахлсизлик ҳуқуқини ҳимоялаш ноюрidik шаклда (фуқаронинг ўз ҳуқуқ ва қонуний манфаатларини ўзи ҳимоя қилиши) ва юридик шаклда (умумий суратда – суд орқали ёки махсус-маъмурий тартибда) амалга оширилиши мумкин.

Маъмурий тартибда, қонунда аниқ кўрсатилган ҳолларда, жабрланувчи ўзининг ҳуқуқларини бузган мансабдор шахс (орган) устидан юқори турувчи органга ёки прокурорга шикоят топширади, улар бузилган ҳуқуқларни қайта тиклаш бўйича чора кўришга мажбурдирлар.

Ишни суд орқали кўришда эса, фуқаролик-ҳуқуқий, маъмурий-ҳуқуқий ва жиноят-ҳуқуқий ҳимоя усуллари мавжуддир.

Номоддий бойликлар сифатида шахсий ҳаёт дахлсизлиги ҳуқуқининг фуқаролик-ҳуқуқий ҳимоясига судга ариза бериш орқали ҳуқуқбузар шахсдан:

- ҳуқуқини тан олиш;

хуқук бузилишидан олдин мавжуд бўлган ҳолатни тиклаш;
ҳаракатларини ноқонуний деб баҳолаш;
хуқукни бузувчи ёки унинг бузилиши хавфини туғдирувчи
ҳаракатларни бартараф қилиш;
давлат ва маҳаллий ўзини ўзи бошқариш органининг актини
бекор қилиш;
зарарларни коплаш;
маънавий (жисмоний ёки маънавий азобланиш) зарарларни
коплаш;
жабрланганнинг жавобини нашр этиш;
суд орқали унинг шаъни, кадр-қиммати ёки обрўсини бадном
қилувчи маълумотларни (жумладан, оммавий ахборот воситаларида),
агар бу маълумотларни тарқатувчи улар воқеликка мувофиқ
эканлигини исботлай олмаса, раддия бериш.

Ўзбекистон Республикаси “Адвокатура тўғрисида”ги Қонуни
(1996 йил 27 декабрь) 9-моддасига мувофиқ, адвокат адвокатлик
сирини сақлашга мажбур. Бу сирнинг объекти эса, миждознинг
адвокатга мурожаати, ёрдам сўралган масала, миждоз адвокатдан
олган консултация, маслаҳат, тушунтиришлар моҳияти, адвокатнинг
миждоз билан суҳбати мазмунига оид бошқа ҳар қандай маълумотлар
ташқил қилади. Шу тарика адвокат, адвокат ёрдамчиси, адвокатлик
бюроси, коллегиялари ва фирмалари мансабдор шахслари ва техник
ходимларига адвокатлик сирини ташқил этувчи маълумотларни
ошқор қилиш ва ўз манфаатлари ҳамда учинчи шахслар манфаатлари
йўлида қўллаш тақиқланади.

Ўзбекистон Республикаси “Нотариат тўғрисида”ги Қонуни
(1996 йил 26 декабрь) 6-моддасига мувофиқ, нотариусга, нотариал
фаолиятни бажарадиган бошқа мансабдор шахсларга, шунингдек,
хизмат вазибаларини бажариш туфайли амалга оширилаётган
нотариал ҳаракатлардан хабардор бўлган бошқа шахсларга уларга
маълум маълумотларни; жумладан, меҳнат шартномаси тугганидан
сўнг ҳам, ошқор қилиш тақиқланади. Амалга оширилган нотариал
фаолият ҳақидаги маълумотлар (ҳужжатлар) фақат ушбу фаолият
улар номидан ёки улар топшириғига кўра амалга оширилган
шахсларгагина берилиши мумкин. Амалга оширилган нотариал
амаллар тўғрисидаги маълумотнома (маълумот) суд, прокуратура,
тергов органларига, уларда бўлган ишларга алоқаси бўлгани туфайли
берилиши мумкин. Фуқаролар хусусий мулкига айланаётган мулк
нархи ҳақидаги маълумотнома солиқ органларига қонунда кўзда

тутилган ҳолатларда тақдим этилиши мумкин. Васият ҳақидаги маълумотнома фақат васият қилувчининг вафотидан кейин берилади. Амалга ошириладиган нотариал фаолиятдаги қонун бузилишларида айбдор шахслар қонунда белгиланган тартибда жавобгарликка тортиладилар.

Маъмурий жавобгарлик тўғрисидаги кодексда фуқарога маънавий ёки моддий зарар келтирувчи маълумотларни ошкор қилиш жавобгарлиги ҳақидаги умумий меъёр кўзда тутилган. Маъмурий жавобгарлик кодексининг 46-моддасида шифокорлик ёки тижорат сирини, ёзишмалар ва бошқа хабарлар сирини, нотариал фаолият, банк амалиётлари ва омонатлари сирларини, шунинг баробарида фуқарога, унинг ҳуқуқлари, эркинликлари ва қонуний манфаатларига маънавий ёхуд моддий зарар келтириши мумкин бўлган бошқа маълумотларни ошкор қилиш фуқароларга минимал иш ҳақининг иккидан бир баробаридан икки баробаригача, мансабдор шахсларга икки баробаридан беш баробаригача жарима солишга олиб келади.

Шахс шаъни ва кадр-қиммати инсонга хос хусусиятлар бўлиб, улар ажралмайди ва бошқага бериб бўлмайди, инсонга туғилганидан тегишли номоддий бойликлардир, улар инсоннинг руҳий дунёсини ифодалайди. Сиёсий-ҳуқуқий жиҳатдан фуқаролар шаъни ва кадр-қиммати ҳаёт, саломатлик ёки шахс эркинлиги каби узвий кадрият саналади.

Инсоннинг шаъни ва кадр-қимматининг ҳимоя қилиниш ҳуқуқининг конституциявий тарзда мустаҳкамланиши Ўзбекистон Республикасининг инсон ҳуқуқлари соҳасидаги халқаро стандартларга содиқлигидан далолат беради. Улардан бири шахс шаъни ва обрўсининг бузилмаслиги бўлиб, у Инсон ҳуқуқлари умумжаҳон декларацияси (1948 й.) 12-моддасида ва Фуқаролик ва сиёсий ҳуқуқлар тўғрисидаги халқаро пакт (1966 й.) 17-моддаси 1-бандида мустаҳкамлаб қўйилган. У ерда белгиланганидек: “Ҳеч кимнинг шаъни ва обрўсига ноқонуний тажовуз қилиниши мумкин эмас”

Меъёрий-ҳуқуқий ҳужжатлар матнларида “шаън”, “кадр-қиммат”, “таҳқирлаш”, “шаън ва кадр-қимматни хўрлаш” ва бошқа асосий тушунчалар аниқ таърифланганми?

Афсуски, йўқ. Шаън ва кадр-қимматни ҳимоя қилиш – бу демократияни, унинг ривожланиши ва давлатнинг замонавий тараққиётини ҳимоялаш муаммосидир.

Муаммога ушбу нуктаи назардан ёндашилганда, суд ва шунингдек, ОАВни, ўзини ўзи бошқариш тизими ёрдамида, яъни судгача ҳимояни ҳам қўшиш орқали ҳимоя турини кенгайтириш лозим. Шаън ва кадр-қимматни судгача ҳимоя қилиш нафақат чекланган шаън ва кадр-қимматни ҳимоя қилиш учун, балки ОАВни давлат ва бошқа ҳокимият тузулмаларидан мустақиллигини мустаҳкамлаш учун ҳам зарурдир.

ЕХХК инсоний мезонлар конференциясининг Москва кенгаши (1991 йил 3 октябрь) ҳужжатига аъзо-давлатлар мустақил оммавий ахборот воситалари эркин, очик жамиятнинг муҳим шартли эканлигини ва инсон ҳуқуқлари ҳамда асосий эркинликларини ҳимоя қилишда алоҳида роль ўйнашини эътироф этишди.

Шаън – бу шахснинг жамоатчилик баҳоси, фуқаронинг жамият аъзоси сифатидаги ижтимоий ва маънавий хусусиятлари мезонидир. Шахснинг жамоатчилик баҳоси бевосита инсоннинг ўзига боғлиқ, чунки у инсоннинг фаолияти, алоҳида хатти-ҳаракатлари, атрофидаги инсонларга, жамият ва давлатга муносабати асосида шаклланади. У инсон фаолиятининг ижтимоий аҳамияти ва фойдалилигига боғлиқ бўлиб, реал хизматлари ва ютуқларини акс эттиради. Айнан инсоннинг хатти-ҳаракати асосида унинг маънавий-ахлоқий қиёфаси ҳақида тасаввур шаклланади, бошқа индивидлар, жамоа ва жамоатчилик томонидан шахс хусусиятларини баҳолаш рўй беради. Ҳар бир инсон ўз жамоатчилик баҳосига эга бўлиб, у доимий ҳолат эмас, чунки амалга ошириладиган хатти-ҳаракатларга қараб ўзгариши мумкин.

Қадр-қиммат – ўз хусусиятлари, қобилиятлари, дунёқарашини, ўзининг ижтимоий аҳамиятини ўзи баҳолашдир. Ҳар бир инсон ўзи жамиятда эгаллаб турган мавқеини англайди. Инсон томонидан ўзининг жамиятдаги ўрнини ва ўзининг аҳамиятини англаш кўп жиҳатдан унинг хатти-ҳаракати ва феъл-атворини белгилайди. Шахс қадр-қиммати инсоннинг жамиятдаги обрўсини кўрсатувчи объектив хусусиятлари ялпи ҳажми билан ҳам белгиланади: маълумоти ва билим даражаси, жамиятдаги ўрни, жамиятда умумқабул қилинган феъл-атвор қоидаларига амал қилиш даражаси, дунёқарашини ва маънавий хусусиятлари, маданияти ва бошқалар.

13-модда

1. Ҳар бир инсон ҳар бир давлат доирасида эркин юриш ва яшаш жойи танлаш ҳуқуқига эга.

2. Ҳар бир инсон ҳар қандай мамлакатдан, хусусан ўз мамлакатидан чиқиб кетиш ва ўз мамлакатига қайтиб келиш ҳуқуқига эга.

Эркин юриш, туриш ва яшаш жойи танлаш ҳуқуқи Ўзбекистон Республикаси ҳудудида қонуний тарзда яшаётган ҳар кимга тегишлидир. Ушбу ҳуқуқни белгилаш орқали давлат мамлакат ҳудудини фуқароларнинг ўзларига тегишли эканлигини эътироф этади. Улар ўз манфаатларига кўра ва ҳеч қандай рухсатномаларсиз бир жойдан бошқасига кўчишлари ва ўзларига яшаш жойи танлашлари мумкин.

Қонун муайян ҳудудларда (чегара чизиғида, ёпиқ ҳарбий шаҳарчаларда, ёпиқ маъмурий-ҳудудий тузилмаларда, экологик ҳалокат зоналарида, юқумли ёки оммавий юқумли касалликлар ва одамларнинг захарланиши хавфи сабабли махсус яшаш шароитлари ва тартиблари, шунингдек, фавқулодда ва ҳарбий вазият жорий қилинган ҳудудлар) юриш эркинлигини чеклаши мумкин. Бинобарин, бу ҳудудларда ташқарида ҳар қандай транспорт воситасида ёки пиёда юриш эркинлигини ҳеч қандай чеклаш мумкин эмас.

Ҳар бир давлат ичида эркин юриш, туриш ва яшаш жойи танлаш ҳуқуқи, чиқиш ва ўз мамлакатига тўсқинликсиз қайтиб келиш ҳуқуқи, халқаро ҳамжамият томонидан тан олинади ва инсон ҳуқуқларига оид барча асосий халқаро-ҳуқуқий ҳужжатларда белгилаб қўйилган. Мазкур ҳуқуқ шахснинг ўз тақдирини ўзи белгилаш эркинлигининг муҳим унсури, инсоннинг касбий ва маънавий ривожланишининг, унинг муносиб ҳаётининг шарти ҳисобланади. Халқаро стандартларга мувофиқ, Ўзбекистон Республикаси Конституцияси ушбу ҳуқуқни кафолатлайди. **Конституциянинг 28-моддасига мувофиқ: “Ўзбекистон Республикаси фуқароси республика ҳудудида бир жойдан иккинчи жойга кўчиш, Ўзбекистон Республикасига келиш ва ундан чиқиб кетиш ҳуқуқига эга. Қонунда белгиланган чеклашлар бундан мустаснодир”.**

Шу билан бирга, ушбу ҳуқуқ мутлақ хусусиятга эга эмас; кўчиб юриш эркинлиги қонунда белгиланган, давлат хавфсизлигини, жамоат тартибини, аҳоли саломатлиги ёки маънавиятини ёхуд бошқа шахсларнинг ҳуқуқ ва эркинликларини муҳофаза қилиш учун зарур

чекловлар объектлари бўлиши мумкин. Булар чегара чизигига, экологик ҳалокат зоналари, фавқулодда ёки ҳарбий вазият жорий қилинган ҳудудларга тегишли бўлиши мумкин.

14-модда

1. Ҳар бир инсон таъкиб туфайли бошқа мамлакатлардан бошпана излаш ва ўша бошпанадан фойдаланиш ҳуқуқига эга.

2. Бу ҳуқуқдан носийсий жийноят содир этиш учун ёки Бирлашган Миллатлар Ташкилотининг мақсад ва принципларига зид хатти-ҳаракат туфайли таъкиб пайтида фойдаланиш мумкин эмас.

Декларацияда белгиланган таъкиб туфайли бошқа мамлакатлардан бошпана излаш ва ўша бошпанадан фойдаланиш ҳуқуқи БМТнинг 1951 йил 28 июлдаги Қочоқлар мақоми тўғрисидаги конвенцияси ва Қочоқлар мақомига оид 1967 йил 31 январдаги Протоколида ривожлантирилди.

“Қочоқлар мақоми тўғрисида”ги Конвенцияда белгиланганидек, қочоқ – бу ирки, эъгиқоди, фуқаролиги, муайян ижтимоий гуруҳга мансублиги ёки сиёсий қарашлари туфайли таъкиб қилиниш қурбонига айланишдан асосли равишда хавфсирагани учун ўз фуқаролиги мансуб бўлган мамлакатдан ташқарида бўлган ва ўз мамлақати ҳимоясидан фойдалана олмайдиган ёки оқибатидан хавфсирагани боис бундай ҳимоядан фойдаланишни истамаётган; ёки, аниқ фуқароликка эга бўлмаётган ва юқоридаги каби ходисалар туфайли ўзининг олдинги одатий яшаш жойи бўлган мамлакатдан ташқарида бўлган, ортга қайта олмайдиган ёки айтиб ўтилган омиллардан хавфсираши туфайли қайтишни истамаётган шахсдир.

Бошпана бериш масаласи бўйича ЕИда кенг тажриба тўпланган. Европа ҳамжамияти доирасида Кенгашнинг 2001 йил 20 июлдаги 2001/55/ЕС “Қўчирилган шахсларнинг оммавий оқими ҳолатида вақтинчалик ҳимоя тақдим этишнинг минимал стандартлари ва ушбу шахсларни қабул қилиш ва бундай қабулнинг оқибатлари туфайли аъзо давлатларнинг саъй-ҳаракатларидаги мувозанатни сақлаб туриш чора-тадбирлари тўғрисида”га директиваси ва 2003 йил 18 февралдаги 343/2003 “Аъзо давлатларнинг бирида учинчи давлат фуқароси томонидан берилган бошпана ажратиш тўғрисидаги аризани кўриб чиқишга жавобгар аъзо-давлатни аниқлаш мезонлари ва механизмлари ҳақида”ги Дублин регламенти қабул қилинган.

ЕИ мамлакатлари Умуевропа бошпана бериш тизимини яратиш вазифаларига мувофиқ, учта муҳим ҳужжатни ишлаб чиқди ва қабул қилди:

- Кенгашнинг 2003 йил 27 январдаги 2003/9/ЕС директиваси, у бошпана излаётган шахсларни қабул қилишнинг минимал стандартларини белгилайди (12);

- Кенгашнинг 2004 йил 29 апрелдаги қочоқлар сифатидаги учинчи мамлакат фуқаролари ёки фуқаролиги бўлмаган шахслар ёхуд бошқа шаклдаги халқаро ҳимояга муҳтож шахслар таснифи ва мақомининг, тақдим этилаётган ҳимоя мазмунининг минимал стандартлари ҳақидаги 2004/83/ЕС директиваси (13);

- Кенгашнинг 2005 йил 1 декабрдаги қочоқ мақомини бериш ва бекор қилиш бўйича аъзо-давлатлар тартиблари бўйича минимал стандартлар ҳақидаги 2005/85/ЕС директиваси.

Умуман олганда, директива коидалари қочоқ деб таснифланиши мумкин бўлган шахсларнинг манфаатларини жуда самарали ҳимоя қилади. Шу билан бирга, қабул қилинган ҳужжат бошқа вазифани ҳам бажаради: қочоқлар масаласи билан шуғулланувчи ваколатли органлар ишини енгиллатишга ҳуқуқий омиллар яратади. Жумладан, унда тезкор текширув ўтказиш имкониятлари кўрсатиб ўтилади, шундай махсус тартиблар киритиладики, улар доирасида бошпана берилиши бўйича аризанинг кўрилишидан олдин дастлабки текширув, чегарада ёки транзит ҳудудда тезкор тадбирлар, аризачи келган учинчи мамлакатга чиқиш имкониятларини ўрганиш қабилар амалга оширилиши мумкин.

15-модда

1. Ҳар бир инсоннинг фуқаро бўлиш ҳуқуқи бор.

2. Ҳеч ким ўзбошимчалик билан ўз фуқаролигидан ёки ўз фуқаролигини ўзгартириш ҳуқуқидан маҳрум қилиниши мумкин эмас.

Қадимдан давлатлар фуқаролик ва чет элликларнинг ҳуқуқий мавқеи масалалари бўйича ҳамкорлик қилиб келадилар. Бу ҳол давлатларнинг чет элдаги фуқаролари ҳуқуқлари ҳимоясидан манфаатдор эканликлари билан изоҳланади. Буни аввало мунтазам ривожланиб борган халқаро савдо-иқтисодий алоқалар талаб этарди.

Фуқаролик масаласи бўйича халқаро-ҳуқуқий база анча кенг ва фуқаролик институтига боғлиқ турли муаммоларга оид бир қатор

конвенциялар ҳамда халқаро шартномаларни ўз ичига олади. Уларнинг орасида, 1948 йил 10 декабрида қабул қилинган Инсон ҳуқуқлари умумжаҳон декларациясидан ташқари, қуйидагилар асосий ўрин эгаллайди: Фуқаролик тўғрисидаги Европа конвенцияси (Страсбург, 1997 йил, 6 октябрь), Турмушга чиққан аёл фуқаролиги ҳақидаги конвенция (1957 йил 20 февраль), Фуқаросизликни камайтириш ҳақидаги конвенция (1961 йил 30 август), Кўп фуқаролик ҳолатларини камайтириш ва кўп фуқаролик ҳолатида ҳарбий мажбурият ҳақидаги конвенция, №118-сонли Ижтимоий таъминот соҳасида давлат фуқаролари, чет элликлар ва фуқаролиги бўлмаган шахсларнинг тенг ҳуқуқли эканлиги ҳақидаги конвенция, шунингдек, 1930 йил 12 апрелдаги Фуқаросизликнинг аниқ ҳодисасига тааллуқли Протокол, Фуқаросизликка оид Махсус Протокол ва бошқа катор халқаро хусусиятга эга актлар.

Халқаро ҳуқуқ меъёрларига мувофиқ, индивид ҳуқуқий мақомининг асосини фуқаролик ҳуқуқий муносабатлари ташкил қилади.

Фуқароликнинг мазмуни инсоннинг давлат билан муносабатидан иборат, яъни: “Фуқаролик – бу жисмоний шахснинг давлат билан барқарор ҳуқуқий алоқаси бўлиб, уларнинг ўзаро ҳуқуқ ва мажбуриятлари мажмуасида ифодаланади ва ушбу шахснинг тегишли давлат суверен ҳокимиятига каерда туришидан қатъи назар бўйсунушини англатади... Фуқаролик – бу у ёки бу шахснинг давлатчилик шаклланган жамиятга юридик мансублигидир. Фуқаролик – бу барқарор ҳуқуқий алоқадир, чунки фуқаронинг узок муддат чет элда бўлганида ҳам у узилмайди”

Халқаро ҳуқуқ доктринасида ва баъзи давлатлар миллий қонунчилигида “фуқаролик” атамаси ўрнига “табаалик” атамаси, яна бутунлай тенг маънода, ишлатилади. Намоён бўлишича, бу атамалар тенг маъноли эмас. Табаалик фуқароликдан аввало қуйидагилар билан фарк қилади:

биринчидан, у монархия давлатига оид институт бўлиб, табаа инсоннинг монарх билан сиёсий-ҳуқуқий алоқасини англатади;

иккинчидан, бундай ҳуқуқий алоқа фуқароликда бўлгани каби ўзаро ва тенг мажбуриятли алоқа эмас, балки бир томонлама характерга эга.

Учинчидан, тарихий жиҳатдан табаалик институти буржуазия инқилоблари даврида фуқаролик институти юзага келишидан аввал бўлган.

Фуқаро (патрид) – бу муайян аниқ бир давлатга мансуб шахсдир. Конституциянинг 21-моддасига мувофиқ: “Ўзбекистон Республикасининг бутун ҳудудида ягона фуқаролик ўрнатилади.

Ўзбекистон Республикасининг фуқаролиги, унга қандай асосларда эга бўлганликдан қатъи назар, ҳамма учун тенгдир.

Қорақалпоғистон Республикасининг фуқароси айни вақтда Ўзбекистон Республикасининг фуқароси ҳисобланади.

Фуқароликка эга бўлиш ва уни йўқотиш асослари ҳамда тартиби қонун билан белгиланади”

Фуқаролик – бу инсоннинг давлат билан барқарор ҳуқуқий алоқаси бўлиб, инсон кадр-қиммати, ҳуқуқлари ва асосий эркинликларини эътироф этиш ва ҳурмат қилишга асосланган ўзаро ҳуқуқлари, мажбуриятлари мажмуида намоён бўлади.

Конституция инсон ва фуқаролар ҳуқуқ ва эркинликларининг устуворлиги ва ҳимояланганлиги конституциявий тузумнинг энг муҳим асосларидан бири эканлигини эълон қилиб, Ўзбекистон Республикаси фуқаролигининг асосий меъёрларини ўрнатади. Бу ҳолат фуқаролик шахс конституциявий-ҳуқуқий мақомининг у билан давлат ўртасидаги ўзаро муносабатларини аниқловчи бирламчи унсури эканлиги билан изоҳланади.

Фуқаролик ҳақидаги конституциявий меъёрлар уларни аниқлаштирувчи қонунчилик ҳолатлари билан яхлитликда ишлатилади. Фуқаролик ҳақидаги амалдаги қонунчилик фуқароликнинг ҳуқуқий расмийлаштирилишда ижобий роль ўйнади.

Фуқароликни кўп ҳолларда шахснинг муайян давлатга ҳуқуқий мансуб эканлиги деб таърифлайдилар, бу эса, давлат ва шахс алоқаларини бу институт билан ҳуқуқий билвосита ифодалашни бир томонлама характерлайди, зеро бу муносабатларда индивид давлат фаолиятининг объекти сифатида эмас, балки тўла ҳуқуқли субъекти сифатида иштирок этади.

Конституцияда ва Фуқаролик тўғрисидаги қонунда фуқароликнинг бошқа тамойиллари ҳам таърифланган: фуқарони фуқароликдан ёки уни алмаштириш ҳуқуқидан маҳрум қилиш; чет элдаги Ўзбекистон Республикаси фуқароларини ҳимоя қилиш; Ўзбекистон Республикаси ҳудудидаги чет эл фуқаролари ва фуқаролиги бўлмаган шахсларнинг ҳуқуқ ва эркинликлари халқаро ҳуқуқ меъёрларига мувофиқ равишда таъминланади.

Улар Ўзбекистон Республикаси Конституцияси, қонунлари ва халқаро келишувларда белгиланган тартибда мажбуриятга эгадирлар.

16-модда

1. Балоғат ёшига етган эркаклар ва аёллар ирқи, миллати ёки диний белгилари бўйича ҳеч қандай чеклашларсиз никоҳдан ўтишга ва оила қуришга ҳақли. Улар никоҳдан ўтишда, никоҳда турган вақтларида ва уни бекор қилиш вақтида бир хил ҳуқуқдан фойдаланади.

2. Никоҳдан ўтаётган ҳар икки томоннинг эркин ва тўлиқ розилиги асосидагина никоҳ тузилиши мумкин.

3. Оила жамиятнинг табиий ва асосий ҳужайраси саналади ва жамият ҳамда давлат томонидан ҳимоя қилинишга ҳақли.

Умумжаҳон декларацияси меъёрларига мувофиқ, эркак ва аёл тенглигини таъминлаш масалалари БМТ кун тартибига 1975 йилда – Халқаро аёллар йилида қўйилганди. 1975-1985 йилларни БМТ Аёллар ўн йиллиги деб эълон қилди. Кетма-кет аёллар масаласига оид муҳим халқаро конференциялар бўлиб ўтди. Булар Мехико (1975.), Копенгаген (1980), Найроби (1985) ва Пекин (1995) Аёллар масаласи бўйича БМТ конференциялари бўлиб, уларда дунёнинг 189 давлатидан 17 минг нафар вакил катнашди.

Бундан ташқари, аёллар ташкилотлари гендер масалаларини БМТнинг барча ҳужжат ва дастурларига киритишга эришдилар. Улардан энг муҳимлари инсон ҳуқуқларига тааллуқли бўлиб, бунда 1948 йилда қабул қилинган Инсон ҳуқуқлари умумжаҳон декларацияси асосий ўринни эгаллайди.

Кейинги қадам БМТ томонидан 1979 йилда Аёлларга нисбатан ҳар қандай шаклдаги камситишни йўқотиш Конвенцияси (CEDAW) бўлди. Унда ратификация қилган барча давлатлар амал қилиши лозим бўлган ҳуқуқий меъёрлар белгилаб берилди. Кейинги ўн йил давомида аксарият давлатлар ушбу конвенцияни имзолаши ва ратификация қилиши учун аёллар ташкилотларига анча куч сарфлашларига тўғри келди. Ҳозирда буни 160та давлат амалга оширди.

Конвенциянинг 1-моддаси камситишни атрофлича таърифлайди: “Сиёсий, иқтисодий, ижтимоий, маданий, фуқаролик ёки бошқа ҳар қандай соҳада жинс асосида ҳар қандай ажратиш, маҳрум қилиш ёки чеклаш...” кейинги моддалар ҳукуматларнинг “ҳар бир соҳада аёлларнинг ҳар томонлама ривожланишлари ва юксалишларини таъминлаш” борасидаги мажбуриятлари санаб ўтилади.

Конвенция юзасидан олинган мажбуриятларни бажаришни назорат қилиш БМТ аёлларга нисбатан камситишни йўқотиш кўмитасига юклатилган. Қайд этиш лозимки, бу кўмита БМТнинг аъзолари фақат аёллардан иборат ягона органидир.

1993 йилдаги инсон ҳуқуқлари бўйича Вена конференциясида аёлнинг инсоний ҳуқуқлари тамойилини тасдиқлаш нуқтаи назаридан муҳим халқаро-ҳуқуқий ҳужжатлар – Вена Декларацияси ва Ҳаракатлар дастури қабул қилинди. Бу ҳужжатларда, жумладан, шундай дейилади: “Хотин-қизларнинг инсоний ҳуқуқлари умуминсон ҳуқуқларининг ажралмас, таркибий ва бўлинмас қисми саналади. Аёлларнинг сиёсий, фуқаролик, иқтисодий, ижтимоий ва маданий ҳаётда миллий, минтақавий ва халқаро даражаларда тўлиқ ва баробар қатнашиши, шунингдек, жинс юзасидан камситишнинг ҳар қандай кўринишини бартараф қилиш халқаро ҳамжамиятнинг бирламчи мақсадлари ҳисобланади” Вена декларацияси аёлларга нисбатан зўравонлик муаммосига (ҳам жамоат, ҳам хусусий соҳада) ҳам умуминсон ҳуқуқларининг ажралмас қисми сифатида қарайди. Ушбу ишнинг натижаси ўлароқ, 1993 йил 20 сентябрда Бош Ассамблея Аёлларга нисбатан зўравонликни йўқотиш декларациясини тасдиқлади. Ушбу ҳужжатга мувофиқ, гендер асослардаги зўравонлик ўз ичига жисмоний, жинсий ёки руҳий зарарга олиб келувчи ёки олиб келиши мумкин бўлган ҳам хусусий, ҳам жамият ҳаётидаги ҳар қандай ҳаракатлар: жумладан, таҳдидлар, мажбурлаш, озодликдан маҳрум этишни қамраб олади. Бу тушунчаларга яна таҳқирлаш, уриш, жинсий зўрлов ва бошқалар кириди.

Аёллар аҳволини яхшилаш бўйича БМТнинг IV умумжаҳон конференцияси (Пекин, 1995 й.) муҳим воқеа бўлди. Унда иккита ҳужжат – Пекин Декларацияси ва Пекин ҳаракатлар платформаси қабул қилинди. Уларда жаҳон ҳамжамиятининг гендер тенг ҳуқуқчилиги қадриятига оид режалар тасдиқланади – “Эркаклар ва аёллар ўртасида тенг ҳуқуқлар, имкониятлар ва ресурслардан фойдаланиш, оила мажбуриятларини тенг тақсимланиши ва улар ўртасидаги уйғун шерикчилик уларнинг фаровонлиги ва оила фаровонлиги учун, шунингдек, демократиянинг мустаҳкамланишида ҳал қилувчи аҳамиятга эга” (15-модда).

Пекин ҳаракатлар платформасининг 118-бандида аёлларга нисбатан зўрлик ўзига хос тарихга эга бўлиб, эркак ва аёллар ўртасидаги нотенглик муаммосидан келиб чиқиши ҳақида сўз боради. Бу аёлларнинг эркаклар томонидан хўрланиши ва камситилишига

олиб келади, шунигдек, тенглик муносабатларининг ривожланишига тўсқинлик қилади. Шахсий ёки жамоат ҳаётида алоҳида шахслар ёки давлат томонидан аёлларга нисбатан ҳар қандай зўравонлик инсон ҳуқуқларининг бузилиши демакдир. Чунки биринчи навбатда, аёллар ҳуқуқи – инсон ҳуқуқининг бевосита таркибий қисми. Пекин учрашувининг резолюциясида айтиладики, давлатлар аёллар ва болаларга нисбатан ҳар қандай зўравонликларга қарши туриши керак ва бу қонунчиликда ўз аксини топиши лозим. Аёлларга нисбатан зўрловни, жумладан, уй зўравонликлари ва зўравонликнинг бошқа шакллари таг-туғи билан йўқотиш бўйича миллий режалар ишлаб чиқиш ва амалга ошириш зарур. Аёллар аҳволи бўйича комиссия ҳар йили март ойида Нью-Йоркда учрашув ўтказиши ва Ҳаракатлар платформасининг татбиқи бўйича мониторинг олиб боради.

1996 йил июлида БМТ Иқтисодий ва Ижтимоий Кенгашининг аёлларга нисбатан зўравонликни тугатиш ҳақидаги 1996/12 резолюцияси қабул қилинди. Ушбу ҳужжатда аёлларга нисбатан зўравонлик туфайли алоҳида шахслар ва жамият катта ижтимоий ва иқтисодий зарарлар кўраётгани, шунигдек, соғлиқни саклаш соҳасидаги харажатлар кўплигидан чуқур хавотир ифодаланди. 1997 йил декабрида БМТнинг “Аёлларга нисбатан зўравонликни тугатиш мақсадида жиноятчиликнинг олдини олиш ва жиноят одил судлов соҳаларидаги чора-тадбирлар” резолюцияси қабул қилинди.

Пекинда конференция ўтказилганидан сўнг, аёлларга нисбатан зўравонликка қарши кураш бўйича турли юридик меъёрлар, тамойиллар, дастурлар ва ҳаракат режалари ишлаб чиқилди. Улар ҳукумат идоралари ва жамоат ташкилотлари ҳамкорлигида де-юре ва де-факто амалга оширилаётган ишларнинг муҳимлигини таъкидладилар. Пекин ҳаракатлар платформаси мониторингида мувофиқлаштирувчи роль ЮНИФЕМ (БМТнинг аёллар масаласи бўйича Халқаро тараққиёт фонди) га тегишли бўлиб, у 2000 йилда Нью-Йоркда, – “Пекин плюс беш” конференцияси ташкилотчиси бўлди.

ЮНИФЕМ томонидан қабул қилинган ҳаракатлардан бири “Зўравонликни тўхтатамиз” глобал тармоғи ва баҳс варағини яратиш ҳамда 1999 йил 8 мартда, ўтган юз йилликнинг сўнги Халқаро хотин-қизлар кунини Интернет орқали глобал конференция ўтказиши бўлди. Унда дунёдаги барча мамлакатлар аёллар ташкилотлари ҳаракатлари тақдим этилди.

Ўзбекистон Марказий Осиёда биринчи бўлиб, БМТнинг “Аёлларга нисбатан зўравонликнинг барча шакллари тугатиш ҳақида”ги конвенциясини ратификация қилди. Ушбу конвенция аёлларнинг халқаро миқёсдаги ҳуқуқларини тасдиқлади ва давлатлар томонидан уларни таъминлаш ва ҳимоялаш ҳаракатлари режасини белгилади. Ҳозирда Ўзбекистоннинг 70 дан ортиқ қонунлари аёлларнинг асосий ҳуқуқ ва эркинликларини таъминлаш муаммосига бевосита алоқадордир.

Ўзбекистонда инсоннинг оиладаги зўравонликдан ҳимояланиш ҳуқуқини муҳофаза қилувчи, шунингдек, ҳуқуқни муҳофаза қилувчи органлар ходимларининг оиладаги зўравонликнинг олдини олиш ва тугатиш борасидаги фаолиятини бошқарувчи бир қатор қонунчилик ва меъёрий-ҳуқуқий ҳужжатлар қабул қилинган.

Ўзбекистоннинг аёллар ҳуқуқларини белгиловчи қонунчилик тизимини Республика Конституцияси, Ўзбекистон Республикасининг тўғридан-тўғри таъсир кўрсатувчи Кодекс ва Қонунлари ташкил этади. Ўзбекистон Конституциясининг 18-моддасига мувофиқ: “Ўзбекистон Республикасида барча фуқаролар бир хил ҳуқуқ ва эркинликларга эга бўлиб, жинси, ирқи, миллати, тили, дини, ижтимоий келиб чиқиши, эътиқоди, шахсий ва ижтимоий мавқеидан қатъи назар, қонун олдида тенгдирлар.

Имтиёзлар фақат қонун билан белгиланиб қўйилади ҳамда ижтимоий адолат принципларига мос бўлиши шарт”

Ўзбекистон Республикаси Оила кодекси 3-моддасига мувофиқ, “Барча фуқаролар оилавий муносабатларда тенг ҳуқуқлидирлар” “Эр-хотин баробар ҳуқуқлардан фойдаланадилар ва баробар жавобгарликка эгадирлар”,- дейилади 19-моддада.

Жиноят кодекси ҳам аёллар ҳуқуқларини бузиш ёки чеклашни тақиқлайди – 104, 105, 118, 119, 121-моддаларда аёл кишига тан жароҳатларини етказиш, зўрлаш, жинсий эҳтиёжини қуч ишлатиб қондириш, аёлни у хизмат, моддий ёки бошқа кўринишдаги тобелликда бўлган шахс томонидан жинсий алоқага киришишга мажбурлаш бўйича жавобгарлик кўзда тутилган.

Ўзбекистонда аёлларни камситишни йўқотиш ва уларнинг мамлакат иқтисодий ҳамда ижтимоий ҳаётида фаол қатнашишга жалб қилиш учун ҳуқуқий шароитлар яратилган. Аёллар ва эрақлар ҳуқуқларининг тенглиги ва жинс асосида камситишнинг тақиқланиши Конституцияда мустаҳкамлаб қўйилган. Қонунчиликда аёлларга ўз меҳнат ҳуқуқларидан фойдаланиш ҳамда уларни ҳимоя

қилишда тенг имкониятлар берилган. Ўзбекистон Конституцияси 37-моддаси ҳамда Меҳнат кодексининг 6-моддасига мувофиқ, меҳнат муносабатларида жинси бўйича ҳеч қандай чекловлар қўйилмайди. Ушбу ҳолатлар бўйича камситишга учраган шахслар маънавий ёки моддий зарарни ундириш учун белгиланган тартибда судга мурожаат қилишлари мумкин.

Бундан ташқари, меҳнат соҳасида уларга оилавий мажбуриятларнинг бажарилиши билан боғлиқ қўшимча кафолатлар кўзда тутилган: ҳомиладор ва болали аёлларни ишга қабул қилишдаги (озод этилишда) кафолатлар, ноқулай меҳнат шароитига эга ишларда аёллар меҳнатидан фойдаланишни тақиқлаш, ҳомиладорлик ва туғиш, шунингдек, бола парвариши таътиллари, қўшимча дам олиш куни, таътиллار бериш ва б.

17-модда

1. Ҳар бир инсон яққа ҳолда, шунингдек, бошқалар билан биргаликда мулкка эгаллик қилиш ҳуқуқига эга.

2. Ҳеч ким зўравонлик билан ўз мулкидан маҳрум этилиши мумкин эмас.

Мулкка эгаллик қилиш ҳуқуқи, жумладан, ерга эгаллик қилиш инсоннинг ҳуқуқ ва эркинликларининг муҳим кўриниши бўлиб, қонун билан ҳимоя қилинади. Бу борадаги ўзгартириш ва қўшимчалар фақат қонун билан амалга ошиши мумкин. Фуқаро ҳар қандай ишлаб чиқариш, маданий ва бошқа мақсадлардаги мулкка эгаллик қилиш ҳуқуқига эга. Қонун ва халқаро шартномаларга мувофиқ, давлат ёки жамоат хавфсизлиги нуктаи назаридан унга тегишли бўла олмайдиган мулклар бундан мустасно.

Мулкка эгаллик қилиш ҳуқуқини халқаро-ҳуқуқий тартибга солиш ва ҳимоялаш 1948 йилда, Инсон ҳуқуқлари умумжаҳон декларациясида ушбу қоида мустаҳкамлаб қўйилганидан сўнг бошланди. Бунга қадар мулкчилик ва меҳнат ҳуқуқлари фуқаролик ҳуқуқлари билан умумлаштирилган эди. Аммо уларни тан олишдаги муайян қийинчиликлар ҳозирда ҳам мавжуд. Чунончи, Европа ижтимоий ҳартияси (Европа Кенгаши томонидан 1961 йилда қабул қилинган) ҳануз аксарият давлатлар томонидан ратификация қилинмаган.

Бугунги кунда шахснинг ҳуқуқий мақоми таъминлашда ижтимоий-иқтисодий ҳуқуқларнинг аҳамияти, шубҳасиз, каттадир.

Иктисодий, ижтимоий ва маданий ҳуқуқлар тўғрисидаги халқаро пактда қайд этилганидек, “қўрқув ва муҳтожликдан озод, эркин инсон шахси идеали ҳар ким ўз иктисодий, ижтимоий ва маданий ҳуқуқларидан ўзининг фуқаролик ва сиёсий ҳуқуқлари қатори фойдалана оладиган шароитлар яратилгандагина амалга ошиши мумкин”. Бу нуқтаи назарни БМТ Бош Ассамблеяси тасдиқлаб, “иктисодий, ижтимоий, маданий, фуқаролик ва сиёсий ҳуқуқларнинг бўлинмаслиги ва ўзаро боғлиқ”лигини эълон қилди (1986 йил 4 декабрь резолюцияси). Давлатларнинг ижтимоий-иктисодий ҳуқуқларни ҳимоялаш соҳасидаги мажбурияти илгор иктисодий ва ижтимоий ислоҳотларни ўтказиш, ўз халқининг иктисодий тараққиёт жараёнида тўлиқ қатнашишини таъминлаш, ушбу ҳуқуқлардан фойдаланишда барчага баробар имкониятлар яратиш учун ўз ресурсларини қўллашдан иборат. 1974 йил 12 декабрдаги Давлатлар иктисодий ҳуқуқлари ва мажбуриятлари хартиясида қайд этилганидек, ҳар бир давлат ўз халқининг иктисодий, ижтимоий ва маданий тараққиётини қўллаб-қувватлашга жавобгардир.

Мулкка эгалик қилиш ҳуқуқига оид манбалар орасида халқаро-ҳуқуқий меъёрлар асосий роль ўйнайди. Универсал меъёрлар БМТ Низомининг умумий тамойилларида (1, 13, 55, 56, 62 ва 68-моддалар), Инсон ҳуқуқлари умумжаҳон декларациясининг коидаларида (22-27 моддалар), Иктисодий, ижтимоий ва маданий ҳуқуқлар тўғрисидаги халқаро пакт меъёрларида, Халқаро Меҳнат Ташкилоти (ХМТ) конвенциявий стандартларида мавжуд. ХМТ томонидан бу борада 170 дан ортиқ конвенциялар қабул қилинган. Улардан қуйидагилар муҳим аҳамиятга эга: “Мажбурий меҳнат ҳақида” (1930 й.), “Адолатли мукофотлаш ҳақида” (1951 й.), “Меҳнат ва бандлик соҳасидаги камситиш ҳақида” (1958 й.), “Бандлик соҳасидаги сиёсат ҳақида” (1964 й.), “Оилавий мажбуриятга эга меҳнаткашлар ҳақида” (1981 й.), “Бандлик ва ишсизликдан ҳимояланишга кўмаклашиш ҳақида” (1988 й.) ва б.

Ижтимоий-иктисодий ҳуқуқларни бошқариш манбаларининг бошқа гуруҳини минтақавий келишувлар (инсон ҳуқуқлари ва асосий эркинликларини ҳимоя қилиш Европа хартияси, Европа ижтимоий хартияси кабилар) даги меъёрлар ташкил этади. Учинчи гуруҳ меъёрларга давлатлар миллий қонунчилигида мустақамланган ижтимоий-иктисодий ҳуқуқларни ҳимоялаш ва уларга риоя этиш кафолатлари билан боғлиқ коидалар киради.

Иктисодий фаолият эркинлиги фуқаро шахсий эркинлигининг намоён бўлишидир. У қуйидаги ҳуқуқларни татбиқ қилиш билан амалга оширилади: ўз қобилияти ва мулкани тадбиркорлик ва қонунда тақиқланмаган бошқа фаолиятда қўллаш; хусусий мулкчилик, келишув эркинлиги, яхши ном (ишчанлик обрўси), зарарни қоплаш, маҳсулот, хизмат ва молиявий воситаларнинг эркин кўчириш ҳуқуқлари ва б.

Мулкка эгалик қилиш ижтимоий-иктисодий ҳуқуқи иккинчи авлод инсон ҳуқуқларига тегишлидир. Улар индивид ҳаёти ижтимоий-иктисодий шароитини қўллаб-қувватлаш ва ҳуқуқий мустақкамлашга тааллуқли бўлиб, инсонлар кўркув ва муҳтожликдан озод бўладиган шароитлар яратиш мақсадида инсоннинг меҳнат ва маиший ҳаёт, бандлик, фаровонлик, ижтимоий ҳимояланганлик соҳаларидаги мавқеини белгилайди. Уларнинг ҳажми ва татбиқ қилинганлик даражаси кўп ҳолларда иқтисодиёт ва ресурслар ҳолатига боғлиқдир, шу сабабли биринчи авлод ҳисобланувчи фуқаролик ва сиёсий ҳуқуқларга караганда, уларнинг татбиқ этилиши кафолати камроқ ривожланган.

Инсон ҳуқуқларининг бошқа кўринишларидан фарқли ўларок, ижтимоий-иктисодий ҳуқуқларнинг хусусиятлари қуйидагилардир:

инсоннинг муайян ижтимоий-иктисодий ҳаёт соҳасидаги ўрни; асосий қоидаларнинг тавсиявий, “қатъий бўлмаган” ибораларга эгаллиги (масалан, “муносиб ҳаёт”, “адолатли ва қулай меҳнат шароити”, “муносиб турмуш”);

ижтимоий-иктисодий ҳуқуқлар татбиқ этилишининг иқтисодиёт ва ресурслар ҳолатига боғлиқлиги. Иқтисодий, ижтимоий ва маданий ҳуқуқлар тўғрисидаги халқаро пакт 2-моддасида ушбу ҳуқуқлар босқичма-босқич ва “мавжуд ресурслар асосида имкон доирасида” таъминланиши лозимлиги айтилади.

Иккинчи авлод инсон ҳуқуқларига узоқ давр мобайнида иккинчи даражали аҳамият бериб келинди, бу ҳуқуқларни бошқариш имконияти салбий баҳоланди. Бунинг сабаби, ушбу ҳуқуқларни аниқ белгилаш ва юридик таснифлашнинг иложи йўқ, деган ҳукмрон тасаввур бўлди. Чунки улар давлатнинг ушбу ҳуқуқларни таъминлаш ва ҳуқуқий ҳимоя борасидаги бевосита мажбуриятларини юзага келтира олмайди. Кейинроқ бу тенденция ижтимоий-иктисодий ва сиёсий ҳуқуқлар тенглигини инкор қилиш билан алмашди.

18-модда

Ҳар бир инсон фикр, виждон ва дин эркинлиги ҳуқуқига эга; бу ҳуқуқ ўз дини ёки эътиқодини ўзгартириш эркинлигини ва таълимотда, тоат-ибодат қилишда ва диний расм-русум ҳамда маросимларни оммавий ёки хусусий тартибда адо этиш, ўз дини ёки эътиқодига яқка ўзи, шунингдек, бошқалар билан бирга амал қилиш эркинлигини ўз ичига олади.

Фикр тафаккур натижаси, маҳсули сифатида теварак атрофни ва ушбу оламдаги ўзликни англашни акс эттиради ва тасаввурларда, қарашларда, мулоҳазаларда, эътиқодда намоён бўлади. Фикрлаш эркинлиги инсоннинг руҳий эркинлигини, унинг ички дунёсини ифодалайди, шу сабабли ўз ҳолича ҳуқуқни бошқариш объекти бўла олмайди. Шу билан бирга, тафаккур, фикр инсоннинг ҳар қандай фаолияти асосида ётади, унинг ижтимоий фаоллигини, бошқа одамлар, жамият, давлат билан муносабатини белгилайди, яъни ташқарида акс этади. Фикрлаш шакли лисоний, сўзлар ёрдамида ифодалаш (оғзаки ёки ёзма), бошқа белгилар ёрдамидаги мулоқот тизими, масалан, бадиий шакллар бўлиши мумкин. Конституция томонидан ҳар кимга фикрлаш эркинлигининг кафолатланиши ҳуқуқий талаблар нуктаи назаридан давлатнинг инсон шахсий фикрлари ва эътиқодларининг шаклланиш жараёнига аралашмаслигини, бошқа ҳар қандай аралашувдан ҳимоя қилишини, ҳар қандай ғоявий зуғумга, зўравонликни ёки шахс устидан назоратга йўл қўйилмаслигини англатади.

Сўз эркинлиги – бу давлат томонидан кафолатланган, жамият, давлат ва бошқа соҳалардаги турли хил масалалар бўйича ўз фикрлари ва эътиқодини оғзаки ёки ёзма нутқда, йиғилишларда, митингларда ва бошқа намоёишларда тўсқинликларсиз ифодалаш имкониятидир. Ўз фикрини эркин ифодалаш ҳуқуқи, халқаро-ҳуқуқий меъёрларда келтирилганидек, ўз фикрида туриш ва ҳар қандай воситалар орқали, ҳокимият томонидан ҳеч қандай аралашувларсиз ва давлат чегараларига боғланиб қолмасдан ахборот ҳамда ғояларни излаш, олиш ва тарқатишни ўз ичига олади (Инсон ҳуқуқлари умумжаҳон декларациясининг 19-моддаси, Фуқаролик ва сиёсий ҳуқуқлар тўғрисидаги халқаро пактнинг 10-моддаси). Фикрини ифодалаш эркинлиги кўпгина бошқа ҳуқуқ ва эркинликлар, аввало сайловларда қатнашиш ҳуқуқи, петиция ҳуқуқи, виждон

эркинлиги, таълим олиш ҳукуки, ижод эркинлиги ва бошқалар асосида ётади.

Фикр ва сўз, ўз фикрини ифодалаш эркинлиги инсон эркинлигини реал намоён бўлишида катта аҳамиятга эга. Аммо бу эркинлик мутлак, чегарасиз бўла олмайди. Сўз, инсоний мулоқотнинг бош воситаси ўларок, инсонлар онгига ва хатти-ҳаракатига жуда катта таъсир кўрсатади. у бунёд этиши ва бузиши, ижтимоий таракқиётга чорлаши ва зўровонликка ундаши, инсоннинг ички дунёсини бойитиш ва шахсий кадр-қимматни хўрлаши мумкин. Шу билан сўз эркинлигини амалга ошириш билан боғлиқ муайян маънавий ва ҳуқуқий чекловлар зарурияти объектив изоҳланади.

Инсон фикрлари унинг мулоҳазалари ва эътиқодида акс этгач, инсоннинг ички дунёсини, онги мазмунини акс эттиради, ўзига хослигини белгилайди. Фикр – онгнинг ҳаракатчанроқ унсуридир. Эътиқод – қарашларнинг барқарор тизими бўлиб, шахснинг қадриятлар кўламини белгилайди.

Фикр ва сўз конституциявий эркинлиги ўз фикри, эътиқоди ва мулоҳазаларини тўсқинликларсиз ифодалашинигина эмас, уларни ифодалашга ёки улардан воз кечишга мажбурлашга йўл кўйилмаслигини ҳам англатади. Бу тақикқа барча – давлат органлари, маҳаллий ўзини ўзи бошқариш органлари, сиёсий партиялар ва бошқа жамоат ташкилотлари, уларнинг мансабдор шахслари, жамиятнинг барча аъзолари амал қилишлари лозим. Бу билан инсоннинг ички дунёси ҳимоя қилинади; шахснинг эркин ривожланиши, жумладан, ўз эътиқодларини мажбуран эмас, балки ўз ихтиёри ва воқеликни англаш жараёнида, эркин баҳслар ва турли ғояларни муҳокама қилиш туфайли унинг ҳуқуқи кафолатланади.

Фикр эркинлиги ҳуқуқи Европа Кенгаши Парламент Ассамблеясининг оммавий ахборот эркинлигининг аниқ намоён бўлишига оид қатор қарорларида мустаҳкамлаб қўйилган. Аввало “Оммавий ахборот воситалари ва инсон ҳуқуқлари ҳақида”ги декларациянинг қабул қилинишига багишланган 428-сонли резолюцияни (1970 й.) кўрсатиш мумкин. Унда ОАВ ўз функцияларини жамоатчилик манфаатлари йўлида амалга оширишлари учун амал қилиниши лозим бўлган тамойиллар санаб ўтилади. Улар сирасига қуйидагилар киради:

а) фикрларни ифодалаш ҳуқуқи ОАВга жорий қилиниши керак;

б) ОАВда фикрларни ифодалаш эркинлиги ахборот ва гояларни излаш, олиш, бериш, нашр қилиш ва тарқатиш эркинлигини қамраб олиши керак;

в) ҳокимият жамоатчиликда қизиқиш уйғотувчи саволлар юзасидан макбул доирада ахборот тақдим этиши, ОАВ эса, давлат ишлари ҳақида тўлиқ ва узил-кесил ахборотни етказишлари лозим;

г) ОАВнинг давлат назоратидан мустақиллиги қонунда ёзиб қўйилган бўлиши керак. Мустақилликка ҳар қандай чеклаш ижроия ҳокимияти органларининг эмас, фақат суд қарори асосида бўлиши мумкин;

д) матбуот ёки телерадиодастурлар мазмунида ҳам бевосита, ҳам билвосита цензура бўлмаслиги лозим; чекловлар фақат Инсон ҳуқуқлари европа конвенциясининг 10-моддасида рухсат берилган ўринларда киритилиши мумкин;

е) ОАВнинг ички тузилиши масъул муҳаррирларнинг ўз фикрларини баён этиш эркинлигини кафолатлаши лозим, уларнинг мустақиллиги ҳимояланган бўлиши керак;

ё) ОАВ мустақиллиги монополиялар томонидан бўладиган таҳдидлардан ҳимояланиши лозим;

ж) хусусий корхоналар ҳам, молиявий гуруҳлар ҳам, ОАВ соҳасида монополияга ҳақли бўлмасликлари лозим ва ҳукумат назоратидаги монополияларнинг юзага келишига рухсат бермаслик керак;

з) чет эл журналистлари эркинлигини таъминлаш, жумладан, уларнинг мавқеи, мажбуриятлари, имтиёзлари ва ўзбошимча депортация қилишдан ҳимоялаш учун махсус чоралар кўриш зарур, бу чет эллик журналистларнинг воқеаларни аниқ ёритиш мажбуриятларига мувофиқ келади.

Бир томондан, бу ҳужжатларда баъзи ҳукуматларнинг, жумладан, иқтисодий ва сиёсий босим ўтказиб, цензура, журналистларни ҳайдаш, виза бермасдан, мамлакат ичида ва миллий чегаралараро ахборот тарқатишни ҳамда босмаҳона ва бошқа касбий жиҳозлардан фойдаланишни чеклаш орқали матбуот эркинлигига тўсқинлик қилиш ҳаракатлари қораланади. “Журналистларни уларнинг касбий фаолияти асосида ҳибсга олиш ва ушлаш инсон ҳуқуқларининг жиддий бузилишидир,- дейилади 1996 йил 11 январда Санода қабул қилинган Декларацияда, ўз мамлакатларини тарқ этишга мажбур бўлган журналистларга эркин қайтиб бориш ва ўз касбий фаолиятларини давом эттириш имкониятини таъминлаш

керак. Ишдан асоссиз бўшатишган шахсларга ўз лавозимига қайта тикланиш имконини бериш керак” Бунда қайд этиладики, баъзи ҳукуматлар ахборот ва коммуникацион технологияларнинг эҳтимолий хавфидан оммавий ахборот эркинлигини чеклаш учун фойдаланадилар.

Бошқа томондан, мазкур декларациялар демократия ва матбуот эркинлигига қаратилган умумжаҳон тенденциясини кўллаб-қувватлайдилар. Улар “журналистлар томонидан фаолияти ва молиялаштирилиши журналистларнинг ўзлари томонидан амалга ошириладиган, зарур ҳолларда ошкоралик асосида ва молиялаштираётган муассаса таҳририят сиёсатида аралашмаслиги кафолати билан субсидиялар кўринишида мадад олган ҳолда ўзларининг мустақил ОАВларини очишлари”ни рағбатлантиради. Улар “фикрлар хилма хиллигини рағбатлантириш мақсадида ҳукуматдан мустақил босма ва электрон ахборот воситаларининг ривожига” халқаро ёрдам юборишга, давлат ОАВларига эса, “давлат хизмати очик муассасалари сифатида уларнинг журналистик ва таҳририят мустақиллигини таъминловчи мавқе” беришга чорлайдилар.

Инсоннинг асосий ва маънавий эркинликлардан бири **виждон эркинлигидир**. Ахлокий жиҳатдан виждон эркинлиги – бу инсоннинг ўз эътиқодига кўра фикр ва иш юритиш ҳуқуқи, маънавий баҳолашдаги ва ўз хатти-ҳаракати ҳамда фикрларини назорат қилишдаги мустақиллигидир. Анча даврлар виждон эркинлиги тор маъно – дин борасидаги эркинлик маъносини англатиб келди. Виждон эркинлигига эришиш – демократик жамият тузумини яратишнинг асосий омилidir, зеро демократия фуқарони ҳам идеологик, ҳам материалистик руҳдаги ҳар қандай таълимотларнинг ғоявий ҳукмронлик қилишидан ҳимоялашни назарда тутади.

Умумэътироф этилган халқаро стандартларга мувофиқ, виждон эркинлиги ҳуқуқи бошқа шахсларнинг ҳуқуқ ва эркинликларини, давлат қонунларини, ахлоқ талаблари ва жамоат тартибини ҳурмат қилиш мажбурияти билан боғлиқ. Инсон ҳуқуқлари умумжаҳон декларацияси меъёрлари (18-модда), Фуқаролик ва сиёсий ҳуқуқлар тўғрисидаги халқаро пакт (18-модда), Дин ва эътиқод асосидаги муросасизлик ва камситишнинг ҳар қандай кўринишларини тугатиш ҳақида Декларация (1979 й., 25 ноябрь) ва Миллий ёки этник, диний ва озчилик мулоқот қиладиган тилга мансуб шахслар ҳуқуқлари ҳақида декларация (1952 йил, 18 декабрь) “виждон эркинлиги”

тушунчасини ёрита туриб, виждон эркинлиги ҳуқуқини ҳимоя қилиш тартиби ва механизмини белгилаб беради. Дин ва эътиқод асосидаги муросасизлик ва камситишнинг ҳар қандай кўринишларини тугатиш ҳақида Декларация (1979 й., 25 ноябрь)нинг 6-моддасига мувофиқ,

Фикрлаш, виждон, дин ёки эътиқод эркинлиги ҳуқуқи ўз ичига қуйидаги эркинликларни олади:

а) ибодатларни адо этиш ёки дин ва эътиқодлари туфайли йиғилиш;

б) тегишли хайрия ёки инсонпарварлик муассасаларини тузиш ва фаолият олиб бориш;

в) диний маросимлар, одатлар ва эътиқодга боғлиқ зарур материаллар ва буюмларни тегишли ҳажмда ишлаб чиқиш, олиш ва қўллаш;

г) шу соҳадаги тегишли маълумотларни ёзиш, нашр этиш ва тарқатиш;

д) дин ва эътиқод масалалари бўйича бунга мос келувчи жойларда таълим бериш;

е) алоҳида шахслар ва ташкилотлардан ихтиёрий молиялаш ва бошқа хайриялар сўраш ва олиш;

ё) у ёки бу диний эътиқод меъёрларига кўра тегишли раҳбарларни тайёрлаш, тайинлаш, сайлаш ёки мерос асосида тайинлаш;

ж) дин ва эътиқод кўрсатмалари асосида дам олиш кунларига амал қилиш, байрамларни нишонлаш ва маросимларни ўтказиш;

з) миллий ва халқаро микёсда алоҳида шахслар ва дин соҳасидаги жамоалар билан алоқалар ўрнатиш ва олиб бориш.

“Ҳар бир инсон фикр, виждон ва дин эркинлиги ҳуқуқига эга. Бу ҳуқуқ ўз ихтиёрига кўра бирор дин ёки эътиқодда бўлиш ва ўз динига амал қилиш, ҳам яққа ҳолда, ҳам бошқалар билан келишган ҳолда оммавий тарзда ёки хусусий тартибда маросимларни бажариш, диний ибодатлар ҳамда таълимни амалга ошириш орқали ўз эътиқодини ифодалашни назарда тутати.

Ҳеч ким ўз ихтиёрига кўра дин ва эътиқодга эга бўлиш эркинлигини чекловчи мажбурлашга тортилиши мумкин эмас”, дейилади Декларациянинг 1-моддасида.

Декларациянинг 2-моддаси эса, “Ҳеч ким дин ёки эътиқоди туфайли давлат, муассаса, шахслар гуруҳи ёки алоҳида шахслар томонидан камситилиши мумкин эмас. Ушбу Декларация мақсадларида “муросасизлик ва диний эътиқодлар туфайли

камситиш” ибораси дин ёки эътиқод асосидаги, тенг ҳуқуқлилиқ асосида инсон ҳуқуқ ва асосий эркинлиқларини тан олиш, фойдаланиш ҳамда амалга оширишни йўқ қилиш ёки тугатишни мақсад қилиб қўйган ёки уларга олиб борувчи ҳар қандай ажратиш, четлатиш, чеклаш ёки афзаллиқ беришни англатади”

1966 йилда қабул қилинган Фуқаролик ва сиёсий ҳуқуқлар тўғрисидаги халқаро пакт диний эркинлиқ чекланиши мумкин бўлган сабабларнинг узил-кесил рўйхатини эълон қилди. 18-модданинг 3-бандида шундай дейилади: “Дин ёки эътиқодга амал қилишга фақат қонун томонидан белгиланган ва жамоат хавфсизлигини, тартибини, бошқа шахсларнинг саломатлиги ва маънавиятини, шунингдек, асосий ҳуқуқ ва озодлиқларини сақлаш учун зарур бўлган чекловларгина жорий қилиш мумкин” Бу Ўзбекистон Республикаси “Виждон эркинлиги ва диний ташкилотлар тўғрисида”ги Қонуни 3-моддаси 4-бандига мувофиқ келади.

1989 йилдаги Европада хавфсизлиқ ва ҳамкорлиқ кенгаши аъзо давлатлари вакилларининг Вена учрашуви якуний ҳужжати аъзо-давлатлар амал қилиши лозим бўлган асосий тамойилларни эълон қилди:

дин ёки эътиқод асосида шахслар ёхуд бирлашмаларнинг фуқаролик, сиёсий, иқтисодий, ижтимоий ва маданий ҳаётнинг барча соҳаларидаги инсон ҳуқуқлари ва асосий эркинлиқлардан фойдаланиш борасида камситилишининг олдини олиш ва тугатиш ҳамда диндорлар ва динга ишонмайдиганлар ўртасида ҳақиқий тенгликни таъминлаш бўйича самарали чоралар кўриш;

- турли бирлашмалардаги диндорлар ҳамда диндорлар ва динга ишонмайдиганлар ўртасида ўзаро муросалилик ва ҳурмат муҳитини рағбатлантириш;

- уларнинг илтимосларига кўра, тегишли давлатларда улар учун кўзда тутилган мавқени тақдим этиш;

диний бирлашмаларнинг ибодат қилиш ва йиғилиш учун барчага очик жойларни ташкил этиш ва сақлаш, ўзининг иерархик ва институционал тузилмасига мувофиқ, ихтиёрий молиявий ва бошқа хайрияларни сўраш ва олиш ҳуқуқларини ҳурмат қилиш;

ҳар кимнинг ўзи танлаган тилда, яқка ҳолда ёки бошқалар билан биргаликда диний таълим бериш ва олиш ҳуқуқини ҳурмат қилиш;

ушбу маънода, бошқалар қаторида, ота-оналарнинг ўз фарзандларига ўзларининг шахсий эътиқодларига мувофиқ диний ва маънавий тарбия бериш эркинликларини ҳурмат қилиш;

- тегишли муассасаларда ходимлар тайёрлашга рухсат бериш;

- диндорлар ва диний бирлашмаларнинг ўзлари танлаган тилда муқаддас китобларни, диний нашрларни ва дин ёки ақидага амал қилишга оид бошқа буюм ҳамда материалларни олиш ва қўллаш ҳамда тасарруф этиш ҳуқуқини ҳурмат қилиш;

- диний шахслар, муассасалар ва ташкилотларга диний нашрлар ва материаллар ишлаб чиқариш, импорт қилиш ва тарқатишга рухсат бериш;

диний бирлашмаларнинг жамоатчилик билан, жумладан, оммавий ахборот воситалари орқали, мулоқот қилишга қизиқишини мойиллик билан кўриб чиқиш.

Виждон эркинлиги инсоннинг истаган динига амал қилиш ёки ҳеч қайси динга амал қилмаслик, диний маросимларни амалга ошириш ва атеистик тарғибот олиб бориш ҳуқуқини англатади. Давлат ушбу ҳуқуқни таъминловчи махсус кафолатлар тизимини белгилайди.

Виждон эркинлиги барча демократик конституцияларда эътироф этилади. Виждон ва дин эркинлиги кафолати куйидагиларни ўз ичига олади: 1) фуқароларнинг динга муносабатидан қатъи назар, қайси динга мансублиги сабабли фуқаролар ҳуқуқининг чекланишига, диний сабабларга кўра душманлик ва нафратни кўзғашга йўл қўймайдиган тенгҳуқуқлилиги; 2) диний ва атеистик тузилмаларнинг давлатдан ажратилганлиги; 3) давлат тузилишининг дунёвий характердалиги; 4) динлар, диний бирлашмаларнинг конун олдида тенглиги.

Давлат, унинг органлари ва мансабдор шахслар фуқароларнинг динга ўз муносабатларини билдириш масаласига, диний бирлашмаларнинг конуний фаолиятига аралashiш ҳуқуқига эга эмаслар. Ҳар бир фуқаро диний қарашлари ва эътиқодларини оғзаки, босма ва ёзма исталган шаклда эркин ифодалаш ва тарқатиши мумкин. Фуқаролар, биргаликда муайян динга амал қилишга қарор қилиб, диний жамоаларга бирлашадилар ва ишлаб чиқилган низом асосида, ҳокимият розилигини сўраб ўтирмай, ўз бирлашмаларин рўйхатдан ўтказиб, ўз фаолиятларини олиб борадилар.

Ушбу конвенциянинг асосий қоидалари Ўзбекистон Республикаси миллий конунчилигига ва биринчи навбатда

Республика Конституциясига киритилган. 31-моддага мувофиқ: “Ҳамма учун виждон эркинлиги кафолатланади. Ҳар бир инсон хоҳлаган динга эътиқод қилиш ёки ҳеч қайси динга эътиқод қилмаслик ҳуқуқига эга. Диний қарашларни мажбуран сингдиришга йўл қўйилмайди”

Ўзбекистон Республикаси Конституцияси 61-моддасида мустаҳкамлаб қўйилганки, “Диний ташкилотлар ва бирлашмалар давлатдан ажратилган ҳамда қонун олдида тенгдирлар. Давлат диний бирлашмаларнинг фаолиятига аралашмайди”

Давлатнинг диндан ажралганлиги тамойили давлат диний ташкилотларга қандай бўлмасин, давлат функцияларини юкламайди, диний ташкилотлар фаолиятини молияламайди, уларнинг фаолиятига, агар у қонунчиликка зид бўлмаса, аралашмайди, демакдир.

Ўзбекистон Республикаси “Виждон эркинлиги ва диний ташкилотлар тўғрисида”ги Қонуни 5-моддасига мувофиқ, давлат турли динларга амал қилувчи ва динга эътиқод қилмайдиган фуқаролар ўртасида, турли динларга мансуб диний ташкилотлар ўртасида ўзаро муроса ва ҳурмат ўрнатилишини қўллаб-қувватлайди, диний ва бошқа шаклдаги мутаассиблик ва экстремизмга, муносабатларни қарши қўйиш ва кескинлаштиришга қаратилган ҳаракатларга, турли динлар ўртасида низолар кўзғатишга йўл қўймайди. Диндан давлатга қарши, конституцияга қарши тарғибот мақсадларида фойдаланиш, душманлик ва нафрат, миллатлараро келишмовчилик кўзғатиш, маънавий тартиб ва фуқаролар ўртасидаги тотувликни бузиш, тухмат, аҳволни беқарорлаштирувчи уйдирмаларни тарқатиш, аҳоли орасида ваҳима уйғотиш ва давлат, жамият ҳамда шахсга қарши қаратилган бошқа ҳаракатларни амалга оширишга йўл қўйилмайди.

19-модда

Ҳар бир инсон эътиқод эркинлиги ва уни эркин ифода қилиш ҳуқуқига эга; бу ҳуқуқ ҳеч бир тўсиқсиз ўз эътиқодига амал қилиш эркинлигини ҳамда ахборот ва ғояларни ҳар қандай восита билан, давлат чегараларидан қатъи назар, излаш, олиш ва тарқатиш эркинлигини ўз ичига олади.

Эътиқод ва уни эркин ифода қилиш эркинлиги, яъни ўз фикрлари, ғоялари ва мулоҳазаларини ошқора ифодалаш ва уларни

конуний йўл билан тарқатиш имконияти демократик тузумнинг зарур унсури ва индивидлар ҳамда уларнинг бирлашмалари учун сиёсий плюрализм (фикрлар хилма хиллиги) ва маданий ранг-барангликни таъминлашнинг зарур шарти ҳисобланади.

Фикр, сўз ва эътиқод эркинлиги ҳар бир индивиднинг фикр юритиш, бошқа шахсларнинг мулоҳазаларини қамраб олган турли ахборотларни олиш ва ўз мулоҳазаларини қонун руҳсат берган шакл ва чегараларда тарқатиш имкониятини назарда тутлади.

Тоталитаризм танлаш эркинлиги ва унинг айрим кўриниши бўлган матбуот эркинлигига мантқан зиддир, зеро у “ўзимники – бегона” дихотомиясига асосланади ва “бош чизик”дан оғишадиган ҳар қандай фикрлар бўлишига имкон бермайди. Француз маърифатпарвар идеологи Вольтер ёзган эди: “ инсонларда ўз мулоҳазаларини ифодалаш эркинлигисиз ҳеч бир эркинлик йўқ”

Шу вақтнинг ўзида қайд этиб ўтиш керакки, ҳам миллий, ҳам халқаро микёсда юқорида келтирилган эркинликларнинг таърифи юзасидан ҳам, уларни инсоннинг ҳуқуқ ва эркинликларининг қайси тоифасига киритиш борасида ҳам турли хил ёндашувлар мавжуд.

Фуқаролик ва сиёсий ҳуқуқлар халқаро пакти (19-модда)да мазкур ҳуқуқ аниқлаштирилади: “Ҳар бир инсон тўсиқларсиз ўз фикрида туриш ҳуқуқига эга.

2. Ҳар бир инсон ўз фикрини эркин ифодалаш ҳуқуқига эга; бу ҳуқуқ давлат чегараларидан мустақил ҳолда, оғзаки, ёзма ёки матбуотда; шунингдек ифодалашнинг бадий шакли орқали ёки ўз ихтиёрига кўра бошқа усулларда ҳар қандай турдаги ахборот ва ғояларни излаш, олиш ва тарқатиш эркинлигини ўз ичига олади”

Сўз эркинлиги кўрсатилган актларда бевосита белгилаб қўйилмаган, бироқ унинг мавжудлиги назарда тутилган. Бу каби ёндашувлар 1975 йилдаги Европада Хавфсизлик ва ҳамкорлик кенгаши яқуний ҳужжатида ва Янги Европа учун Париж хартиясида акс эттирилган.

Фикр, сўз ва эътиқод эркинлиги, янги коммуникация воситалари ривожига туфайли оммавий ахборот воситалари эркинлигига ўзгариб, бошқа бир қатор халқаро-ҳуқуқий ҳужжатларда мустаҳкамланди. Мисол тариқасида ЮНЕСКОнинг Виндхукда (Намибия, 1991 й.), Алматида (Қозоғистон, 1992 й.), Сантьяго-де-Чилида (1994 й.), Санода (Яман, 1996 й.)ги минтақавий семинарларида қабул қилинган ва ЮНЕСКО Бош конференцияси 28-сессиясининг 28 С/4.6 резолюциясида тасдиқланган Мустақил ва плюралистик матбуот

ривожини қўллаб-қувватлаш ҳақидаги Декларациялар серияси ва бошқаларни келтириш мумкин.

Фуқароларнинг сиёсий ҳуқуқ ва эркинликлари орасида сўз эркинлиги асосий ўрин эгаллайди ва инсоннинг энг муҳим конституциявий ҳуқуқларидан бири саналади. Бу фундаментал эркинликнинг устуворлиги гоёсини ҳимоя қила туриб, француз маърифатпарвар идеологи Вольтер ёзган эди: “ инсонларда ўз фикрларини ифодалаш эркинлигисиз ҳеч қандай эркинлик йўқ”

Ғоявий плюрализм, яъни сиёсий, иқтисодий, маънавий ва бошқа ғоя ва қадриятларнинг бойлиги ва ранг-баранглиги жамиятнинг сиёсий ҳаётига фундаментал демократик тамойилларни жорий қилишга кўмаклашади. Бинобарин, фикр ва сўз эркинлиги, фуқаролик аҳамиятига эга муаммолар юзасидан ошқора мунозара эркинлиги каби, демократик толерант жамиятнинг намоён бўлиш шаклидир.

Ҳамонки жамият ҳеч қачон интеллектуал яхлитликни ярата олмас ва ўзини қандайдир ягона ғояда ифодалай олмас экан, унинг ҳар бир аъзоси ўз индивидуаллигини, у ёки бу муаммо бўйича ўз тасаввурини сақлаб қолади. Фикр ва сўз эркинлиги мазмун-моҳиятига кўра инсон индивидуаллиги намоён бўлишининг, ҳар бир шахснинг ўзига хослиги ва ноёблиги тасдиқланишининг кучли омили ҳисобланади.

Инсонга уни ўз мавқеини ифодалаш ёки ундан воз кечишга мажбурлаш мақсадида қандай бўлмасин куч ишлатиб таъсир кўрсатишга йўл қўйилмайди.

Бинобарин, сўз эркинлигининг муҳим юридик оқибатлари сирасига фуқарони у ифодалаган фикрлар туфайли, агар амалдаги қонунчиликка риоя этилган бўлса, ҳар қандай таъкиб этишнинг ноқонунийлиги, шунингдек, фуқаролар ифодалаган фикрлар асосида уларни камситишга йўл қўйилмаслиги киради.

Сўз эркинлиги ўзаро узвий алоқада ва ажралмас яхлитликдаги тузулмавий унсурларни ўз ичига олади. Биринчидан, бу ҳар бир инсоннинг ўз фикрлари, ғоялари ва мулоҳазаларини ошқора ифодалаш ва уларни хоҳлаган қонуний йўл билан тарқатиш эркинлигидир. Иккинчидан, бу матбуот ва бошқа оммавий ахборот воситаларининг цензурадан холи бўлиш, фикрларни ифодалаш эркинлигини моддийлаштириш имконини берувчи ахборот органларини ташкил этиш ва қўллаш ҳуқуқи каби эркинлиги. Учинчидан, бу ижтимоий қизиқиш уйғотувчи ёки фуқаролар

хуқуқларига таъсир қилувчи ахборот олиш, яъни ахборот манбаларига боғланиш эркинлиги ҳуқуқи.

Цензура (расмий ҳокимият томонидан босма, аудиовизуал ва бошқа маҳсулотнинг мазмуни, наشري ва тарқатилиши устидан доимий назорати) нинг тақиқланиши сўз эркинлигининг энг таъсирчан кафолати ҳисобланади. Демократик давлатлар ахборот эркинлигини эълон қилиб, цензурани тақиқлайдилар.

Замонавий конституцияларнинг кўпчилигида цензура тақиқланган бўлса-да, бу ҳол фикрни ифодалаш эркинлиги чексиз ва мутлақдир, деган маънони англатмайди. Қоидага кўра, сўз эркинлигидан қонуний давлат ҳокимиятини куч билан ағдаришга чорлашда, давлат ва қонун билан ҳимояланадиган бошқа сирларни ошкор қилишда, жиноятга гиж-гижлашда, миллий, ирқий, диний ва бошқа низоларни кўзгашда, бошқа шахсларни таҳқирлаш ва туҳмат қилиш, жамият маънавияти ва одоб-ахлоқига тажовузда фойдаланиш тақиқланади. Бошқача қилиб айтганда, фикрлаш эркинлигини кўллаш алоҳида мажбурият ва жавобгарлик юклайди ҳамда кўрилаёган ҳуқуқни суиистеъмол қилишга имкон бермайдиган муайян қонуний чекловлар билан бирга келади.

Ўзбекистон томонидан “Ўзбекистон Республикаси бир томондан, Европа ҳамжамиятлари ва аъзо-давлатлари иккинчи томондан ўзаро шериклигини таъсис этувчи шериклик ва ҳамкорлик тўғрисида” Битим (ШҲБ) нинг имзоланиши сўз, фикр ва эътиқод ҳамда, шунга мувофиқ, оммавий ахборот воситалари эркинлигини ҳимоя қилиш тизими республикамиз учун ҳам долзарб бўлиб бормоқда. Тегишли Умумевропа ҳужжатлари ва уларнинг амалда кўллапиниши оммавий ахборот эркинлигига бевосита таъсир кўрсатмоқда. Бу аввало Инсон ҳуқуқ ва эркинликларини ҳимоя қилиш тўғрисидаги Европа конвенциясига тааллуқлидир. Унинг 10-моддасида шундай дейилади:

“1. Ҳар бир инсон ўз фикрини эркин ифодалаш ҳуқуқига эга. Бу ҳуқуқ ўз фикрида туриш, ахборот ва ғояларни давлат органлари аралашувисиз ва давлат чегараларидан мустақил равишда олиш ва тарқатиш эркинлигини ўз ичига олади. Бу модда давлатларга радиоэшиттиришлар, телевизион ёки кинематография корхоналарини лицензиялашни жорий қилишга тўсқинлик қилмайди.

2. Мажбурият ва жавобгарлик юкловчи ушбу эркинликларнинг амалга оширилиши давлат хавфсизлиги, худудий яхлитлиги ёки жамоатчилик тинчлиги йўлида, тартибсизлик ва жиноятчиликни

олдини олиш, саломатлик ва одоб-ахлоқни ҳимоя қилиш, бошқа шахсларнинг обрўси ва ҳуқуқларини ҳимоя қилиш, махфий олинган ахборотнинг ошқор этилишининг олдини олиш ёки одил судловнинг нуфузи ва холислигини таъминлаш мақсадларида қонунда белгиланган ва демократик жамиятда зарур бўлган расмийчиликлар, шартлар, чекловлар ёки жарима санкциялари билан бириктирилади”

Қайд этиш лозимки, ушбу меъёрни қўллаш бўйича низоларни ҳал этиш Европа комиссияси ва Инсон ҳуқуқлари бўйича Европа судининг тажрибасида анчагина шаклланиб бўлди. Жумладан, Комиссия ва Суд, ўз фикрини ифодалаш нафақат давлат томонидан ижобий қабул қилинадиган ёки умуман эътибор берилмайдиган ахборот ва ғояларгагина эмас, балки ҳокимият ва аҳолининг баъзи қисмларини лол қолдирадиган ва хавотир уйғотадиган ахборот ва ғояларга ҳам жорий этилишини белгилаб, “ўз фикрини ифодалаш” тушунчасига кенгайтирилган шарҳ бердилар. Айни вақтда Комиссия ОАВдаги тижорат хусусиятига эга “ифодалаш” (реклама), 10-модда амал доирасига тушса-да, бевосита “сиёсий” чиқишларга қараганда камроқ ҳимоядан фойдаланадилар.

Фикр, сўз ва эътиқод эркинлиги ҳуқуқини миллий миқёсда таъминлаш муаммосига келадиган бўлсак, кўрсатилган эркинликлар биринчилардан бўлиб қонунан мустаҳкамлаб қўйилди. Масалан, 1789 йилдаги Франция инсон ва фуқаро ҳуқуқлари декларацияси 11-моддасида бегилаб қўйилган: “Фикр ва мулоҳазаларни эркин ифодалаш инсоннинг энг қимматли ҳуқуқларидан биридир: шу сабабли ҳар бир фуқаро фикрини эркин ифодалаш, ёзиши ва нашр этиши мумкин ва бунда қонунда кўрсатилган ҳолатларда ушбу эркинликни суиистеъмом қилгани учун жавобгар бўлади”

Ўзбекистон Республикаси Конституцияси (29-модда 1- бандда) фикр, сўз ва эътиқод эркинлиги муфассал ёритилган: “Ҳар ким фикрлаш, сўз ва эътиқод эркинлиги ҳуқуқига эга. Ҳар ким ўзи истаган ахборотни излаш, олиш ва уни тарқатиш ҳуқуқига эга, амалдаги конституциявий тузумга қарши қаратилган ахборот ва қонун билан белгиланган бошқа чеклашлар бундан мустаснодир”.

Қолаверса, Ўзбекистон Конституциясида (67-модда) “Оммавий ахборот воситалари эркиндир ва қонунга мувофиқ ишлайди. Улар ахборотнинг тўғрилиги учун белгиланган тартибда жавобгардирлар. Цензурага йўл қўйилмайди”, деб мустаҳкамлаб қўйилган. Ушбу қоида Ўзбекистон Республикаси “Оммавий ахборот воситалари тўғрисида”ги Қонунининг (1997 йил, 26 декабрь) 4-моддасида бу

масала янада аниқлаштирилади: “Ўзбекистон Республикасида оммавий ахборот воситалари цензурасига йўл қўйилмайди. Ҳеч ким чоп этилаётган хабарлар ёки материалларни олдиндан келишиб олишни, шунингдек, матнни ўзгартиришни ёки уларни нашрдан (эфирдан) олиб ташлашни талаб этиш ҳуқуқига эга эмас”

Меъёр жуда лўнда бўлса-да, Конституциянинг умумий матнида бошқа меъёрлар мазмуни билан уйғунлашиб, зарур аниқлик ва тизимлиликни юзага келтиради.

Оммавий ахборот воситалари мазмунини бойитишга Конституциянинг 29-моддасидаги бошқа меъёрлар ҳам хизмат қилади. Чунончи, Конституция ҳар кимга фикр ва сўз эркинлигини, ахборотни хоҳлаган қонуний йўл билан эркин излаш, олиш, бериш, ишлаб чиқариш ва тарқатиш ҳуқуқини, инсонни ўз фикр ва эътиқодини ифодалашга ёки улардан воз кечишга мажбурлашга йўл қўйилмаслигини қафолатлайди. Бу билан, биринчидан, ушбу эркинликларнинг нисбатан ўзига хослиги, иккинчидан, уларнинг чуқур ўзаро алоқаси, учинчидан, масаланинг моҳияти юридик жиҳатдан бир-бирини тўлдириши таъкидланади. Чунончи, оммавий ахборот соҳасида уларга ОАВ тўғрисидаги Қонуннинг 47-моддаси 1-бандида белгиланган журналистнинг ахборотни излаш, сўраш, олиш ва тарқатиш, ўз шахсий мулоҳазалари ва баҳоларини унинг имзоси остида тарқатилиши мўлжалланган хабар ва материалларда ифодалаш билан ўз имзоси остида ўзининг эътиқодига зид келувчи хабар ёки материални тайёрлашдан воз кечиш ҳуқуқи бирга келади.

Оммавий ахборот эркинликларининг конституциявий қафолатлари орасида Конституциянинг 8, 34 ва 35-моддаларида белгиланган иқтисодий фаолият эркинлиги ва хусусий мулк ҳуқуқини, шунингдек, ҳеч қандай мафкура мажбурий ёки давлат мафкураси сифатида ўрнатилиши мумкин эмаслигини кўзда тутувчи ғоявий хилма-хиллик тамойилини (13-модда) келтириш мумкин. Бу билан ахборот плюрализмини, жумладан, оммавий ахборот воситаларини йиғиш ва монополиялаштириш орқали тугатишга уринишларга қарши туриш учун муайян ҳимоя механизмлари шаклланади.

Оммавий ахборот эркинлигининг конституциявий қафолатлари сифатида мансабдор шахсларнинг инсонлар ҳаёти ва саломатлигига таҳдид солувчи факт ва ҳолатларни яшириш юзасидан жавобгарлигини ўрнатувчи, ҳар кимнинг атроф-муҳит ҳолати ҳақидаги ишончли ахборот олиш, ижод эркинлиги, интеллектуал

мулкни ҳимоя қилиш, суд ишининг ошкоралиги ва бошқа ҳуқуқларини мустаҳкамловчи меъёрларни ҳам кўрсатиб ўтиш мумкин. Журналист ва таҳририятнинг ахборот ва унинг манбаси махфийлигини таъминлаш юзасидан жавобгарлиги белгиланган ОАВ тўғрисидаги Қонунда шахс ҳуқуқлари ҳимояси кўзда тутилган.

Сўз ва ўз фикрини ифодалаш эркинлигидан ҳар кимнинг ахборотни хоҳлаган қонуний йўл билан излаш, олиш, бериш, ишлаб чиқариш ва тарқатиш ҳуқуқи келиб чиқади. Конституцияда кафолатланган ахборот эркинлиги ҳуқуқи турли усуллар орқали: шахслараро мулоқот орқали, оммавий ахборот воситалари (ОАВ), моддий ахборот ташувчилар, ўқув муассасалари, йиғилиш ва митинглар, фуқаролар- йиғини, турли клублар, маърузахоналар, кўргазмали куруллар (плакатлар ва б.) ва бошқа ўзи истаган усуллар орқали амалга оширилиши мумкин. Ушбу ҳуқуқлар, агар уларни қўллашда қонунчиликда кўзда тутилган қоидаларга амал қилинган бўлса, масалан: ОАВ, митинг, намойиш, юриш, ва пикет ўтказишда, қонуний саналади.

Ахборот эркинлиги, авваламбор, ҳар кимнинг турли маълумотларни излаш ва олиш ҳуқуқида намоён бўлади.

20-модда

1. Ҳар бир инсон тинч йиғинлар ўтказиш ва уюшмалар тузиш ҳуқуқига эга.

2. Ҳеч ким бирор бир уюшмага киришга мажбур қилиниши мумкин эмас.

Ҳозирги замон конституцияларининг кўпчилигида фуқароларнинг сиёсий фаоллиги шаклларида бўлган **йиғилишлар, митинглар, намойишлар ва бошқаларни ўтказиш эркинлиги** белгилаб қўйилган. Ушбу демократик институтлар жамият ва давлат ҳаётининг исталган масаласи бўйича жамоавий ёки индивидуал фикрнинг ошқора ифода шакли ҳисбланади. Мазкур сиёсий эркинликлардан фуқаролар ҳам ўз шахсий ривожланиши, ўз фикрини ифодалаш ва ўзини намоён қилиш йўлида, ҳам ижтимоий-сиёсий ҳаётда фаол иштироки йўлида фойдаланадилар.

Кўрилаётган эркинликларнинг ҳуқуқий мазмуни уч турдаги қонуний ҳуқуқларнинг мавжудлигини қамраб олади: шахсий ижобий ҳаракатлар (ошқора тадбирлар ташкил этиш ва уларда қатнашиш) ҳуқуқи; талаб қилиш (оммавий ошқора тадбирларни ўтказишнинг

зарурий моддий омили сифатида жамоат биноларини, кўча ва бошқаларни тақдим этиш) ҳуқуқи; юридик даъво қилиш (зарур ҳолларда давлат томонидан мажбурлаш ёки давлат томонидан ҳимоя қилиниш кўмагидан фойдаланишга бўлган юридик имконият) ҳуқуқи. Кўриниб турибдики, ушбу ҳуқуқ умумҳуқуқий тамойил – қонунда тақиқланмаган барча нарса мумкиндир деган тамойил шаклида юзага чиқади (табiiйки, ижтимоий муносабатларнинг ушбу соҳасига қўллаган ҳолда).

Йиғилиш, митинг, намоишлар эркинлигини амалга ошириш учун, қоидага кўра, ошқора тадбирларнинг олдиндан хабар бериладиган тартиби жорий этилади. Бунда ташкилотчилар давлат ҳокимияти органларини ўтказиладиган тадбир ҳақида хабардор қилиб қўядилар. Бунда ҳокимият фақат тадбирнинг мақсади ва ўтказилиш шартлари жамоат тартибига таҳдид уйғотсагина ошқора тадбирга тўсқинлик қилишга ҳақлидирлар.

Шахснинг асосий ҳуқуқ ва эркинликларини жамият манфаатларини ва бошқа шахсларнинг ҳуқуқ ва эркинликларини таъминлаш нуктаи назаридан чеклаш имконияти суиистеъмом бўлмаса-да, ҳимоя қилинаётган жамият манфаатларига мос келмайдиган чеклов чораларини амалга ошириш хавфини туғдиради. Шу сабабли қонунда ошқора тадбир ноқонуний деб топилиши мумкин бўлган сабабларнинг қатъий рўйхати мустаҳкамлаб қўйилган.

Ошқора тадбирларнинг мақсади Конституцияга ва амалдаги қонунчиликка зид бўлмаслиги керак. Қонунчиликка мувофиқ, қуйидаги ҳолларда ошқора тадбирлар ҳокимият органлари вакиллари талабига кўра тақиқланиши мумкин: 1) тадбирни ўтказиш бўйича ариза берилмаган бўлса; 2) уни тақиқлаш ҳақида қарор қабул қилинган бўлса; 3) уни ўтказиш тартиби бузилган бўлса; 4) фуқаролар ҳаёти ва саломатлигига хавф уйғотса; 5) жамоат тартиби бузилган бўлса. Кўпгина давлатларда ошқора тадбирларни ўтказиш “жамоат йўли”да, яъни шаҳар транспорти қатнайдиган жойларда тақиқланади. Россия қонунчилигида ошқора тадбирларни ташкил этиш ва ўтказишнинг белгиланган тартиби бузилиши бўйича жиноий ва маъмурий жавобгарликлар белгилаб қўйилган.

Жамоат ташкилотларига бирлашиш ҳуқуқи бошқа сиёсий ҳуқуқ ва эркинликлар қатори, индивиднинг ижтимоий-сиёсий ҳаётда қатнашишини таъминлайди. Бу ҳуқуқ, шунингдек, иттифоқлар ва уюшмалар ҳуқуқи номи билан машҳур бўлиб, қонун талаблари доирасида ҳар қандай иттифоқ тузиш ҳуқуқини англатади. Жамоат

ташкilotлари умумий мақсадга эришиш учун манфаатлар умумийлиги асосида бирлашган фуқароларнинг эркин хошиш билдиришлари натижасида ташкил этилади. Одатда, бу ҳуқуқ жамоат ташкilotлари фаолияти эркинлиги ва уларнинг тенг ҳуқуқлилиги тамойилини назарда тутати. Умумий қоидага кўра, қонун рўйхатдан ўтиши лозим бўлган бирлашмалар тури, ушбу рўйхатдан ўтиш тартиби, шунингдек, жамоат ташкilotлари устидан назоратнинг шакллари белгилади.

Фуқаролар бирлашмалари уларнинг манфаатларини қондириш ва ҳимоя қилишга йўналтирилгандир. Жамоат бирлашмалари ташкил топиши ва фаолиятининг асосий тамойиллари, одатда, конституцияларда мустаҳкамлаб қўйилади. Масалан, Ўзбекистон Конституцияси уларнинг сирасига ихтиёрилиқ, ташкил этилиш ва фаолият эркинлигини қиритади. Қонунчилик жамоат бирлашмаларини жамоат ташкилоти, ижтимоий ҳаракат, жамоат фонди, жамоат муассасаси, ижтимоий ташаббус органи қаб ташкилий-ҳуқуқий шаклларда ташкил этиш ҳуқуқини мустаҳкамлайди. Фуқароларнинг сиёсий фаоллигини йўналтирувчи асосий жабҳалар сифатида сиёсий партиялар, қасаба уюшмалари, хотин-қизлар ва ёшлар ташкilotлари, ижодий, тадбирқорлик ва бошқа иттифоқлар юзага чиқади.

Бирлашиш ҳуқуқи фақат қонунда аниқ кўрсатилган ҳолатларда чекланади. Конституциялар ва қонунларда ушбу ҳуқуқни чеклашнинг энг кўп учрайдиган кўриниши яширин жамиятлар, ҳарбийлаштирилган ташкilotлар ва жамиятга қарши мақсадлардаги бирлашмалар тузишни тақиқлашдир.

21-модда

1. Ҳар бир инсон бевосита ёки эркин сайланган вакиллар воситаси орқали ўз мамлакатини бошқаришда қатнашиш ҳуқуқига эга.

2. Ҳар бир инсон ўз мамлақатида давлат хизматида қиршда тенг ҳуқуққа эга.

3. Ҳалқ иродаси ҳуқумат ҳокимиятининг асоси бўлиши лозим; бу ирода даврий ва сохталаштирилмаган, ялпи ва тенг сайлов ҳуқуқидан яширин овоз бериш йўли билан ёки овоз бериш эркинлигини таъминлайдиган бошқа тенг қийматли шакллар воситасида ўтказиладиган сайловларда ўз аксини топиши лозим.

Фуқароларнинг давлат ишларини бошқаришда қатнашиш ҳуқуқи фуқароларнинг давлат қарорларини қабул қилиш ва амалга ошириш соҳасига жалб қилинишини юридик жиҳатдан таъминлайди. Бу ҳуқуқ, маърифатпарварлик анъаналарининг классик концепциялари мантиғига кўра инсонларнинг табиий тенглиги ва туғма озодлиги билан изоҳланади. У жамиятнинг фуқароларни фаол сиёсий фаолиятга жалб қилувчи бутун сиёсий тизимининг демократик ташкил этилиши билан қафолатланади.

Фуқароларнинг давлат ишларини бошқаришда қатнашиш ҳуқуқи сиёсий ҳуқуқ бўлиб, унга ҳақли равишда, қонун ҳамда ошқора ҳокимият томонидан таъминланган, давлатнинг ижтимоий-сиёсий ҳаётида ва давлат ҳокимиятини амалга оширишда (индивидуал ва жамоавий тарзда) иштирок этиш имконияти сифатида қаралган. Бу билан фуқаронинг давлатдан четлашишининг олди олинади. Фуқароларнинг сиёсий ҳуқуқлари бошқа барча ҳуқуқлари амал қилишининг ўзгармас шarti саналади, зеро улар демократия тизимининг табиий асосини ташкил этади ва ҳокимият ўзини чеклаши ва асосланиши лозим бўлган кадриятлар сифатида юзага чиқади.

Умумжаҳон декларациясида баён этилган фуқаролик ва сиёсий ҳуқуқлар 1966 йилда қабул қилинган ва 1976 йилда кучга кирган Фуқаролик ва сиёсий ҳуқуқлар тўғрисидаги халқаро пактда аниқроқ ва равшанроқ келтирилган. Ушбу халқаро пакт аъзолари 129 та давлат бўлиб, бу энг кўп аъзога эга, бажарилиши мажбурий бўлган ва эркин сайловлар ҳуқуқини қафолатловчи халқаро воситага айлантиради. Ушбу ҳужжатнинг 25-моддасида ҳар бир фуқаронинг “умумий ва барчага баробар сайлов ҳуқуқи асосида, яширин овоз бериш йўли билан ўтказиладиган ҳамда сайловчиларнинг эркин хоҳиш билдиришини таъминловчи ҳақиқий даврий сайловларда сайлаш ва сайланиш” ҳуқуқи эълон қилинади.

Фуқаролик ва сиёсий ҳуқуқлар тўғрисидаги халқаро пакт кўптомонлама халқаро шартнома сифатида қабул қилинган ва Инсон ҳуқуқлари умумжаҳон декларациясидан фарқли ўларок, аъзо-давлатлар учун мажбурий характерга эга ҳужжат сифатида қабул қилинган. Сайлов стандартлари бўйича асосий универсал халқаро манбалар сирасига Аёлларнинг сиёсий ҳуқуқлари тўғрисидаги конвенция (1952 йил 20 декабрь), Аёлларга нисбатан камситишнинг барча шакллари тугатиш ҳақидаги конвенция (1979 йил 18 декабрь), Иркий камситишнинг ҳар қандай кўринишини тугатиш

ҳақидаги халқаро конвенция (1965 йил 25 декабрь)ларни киритиш мумкин. БМТ доирасида ишлаб чиқилган ушбу халқаро-ҳуқуқий ҳужжатларда сайловларда иштирок этишда аёллар ҳуқуқларига нисбатан ҳамда ҳар қандай ирқий камситишларга йўл қўйилмаслигига эътибор берилган, ирқий камситиш деганда эса: “сиёсий, иқтисодий, ижтимоий, маданий ёки жамият ҳаётининг бошқа соҳаларида инсон ҳуқуқлари ва асосий эркинликларини тан олиш, қўллаш ва амалга оширишни йўқ қилиш ёки камайтиришни мақсад қилган ёки уларнинг оқибати бўлган, терисининг ранги, насаби, миллий ёки этник келиб чиқиши бўйича ҳар қандай ажратиш” тушунилган (Мазкур конвенциянинг 1-моддаси 1-қисми). Қолаверса, давлатлар эркаклар ва аёллар ўртасида амалий тенглик ўрнатилишини тезлатишга қаратилган махсус чоралар кўришни зиммаларига олдилар. Аёллар сиёсий ҳуқуқлари ҳақидаги конвенциянинг 1 ва 2-моддаларида шундай дейилади: “Аёллар миллий қонунчиликда кўрсатилган, ошқора сайловлар талаб этиладиган ҳар қандай муассасаларга бўладиган барча сайловларда эркаклар билан тенг шартларда, ҳеч қандай камситишларсиз овоз бериш ҳуқуқига эгадирлар. Аёллар миллий қонунчиликда кўрсатилган, ошқора сайловларни талаб қилувчи ҳар қандай муассасаларга барча сайловларда эркаклар билан баробар шартларда, ҳеч қандай камситилишсиз сайланиш ҳуқуқига эгадирлар” Аёлларга нисбатан камситишнинг ҳар қандай шаклини тугатиш ҳақидаги конвенциянинг 7-моддаси қуйидагиларни белгилайди: “Аъзо-давлатлар аёлларга нисбатан мамлакатнинг сиёсий ва ижтимоий ҳаётидаги камстишларни тугатиш бўйича тегишли чораларни кўрадилар ва, жумладан, аёлларга эркаклар билан баробар ҳуқуқлар берилади:

а) барча сайловлар ва ошқора референдумларда овоз бериш ва ошқора сайланадиган барча органларга сайланиш;

б) ҳукумат сиёсатини шакллантириш ва амалга оширишда қатнашиш ва давлат мансабларини эгаллаш, шунингдек, давлат бошқарувининг барча даражаларида барча давлат функцияларини амалга ошириш”

Ирқий камситишларнинг ҳар қандай кўринишларини тугатиш ҳақидаги халқаро конвенциянинг 5-моддасида мустаҳкамланганки, “Аъзо-давлатлар ирқий камситишни унинг барча кўринишларида тақиқлаш ва тугатиш ҳамда ҳар бир кишининг қонун олдида ирки, терисининг ранги, миллий ёки этник келиб чиқишидан қатъи назар

тенглигини, хусусан, қуйидаги ҳуқуқларни амалга оширишга нисбатан: сиёсий ҳуқуқлар, жумладан, сайловларда қатнашиш – сайлаш ва ўз номзодини қўйиш – умумий ва баробар сайлаш ҳуқуқи, мамлакатни бошқаришда қатнашиш ҳуқуқи асосида..., таъминлаш мажбуриятини зиммаларига оладилар. Сиёсий ҳуқуқ ва эркинликлар, давлат табиатини акс эттириш, ҳокимиятни назорат қилиш воситалари, демократик тартибни баҳолаш мезони омили сифатида, замонавий жамиятнинг ажралмас белгиларидир. Юридик адабиётларда уларни: 1) давлат ва унинг органларининг ташкил этилиши ва фаолият юритишида вакиллик ва бевосита демократиянинг турли шакллари орқали (сайлов ҳуқуқлари, петиция ҳуқуқи) қатнашиш қонуний ҳуқуқи; 2) жамият ҳаётида фаол қонуний қатнашиш (сўз ва матбуот эркинлиги, йиғилиш ва манифестациялар эркинлиги, бирлашмалар ҳуқуқи) ҳуқуқи.

Шахсий, сиёсий ҳуқуқ ва эркинликлардан фарқли ўлароқ, улар инсоннинг мухторлигини таъминлашга эмас, балки унинг сиёсий жараёнларнинг фаол иштирокчиси сифатида намоён бўлишини таъминлашга қаратилган. Бу тоифа ҳуқуқларнинг қиммати шундаки, улар фуқаро, жамият ва давлат ўртасидаги алоқаларнинг мустаҳкамланишига шароит яратади. Сиёсий ҳуқуқ, мазмун-моҳиятига кўра, шахсий эркинликнинг қирраларидан биридир: инсон, онгли мавжудот, ҳамда сиёсий идрок ва сиёсий ирода соҳиби сифатида, сиёсий жараёнларнинг мустақил ва эркин иштирокчиси бўлиб иш кўриш ҳуқуқига эга.

Шуни алоҳида таъкидлаб ўтиш керакки, сиёсий ҳуқуқлар, одатда, фуқароларгагина жорий қилинади, яъни сиёсий ҳуқуқларга эгаллик муайян давлат фуқароси бўлиш билан боғлиқ. Инсон ҳуқуқларидан фарқли ўлароқ, фуқаро ҳуқуқлари индивиднинг давлат билан муносабатлари (ошқора манфаатлар) соҳасини қамраб олади.

Дастлаб буржуазия конституционализи доирасида эълон қилинган сиёсий ҳуқуқ ва эркинликлар келгусида кенгайтирилган конституциявий-ҳуқуқий мавқега эга бўлди ва аввал миллий, кейинроқ халқаро ҳуқуқнинг энг муҳим институти сифатида қарор топди. Инсон ҳуқуқлари ҳақидаги кўплаб универсал ва минтақавий аҳамиятдаги замонавий халқаро-ҳуқуқий ҳужжатлар, инсоннинг ажралмас ҳуқуқ ва эркинликлари ҳажмини белгилаб, сўз ва эътиқод эркинлиги, тинч йиғилиш ва уюшмалар эркинлиги, давлат бошқарувида қатнашиш ҳуқуқи кабиларни қамраб оладилар.

Шуни таъкидлаш муҳимки, инсон ва фуқароларнинг сиёсий ҳуқуқ ва эркинликларини ҳаётга жорий этиш миллий ҳуқуқ меъёрлари ёрдамида ва воситасидагина амалга оширилиши мумкин. Демократик жамият мавжудлигини сиёсий плюрализм ва унинг кадриятлари шаклланишисиз, жамият онги ва хатти-ҳаракатларининг хилма хиллигисиз, фуқароларнинг ижтимоий-сиёсий ҳаётда фаол иштирокисиз тасаввур қилиб бўлмайди. Шу сабабли демократик давлатда сиёсий ҳуқуқ ва эркинликлар оммавий жамият идроки томонидан иккинчи даражали нарса сифатида эмас, балки асосий инсонпарварлик кадрияти сифатида қабул қилинади.

Фуқароларнинг давлат ишларини бошқаришда бевосита иштироки сайловларда, референдумларда ўз хоҳишларини ифодалашлари орқали, шунингдек, қонун чиқарувчи, ижроия ёки суд ҳокимияти ишида шахсан иштироки орқали амалга ошади. Ушбу ўзак тамойил сиёсий ҳуқуқнинг қафолатлари ва шу вақтнинг ўзида аниқ татбиқ этиш шакллари сифатида қатор бошқа ҳуқуқлар: сайлаш ва сайланиш ҳуқуқи, референдумда қатнашиш ҳуқуқи, мансабга эришишда тенглик ҳуқуқи, шунингдек, одил судловни амалга оширишда қатнашиш ҳуқуқи хизмат қилиши тасодиф эмас. Бундан шундай ҳақли хулоса қилиш мумкинки, давлат ва жамият ишларини бошқаришда қатнашиш ҳуқуқи давлат ва унинг фуқароси ўртасидаги муносабатнинг асосий тамойили бўлибгина қолмай, фуқаронинг асосий ҳуқуқларидан бири ҳамдир.

Кўпчилик демократик конституцияларда фуқароларнинг давлат ишларини бошқаришда қатнашиш ҳуқуқи юқорида кўрсатилган ҳуқуқларнинг ялпи кўринишида мустаҳкамланади.

Сайлов ҳуқуқини максимал даражада қафолатлашга интилиб, замонвий демократик давлатлар авваллари мавжуд бўлган (мулкий, турғунлик, жинсга оид ва б.) чекловлардан воз кечдилар. Маълумки, шўро жамиятида тоталитар тузум шароитида сайлов ҳуқуқларини синфий ва миллий белгиларга кўра чеклаш ҳолатлари мавжуд эди. Сиёсий ҳуқуқлардан фойдаланишга қатъий синфий услубда ёндашиш бевосита авторитар ҳокимиятни жамиятнинг давлат ишларини бошқариш соҳасида сиёсий жиҳатдан қатнашиш тажрибасига эга аъзоларининг турли назоратларидан озод бўлишга интилишидан келиб чиқарди.

Сайлов ҳуқуқи унсурлари сифатида қуйидагилар юзага чиқади: 1) сайлаш ҳуқуқи (сайлов ва референдумларда эркин ва масъулиятли ўз хоҳишини ифодалаш); 2) давлат ҳокимияти органларига сайланиш

ҳукуки; 3) сайловчилар томонидан ишончларини оқламаган сайланган шахсларни чақириб олиш ҳукуқи. Бунга қўшимча қилиб айтиш керакки, ҳозирги замон конституциялари ва сайловга оид қонунлар сайлаш ва сайланиш ҳукуқига эга бўлиш учун зарур минимал талабларни белгилайди.

22-модда

Ҳар бир инсон жамият аъзоси сифатида миллий куч-ҳаракатлар ҳамда халқаро ҳамкорлик воситасида ва ҳар бир давлатнинг тузилиши, шунингдек, ресурсларига мувофиқ ижтимоий таъминотга ва ўзининг кадр-қимматини сақлаш, шахсининг эркин ривожланиши учун зарур бўлган иқтисодий, ижтимоий ва маданий соҳалардаги ҳукуқини амалга оширишга ҳақли.

Индивиднинг ижтимоий мавқеини мустаҳкамлаш ва асосий ҳуқуқ ҳамда эркинликларини татбиқ қилиш кафолати **инсоннинг ижтимоий таъминот ҳукуқидир**. Ижтимоий таъминот ҳукуқи Ижтимоий, иқтисодий, ва маданий ҳуқуқлар тўғрисидаги пактнинг 9-моддасида мустаҳкамланган бўлиб, асосан жамият ҳисобидан моддий ёрдам ва турли кўринишдаги бепул хизматларга муҳтожларни таъминлашни назарда тутади. Ушбу ҳуқуқларни амалга ошириш Пактда кўрсатилган бошқа ҳуқуқлар, хусусан, муносиб ҳаёт даражаси, оила, оналар ва болаларни ҳимоя қилиш ва ёрдам бериш, жисмоний ва руҳий саломатликнинг энг юқори эришиладиган даражаси ҳуқуқларини татбиқ қилишнинг зарур шарти ҳисобланади.

Пактнинг 9-моддасида схематик шаклда баён этилган ижтимоий таъминот ҳукуқи, ижтимоий суғуртани ҳам камраб олган ҳолда, ХМТ томонидан қабул қилинган қатор халқаро конвенциялар ва тавсияларнинг предмети саналади.

Бу халқаро ҳужжатлар тиббий хизмат кўрсатиш, касаллик, ҳомиладорлик ва туғруқ, ногиронлик ва қарилик, боқувчисини йўқотиш, ишлаб чиқариш жароҳатларини олиш, ишсизлик бўйича пулли нафақалар, оилавий нафақалар масалаларини қамраб олади. Ушбу барча нафақаларни қамраб олган, кенг кўламли характерга эга ҳужжатларга 1952 йилдаги Ижтимоий таъминотнинг минимал меъёрлари тўғрисидаги 102-конвенцияси ва 1962 йилдаги Ижтимоий таъминотдаги тенг ҳуқуқлилиқ тўғрисидаги 118-конвенциялар қиради. 102-конвенция уни ратификация қилган давлатлар унда қайд

этилган тўққизта нафақа туридан камида учтасини таъминлашлари лозимлигини кўзда тутати.

118-конвенция чет элликлар ва фуқаролиги бўлмаган шахслар ҳам тўлиқ ҳажмда ижтимоий таъминот билан таъминланиш ҳуқуқини берилишини кўзда тутати. Аммо Конвенцияни ратификация қилаётганда давлатлар унинг бир ёки бир нечта ижтимоий таъминот турларига жорий қилинишини кўрсатиб ўтишлари мумкин.

Дунёнинг кўпчилиқ давлатлари ижтимоий таъминот соҳасидаги Конституциявий қонунчилиги умумий характерга эга ва улар қондага кўра ижтимоий таъминотга бўлган ҳуқуқнинг алоҳида таркибий қисмларини санаб ўтмайди. Турли нафақа ва пенсияларнинг ҳажмлари турли мамлакатларда хилма хилдир.

Ижтимоий ҳуқуқлар инсонга муносиб турмуш тарзи ва ижтимоий ҳимояланганликни таъминлайди. Энг асосийларидан бири ижтимоий таъминот ҳуқуқи бўлиб, у ижтимоий суғурталаш, пенсия таъминоти ва тиббий хизмат кўрсатишни қамраб олади.

Ижтимоий таъминот ҳуқуқи (ёшига кўра, касаллик, ногиронлик, боқувчисини йўқотиш, бола тарбияси ва қонунда кўрсатилган бошқа ҳолатларда) моҳияти давлатнинг объектив шароитларда меҳнат қилиш ва меҳнатдан даромад олиш қобилияти ёки имкониятидан маҳрум бўлган (тўлиқ ёки қисман) фуқароларга етарли маблағ беришни, шунингдек, оилаларга бола туғилиши ва тарбияланиши муносабати билан ёрдам беришни кафолатлашида акс этади. Ҳуқуқларнинг ушбу мажмуаси Иқтисодий, ижтимоий ва маданий ҳуқуқлар тўғрисидаги халқаро пактнинг 9-12-моддаларида ва Бола ҳуқуқлари тўғрисидаги конвенциясининг 26-моддасида мустаҳкамланган.

Ушбу ҳуқуқнинг амалга ошиши бошқа ҳуқуқлар, жумладан, муносиб ҳаёт даражасини таъминлаш, оилани, оналик ва болаликни ҳимоялаш ва ёрдам бериш, жисмоний ва руҳий саломатликнинг юксак даражаси ҳуқуқларининг татбиқи билан боғлиқдир.

Ижтимоий ҳимоя ҳуқуқини таъминлаш кафолатлари ХМТ томонидан қабул қилинган қатор халқаро конвенция ва тавсияларнинг предметлари саналади. Ижтимоий таъминотнинг минимал меъёрлари тўғрисидаги 102-конвенция давлатларнинг тўққиз турдаги ижтимоий нафақалар, жумладан, профилактика ва даволаш характеридаги тиббий ёрдам, касаллик бўйича вақтинча йўқотилган меҳнат қобилиятини тиклаш мақсадида, ишсизлик бўйича, қариллик, ҳомиладорлик, ногиронлик ёки боқувчисини

йўқотганлик туфайли нафақалар тўлаш мажбуриятини белгилайди. Ижтимоий таъминот соҳасидаги тенгҳуқуқликлик тўғрисидаги 118-конвенция чет элликлар ва фуқаролиги бўлмаган шахсларнинг давлат фуқаролари билан тенг ҳуқуқларга эгаллигини белгилайди.

23-модда

1. Ҳар бир инсон меҳнат қилиш, ишни эркин танлаш, адолатли ва қулай иш шароитига эга бўлиш ва ишсизликдан ҳимоя қилиниш ҳуқуқига эга.

2. Ҳар бир инсон ҳеч бир камситишсиз тенг меҳнат учун тенг ҳақ олиш ҳуқуқига эга.

3. Ҳар бир ишловчи киши ўзи ва оиласи учун инсонга муносиб яшашни таъминлайдиган адолатли ва қониқарли даромад олишга, зарур бўлганда ижтимоий таъминотнинг бошқа воситалари билан тўлдирилувчи даромад олиш ҳуқуқига эга.

4. Ҳар бир инсон касаба уюшмалари тузиш ва ўз манфаатларини ҳимоя қилиш учун касаба уюшмаларига кириш ҳуқуқига эга.

Иқтисодий ҳуқуқлар инсонга хўжалик фаолиятининг асосий омилларини эркин бошқариш имконини беради. Уларга: меҳнат қилиш ҳуқуқи; хусусий мулк ҳуқуқи; тадбиркорлик ҳуқуқи; иш ташлаш ҳуқуқи ва бошқалар қиради. Бундан ташқари, ишчилар ва иш берувчилар жамоавий келишув битими имзолаш ҳуқуқига эгалар; ўз манфаатларини ҳимоялаш учун миллий ёки халқаро ташкилотларга эркин бирлашиш ҳуқуқи.

Иқтисодий ҳуқуқлар каторида етакчи ўринни ҳар бир инсоннинг яшаш учун ўзи эркин танлаган ёки ўзи эркин рози бўлган меҳнат билан даромад олиш имкониятига эга бўлиш ҳуқуқини ўз ичига олувчи меҳнат қилиш ҳуқуқи (Иқтисодий, ижтимоий ва маданий ҳуқуқлар тўғрисидаги халқаро пактининг 6-моддаси) эгаллайди. Бу ҳуқуқ инсоннинг доимо мавжуд бўлган, инсон мавжудлигининг энг оддий моддий омилларини яратиш, шунингдек, шахснинг ҳар томонлама ривожланишини таъминлаш учун зарур бўлган эҳтиёжини акс эттиради. Меҳнат қилиш ва ишсизликдан ҳимояланиш ҳуқуқи Инсон ҳуқуқлари умумжаҳон декларациясининг 23-моддасида ҳам қайд этилган.

Конституцияда ҳар кимнинг меҳнатга нисбатан ўз қобилиятларидан эркин фойдаланиш, фаолият тури ва касбини

танлаш ҳуқуқи кафолатланади, адолатли ва қулай меҳнат шароитлари ҳуқуқи эътироф этилган. Қонунчилик иш берувчига ўз ходимларини тегишли меҳнат шароити билан таъминлаш мажбуриятини юклайди. Ушбу мажбурият бажарилмагани туфайли ходим саломатлигига зарар етган тақдирда, иш берувчи етказилган моддий ва маънавий зарарни қоплашга мажбур.

Фуқаронинг эркин меҳнат қилиш конституциявий ҳуқуқи қуйидагиларни англатади: 1) эркин ва мустақил танлаш имконияти – ишлаш ёки ишламаслик;

2) фаолият тури ва касбни эркин танлаш, бу юридик жиҳатдан меҳнат мажбуриятларининг шартномавий характерида, маъмуриятни тегишли суратда хабардор қилганидан сўнг, иш жойини ўзгартириш ҳуқуқида, белгиланган пенсия ёшига етгач ишлаш ҳуқуқида ва бошқаларда акс этади;

3) мажбурий меҳнатнинг тақиқланганлиги. Мажбурий меҳнат деб, Фуқаролик ва сиёсий ҳуқуқлар тўғрисидаги халқаро пактининг 8-моддасига мувофиқ, фуқаро эркин танламаган меҳнат назарда тутилади. Мажбурий (ғайриихтиёрий) меҳнатга фақат ҳарбий хизмат мажбуриятларини, суд ҳукмини бажаришда, ёки фавқулодда ҳолатлар шароитида рухсат берилади (ХМТнинг 1930 йилдаги Мажбурий меҳнат тўғрисидаги 29-конвенцияси).

Меҳнат қилиш ҳуқуқининг амалда рўёбга чиқиши барча истовчиларни иш билан таъминлаш, аҳолининг тўлиқ бандлиги муаммосини ҳал этиш вазифасида акс этади. Шу тариқа, меҳнат қилиш ҳуқуқи давлат томонидан барча шахсларга тақдим этилувчи ишсизликдан ҳимояланиш ҳуқуқини назарда тутати (Инсон ҳуқуқлари умумжаҳон декларацияси 23-моддаси). ХМТнинг Бандлик соҳасидаги сиёсат тўғрисидаги 122-конвенциясида қайд этиладики, “Ишсизлик ва тўлиқсиз бандлиқини тугатиш (мақсадларида) Ташкилотнинг ҳар бир Аъзоси тўлиқ, самарали ва эркин танланган бандликни қўллаб-қувватлашга қаратилган фаол сиёсатни бош мақсад сифатида эълон қилади ва амалга оширади” (1-модда).

Ушбу тамойил ХМТнинг 1991 йилдаги Бандликка кўмаклашиш ва ишсизликдан ҳимоялаш тўғрисидаги 168-конвенциясида янада мустаҳкамланди ва ривожлангирилди. Ушбу Конвенцияга кўра, ишга қабул қилишдан бош тортиш фақат бўш ўринларнинг йўқлиги ёки талабгорнинг етарли малакага эга эмаслиги ҳолатларидагина оқланиши мумкин. Ассосиз ишдан ҳайдаш ноқонуний бўлиб, зарур

холларда ишчилар олдинги иш ўринларига суд оркали қайта тикланишлари мумкин.

Бундан ташқари, ўз фуқароларининг ҳимояланганлигини ошириш учун давлат касбий-техник таълимни ривожлантириш, иқтисодий ўсиш ва тўлиқ ишлаб чиқариш бандлиги юзасидан муносиб чоралар кўришга мажбур. (Иқтисодий, ижтимоий ва маданий ҳуқуқлар тўғрисидаги халқаро пактнинг 6-моддаси).

Меҳнат ҳуқуқи ҳар бир шахснинг адолатли ва қулай меҳнат шароити ҳуқуқини ҳам ўз ичига олади. Бу ҳуқуқ, Иқтисодий, ижтимоий ва маданий ҳуқуқлар тўғрисидаги халқаро пактнинг 7-моддасида кафолатланган бўлиб, қуйидаги жиҳатларни ўз ичига олади: а) меҳнат учун ҳақ барча ишчиларга камида адолатли иш ҳақини ва ўзлари ҳамда оилаларининг қониқарли яшашини таъминлаши лозим; тенг аҳамиятли меҳнат учун ҳеч қандай фарқлашларсиз тенг ҳақ тўлаш; б) меҳнат шароити хавфсизлик ва гигиена талабларига жавоб бериши керак; в) ҳар бир шахс хизмат юзасидан янада юқори даражаларга кўтарилишда фақат меҳнат стажи ва малака асосида тенг имкониятга эга бўлиши лозим; г) барча ишчилар дам олиш, бўш вақт, иш вақтининг оқилона чегараланганлиги ва даврий ҳақ тўланадиган таътил, байрам кунлари учун мукофотлар олиш ҳуқуқига эга. Конституцияда меҳнат учун адолатли ҳақ тўлаш тамойили меҳнат учун ҳақ тўлашда камситишни, яъни жинси, ёши, ирқи, миллати, тили, ижтимоий келиб чиқиши, мулкӣ ва мансаб ҳолати, динга алоқаси, эътиқоди, жамоат ташкилотларига мансублиги, шунингдек, ходимнинг ишчанлик хусусиятларига ва меҳнати натижасига алоқадор бўлмаган бошқа ҳолатлар бўйича ҳуқуқларда чеклаш ёки афзаллик беришни тақиқлашда; қонунга биноан барча иш берувчилар учун мажбурий бўлган, бошланғич база сифатида минимал иш ҳақи даражасини белгилашда намоён бўлади.

24-модда

Ҳар бир инсон дам олиш ва бўш вақтга эга бўлиш, шу жумладан иш кунини оқилона чеклаш ҳуқуқи ва ҳақ тўланадиган меҳнат таътили олиш ҳуқуқига эга.

Иш кунининг оқилона чекланганлиги ва даврий ҳақ тўланадиган таътил ҳуқуқини ўз ичига олувчи дам олиш ва бўш вақт ҳуқуқи инсон ҳуқуқларини таъминлаш жараёнида ўзига хос

аҳамият касб этади. Бу ҳуқуқларларнинг Бирлашган Миллатлар Ташкилоти бошқарувининг предмети бўлганлиги, уларнинг алоҳида аҳамиятини кўрсатади. Инсон ҳуқуқлари умумжаҳон декларацияси, шунингдек, Иқтисодий, ижтимоий ва маданий ҳуқуқлар тўғрисидаги халқаро пактда қайд этилганки, ҳар бир инсон иш кунининг оқилона чекланганлиги ва даврий ҳақ тўланадиган таътил ҳуқуқини ўз ичига олувчи дам олиш ва бўш вақт ҳуқуқига эга. Аммо дам олиш ҳуқуқини ривожлантириш ва татбиқ қилиш муаммосини ҳал этишда Халқаро Меҳнат Ташкилоти алоҳида рол ўйнайди.

Дам олиш ҳуқуқи – ҳар бир инсоннинг ажралмас ҳуқуқи. Бутун инсониятнинг барқарор ва босқичма-босқич ривожланишида ушбу ҳуқуқнинг амалга ошиши муҳим шартлардан ҳисобланади. Мамлакатда ушбу ҳуқуқ қанчалик ҳаётий ва самарали амалга оширилаётганига иқтисодий, баъзи ҳолларда сиёсий шароит ҳам боғлиқ бўлади. Иқтисодий, ижтимоий, маданий ҳуқуқлар тўғрисидаги халқаро пактнинг (1966 йил 19 декабрь) 7-моддасида шундай дейилади: “Ушбу пактда қатнашувчи давлатлар ҳар кимнинг дам олиш, бўш вақт ва иш вақтининг оқилона чегараланганлиги ҳамда даврий ҳақ тўланувчи таътилни, шунингдек, байрам кунлари учун мукофотларни ўз ичига олган адолатли ва қулай меҳнат шароити ҳуқуқига эғалигини эътироф этадилар”

ХМТнинг биринчи сессиясидаёқ Саноат корхоналарида иш вақтини кунига 8 соат ва ҳафтасига 48 соат қилиб чегаралаш тўғрисидаги 1-конвенция қабул қилинди (1919 йил). ХМТнинг 1935 йилдаги 19-сессияси: “Ишсизлик шунчалик кенг кўлам олгани ва шунчалик узоқ муддат давом этаётгани, натижада ҳозирда жаҳондаги миллионлаб ишчилар ўзлари жавобгар бўлмаган ва қонунан ҳалос бўлиш ҳуқуқига эга бўлганлари ҳолда йўқчилик ва маҳрумликдан азобланаётганликларини; ишчилар имкон қадар техник тараққиёт меваларидан фойдаланишларини маъқул ҳисоблаб...; халқаро меҳнат коференциясининг ўн саккизинчи ва ўн тўққизинчи сессияларида қабул қилинган резолюцияларни ҳаётга татбиқ қилиш йўлида бандликнинг барча тоифалари учун иш вақтини имкон қадар кўпроққа қисқартириш борасида саъй-ҳаракатларни амалга ошириш зарур деб ҳисоблаб, 1935 йилнинг 22 июнида қуйидаги Конвенцияни қабул қиладики, у 1935 йилдаги Қирқ соатлик иш ҳафтаси тўғрисидаги 47-конвенция деб номланиши мумкин”

Конвенцияда 40 соатлик иш ҳафтаси “ходимлар ҳаёти даражасининг пасайишига олиб келмайдиган” усулда жорий

қилиниши лозимлиги алоҳида таъкидланган. ХМТнинг 1969 йилда қабул қилинган иш вақти давомийлигини қисқартириш ҳақидаги 116-Тавсияси иш вақтининг максимал чегарасини ҳафтасига 48 соат қилиб белгилайди. Бу тавсия ХМТнинг ҳар бир аъзо-давлатига иш вақти давомийлигини босқичма-босқич равишда ҳафтасига 40 соат қилиб белгилаш сиёсатини ишлаб чиқиш ва ҳаётга татбиқ қилишни тақлиф этади. Ҳозирда ривожланган мамлакатлар ҳам 40 соатлик иш ҳафтасини жорий этган, баъзи фирма ва йирик корхоналар эса, ўз ишчи ва ходимлари учун 36 соатлик иш ҳафтасини белгилаганки, бу инсон ҳуқуқлари ва эркинликлари соҳасидаги муҳим ютуқ саналади. ХМТнинг 1979 йил 6 июнда Женевада чақирилган Бош конференцияси иш вақтининг давомийлиги ва кўча транспортида дам олиш даври ҳақидаги 153-Конвенцияни қабул қилди. Бу конвенция ҳайдовчиларнинг иш вақтлари давомийлигини алоҳида белгилаб берди. Ҳеч қайси ҳайдовчига транспорт воситасини 4 соатдан ортиқ тинимсиз бошқаришга руҳсат берилмайди, бошқаришнинг максимал давомийлиги, белгилангандан ортиқ ишлашни ҳам ҳисобга олганда, кунига тўққиз соатдан ёки ҳафтасига қирқ саккиз соатдан ошмаслиги керак. Ҳайдовчиларнинг кундалик дам олиши иш куни бошидан ҳисоблаганда исталган 24 соат давомида кетма кет бўлган 10 соатдан кам бўлмаслиги лозим

ХМТ Бош конференцияси 1930 йил 28 июнда Савдо муассасаларида иш вақтини белгилаш ҳақидаги 30-конвенцияни қабул қилди. Бу конвенция тижорат ёки савдо ташкилотларида, телеграф корхоналарида ишловчи шахслар асосан канцелярия ишлари билан банд муассасаларда ишловчи шахсларга нисбатан қўлланилади. Бу шахслар учун конвенция иш вақти давомийлигини кунига ўн соатдан ва ҳафтасига қирқ саккиз соатдан ошмайдиган қилиб белгилади.

Халқаро Меҳнат Ташкилоти томонидан ҳафталик дам олишлар ва йиллик ҳақ тўланадиган таътиллار ҳақида қатор конвенциялар қабул қилинди; Саноатда ҳафталик дам олиш ҳақидаги 1921 йилдаги 14-конвенция; 1957 йилдаги Савдо ва муассасаларда ҳафталик дам олиш ҳақидаги 106-конвенция; 1970 йилдаги Ҳақ тўланадиган таътиллار ҳақидаги 132-конвенция (қайта кўриб чиқилган).

Чунончи, Ҳақ тўланадиган таътиллار ҳақидаги 132-конвенцияда айтиладиги, “Конвенция қоидалари миллий қонунчилик орқали, бошқа йўллар билан ҳаётга татбиқ қилиб бўлмайдиган даражада: жамоавий шартномалар, арбитраж қарорлари, суд қарорлари ёки иш

ҳақини белгилаш бўйича расмий органлар орқали ёхуд муайян мамлакатда мавжуд шароитларни ҳисобга олган ҳолда бу борада мамлакат тажрибасига мувофиқ келувчи бошқа исталган йўллар орқали амалга оширилади. Конвенция денгизчилардан ташқари, барча ёллаш бўйича ишлайдиган шахсларга татбиқ қилинади. Конвенцияда таътилларни тақдим этиш ва иш ҳақини тўлашнинг барча шартлари ва тартиби ишлаб чиқилган ва қайд қилиб ўтилган.

Конвенциянинг 3-моддасига кўра: “Ушбу Конвенция татбиқ қилинадиган ҳар бир шахс белгиланган минимал давомийликдаги йиллик ҳақ тўланадиган таътил ҳуқуқига эга, таътил бир иш йили учун уч иш ҳафтасидан камини ташкил қилиши асло мумкин эмас” Ҳар қандай ҳақ тўланадиган йиллик таътил ҳуқуқига эга бўлиш учун минимал иш даври талаб этилиши мумкин. Ана шундай исталган иш даврининг давомийлиги олти ойдан ошмаслиги лозим.

Расмий ва анъанавий байрам кунлари ва дам олиш кунлари, йиллик ҳақ тўланадиган таътил даврига тўғри келадими, йўқми, йиллик минимал ҳақ тўланадиган таътилнинг қисми деб ҳисобланмайди. Бундан ташқари, ушбу Конвенцияда кўзда тутилган таътилдан фойдаланаётган ҳар бир шахс ушбу таътилнинг тўлиқ даври учун ўзининг меъёрий ёки ўртача иш ҳақини, жумладан, ушбу шахс таътилдами ёки йўқлигидан қатъи назар бериладиган мунтазам тўлов бўлмаган ва одатда, натура ҳолатида ажратиладиган мукофотнинг исталган қисмининг нақд пул шаклидаги эквивалентини олади. Кўрсатилган иш ҳақи ҳокимиятнинг ваколатли органи белгилайдиган усулга мувофиқ ҳисоблаб чиқилади.

Йиллик ҳақ тўланадиган таътилни бўлақларга бўлишга ваколатли ҳокимият органи томонидан рухсат берилиши мумкин. Йиллик ҳақ тўланадиган таътилнинг узлуксиз қисми таътил берилган йилнинг охиридан ҳисоблаганда ўн саккиз ойдан кечиктирмасдан тақдим этилади ва фойдаланилади.

Йиллик ҳақ тўланадиган таътил – бу ишдан бўш календар кунлари (байрам ва дам олиш кунларидан ташқари) ни ташкил қилувчи, ишчи-ҳодимга узлуксиз дам олиш ва иш қобилиятини тиклаш учун иш жойи (мансаби) ва ўртача иш ҳақини саклаб қолган ҳолда тақдим этилувчи дам олиш муддатининг кўринишидир. Ҳозирда ХМТнинг амалдаги иккита – Йиллик ҳақ тўланадиган таътиллار ҳақидаги 52- конвенцияси (Женева, 1936 йил 24 июнь) ва қайта кўриб чиқилган Ҳақ тўланадиган таътиллار ҳақидаги 132- конвенцияси (Женева, 1970 йил 3 июнь) мавжуд. Биринчи Конвенция

1936 йилда қабул қилинган бўлиб, қисман эскирган ва кўпчилик ривожланган давлатлар анча кейинги, жаҳон қонунчилигининг Иккинчи жаҳон урушидан кейинги ривожланишини ҳисобга олган 132-қонвенцияни ратификация қилишни лозим топдилар. Аммо айнан 1936 йилги Қонвенция баъзи давлатларда ҳануз амалда бўлган йиллик ҳақ тўланадиган таътил ҳуқуқи ўрнатишнинг асосини яратди. 52-Қонвенцияга мувофиқ, ушбу Қонвенция татбиқ қилинадиган ҳар бир шахс 1 йил давом этган узлуксиз ишдан кейин камида 6 кунга тенг йиллик ҳақ тўланадиган таътилга чиқиш ҳуқуқига эга. Қайд этиш лозимки, таътил давомийлиги, миллий қонунчиликда белгиланган қондаларга асосан, иш стажининг давомийлигига пропорционал равишда ўсиб боради. 16 ёшга тўлмаган шахслар, жумладан ўқувчиларга келсак, улар камида 12 иш кунига тенг йиллик ҳақ тўланадиган таътилга чиқиш ҳуқуқига эга. Таътилга байрам кунлари, шунингдек, ишдаги касаллик туфайли узилишлар кирмайди. Қонвенция миллий қонунчилик йиллик ҳақ тўланадиган таътилни бўлишга руҳсат бериши мумкинлигини кўзда тутди. Аммо бу ҳол таътилнинг Қонвенцияда белгиланган минимал давомийликдан ошган қисмига тегишли бўлиши керак. Таътилга чиқаётган ҳар бир киши ўзининг одатдаги мукофотига тенг таътил ҳақини олади. Уларни ҳисоблаш миллий қонунчилик томонидан ёки жамоавий шартнома орқали белгиланади. Ҳар бир ишга ёлловчи ходимнинг ишга кирган санасини, унинг таътили давомийлиги, таътилга чиқиш санаси ва таътил ҳақининг ҳажмини белгилловчи ёзувлар қайд этиб борилиши керак. Йиллик ҳақ тўланадиган таътилни инкор қилувчи ёки бундай таътилга чиқиш ҳуқуқини бекор қилувчи ҳар қандай келишув қонуний кучга эга эмас. Ходим ҳолатининг “яхшилаш презумпцияси” ни мустаҳкамловчи меъёр ўша давр учун прогрессив аҳамиятга эга бўлди. Унга кўра, миллий қонунчиликнинг ходим учун янада яхшироқ шароит яратувчи ҳар қандай қондаси Қонвенция меъёрига нисбатан афзалликка эга бўлади. Миллий қонунчиликда ўзининг йиллик таътили давомида ҳақ тўланадиган ишда ишлаган ходим шу муддат учун таътил ҳақидан маҳрум бўлиши кўзда тутилиши мумкин. Тадбиркор айби билан ишдан ҳайдалган ходим ишлатилмаган таътил учун компенсация олиш ҳуқуқига эга. 1936 йилги Қонвенциянинг аҳамиятини юқори баҳолаш мумкин. У, моҳиятига кўра, кўпгина мамлакатларда ҳақ тўланадиган таътиллار институтининг ҳуқуқий асоси бўлди.

Конвенциянинг меъёрлари Ўзбекистон Республикаси Мехнат кодексига ўз аксини топди, йиллик ҳақ тўланадиган таътил ҳуқуқи эса, энг юқори даражада – Конституцияда қайд этиб ўтилган.

25-модда

1. Ҳар бир инсон ўзининг ҳамда оиласининг саломатлиги ва фаровонлигини таъминлаш учун зарур бўлган турмуш даражасига эга бўлиш, жумладан кийим-кечак, озиқ-овқат, тиббий хизмат ва зарур ижтимоий хизматга эга бўлишга ҳамда ишсизлик, касаллик, ногиронлик, бевалик, қариллик ёки унга боғлиқ бўлмаган шароитларга кўра тирикчилик учун маблағ бўлмай қолган бошқа ҳолларда таъминланиш ҳуқуқига эга.

2. Оналик ва болалик алоҳида гамхўрлик ва ёрдам ҳуқуқини беради. Барча болалар, никоҳда ёки никоҳсиз туғилишидан қатъи назар, бир хил ижтимоий ҳимоядан фойдаланиши керак.

Муносиб ҳаёт даражаси ҳуқуқи оила, оналар ва болаларни ҳимоя қилиш ва уларга кўмак бериш оилани ижтимоий кўллаб-қувватлашнинг турли шакллари кўзда тутлади. Иқтисодий, ижтимоий ва маданий ҳуқуқлар тўғрисидаги халқаро пактнинг 10-моддасига мувофиқ, оилаларга ҳимоя ва кўмак тақдим этиш, оналикни ҳимоялашнинг махсус чоралари, болалар ва ўспиринларни алоҳида ҳимоялаш ва кўмак бериш, боланинг жисмоний ёки маънавий саломатлигига ё унинг ривожланишига зарар етказадиган ҳолатда болалар меҳнатини тақиқлаш кабилар қиради. Инсон ҳуқуқлари умумжаҳон декларациясига мувофиқ, никоҳдан ёки никоҳсиз туғилган барча болалар бир хил ижтимоий ҳимоядан фойдаланишлари лозим.

Иқтисодий, ижтимоий ва маданий ҳуқуқлар тўғрисидаги халқаро пакт (1966 йил 19 декабрь)да саломатликни сақлаш ҳақидаги меъёрлар янада ривожлантирилди, жумладан, 12-моддада: “1. Ушбу Пактда қатнашаётган давлатлар ҳар бир инсоннинг энг юксак жисмоний ва руҳий саломатлик даражаси ҳуқуқини тан оладилар.

2. Ушбу пактда қатнашаётган давлатлар ушбу ҳуқуқни тўлиқ амалга ошириш учун қабул қилишлари лозим бўлган чоралар қуйидагилар учун зарур бўлган чора-тадбирларни қамраб олади:

а) ўлик туғилишни ва болалар ўлими қисқаришини ва боланинг соғлом ривожланишини таъминлаш;

б) ташқи муҳит гигиенасининг барча жиҳатларини ва саноатдаги меҳнат гигиенасини яхшилаш;

в) эпидемик, эндемик, касбий ва бошқа касалликларнинг олдини олиш ва даволаш ҳамда уларга қарши кураш;

г) барчани тиббий ёрдам ва касал бўлганда тиббий даволаш билан таъминловчи шароитни яратиш”

ХМТнинг баъзи конвенциялари соғлиқни сақлаш, соғлом турмуш тарзини таъминлаш ва барчанинг ривожланиши билан боғлиқ. Бир ишчи кўтариши мумкин бўлган юкнинг максимал чегараси ҳақидаги 127-конвенция; Ионлаштирувчи радиациядан ишчиларни ҳимоя қилиш ҳақидаги 115-конвенция; Ходимларни иш жойларидаги ҳавонинг ифлосланиши, шовқин ва вибрация туфайли вужудга келувчи касбий хатардан ҳимоя қилиш ҳақидаги 148-конвенция каби нуфузли ҳужжатлар ишчи ва хизматчиларнинг саломатлигини ҳимоялашга йўналтирилгандир.

Чунончи, 115-конвенцияда қайд қилинадик, радиацияга алоқадор ишда ишловчи барча ишчилар ишга кираётганида тегишли тиббий текширувдан ўтадилар. Радиоактив моддаларнинг ионлаштирувчи радиациясининг ишчиларга таъсири даражасини ўлчаш ва белгиланган даражаларга амал қилинаётганлигини текшириш учун ишчилар ва иш жойлари устидан назорат амалга оширилиш лозим.

Халқаро Меҳнат Ташкилоти Бош конференцияси, 1953 йилдаги Ходимлар саломатлигини сақлаш ҳақидаги тавсияларни, 1959 йилдаги Корхоналардаги соғлиқни сақлаш хизматлари ҳақидаги тавсияларни ва қатор конвенцияларни инobatга олиб, 1977 йил 20 июнда Иш жойида шовқин ва вибрацияга учрайдиган ишчиларни ҳимоя қилиш ҳақидаги 148-конвенцияни қабул қилди. Унда қайд қилинадик, ҳавонинг ифлосланиши, шовқин ва вибрация туфайли юзага келадиган касбий хатарларнинг олдини олиш ва чеклаш, шунингдек, ушбу хатарлардан ҳимоя қилишга қаратилган чоралар қабул қилиниши лозим. Тадбиркорлар белгиланган чораларни амалга оширмаслик бўйича жавобгардирлар. Ушбу Конвенциянинг 2-моддасида айтиладики: “Иш жойидаги ҳавонинг ифлослиги, шовқин ёки вибрация туфайли вужудга келган касбий хатарга учраган ёки учраши мумкин бўлган ишчилар саломатлигининг аҳволи тегишли давр оралиғида ваколатли ҳокимият органлари томоидан белгиланган шароитларда ва ҳолатларда назорат қилинади. Бундай назорат ишга тайинланишдан олдинги тиббий кўрикни ва ваколатли

хокимият органи белгилаган шаклда даврий текширувларни ўз ичига олади”

Халқаро-ҳуқуқий амалиёт таҳлили шундай ҳулоса қилиш имконини берадики, кейинги йилларда атроф-муҳит сифатини муносиб тарзда қўллаб-қувватлаш борасидаги халқаро ҳамкорлик тобора катта аҳамият касб этиб бормоқда. Атроф муҳитга таъсир кўрсатишнинг айрим шакллари, масалан, атмосфера ва халқаро дарёлар ифлосланишининг айрим турлари, Тинч океанининг ифлосланиши глобал характерга эга ва каерда яшамасин, ҳар бир инсоннинг манфаатлари ва саломатлигига дахл қилади.

Айтиш керакки, бутунжаҳон ташкилотлари соғлиқни сақлашга катта эътибор берадилар, чунки ишчилар саломатлиги ҳақида қайғуриш бутун жамиятнинг сиёсий-иқтисодий ҳаётига ҳам таъсир кўрсатади.

Оналик ва болаликни ҳимоя қилиш, ўсмирлар ҳуқуқларини муҳофаза қилиш тамойилининг алоҳида жиҳатлари ХМТнинг қатор конвенцияларида алоҳида қайд этилади. ХМТнинг “Оналикни муҳофаза қилиш ҳақида”ги 103-конвенцияси аёлларга ҳомиладорлик даврида камида 12 ҳафталик таътил беришни кўзда тутди, улардан камида 6 ҳафтаси туғруқдан кейинги муддатга тўғри келиши керак. Ҳомиладорлик ва туғруқ бўйича таътил давомида аёлни ишдан бўшатиш ҳақидаги буйруқ ноқонуний саналади. ХМТнинг “Ижтимоий сиёсатнинг асосий мақсадлари ва меъёрлари ҳақида”ги 117-конвенциясида ва ишга қабул қилишнинг энг кичик ёши чегарасига бағишланган қатор конвенцияларда (№ 10, 15, 58, 59, 60, 112, 123, 137) ёшларни ишга қабул қилишнинг энг кичик ёши белгиланади. Қишлоқ хўжалиги учун бу 14 ёшни, бошқа ҳолларда – 15 ёшни ташкил қилади. “Ўсмирларнинг саноатдаги тунги меҳнати ҳақида”ги 90- Конвенцияси 18 ёшга тўлмаган ёшларни бундай ишларга жалб қилишни тақиқлайди.

Ўзбекистон Республикаси сиёсати муносиб ҳаёт ва инсоннинг эркин ривожланиши учун қулай шароит яратишга қаратилган ижтимоий давлат эканини эълон қилиб, инсонларнинг муносиб ва эркин ҳаётларини ҳимоялашни таъминлашга қаратилган муайян ижтимоий сиёсатни ҳаётга татбиқ қилиш мажбуриятини зиммасига олади. Шу муносабат билан, қонунчилик ижтимоий ҳуқуқларнинг татбиқини белгилайди, алоҳида тоифадаги фуқароларни ижтимоий ҳимоялаш бўйича қўшимча қафолатлар ўрнатади.

Муносиб ҳаёт ва инсоннинг эркин ривожланишини таъминловчи шарт-шароитлар етарли турмуш даражаси, рухий ва жисмоний саломатлик ҳуқуқида белгиланган. Иқтисодий, ижтимоий ва маданий ҳуқуқлар тўғрисидаги халқаро пактнинг 11-моддасига мувофиқ, ҳар бир инсон етарли овқатланиш, кийим ва турар жой билан таъминланиши лозим, унинг турмуш шароити мунтазам яхшиланиб бориши керак. “Ҳар бир инсоннинг очликдан холи бўлишдек асосий ҳуқуқи”ни таъкидлаб, Пакт давлат зиммасига озик овқат маҳсулотларини ишлаб чиқариш ва тақсимлаш услубларини яхшилаш ва табиий ресурслардан янада самарали фойдаланишга қаратилган зарур чоралар кўришни юклайди. ХМТнинг “Ижтимоий сиёсатнинг асосий мақсадлари ва меъёрлари ҳақида”ги 117-конвенциясида яшаш минимумини аниқлашда ишчилар оилаларининг озик-овқатлари ва уларнинг калориялилиги, турар жой, кийим, тиббий хизмат ва таълим каби асосий эҳтиёжлари алоҳида эътиборга олинади.

Муносиб турмуш даражасини таъминлаш ҳуқуқи ва турмуш шароитини яхшилаш ҳуқуқи жисмоний ва рухий саломатлик жиҳатидан эришиладиган энг олий даражадаги ҳуқуқни ҳам ўз ичига олади. Уларни давлатлар, Иқтисодий, ижтимоий ва маданий ҳуқуқлар тўғрисидаги халқаро пактнинг 12-моддасига биноан, куйидагилар орқали таъминлашни лозим: ўлик гўдак тутилишининг олдини олиш ва болалар ўлимини камайтириш; ташқи муҳитнинг барча жиҳатларини ва меҳнат гигиенасини яхшилаш, эпидемик, касбий ва бошқа касалликларни даволаш ва уларга қарши курашни яхшилаш; барчани тиббий ёрдам билан таъминлаш, касал бўлганда тиббий даволаш билан таъминловчи шарт-шароитларни яратиш.

Муносиб турмуш даражасини таъминлашнинг жиҳатларидан бири ҳар кимга турар жой ҳуқуқини тақдим қилишдир. Конституция турар жой ҳуқуқини доимий турар жой билан таъминланганликнинг кафолатланган имконияти деб таърифлайди. Унинг ичига фуқароларнинг мавжуд турар жойлардан барқарор фойдаланиш юридик имконияти, унинг дахлсизлиги, турар жойдан ўзбошимчалик билан маҳрум этишга йўл қўйилмаслиги, шунингдек, бошқа турар жой олиш орқали яшаш шароитини яхшилаш киради.

Соғлиқни сақлаш ва тиббий ёрдам ҳуқуқи Конституция (давлат ва муниципал соғлиқни сақлаш муассасаларида бепул тиббий ёрдам олиш имкониятини тақдим этади) ва бошқа меъёрий-ҳуқуқий актлар ва федерал дастурлар томонидан кафолатланган.

Қонунчилик фуқаролар соғлиғини сақлашнинг асосий тамойилларини белгилайди. Улар қуйидагилардир: 1) соғлиқни сақлаш соҳасида инсон ва фуқаро ҳуқуқларига амал қилиш; 2) профилактика чораларига устуворлик бериш; 3) тиббий-ижтимоий ёрдамнинг ҳаммабплиги; 4) саломатлиғини йўқотган фуқароларнинг ижтимоий ҳимояланганлиги; 5) давлат ҳокимияти органлари, мулкчилик шаклидан қатъи назар бошқармалар, корхоналар, муассасалар ва ташкилотларнинг, мансабдор шахсларнинг фуқаролар соғлиғини сақлашга оид ҳуқуқларни таъминламаганлиги, инсонлар ҳаёти ва саломатлиги учун таҳдид солувчи факт ва ҳолатларни яширганлик учун жавобгарлик. Давлат фуқароларга уларда бирор бир касаллик мавжудлиги туфайли ҳар қандай турдаги камситилишга учрашдан ҳимояни таъминлаб беради.

Инсоннинг ижтимоий-иқтисодий ҳуқуқларини халқаро миқёсда ҳимоялаш ва Бирлашган Миллатлар Ташкилоти мақсад ва вазифаларини (улар сирасига: турмуш даражасини оширишга, аҳолининг тўлиқ бандлиғини таъминлашга, иқтисодий ва ижтимоий тараққиёт ва ривожланиш шарт-шароитларига, иқтисодий, ижтимоий соҳалардаги, соғлиқни сақлаш борасидаги халқаро муаммоларни ҳал этишга, инсон ҳуқуқларини умумжаҳон миқёсда ҳурмат қилиниши ва унга амал қилинишига кўмаклашиш) амалга ошириш учун Иқтисодий ва Ижтимоий Кенгаш (ЭКОСОС) ташкил этилган ва ўз фаолиятини юритиб келмоқда. У ижтимоий-иқтисодий ҳуқуқларни ҳимоя қилиш соҳасидаги етакчи назорат инстанцияси ва БМТ ҳамда унинг ихтисослаштирилган муассасалари иқтисодий ва ижтимоий фаолиятининг асосий мувофиқлаштирувчидир.

ЭКОСОС, БМТнинг Низомига (61, 72-моддалар) мувофиқ, иқтисодий ва ижтимоий ҳаёт, маданият, таълим, соғлиқни сақлаш ва шу каби бошқа соҳалардаги халқаро масалалар юзасидан тадқиқотлар ўтказиш ва маърузалар тайёрлаш, тегишли масалалар бўйича конвенциялар лойиҳаларини тайёрлаш, ўз ваколатига кирувчи муаммолар юзасидан халқаро конференциялар ўтказиш ваколатини олган.

Аммо бу гуруҳ ҳуқуқлар ҳимояси борасидаги халқаро назорат фуқаролик ва сиёсий ҳуқуқлар ҳимоясига қараганда камроқ аҳамиятга эга. У ўз ичига яқка шахслар томонидан шикоятлар бериш имкониятини олмайди. Иқтисодий, ижтимоий ва маданий ҳуқуқлар тўғрисидаги халқаро пакт қоидаларига кўра (16, 25-моддалар), давлатлар Пакт қоидаларига риоя этиш борасида ўзлари амалга

оширган чоралар ҳамда ижтимоий-иқтисодий соҳада эришилган прогресс ҳақида БМТ Бош котибига маърузалар тақдим этишлари лозим, у эса, ўз навбатида, бу маърузаларни кўриб чиқиш учун ЭКОСОСга ва шу соҳада ихтисослашган муассасаларга юборди. Ушбу таомил фуқароларнинг ижтимоий-иқтисодий ҳуқуқларига амал қилиниши назоратнинг ягона шаклидир. Бундан ташқари, ижтимоий-иқтисодий ҳуқуқ ва эркинликларни амалга оширишни назорат қилиш ушбу гуруҳ ҳуқуқларнинг нисбатан яқинда ривожланганлиги, ушбу масалаларга оид халқаро-ҳуқуқий меъёрлардаги, ушбу соҳада давлатлар ўз зиммаларига олган халқаро мажбуриятлардаги асосий дефинициялар ва қафолатларнинг баъзи ноаниқликлари туфайли ўзига хос қийинчиликларга тўқнаш келмоқда.

Кейинги вақтларда инсоннинг асосий иқтисодий ва ижтимоий ҳуқуқлари соҳасидаги давлатларнинг ўз зиммаларига олган мажбуриятларига амал қилишларини назорат қилувчи халқаро органлар фаолияти жўшқин тус олди. Камситишнинг олдини олиш ва озчиликни ҳимоя қилиш куйкомиссияси доирасида овқатланиш ҳуқуқи, камбағалликка қарши курашиш, турар жой ҳуқуқининг татбиқ этилишига кўмаклашиш каби масалалар юзасидан махсус маърузалар тайёрлаш ташкил этилди. 1985 йилда ЭКОСОСнинг иқтисодий, ижтимоий ва маданий ҳуқуқлар бўйича кўмитаси ташкил этилди. Унинг амалий фаолияти 1987 йилда бошланди. Кўмита мустақил назорат органи бўлиб, давлатлар маърузаларини кўриб чиқиш, улар юзасидан умумий хулоса чикариш ва бу ҳақда ЭКОСОСга хабар бериш ваколатига эга.

Ижтимоий-иқтисодий ҳуқуқлар, бир томондан, аҳолининг тегишли фаоллигини, унинг бозор эркинлигини таъминлайди, бошқа томондан- эҳтимолий хатарлардан ҳимоя тақдим этади. Меъёрий бошқарувнинг мана шу икки жиҳати ўртасида зиддият юзага келади. Иқтисодий эркинлик ва тенглик кадриятлари жамоатчилик эътирофига сазовор бўлади ва ижтимоий адолат, интеграция, давлат ва фуқаронинг ўзаро жавобгарлиги кадриятлари қаторида инсоннинг ажралмас ҳуқуқ ва эркинликлари ягона тизимида мустаҳкамланади. Ижтимоий-иқтисодий ҳуқуқлар татбиқ этилишининг қафолатлари ҳуқуқий давлатнинг демократик ва ижтимоий шаклда барқарор мавжудлигининг муҳим омилларидандир.

1. Ҳар бир инсон таълим олиш ҳуқуқига эга. Таълим олишда ҳеч бўлмаганда бошланғич ва умумий таълим текин бўлиши лозим. Бошланғич таълим мажбурий бўлиши керак. Техник ва ҳунар таълими ҳамманинг қурби етадиган даражада бўлиши, олий таълим эса ҳар кимнинг қобилиятига асосан ҳамма учун етарли имконият доирасида бўлмоғи керак.

2. Таълим инсон шахсини тўла баркамол қилишга ва инсон ҳуқуқлари ҳамда асосий эркинликларига нисбатан ҳурматни кучайтиришга қаратилмоғи лозим. Таълим барча халқлар, ирқий ва диний гуруҳлар ўртасида бир-бирини тушуниш, хайрихоҳлик ва дўстликка хизмат қилиши ҳамда Бирлашган Миллатлар Ташкилотининг тинчликни сақлаш борасидаги фаолиятига ёрдам бериши керак.

3. Кичик ёшдаги болалари учун ота-оналар таълим турини танлашда имтиёзли ҳуқуққа эгадир.

Маданий ҳуқуқлар инсоннинг маънавий ривожланишини қафолатлайди, ҳар бир индивидга сиёсий, маънавий, ижтимоий ва маданий прогресснинг фойдали иштирокчиси бўлишда кўмак беради. Уларга: таълим олиш ҳуқуқи, маданий қадриятлар билан танишиш ҳуқуқи, жамиятнинг маданий ҳаётида эркин қатнашиш ҳуқуқи, ижод ҳуқуқи, илмий прогресс натижаларидан фойдаланиш ва уларни амалда қўллаш ҳуқуқи ва бошқалар кириди.

Таълим олиш ҳуқуқи халқаро стандартларининг асослари Инсон ҳуқуқлари умумжаҳон декларациясидан ташқари, Иқтисодий, ижтимоий ва маданий ҳуқуқлар тўғрисидаги халқаро пактнинг 13-моддасида ифодаланган. Ушбу ҳужжатларда таълим олиш ҳуқуқининг тўлиқ амалга ошиши шартлари кўрсатиб ўтилган: ҳамма учун мажбурий ва бепул бошланғич таълим; ўрта, касбий-техник ва олий таълимнинг ҳаммабоплиги; ота-оналарнинг ўз фарзандлари учун мактаб танлаш ва ўз эътиқодларига мувофиқ фарзандларини диний ва маънавий тарбиялаш эркинликлари. Алоҳида шахслар ва муассасалар хусусий ўқув юртлари тузиш ва унга раҳбарлик қилиш ҳуқуқига фақат ундаги таълим давлат томонидан белгиланган талаблар минимумига мувофиқ бўлгандагина эгадирлар.

Халқаро-ҳуқуқий меъёрлар таълимнинг устувор мақсадлари этиб, инсон шахсияти ва кадр-кимматининг тўлиқ ривожланиши, инсон ҳуқуқлари ва эркинликларини ҳурмат қилиш, таълимнинг

зарурлиги, эркин жамиятнинг фойдали иштирокчилари бўлиш имкониятини яратиш, барча миллатлар, этник ва диний гуруҳлар ўртасидаги ўзаро тушуниш, мурасасозлик ва дўстликка кўмаклашишни белгилайди.

Таълим соҳасидаги камситишга қарши курашиш ҳақидаги конвенция таълим олишда барчага баробар: “ирки, терисининг ранги, жинси, тили, дини, сиёсий ёки бошқа эътиқоди, миллий ёки ижтимоий келиб чикиши, иқтисодий мавқеи ёки туғилиши бўйича ҳеч қандай ажратиш, четлатиш, чеклаш ёки афзаллик беришларсиз” имкониятлар тақдим этишга йўналтирилган. Бунинг учун давлатлар ўз зиммаларига қуйидаги мажбуриятларни олади: а) бошланғич таълимни мажбурий ва бепул; ўрта таълимни – ҳаммабоп; олий таълимни – тўлиқ тенглик асосида, ҳар кимнинг қобилиятига қараб белгилаш; б) барча бир хил босқичдаги давлат муассасаларида бир хил таълим даражасини ва таълим сифатини таъминлаш; в) таълим олиш ва малака оширишни рағбатлантириш; ўқитувчилик касбига тайёрлашни таъминлаш.

Таълим соҳасидаги халқаро стандартларга Конституциянинг давлат ёки муниципал таълим муассасалари ва корхоналарида бепул асосий умумий ва ўрта-касбий таълим олишни кафолатловчи қоидалари мувофиқ келади.

27-модда

Ҳар бир инсон жамиятнинг маданий ҳаётида эркин иштирок этишга, санъатдан баҳраманд бўлишга, илмий тараққиётда иштирок этиш ва унинг самараларидан фойдаланиш ҳуқуқига эга.

Шахс ҳуқуқий мавқеининг муҳим таркибий қисми маданий ҳаётда қатнашиш ҳуқуқи ва унга боғлиқ бўлган адабий, бадиий, илмий ва бошқа турдаги ижод эркинлигидир. Ижод эркинлиги исталган илмий, адабий ёки бадиий ишлар билан боғлиқ равишда юзага келадиган маънавий ва моддий манфаатларини, интеллектуал мулкни ҳимоя қилишни ўз ичига олади. Иқтисодий, ижтимоий ва маданий ҳуқуқлар тўғрисидаги халқаро пактнинг 15-моддаси “илмий тадқиқотлар ва ижодий фаолият учун шубҳасиз зарур” эркинликларни ҳурмат қилишни эълон қилади.

Маданий ҳуқуқлар мазмуни ва уларни амалга ошириш кафолатлари ЮНЕСКО томонидан қабул қилинган (1968, 1980, 1982

йиллар) қатор тавсияларда ривожлантирилган ва тўлдирилган. Уларда, жумладан, ўз маданиятини ривожлантириш ҳар бир халқнинг ҳуқуқи ва бурчидир; барча миллатлар, миллий озчиликлар, этник гуруҳлар маданий анъаналарни сақлаб қолиш ва ривожлантириш бўйича бир хил ҳуқуқларга эгадир; ҳар бир киши билим олиш, барча халқлар санъати ва адабиётидан баҳра олиш имконияти, ер шарининг барча қисмларида илм-фан тараққиётида қатнашиш, унинг неъматларидан фойдаланиш ва маданий ҳаётнинг бойишига кўмаклашиш имконияти билан таъминланиши лозим; давлатлар маданиятни демократлаштириш бўйича, маданият ҳуқуқларини таъминлаш ва уларнинг самарасида ҳеч қандай чеклашларсиз фойдаланишни кафолатлаш бўйича чоралар кўришлари зарур; давлатлар ижод эркинлигини ҳимоя қилиши лозим, ижодий ходимларга кўмаклашиши, уларнинг ўз ихтиёрларига кўра касаба уюшмалари ва касбий ташкилотлар тузиш ҳуқуқларини таъминлашлари кабилар қайд қилинган.

Инсоннинг маданий ҳуқуқларини рағбатлантириш ва ҳимоя қилиш бевосита халқаро ихтисослаштирилган ташкилот – ЮНЕСКОнинг вазифалари доирасига киради. Бу ерда шикоятларни қабул қилувчи бош амалий тузилма Конвенциялар ва тавсиялар бўйича кўмита ҳисобланади. Кўмита ҳар бир сессияда ЮНЕСКО ижроия кенгашига кўриб чиқилган шикоятлар ва тайёрланган тавсиялардан иборат маъруза тақдим этади. ЮНЕСКО ваколати доирасига таълим ҳуқуқини, илмий ютуқлардан фойдаланиш ҳуқуқини, маданий ҳаётда қатнашиш ҳуқуқини, ахборот, жумладан ўз фикрига эга бўлиш ва уни ифодалаш ҳуқуқи ва бошқаларни ҳимоялаш киради.

28-модда

Ҳар бир инсон ушбу Декларацияда баён этилган ҳуқуқ ва эркинликлар тўлиқ амалга оширилиши мумкин бўлган ижтимоий ва халқаро тартиб бўлиши ҳуқуқига эгадир.

Декларацияда эълон қилинган ҳуқуқ ва эркинликлар тўлиқ амалга оширилиши мумкин бўлган ижтимоий ва халқаро тартиб бўлиши ҳуқуқи БМТнинг Инсон ҳуқуқлари комиссиясининг 2003 йил 29 августдаги “Аҳоли иштироки, тенг ҳуқуқлилик, ижтимоий адолат ва камситмасликни демократиянинг энг муҳим асослари сифатида мустаҳкамлаш ҳақидаги резолюцияси”да белгилаб қўйилди.

БМТнинг Инсон ҳуқуқлари комиссияси, демократия, инсон ҳуқуқлари ва асосий эркинликларини ривожлантириш ва ҳурмат қилиш ўзаро боғлиқ ва бир-бирини тўлдириб келишини эътироф этиб, инсоннинг барча ҳуқуқлари универсал, бўлинмас, ўзаро боғлиқ ва алоқадорлигини ва халқаро ҳамжамият инсон ҳуқуқларига глобал тарзда, адолатли ва тенг асосда, бир хилда ва эътибор билан ёндашиши лозимлигини эслатиб, аъзо-давлатлар деб эълон қилинган барча давлатларда ҳамманинг фуқаролик, сиёсий, иқтисодий, ижтимоий ва маданий ҳуқуқларини ҳар томонлама ҳимоялашни таъминлаш ва рағбатлантириш йўлидаги курашга содиқлигини қўллаб-қувватлаб, тараққиёт узоқ муддатли асосда фақат ривожланиш стратегиялари халқ эҳтиёжларига жавоб берагина ва уларнинг ишлаб чиқилишида ҳам, амалга оширилишида ҳам халқ иштироки таъминланганидагина барқарор бўлиши мумкинлигини тан олиб, бунда инсоннинг бирламчи, унинг яшаб қолиши учун зарур эҳтиёжларини қондириш демократиянинг ўзгармас шарти эканлиги фактини таъкидлаб, тасдиқладики, демократия халқнинг ўз сиёсий, иқтисодий, ижтимоий ва маданий тизимларини аниқлаш имконини берувчи ўз хоҳишини эркин билдиришига, унинг ўз ҳаётининг барча жабҳаларида ҳар томонлама қатнашишига асосланади. Ушбу маънода миллий ва халқаро миқёсда инсон ҳуқуқлари ва асосий эркинликларини рағбатлантириш ва ҳимоялаш универсал бўлиши ва ҳеч қандай шартларсиз амалга оширилиши лозимлигини ва барча демократияларга умумий хусусиятлар хос бўлса-да, демократиянинг бирорта ҳам ягона универсал модели мавжуд эмаслигини тасдиқлайди.

Комиссия тасдиқладики, демократияни мустаҳкамлаш ҳар бир индивиднинг барча ҳуқуқларини – улар хоҳ фуқаролик ҳуқуқлари бўлсин, хоҳ иқтисодий, ижтимоий ва маданий ҳуқуқлар бўлсин, жумладан, универсал ва ажралмас ҳуқуқ, ҳамда Тараққиёт ҳуқуқи декларациясида кўрсатилганидек, асосий инсон ҳуқуқларининг таркибий қисми сифатидаги тараққиёт ҳуқуқини ҳам, рағбатлантириш ва ҳимоя қилишни талаб этади.

Инсон ҳуқуқлари комиссияси барча давлатларни демократияни рағбатлантиришга чорлади. Зеро, у инсоният оиласининг барча аъзоларига хос кадр-қимматни ҳамда уларнинг тенг ва ажралмас ҳуқуқларини тан олишга асосланган ҳолда, камситиш ва четлатишнинг ҳар қандай шаклларини инкор қилиб, инсонлар фаровонлигига кўмаклашади, тенглик ва адолат тамойиллари асосида

ривожланишга ёрдам беради, ўз фуқароларини жамият тўқнаш келадиган турли муаммоларини муҳокама қилишда ва қарорлар қабул қилиш жараёнида максимал даражада кенг ва тўлиқ иштирокини рағбатлантиради; барча давлатлар ва халқаро ҳамжамият қашшоқликни йўқотиш ва жамиятларнинг ривожланишига кўмаклашиш мақсадларига қаратилган, адолат, тенг ҳуқуқлилиқ ва тенг қатнашиш тамойилларига асосланган самарали чораларни рағбатлантириш бўйича саъй-ҳаракатларини янада кучайтиришга чақирилди.

Инсон ҳуқуқлари комиссияси Инсон ҳуқуқлари комиссиясининг барча механизмларини ва инсон ҳуқуқлари соҳасидаги шартномавий органларни бундан буён ҳам тегишли мандатларини адо этаётганларида демократиянинг асослари сифатида аҳолининг иштирок этиши, тенгҳуқуқлилиқ, ижтимоий адолат ва камситмаслик масалаларини инобатга олишга чорлади.

29-модда

1. Ҳар бир инсон жамият олдида бурчлидир, фақат шу ҳолатдагина унинг шахси эркин ва тўлиқ камол тониши мумкин.

2. Ҳар бир инсон ўз ҳуқуқи ва эркинликларидан фойдаланишда ўзгаларнинг ҳуқуқ ва эркинликларини демократик жамиятда етарли даражада бўлишини ҳамда ҳурмат қилинишини таъминлаш, ахлоқ, жамоат тартиби, умум фаровонлигининг одилона талабларини қондириш мақсадидагина қонунда белгиланган чекланишларга риоя этиши керак.

3. Ушбу ҳуқуқ ва эркинликларни амалга ошириш Бирлашган Миллатлар Ташкилотининг мақсад ва принципларига ҳеч зид бўлмаслиги керак.

Конституциянинг 19-моддасига мувофиқ: “Ўзбекистон Республикаси фуқароси ва давлат бир-бирига нисбатан бўлган ҳуқуқлари ва бурчлари билан ўзаро боғлиқдирлар. Фуқароларнинг Конституция ва қонунларда мустаҳкамлаб қўйилган ҳуқуқ ва эркинликлари дахлсиздир, улардан суд қарорисиз маҳрум этишга ёки уларни чеklang қўйишга ҳеч ким ҳақли эмас”

Ўзбекистон Республикаси фуқароси ва давлат ўзаро ҳуқуқлар ва ўзаро мажбуриятлар билан боғлиқдирлар. Бу эса, давлатда ҳам, фуқароларда ҳам нафақат ҳуқуқ, балки мажбурият ҳам борлигини

назарда тутади. Одил суд – бу судларнинг жиноий, фуқаролик ва бошқа ишларни холис ва ҳар томонлама текшириш ва ҳал этишга қаратилган, демократик тамойилларга асосланган ва процессуал бошқариладиган фаолияти бўлиб, асосий вазифаси адолатни, қонунийликни ва ҳуқуқий тартибни сақлашдир.

Ўзининг юридик хусусиятлари, меъёрийлиги самараси ўларок, Конституция, унинг ҳуқуқлар ва эркинликларга оид қоидалари жамият муносабатларига бевосита бошқарув таъсирини ўтказмоқда. Бунда ҳуқуқ ва эркинликлар, бу борада зарур ҳолларда уларни аниқлаштиришга, уларни ўта самарали қўллаш учун қоидалар, механизмлар ва таомилларни белгилашга қаратилган қонунчилик актлари мавжудми ёки ҳали мавжуд эмасми- бундан қатъи назар, бевосита амалда, деб саналади. Ҳар бир ҳуқуқ субъекти – давлат ёки жамоат органи, мансабдор шахс, давлат хизматчиси ёки фуқаро – ўзининг юридик салмоққа эга ҳаракатларини аввало Конституция билан мувофиқлаштириш, унга эргашиши лозим. Конституция унга зид келадиган актларни бекор қилиш ва ҳаракатларни тўхтатиш учун ҳуқуқий асос бўлади. Судда, бошқа органларда ўз ҳуқуқ ва эркинликларини ҳимоя қилишда бевосита конституциявий нормаларга таяниш қонунийдир, шунингдек, бу каби таяниш ушбу органлар томонидан қарор қабул қилинаётганда амалга оширилиши ҳам худди шундай қонунийдир.

Конституциянинг 20-моддасига биноан: “Фуқаролар ўз ҳуқуқ ва эркинликларини амалга оширишда бошқа шахсларнинг, давлат ва жамиятнинг қонуний манфаатлари, ҳуқуқлари ва эркинликларига путур етказмасликлари шарт”

30-модда

Ушбу Декларациядаги ҳеч бир нарса бирор бир давлат, кишилар гуруҳи ёки алоҳида шахслар мазкур Декларацияда баён этилган ҳуқуқ ва эркинликларни йўқ қилишга йўналтирилган фаолият билан шўғулланиши ёки ҳаракат қилиши мумкин деб талқин этилмаслиги керак.

Инсон ҳуқуқ ва эркинликлари муаммосини замонавий дунёқарашнинг олдинги ўринларига қўйиш – бу маънавий маданият ва одоб-ахлоқдаги йирик ўзгаришлардан далолатдир. Дастлаб инсон ҳуқуқлари институтининг ривожланиши фақат давлатнинг ички ҳуқуқида амалга ошди. Шахснинг ҳуқуқий аҳволини қонуни билан

мустаҳкамлаб қўйиш ҳатто БМТ Низоми қабул қилингандан кейинги илк йилларда ҳам давлатнинг ички ваколатига мансуб эди. Ҳозирда аҳвол тубдан ўзгарди: инсон ҳуқуқлари ҳам ички, ҳам халқаро ҳуқуқ билан бошқарилади. Бунда халқаро ҳуқуқнинг роли тобора ошмоқда, бу ҳол, биринчидан, давлатлар томонидан амал қилиниши лозим бўлган асосий инсон ҳуқуқ ва эркинликларини белгиловчи халқаро тамойил ва меъёрларнинг тобора аниқроқ ишлаб чиқиляётгани ва аниқлаштириляётганида намоён бўлади, иккинчидан, давлатларнинг ўз зиммаларига олган мажбуриятларини бажаришларини назорат қилиш бўйича халқаро органлар ташкил этилишида акс этади.

Инсон ҳуқуқлари умумжаҳон декларацияси томонидан эълон қилинган инсон ҳуқуқлари халқаро бошқарув объекти бўлди. БМТ Низомида ушбу универсал ташкилот аъзо-давлатларининг: “Инсоннинг асосий ҳуқуқларига, инсон шахсининг кадр-қиммати ва кадриятига, эркак ва аёлларнинг тенг ҳуқуқлигига ишончни мустаҳкамлаш”да қатъий эканликлари айтилади, “ирқи, жинси, тили ва динидан қатъи назар барчанинг инсон ҳуқуқлари ва асосий эркинликларига ҳурматни ривожлантириш ва рағбатлантириш”даги халқаро ҳамкорлик БМТнинг бош максадларидан бири сифатида эълон қилинади. БМТнинг ушбу қондалари билан бизнинг давримизга келиб халқаро ҳуқуқнинг умумэътироф этилган тамойилларидан бирига айланган инсон ҳуқуқ ва эркинликларини ҳимоя қилиш тамойилининг ривожланишига асос солинган эди. Асл инсонпарвар ва демократик кадриятларга асосланган замонавий давлатда замонавийлик ва тараққиёт ҳамда инсоннинг ҳам давлатнинг ичкарасида, ҳам глобал дунё микёсида сиёсий, иқтисодий ва ижтимоий-маданий муаммоларни ҳал этишда амалда иштирок этишининг чамбарчас алоқаси ҳақидаги гоё тобора яққол намоён бўлмоқда. Демократик давлат ва ҳуқуқий тартибнинг устувор омилини ташкил этиб, инсон ҳуқуқлари муайян сиёсий тузумнинг мазмуни ва моҳиятини белгилабгина қолмайди, балки инсонни пассив кузатувчидан дунёда рўй бераётган барча воқеа-ҳодисаларнинг фаол иштирокчисига айлантиришга чорляйди. Инсоннинг ижтимоий-иқтисодий ва маданий ҳуқуқлари ва эркинликларини ҳимоя қилиш борасидаги ҳамкорликнинг асосий шаклларида бири индивиднинг ҳуқуқий мавқеига ва давлатларнинг ушбу стандартларга ички ҳуқуқий тартиб доирасида риоя қилиш мажбуриятларига оид муайян стандартларни камраб олган халқаро келишувларни ишлаб чиқишдир. Ушбу келишувларнинг аксарияти

БМТ доирасида ишлаб чиқилган. Бироқ инсон ҳуқуқлари муаммосини ҳал этиш, ғоявий тўсиқларни тугатишга нисбатан ёндашувларда кейинги йилларда кузатилаётган эволюция жараёни, давлатларнинг инсон ҳуқуқлари борасидаги кенгайиб бораётган ҳамкорликлари мазкур соҳадаги муносабатларни такомиллаштиришни талаб этади. Давлатларнинг ички ҳуқуқ меъёрларини инсон ҳуқуқлари соҳасидаги халқаро стандартларга максимал даражада яқинлаштириш – бу ҳуқуқий давлат куришнинг зарур шартларидан бирidir.

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI ADLIYA VAZIRLIGI
TOSHKENT DAVLAT YURIDIK INSTITUTI**

D.Q. Axmedov, G.Y. Yuldasheva

**INSON HUQUQLARI UMUMJAHON
DEKLARATSIYASIGA**

SHARHLAR

TOSHKENT – 2009

D.Q. Axmedov, G.Y. Yuldasheva

Inson huquqlari Umumjahon deklaratsiyasiga.
sharhlar. –T.: TDYI nashriyoti, 2009. 192 bet.

Sarlavhada: O'zbekiston Respublikasi Adliya
vazirligi, TDYI.

Mas'ul muharrir: yu.f.d. **B.I. Ismoilov**

Taqrizchi: yu.f.d. **O.Z. Muhamadjonov**

Mazkur sharh inson huquqlari bo'yicha xalqaro huquqiy hujjatlar hamda O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligi normalari va amaliyoti hisobga olingan holda tayyorlangan.

Ushbu nashr inson huquqlari Umumjahon deklaratsiyasi rasmiy matni, shuningdek mazkur hujjatning har bir moddasiga atroflicha sharhlarni o'z ichiga oladi.

Sharhlar keng kitobxonlar ommasiga va inson huquqlari bilan qiziquvchi o'quvchilarga mo'ljallangan.

© D.Q. Axmedov, G.Y. Yuldasheva.

© Toshkent davlat yuridik instituti, 2009-yil.

INSON HUQUQLARI UMUMJAHON DEKLARATSIYASI

1948-yil 10-dekabr

MUQADDIMA

Insoniyat oilasining hamma a'zolariga xos qadr-qimmat va ularning teng, ajralmas huquqlarini tan olish, erkinlik, adolat va butun jahon tinchlik asosi ekanligini e'tiborga olib;

inson huquqlarini mensimaslik va uni poymol etish insoniyat vijdoni qiynaladigan vahshiyona ishlar sodir etilishiga olib kelganini, kishilar so'z erkinligi va e'tiqod erkinligiga ega bo'ladigan hamda qo'rquv va muhtojlikdan xoli sharoitda yashaydigan dunyoni yaratish insonlarning ezgu intilishidir, deb e'lon qilinganligini e'tiborga olib;

inson oxirgi chora sifatida zulm va istibdodga qarshi isyon ko'tarishga majbur bo'lishining oldini olish maqsadida inson huquqlari qonun kuchi bilan himoya etilishi zarur ekanligini e'tiborga olib;

xalqlar o'rtasida do'stona munosabatlarni rivojlantirishga ko'maklashish zarurligini e'tiborga olib;

Birlashgan Millatlar xalqlari insonning asosiy huquqlariga, shaxsning qadr-qimmatiga, erkak va ayolning teng huquqliligiga, o'z e'tiqodlarini Nizomda tasdiqlanganliklari hamda yanada kengroq erkinlikda ijtimoiy taraqqiyot va turmush sharoitlarini yaxshilashga ko'maklashishga ahd qilganliklarini e'tiborga olib;

a'zo bo'lgan davlatlar Birlashgan Millatlar Tashkiloti bilan hamkorlikda inson huquqlari va asosiy erkinliklarini hurmat qilish va unga rioya qilishga ko'maklashish majburiyatini olganligini e'tiborga olib;

mazkur huquqlar va erkinliklarning xarakterini tushunish ushbu majburiyatlarning to'liq ado etilishi uchun katta ahamiyatga ega bo'lishini e'tiborga olib;

Bosh Assambleya

mazkur Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasini barcha xalqlar va barcha davlatlar bajarishga intilishi lozim bo'lgan vazifa sifatida e'lon qilar ekan, bundan muddao shuki, har bir inson va jamiyatning har bir tashkiloti doimo ushbu Deklaratsiyani nazarda tutgan holda ma'rifat va ta'lim yo'li bilan bu huquq va erkinliklarning hurmat qilinishiga ko'maklashishi, milliy va xalqaro taraqqiyparvar tadbirlar orqali ham uning bajarilishi ta'minlanishiga, Tashkilotga a'zo bo'lgan davlatlar xalqlari o'rtasida va ushbu davlatlarning yurisdiksiyasidagi hududlarda yashayotgan xalqlar o'rtasida umume'tirof va samarali tan olinishiga intilishlari zarur.

Inson huquq va erkinliklari – shunday universal qadriyatlariki, ular uchun shaxs huquqlarini muhofaza qilish borasida yagona xalqaro-huquqiy standartlarni o‘rnatish xarakterlidir. Bugungi kunga kelib insonning asosiy huquq va erkinliklari hech bir davlatning sof ichki ishi bo‘lmay qoldi. Fuqarolarning umume’tirof etilgan huquq va erkinliklarini ta’minlash alohida bir davlatninggina ishi emas, balki xalqaro hamjamiyatning asosiy maqsadidir.

Inson huquqlari deganda, odatda, inson shaxsining ajralmas huquqlari nazarda tutiladi. Inson huquqlari konsepsiyasi irqi, tanasining rangi, jinsi, tili, dini, siyosiy yoki boshqa qarashlari, milliy yoki ijtimoiy kelib chiqishi, xususiy mulkining mavjudligi, tabaqasi yoxud boshqa mavqeidan qat’i nazar, har bir kishi o‘z insonlik huquqidan foydalanish huquqiga egaligini e’tirof etadi. Inson huquqlari yuridik jihatdan inson huquqlariga oid milliy va xalqaro-huquqiy me’yorlar bilan kafolatlanadi, ular alohida shaxslar yoki kishilar guruhlarini inson shaxsining erkinligi va qadr-qimmatini poymol qiluvchi harakatlardan himoya qiladi. Bu me’yorlar turli xalqaro shartnomalarda, xalqaro odatlarda, xalqaro huquq tamoyillarida va boshqa huquqiy me’yorlar manbalarida o‘z aksini topgan. Inson huquqlari muhofazasiga oid qonunlar davlat zimmasiga jiddiy va muayyan mas’uliyatni yuklaydi va davlatlarga ba’zi faoliyat turlarini amalga oshirishni taqiqlaydi. Shu bilan birga, qonun inson huquqlarini to‘liq belgilamaydi. Inson huquqlari – bu har bir kishi inson bo‘lganligi uchun ega bo‘lgan huquqlardir. Xalqaro shartnomalar va boshqa huquq manbalari, qoidaga ko‘ra, alohida shaxs va guruhlarni o‘z insoniy huquqlarini amalga oshirishlariga to‘sqinlik qiluvchi tashkilotlar va davlatlarning harakatlari yoki harakatsizligidan rasman himoya qilishga xizmat qiladi.

Inson huquqlarining eng muhim xususiyatlari:

- ular har bir insonning qadr-qimmatini va qadriyatini hurmat qilishga asoslangan;
- ular universaldir, ya’ni barcha insonlarga bab-barobar, hech bir kamsitishlarsiz qo‘llaniladi;
- ular ajralmasdir, ya’ni hech kim o‘z insoniy huquqlaridan mahrum etilishi mumkin emas, bundan ma’lum holatlar mustasno, jumladan: agar sud tomonidan u yoki bu shaxs jinoyat qilishda aybdorligi isbotlansa, ozodlik huquqi cheklanishi mumkin;
- ular bo‘linmas, o‘zaro aloqador va bog‘liqdir, zero insonning bir huquqini ta’minlab boshqasiga e’tibor bermaslik mumkin emas. Bir huquqning buzilishi boshqa huquqning ham buzilishiga olib keladi. Shu

sababli insonning barcha huquqlariga teng ahamiyatli hamda har bir insonning qadr-qimmatini va qadriyatini ta'minlashda teng darajada zarur deb qarash lozim.

Bugungi kunda Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi barchaning diqqat markazida turibdi. Deklaratsiya (lotin tilidan declaration- bayonot, e'lon) – davlat, hukumat, partiya, tashkilot nomidan bayonot qilish; asosiy tamoyillarni tantanali sur'atda e'lon qilish, shuningdek, ushbu tamoyillar bayon etilgan hujjatdir.

Birinchidan, Deklaratsiya davlatlar shaxsning huquqiy maqomini tavsiflashga, har bir insonga tegishli. davlatlar hurmat qilishlari va ta'minlashlari zarur bo'lgan huquqlar ro'yxatini aniqlashga harakat qilingan eng birinchi xalqaro hujjat.

BMT Nizomida shaxs huquqlarini hurmat qilish majburiyatining belgilab qo'yilishi, aynan qanday huquqlar haqida so'z borayotganligi, ya'ni inson huquqlari ro'yxati xususidagi savolga javob berishni taqozo qildi. BMT Nizomi ishlab chiqilayotganda unga inson huquqlari ro'yxatini kiritish taklif qilingandi. Ammo bu takliflar qo'llab-quvvatlanmadi, chunki xalqaro tashkilotning ta'sis hujjati bo'lmish Nizomga bunday qoidalarni kiritish noo'rin edi. Bundan tashqari, ro'yxatning kiritilishi huquqlarni taqdim etish, ularning amalga oshirilishini kafolatlash, nazorat mexanizmi va boshqa jarayonlarni qat'iy belgilashni talab etardi. Qolaversa, inson huquqlari ro'yxatiga qo'shimcha kiritiladigan bo'lsa, Nizomga o'zgartirish kiritilishi lozim bo'lardi, bu esa anchayin murakkab jarayondir.

Shu sababli inson huquqlari bo'yicha mustaqil hujjat tuzish lozim, deb qaror qilindi va Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi ana shunday hujjat bo'ldi. Binobarin, Umumjahon deklaratsiyasi – BMT Nizomining o'ziga xos davomi, aniqroq aytganda, **undagi ko'rsatmalarning amalga oshirilishidir**. Umumjahon deklaratsiyasiga inson huquq va erkinliklarining universal majmuasi sifatida qarash mumkin. Keyinchalik u sezilarli darajada kengaytirilgan va to'ldirilganligiga qaramasdan, bugungi kunda hech kim insonning asosiy huquqlari ro'yxati Umumjahon deklaratsiyasida bayon etilganlari bilangina chegaralanadi, deb da'vo ham qilmaydi. Davlatlarning 1948-yilgi bu kelishuvini inson huquqlari bo'yicha hamkorlikning boshlang'ich nuqtasi deyish mumkin.

Ikkinchidan, davlatlar inson huquqlari bo'yicha hamkorlikdagi harakatlarini belgilab olishga intilgan eng birinchi xalqaro hujjat yuridik majburiyat emas, balki tavsiya sifatida qabul qilingani ham juda oqilona ish deyish mumkin. Nima uchun deganda, BMT bir dutun xalqaro

shartnomani ishlab chiqa boshlaganda, bu ish bir necha o'n yillarga cho'zilib ketishi mumkinligini tasavvur qilish qiyin emas. Huquqiy majburiyat yuklovchi qonun-qoidalarni belgilashda davlatlar tavsiyanomalarni qabul qilishga qaraganda anchagina ehtiyotkorlik bilan yondashadi. Inson huquqlari bo'yicha Paktlarni ishlab chiqish 18 yilga (bu, ya'ni uning asosi bo'lmish-Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi mavjudligida) cho'zildi. Paktlarning kuchga kirishi uchun esa, yana 10 yil kerak bo'ldi – ular 1976-yildan boshlabgina hayotga tatbiq qilindi.

Uchinchidan, Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi davlatlarning ichki qonunchiligi uchun asos bo'ldi. Qolaversa, u nafaqat ko'pgina davlatlarning konstitutsiyalari asosini, balki keng ma'nodagi milliy qonunchilikning ham o'zagini tashkil qildi. Bu juda muhim, zero milliy qonunga individ inson huquqlari sohasida birinchi navbatda duch keladi. Bejizga Umumjahon deklaratsiyasining Muqaddimasida "...inson huquqlari qonun kuchi bilan himoya etilishi zarur..." deb qayd etilmagan. Shu tariqa, boshidanoq inson huquqlari bo'yicha xalqaro aloqalarning asosiy yo'nalishlari belgilab olindi va bunda davlatlarning ichki chora-tadbirlari, milliy me'yorlarning ishlab chiqilishi, qolaversa, vakolatli davlat organlarining qonun ko'rsatmalarini hayotga tatbiq qilish va uning buzilishi hollarida zarur choralarni ko'rish bo'yicha faoliyati asosiy deb ko'rsatildi.

To'rtinchidan, Umumjahon deklaratsiyasi inson huquqlariga oid me'yorlarni bixillashtirish asoslarini o'rnatdi. Deklaratsiyaning Muqaddimasida: "...mazkur huquqlar va erkinliklarning xarakterini yalpi tushunish ushbu majburiyatlarning to'liq ado etilishi uchun katta ahamiyatga ega",- deb qayd etilgan, ya'ni jahonning turli nuqtalaridagi xilma xil siyosiy tizimga ega davlatlarda inson huquqlari bir xil talqin etiladigan holatga erishishga qaror qilindi. Boshqacha qilib aytganda, Umumjahon deklaratsiyasi inson huquqlari sohasida "standartlashtirish"ni boshlab berdi. Lekin bu ma'noda u dastlabki qadam bo'ldi, xolos. Inson huquqlarining belgilangan ro'yxatini rivojlantirish, aniqlashtirish va to'ldirishning zaruriyligi va muqarrarligi masalasi yuzaga chiqdi. Pirovardida Umumjahon deklaratsiyasidagi fikrlar va g'oyalar inson huquqlariga oid ko'plab kelishuvlarda kengaytirildi va aniqlashtirildi.

1-modda

Hamma odamlar o'z qadr-qimmatini hamda huquqlarida erkin va teng bo'lib tug'iladilar. Ularga aql va vijdon ato qilingan, binobarin bir-birlariga nisbatan birodarlik ruhida munosabatda bo'lishlari kerak.

Hech kimning erkinligi qonuniy ijozat yoki ruxsat berishni talab etmaydi, lekin boshqalar bilan qadr-qimmat va huquqda tenglik o'z shaxsiy erkinligining boshqalar erkinliklari bilan chegaralanishini ko'zda tutadi. Shaxsiy hayotning daxlsizligi va unga bo'lgan hurmat – bu shaxsiy erkinlikning yoki uni cheklashning bir ko'rinishidir.

Erkinlikka bo'lgan konstitutsiyaviy huquq eng muhim ijtimoiy manfaatlardan biri bo'lib, shaxsning talablarini har tomonlama qondirish uchun zarur sharoitlarni yaratibgina qolmay, jamiyatning demokratik rivojlanishini ham ta'minlaydi.

Erkinlik huquqi bilan uzviy bog'liq bo'lgan huquqlardan biri shaxsiy daxlsizlik huquqidir. Shaxsiy daxlsizlik insonning individual hayotiga nisbatan har qanday tashqi aralashuvga yo'l qo'yilmaslikni nazarda tutadi va bu tushuncha o'z ichiga jismoniy hamda ruhiy daxlsizlikni qamrab oladi.

Shaxsning jismoniy daxlsizligini ta'minlash uning hayoti, salomatligi, jinsiy daxlsizligiga, jismoniy erkinligiga ham davlat nomidan uning organlari yoki mansabdor shaxslar tomonidan hamda alohida fuqarolar tomonidan qanday bo'lmasin tajovuz qilinishidan yetarlicha davlat kafolatini yaratishni nazarda tutadi. Ruhiy daxlsizlikni ta'minlash shaxsning ruhiy va ma'naviy salomatligiga, inson ongining intellektual va irodaviy sohasiga tajovuzdan himoyalashga qaratilgan chora-tadbirlar majmuasini qamrab oladi. Erkinlik huquqi erkinlikning ayni o'zidir, ya'ni istalgan qonuniy harakatlarni amalga oshirish imkoniyatidir. Ushbu huquqda boshqa insonlar, ayniqsa insonlarga nisbatan majburiy choralar qo'llash imkoniga ega mansabdor shaxslarning erkinligi uchun cheklovlar mavjud. Insonning hayoti, salomatligi, obro'si va qadr-qimmatini qamrab oluvchi shaxsiy daxlsizlik u bilan uzviy aloqadadir. Hech kim kuch yoki tahdid ostida insonni biror-bir harakat qilishga majburlash, qiynoqqa solish, tintuv o'tkazish yoki salomatligiga zarar yetkazish huquqiga ega emas. Inson o'z taqdirini o'zi belgilash, o'z hayot yo'lini o'zi tanlash (oila qurish, saylovda qatnashish, ishga kirish va b.) huquqiga ega. Shaxs erkinligi va xavfsizligining yanada kuchliroq kafolatlari fuqarolar va mansabdor shaxslarning har qanday noqonuniy harakatlarini jinoyi-

huquqiy taqiqlash shaklida yuzaga chiqadi. Ushbu erkinlikni cheklashga faqat qonun asosida va qonuniy shakllarda ruxsat beriladi, barcha majburlash choralarini sud orqali amalga oshirilishi lozim.

Shaxs erkinligini kafolatlovchi bir qator me'yorlar davlat organlarining yurisdiksiya faoliyatini belgilovchi qonunchilikda ifodalangan. Chunonchi, jinoyat ishlari bo'yicha sud jarayonida keltirish, ushlab, hibsga olish, shaxsiy tintuv va boshqa, o'z xarakteriga ko'ra majburlovchi bo'lgan harakatlarga, qonunda keltirilgan asoslar bo'lgandagina va ularda ko'rsatilgan tartibdagina ruxsat beriladi.

Xalqaro hujjatlarning tizimli tahlilidan shu narsa ko'rinadiki, ularda "erkinlik" tushunchasi keng talqin etiladi hamda o'z ichiga ham biologik, ham ijtimoiy hayotni qamrab oladi. Erkinlik huquqi o'z ichiga shaxsiy (yashash joyini tanlash erkinligi, ko'chish erkinligi, harakat erkinligi va h.k.), siyosiy (fikrlash erkinligi, so'z erkinligi va h.k.), kasbiy (mehnat qilish erkinligi, ijod erkinligi va h.k.) hayotda amalga oshiriluvchi aniq qonuniy huquqlar majmuasini qamrab oladi. "Erkinlik" tushunchasining bu kabi keng ko'lamdagi talqini Konstitutsiyada va boshqa qonun-hujjatlarida u yoki bu shaxs erkinligining namoyon bo'lishiga bag'ishlangan alohida me'yorlar mavjudligi bilan inkor etilmaydi, zero bunda faqatgina qonunchilik uchun oddiy bo'lgan amaliyot – qonunga umumiy me'yorlar bilan birgalikda eng muhim, maxsus me'yorlarni kiritish namoyon bo'ladi.

Inson huquq va erkinliklariga oid umume'tirof etilgan me'yorlarning alohida o'rnini O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining Muqaddimasida o'z tasdig'ini topgan. Birinchi bor inson huquqlari, aniqroq aytganda, qonun oldida tenglik huquqi O'zbekiston Respublikasining 1991-yil 31-avgustda qabul qilingan "O'zbekiston Respublikasining davlat mustaqilligi asoslari to'g'risida"gi Konstitutsiyaviy Qonunda mustahkamlab qo'yildi. Mazkur Qonunning 15-moddasida shunday deyiladi: "O'zbekiston Respublikasi hududida Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasiga muvofiq O'zbekiston Respublikasi fuqaroligi joriy qilinadi.

O'zbekiston Respublikasining barcha fuqarolari millati, elati, ijtimoiy mansubligi, diniy qarashlari va aqidasidan qat'i nazar, bir xil fuqarolik huquqiga egadirlar va respublika Konstitutsiyasi hamda qonunlari himoyasidadirlar"

O'zbekiston Respublikasi xalqaro huquqda ko'zda tutilgan inson va fuqaro huquqlari va erkinliklarini e'tirof etadi. Shunga muvofiq Konstitutsiya milliy huquq tizimiga inson va fuqaroning huquq va

erkinliklarining asosiy xalqaro manbalari bo'lmish 1948 yildagi Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasining, 1966 yildagi Iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar to'g'risidagi xalqaro paktning, 1966 yildagi Fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risidagi xalqaro paktning aksariyat qoidalarini kiritadi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida xalqimiz, millatimiz, davlatimizga oid qadriyatlar hamda insoniyat huquqiy madaniyatidagi barcha ilg'or qarashlar o'zaro uyg'unlikda o'z in'ikosini topgan.

Xalqaro hamjamiyat tomonidan umume'tirof etilgan inson huquq va erkinliklarini tan olgan holda, O'zbekiston Respublikasi o'z tarafidan ularning poymol etilishiga yo'l qo'ymaslik, ularni tatbiq etish uchun sharoit yaratish va ularning amalga oshirilishini kafolatlash majburiyatini oladi.

Konstitutsiyada qo'llanilgan "huquq" va "erkinlik" tushunchalari o'rtasidagi farq shartlidir. Har ikkala tushuncha har kimning ham inson, ham davlat fuqarosi sifatida o'z xatti-harakatining shakli va me'yori ni tanlashdagi qonuniy e'tirof etilgan imkoniyatini anglatadi.

Shu bilan birga, "erkinlik" tushunchasi ko'proq shaxs mustaqilligi doirasini namoyish etuvchi, uning ichki dunyosi (vijdon, aqida, fikrlash, badiiy, ilmiy, texnik va boshqa shakldagi ijod, ta'lim olish erkinligi)ga aralashuvdan himoya qiluvchi qonuniy huquqlariga bog'liqdir.

"Huquq" tushunchasi ko'proq davlat tomonidan qandaydir ijobiy harakatlarni yoki insonning muayyan ijtimoiy-siyosiy, xo'jalik tuzilmalari faoliyatida qatnashish huquqlarini nazarda tutadi.

Inson va fuqaro asosiy huquq va erkinliklarining alohida huquqiy xususiyatlari, ularning amalga oshirilishidagi o'ziga xoslik ushbu huquqlar va erkinliklarning quyidagi jihatlarida aks etgan:

a) ular shaxs huquqiy mavqeining asosini tashkil qiladi, turli me'yoriy hujjatlarda belgilangan boshqa barcha huquq va erkinliklarning zahirida yotadi. Chunonchi, mehnat huquqi me'yorlaridan kelib chiquvchi barcha huquqlar mehnat haqidagi konstitutsiyaviy qonunlarga; ijtimoiy ta'minot huquqi sohasida belgilangan huquqlar – tegishli konstitutsiyaviy ravishda belgilangan asosiy huquqqa; fuqarolarning sog'liqni saqlash sohasidagi huquqlari – salomatlikni muhofaza qilish huquqiga asoslanadi. Fuqarolarning hayotning u yoki bu sohasidagi huquq va erkinliklari asosiy huquq va erkinliklardan kelib chiqadi. Shu sababli shaxsning huquqiy holatida asosiy huquq va erkinliklar muhim hisoblanadi;

b) ular subyektlarning keng ko'lamdagi doirasiga yo'naltirilgan, har bir inson yoki har bir fuqaroga birlashtirilgan. Konstitutsiyaviy me'yorlardan

tashqari, boshqa huquqiy me'yorlar bilan o'rnatiladigan barcha huquq va erkinliklar shaxsning turli mavqelarga (ishchi va xizmatchi, mulk egalari, turar joy ijarachilari, xaridorlar, arizachilar, javobgarlar va h.k.) ega ekanligidan dalolat beradi;

c) ular umumiylik bilan xarakterlanadi: ular hammaga, har bir inson yoki har bir fuqaroga istisnosiz teng va yagonadir. U yoki bu huquqni asosiy deb e'tirof etishda, davlat ushbu huquqning barcha amalga oshira olishi imkoniyatidan kelib chiqadi. Asosiy huquq va erkinliklar kengayishi tegishli ijtimoiy-iqtisodiy omillar vujudga kelishi bilan izohlanadi. Fuqaroning asosiy huquq va erkinliklari boshqa huquq va erkinliklardan yuzaga kelish sabablari bilan ajralib turadi. Ana shunday yagona sabab – bu fuqarolikka ega bo'lishdir. Ular fuqaroning huquqqa ega bo'lish qobiliyatini amalga oshirishi bilan bog'liq emas va huquq subyekti sifatida har bir fuqaroga tegishlidir. Bu asosiy huquq va erkinliklar shaxsning davlat bilan bosh aloqalarini, uning fuqaro sifatidagi mavqeini ifodalashidan dalolat beradi. Ular shaxs ixtiyoriga ko'ra kengaytirilmaydi va kamaytirilmaydi, unga fuqaro bo'lgani bois tegishli bo'ladi, uning huquqiy mavqeidan ajralmaydi va faqat fuqarolikdan mahrum bo'lgandagina yo'qotilishi mumkin;

d) ular tatbiq qilish mexanizmining o'ziga xosligi bilan ajralib turadi. Inson va fuqaro, boshqa barcha huquq va erkinliklarga, o'z huquqiy layoqatini aniq bir huquqiy munosabatlarda ishtiroki jarayonida qo'llash orqali ega bo'lishi mumkin. Asosiy huquq va erkinliklar esa, muayyan sohadagi har qanday huquqiy munosabatlarning omili, huquqiy munosabatlar har bir ishtirokchisining doimiy, ajralmas huquqi sifatida namoyon bo'ladi.

e) belgilab qo'yishning alohida yuridik shakliga egadir. Ular davlatning oliy yuridik kuchga ega me'yoriy-huquqiy hujjati – Konstitutsiyada mustahkamlab qo'yiladi;

f) ular kuchaytirilgan huquqiy himoya bilan ta'minlanadi, ya'ni konstitutsiyaviy me'yorlar, ularni mustahkamlovchi qoidalar amaldagi Konstitutsiya doirasida muhofazalanadi va ular yangi Konstitutsiya qabul qilmay turib o'zgartirilishi mumkin emas.

2-modda

Har bir inson irqi, tana rangi, jinsi, tili, dini, siyosiy yoki boshqa e'tiqodlaridan, milliy yoki ijtimoiy kelib chiqishi, mol-mulki, tabaqasi yoki boshqa holatidan qat'i nazar ushbu Deklaratsiyada e'lon qilingan barcha huquq va barcha erkinlikka ega bo'lishi zarur.

Bundan tashqari, inson mansub bo'lgan mamlakat yoki hududning siyosiy, huquqiy yoki xalqaro maqomidan, ushbu hudud mustaqilmi, vasiymi, o'z-o'zini idora qiladimi yoki boshqacha tarzda cheklanganligidan qat'i nazar biror bir ayirmachilik bo'lmasligi kerak.

Har bir davlat milliy chegaralari hududida ko'pchilik aholidan ajralib turuvchi alohida etnik, til yoki diniy xususiyatlarga ega shaxslar guruhlarini istiqomat qiladilar. Har bir guruhning o'ziga xosligini saqlab qolish va barcha kamsonli aholi orasida, shuningdek, kamsonli va ko'psonli aholi o'rtasida uyg'un munosabatlarni qo'llab-quvvatlash etnik va madaniy rang-baranglikni rivojlantirishda juda muhim ahamiyat kasb etadi, shu sababli davlatlar tenglik, kamsitmaslik va siyosiy mustaqillik kabi oliy qadriyatlarni o'z fuqarolarining turli guruhlarini huquqlarini hurmat qilish muhofaza qilish bilan uyg'unlashtirishga intiladilar.

Deklaratsiyada e'lon qilingan irq, tana rangi, jins, til, din, siyosiy yoki boshqa qarashlar, milliy yoki ijtimoiy kelib chiqishi, mulkiy, tabaqaviy yoki boshqa holatlardagi har qanday farqlardan qat'i nazar, barcha huquqlar va barcha erkinliklarga ega bo'lish imkoniyati kamsonli guruhlar muammosiga qiziqish uyg'otdi.

Shu kunga qadar kamsonli millatlar huquqiy mavqeining asosiy holatlarini belgilab beruvchi bir qator xalqaro huquqiy hujjatlar qabul qilingan bo'lib, ularni ichki qonunchilikni rivojlantirishda asos sifatida qo'llash lozim. Umumiy yondashuvlar, shubhasiz, muhim ahamiyatga ega, lekin ular muayyan muammolarni hal etish imkonini bermaydi, shu sababli hozirga qadar alohida mamlakatlar qonunchiligi, aniqrog'i – qonunni qo'llash amaliyoti asosiy rol o'ynamoqda. Eng yaxshi yuridik vositalar ham, agar ularni tatbiq qilish qiyin bo'lsa, samarasiz hisoblanadi. Inson va fuqaroning umumiy holda huquq va erkinliklari tengligining zamonaviy xalqaro-huquqiy muvofiqlashtirish asoslari Birlashgan Millatlar Tashkiloti Nizomida belgilab qo'yilgan, deb hisoblanadi, holbuki, kamsonli millatlarning alohida huquqlari ushbu hujjatda zikr etilmagan.

Bugungi kunga qadar teng huquqlilikning asosiy mezonlarini belgilovchi, ichki qonunchilikni rivojlantirishda asos sifatida faoydalanilishi zarur bo'lgan bir qator xalqaro huquqiy hujjalar qabul qilingan. Ushbu universal xalqaro hujjatlarga Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi, 1966-yildagi Iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar to'g'risidagi xalqaro pakt, 1966-yildagi Fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risidagi xalqaro pakt (uning qabul qilinishi tufayli davlatning

kamsonli millatlar huquqlarini himoya qilish majburiyatiga alohida e'tibor berildi) kiradi. Teng huquqlilik tamoyilining shakllanishida quyidagi hujjatlar muhim rol o'ynadi: Ta'lim sohasida kamsitishga qarshi kurash to'g'risidagi konvensiya (1960-y.), Irqiy kamsitishlarning barcha shakllarini tugatish haqidagi xalqaro konvensiya (1965-y.), Irq va irqiy xurofotlar to'g'risidagi deklaratsiya (1978-y.), Din yoki e'tiqod asosidagi kamsitish hamda murosasizlikning barcha shakllarini tugatish to'g'risidagi deklaratsiya (1981-y.), Rivojlanishga bo'lgan huquq to'g'risidagi deklaratsiya (1986-y.), Bola huquqlari to'g'risidagi konvensiya (1989-y.), Milliy yoki etnik, diniy va til jihatdan ozchilikka mansub shaxslar huquqlari to'g'risidagi deklaratsiya (1992-y.), Vena deklaratsiyasi va Harakatlar dasturi (1993-y.) kiradi. Mintaqaviy ahamiyatga ega xalqaro huquqiy hujjatlardan Inson huquqlari va asosiy erkinliklarini himoya qilish to'g'risidagi Yevropa konvensiyasi (1950-y.), Yevropada xavfsizlik va hamkorlik kengashning yakunlovchi hujjati (1975-y.), YeXHKga a'zodavlatlar vakillarining 1986-yildagi Vena uchrashuvi yakuniy hujjati (1989-y.), YeXHK Insoniy mezonlar Konferensiyasining Kopengagen kengashi hujjati (1990-y.), Yangi Yevropa uchun Parij xartiyasi (1990-y.), Mintaqaviy tillar yoki kamsonli aholi tillari Yevropa xartiyasi (1992-y.), Kamsonli millatlarni himoya qilish boshlang'ich konvensiyasi (1995-y.), Inson huquqlari to'g'risidagi Amerika konvensiyasi (1969-y.), Inson va xalqlar huquqlari Afrika xartiyasi (1981-y.). Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi inson huquqlari va erkinliklari konvensiyasi (1995-y.)ga e'tibor qaratish lozim.

Yuqorida keltirilgan hujjatlar kamsonli millatlar huquq va erkinliklarining xalqaro-huquqiy instituti shakllanganligidan dalolat beradi.

1990-yilda Yevropada xavfsizlik va hamkorlik konferensiyasi tomonidan qabul qilingan Yangi Yevropa uchun Parij xartiyasi kamsonli millatlar huquqlarini kelgusidagi sakkiz ustuvor yo'nalish safiga qo'shdi. Kamsonli millatlarning huquqiy muhofazasi va ularning tinch yashashini ta'minlash jahon hamjamiyatining eng muhim muammosiga aylandi, uning hal etilishiga nafaqat alohida bir davlatdagi siyosiy ahvol, balki zamonaviy dunyo tarixiy taraqqiyotining borishi ham bog'liqdir.

Kamsonli millatlarga ko'pchilikni tashkil etuvchi shaxslarga berilgan darajada huquqlarning berilishi zaruriy shart bo'lsa-da, ularning huquqiy holati amalda teng bo'lishini ta'minlamaydi. Hozirgi dunyoda kamsonli millatlar huquqlarini ta'minlash va himoya qilishning turli xil usullari qo'llaniladi: bu ularning global yoki mintaqaviy xarakterdagi xalqaro

huquqiy muvofiqlashtirish ham, davlat miqyosida boshqarish ham, shuningdek, davlatlarning bir qismida yoki mahalliy boshqaruv ham bo'lishi mumkin.

Mazkur usullarning har biri o'z tarafdorlari va raqiblariga ega, shu sababli adabiyotlarda xalqaro standartlarni o'rnatish va har bir davlatdan ularni bajarishni talab etish taklifini ham, kamsonli millatlar huquqlarini muvofiqlashtirish ular istiqomat qilayotgan mamlakatninggina ishi bo'lib, faqat davlatning ichki huquqlari asosida amalga oshirilishi kerak, degan da'voni ham uchratish mumkin. Ushbu ikkala fikr ham yetarlicha asoslangan, chunki bir tomondan, har bir davlatning o'ziga xos siyosiy hayotga egaligi hamma uchun umumiy universal qoidalar tizimini ishlab chiqish imkonini bermaydi, boshqa tomondan esa, kamsonli guruhlar huquqlari, shubhasiz, insonning asosiy huquqlari sirasiga kiradi va, binobarin, xalqaro darajada himoya qilinishi lozim.

Inson huquqlari teng huquqlilikka qo'llagan holda shartli ravishda ikki guruhga bo'linishi mumkin: birinchi guruhga inson huquqlari muhofazasining umumiy tartibi doirasida himoya qilinishi mumkin bo'lgan huquqlar kiradi, ikkinchi guruhga himoya qilish uchun alohida kafolatlar mavjud bo'lgandagina tatbiq qilish mumkin bo'lgan huquqlar – kamsonli guruhlarining etnik, madaniy, diniy va til xususiyatini ta'minlovchi, bu bilan ularning o'ziga xosligini saqlab qoluvchi huquqlar kiradi. Faqat individual va jamoaviy yondashuvlarning sintezi doirasidagina (kamchilikning alohida guruh sifatida huquqlarini himoya qilish) aholining o'ziga xos tavsifga ega toifalarini ifodalovchi kamsonli guruhlariga mansub shaxslarning ham, umuman bunday guruhlarining ham huquqlari samarali tatbiq qilinishi mumkin.

Kamsonli millatlar muhofazasi muammosini samarali hal etish asosida qo'shimcha yuridik kafolatlar bilan ta'minlanuvchi tenglik va kamsitmaslik tamoyillari yotadi. Shuni qayd etish zarurki, har qanday davlatning milliy siyosatining asosiy maqsadi - o'z fuqarolarining amalda tengligiga erishishdan iborat. Teng huquqlilikni ijtimoiy tenglik bilan ham, muayyan etnik guruhga nisbatan beboshlikni taqiqlash bilan ham aralashtirish mumkin emas. Kamsonli millatlar mavqei ma'nosida teng huquqlilik – bu kamchilikning turmush sharoitini asosiy aholi turmush sharoitiga yaqinlashtirish va ushbu jamoalarning huquqlari, erkinliklari va majburiyatlarini etnik ko'pchilikniki bilan tenglashtirish – ona tilini, an'analarini, dinini qo'llash, milliy maktablarni rivojlantirishdir. Shu tariqa, haqiqiy tenglik kamsonli guruhlar singib ketishga qarshi

kafolatlarni o'z ichiga olgan maxsus huquqlarga ega bo'lgandagina erishiladi.

Kamsitmaslik siyosiy, ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy sohalarda ozchilik huquqlarini poymol qilishga bo'lgan har qanday urinishdan himoya qilishni o'zida aks ettiradi. Kamsitishni taqiqlash, jumladan, irqi, tili, dini, milliy yoki ijtimoiy kelib chiqishi, tug'ilishi yoki boshqa jihatlar tufayli kamsitishni qamrab oladi va rasman tenglik tamoyiliga asoslanadi. Bu tamoyilga binoan huquq subyekti sifatida e'tirof etilgan inson real hayotda boshqa insonlar amalda teng bo'lmasa-da, rasman teng holatda bo'ladi.

Yuqorida keltirilgan tamoyillarning tatbiq qilinishi o'z holicha kamsonli millatlarning manfaatlari muhofazasini yetarli darajada ta'minlashga qodir emas: ozchilikning ko'pchilik tomonidan tabiiy, deb qabul qilinuvchi mavqega erishishi jarayoni faqat ularning hayot kechirishini va etnik o'ziga xosligining rivojlanishini, kamsonli millatlarning turmush sharoitini aholining asosiy milliy guruhi turmush sharoitiga yaqinlashtirishni ta'minlovchi maxsus huquqlar berishni ko'zda tutadigan alohida kafolatlar tatbiq qilingandagina boshlanishi mumkin.

Qayd etish lozimki, maxsus huquqlar, ya'ni alohida rasmiy kategoriyalarga mansub shaxslar foydalanadigan huquqlar tushunchasi, inson huquqlarining tashkiliy unsuri sifatida, zamonaviy yuridik adabiyotlarda yetarlicha yoritilgan. Maxsus huquqlarga afzallik beruvchi, bu hamjamiyatlar va ularga mansub shaxslar uchun boshqa aholiga nisbatan imtiyozli sharoit yaratuvchi huquqlar deb emas, ozchilikni ularning o'ziga xosligi va an'alarini saqlab qolish uchun zarur vositalar bilan ta'minlash talabi, o'zlariga xos xususiyatlarni saqlab qolish uchun alohida mavqega muhtoj nodominant (yetakchi bo'lmagan) guruhlarni muhofaza qilish, ta'lim nodominant guruhlarning o'z ona tilisida olib boriluvchi maktablar kabi alohida ijtimoiy dasturlarni o'z ichiga oluvchi ijibiy faoliyat deb qarash kerak.

Kamsonli millatlarning xalqaro shartnomalarda ko'zda tutilgan maxsus huquqlari anchagina keng va rang-barang, shu sababli ba'zi adabiyotlarda ularni individual va jamoaviy huquqlarga tasniflashga urinishlar kuzatiladi. "Jamoaviy huquqlar" tushunchasining ta'rifi yetarlicha bir ma'noli bo'lmay, turlicha talqin etiladi: jamoada, boshqa insonlar bilan hamkorlikda tatbiq qilinuvchi individual huquqlar ("individual huquqlarning jamoaviy mezon"); muayyan guruhlarga nisbatan inson va fuqaroning umumiy huquqlari; muayyan toifaga mansub individlar ega bo'lgan maxsus huquqlar ("maxsus huquqlar"); jamoaviy

huquq subyekting qonuniy huquqqa egaligi – tashkilot; shartli yoki statistik guruhning o'ziga xos huquqlari.

Shu bilan birga, kamsonli millatlarning individual va jamoaviy huquqlari bir-birini istisno etuvchi tushunchalar bo'lmay, faqat birgalikda kamsonli millatlarning manfaatleri muhofazasini to'liq ta'minlaydi. Chunki jamoaviy huquqlar insonning xuddi shu kamsonli millatga mansub boshqa insonlar bilan birgalikdagina tatbiq qila oladigan huquqlarining majmuasini ifodalaydi.

Yuqorida keltirilgan xalqaro hujjatlarga muvofiq, kamsonli millatlarga mansub shaxslar huquqlari ichida o'z etnik, madaniy, lisoniy (til) yoki diniy o'ziga xoslikni erkin ifodalash, saqlab qolish va rivojlantirish asosiy ahamiyat kasb etadi. U o'z ichiga, birinchi navbatda, aynan o'xshatish – taqqoslanayotgan shaxsga hech qanday salbiy asoratlarsiz tegishli etnik ozchilikka tenglashtirish yoki tenglashtirishni rad etish huquqini qamrab oladi. Uning mantiqiy davomi esa majburiy assimilyatsiyani taqiqlovchi me'yordir. Ushbu huquqni o'z ona tilini o'rganish yoki ushbu tilda ta'lim olish huquqi, o'z familiya va ismini ona tilidagi transkripsiyada qo'llash, ozchilikning tillarini xususiy va jamoa hayotida va imkon qadar, ularga mansub shaxslar va ma'muriy organlar o'rtasida ishlatish, maorif va kasbiy tayyorgarlik maqsadlarida o'zlarining xususiy o'quv muassasalarini tashkil etish, davlatning aralashuvisiz va chegaralardan qat'i nazar, ozchilik tilida axborot olish va almashinish, shuningek, o'z ommaviy axborot vositalarini ta'sis etish va foydalanish orqali tatbiq qilish ko'zda tutiladi. Shubhasiz, ushbu barcha huquqlar muayyan bir shaxsga taalluqli bo'ladi, ammo ularning tatbiq qilinishi fuqaro o'zini bir yoki bir qancha belgilar bo'yicha o'xshatishi mumkin bo'lgan shaxslar guruhi mavjud bo'lgandagina amalga oshishi mumkin. Shu sababli o'ziga xoslik huquqi jamoaviy huquqlarga oid, deb topilgan.

Kamsonli millatlarning jamoaviy huquqlari orasida siyosiy huquqlar muhim o'rin tutadi: ozchilikning guruh sifatida mavjud bo'lish huquqi, kamsonli millatlarning qonuniy tan olinishi va ularning alomatlarini belgilash, o'z uyushmalarini tuzish va ularning faoliyatini ta'minlash huquqi va h.k. bu sohadagi maxsus huquqlar ozchilikning davlat ishlarida, an'anaga ko'ra, ularning mamlakat umumiy aholisi sonidagi hissasidan kelib chiqqan holda ajratiladigandan ko'ra salmoqliroq rol o'ynashini ta'minlashga qaratilgan. Siyosiy huquqlarni tatbiq qilish maqsadida, davlat zimmasiga ozchilik manfaatlariga ta'sir ko'rsatuvchi masalalarda ularning roziligini olish, hech bo'lmaganda ular bilan maslahatlashish, qonun chiqaruvchi va boshqa organlarda, jumladan, hukumatlararo organlarda

vakillikni kafolatlash, ozchilikning manfaatlarini milliy siyosatda aks ettirish maqsadida kamsonli millatlar vakillari bo'lgan rasmiy shaxslarni maxsus mansablarga yoki belgilangan hajmdagi mansablarga tayinlash, shuningdek, kamsonli millatlarning manfaatlarini ta'minlash uchun barcha zarur chora-tadbirlarni amalga oshirish majburiyati yuklatiladi.

Kamsonli millatlarga mansub shaxsning individual huquqlariga umumiy etnik mansublik yoki umumiy madaniy meros bog'lab turuvchi boshqa mamlakatlar fuqarolari bilan chegaralararo erkin va tinch aloqa qilish huquqini; madaniy, diniy, ijtimoiy, iqtisodiy va davlat hayotida qatnashish huquqini; o'z madaniyati qadriyatlaridan foydalanish, o'z diniga e'tiqod qilish va diniy ibodatlarni bajarish huquqini kiritish mumkin. Ushbu huquqlarga qo'shimcha ravishda bir qator boshqa muhim kafolatlar mavjud bo'lib, ular ozchilik vakillariga tegishlidir, jumladan, ularga huquq subyekti deb e'tirof qilinish huquqi, sudlarda teng huquqli bo'lish, qonun oldida teng bo'lish va qonun bilan bab-barobar himoya qilish kabilar kiradi.

Inson huquqlariga hozirgi zamon xalqaro huquqida ustuvor yo'nalish sifatida qaraladi. Ammo huquq, agar u orqali qonunlashtirilgan harakatlar erkinligi hech qanday chegaralar bilan cheklanmaganda, o'zining ijtimoiy vazifasini bajara olmagan bo'lardi. Shu sababli xalqaro hujjatlar kamsonli millatlarga anchagina katta huquqlar taqdim etibgina qolmay, muayyan majburiyatlar ham yuklaydi. Ozchilikka mansub har qanday shaxs davlat fuqarosi sifatidagi majburiyatlarini og'ishmay bajarishi, umumjahon e'tirof etgan inson huquqlarini va fundamental erkinliklarni hamda o'z davlatining asosiy aholisi yoki boshqa ozchilikning manfaatlarini hurmat qilishi lozim. Kamsonli millatlar o'zlari yashayotgan davlatning hududiy yaxlitligi va siyosiy mustaqilligi tamoyiliga rioya qilishga majburdirlar. Bundan tashqari, milliy ozchilik aholining ko'p qismini tashkil qiluvchi mintaqalarda, ushbu millatga mansub bo'lmagan, ozchilikni tashkil qiluvchilar biror kamsitishdan aziyat chekmasligini ta'minlash uchun davlat barcha zarur choralarni ko'rmog'i lozim.

Konstitutsiyaning 31-moddasiga muvofiq: "Hamma uchun vijdon erkinligi kafolatlanadi. Har bir inson xohlagan dinga e'tiqod qilish yoki hech qaysi dinga e'tiqod qilmaslik huquqiga ega. Diniy qarashlarni majburan singdirishga yo'l qo'yilmaydi".

O'zbekistonda 130 dan ortiq millat, elat va etno-milliy guruhlar vakillari uyg'unlikda va totuvlikda yashaydilar. Bugungi kunda respublikada 140 dan ortiq milliy madaniy markazlar faoliyat yuritmoqda.

Mustaqillik respublika diniy jamoalariga ibodatlarini erkin ado etish va aqidalari ko'rsatmalarini bajara olishlari uchun o'z jamoat tashkilotlarini tashkil etish imkonini berdi. Yurtimiz Konstitutsiyasiga muvofiq, barcha diniy tashkilotlar, ya'ni O'zbekiston musulmonlari idorasi va Rus pravoslav cherkovining Toshkent va O'rta Osiyo eparxiyasi ham, uncha katta bo'lmagan diniy jamoalar ham jamiyat va qonun oldida barobar huquq va majburiyatlarga egadirlar.

Konfessiyalararo muloqotni rivojlantirish va dinlararo munosabatlar borasidagi davlat siyosatini amalga oshirish maqsadida, O'zbekistonda Din ishlari bo'yicha qo'mita faoliyat olib bormoqda; shuningdek, Konfessiyalar ishlari bo'yicha kengash tuzilgan. Kengash tarkibiga O'zbekiston musulmonlari idorasi, Rus pravoslav cherkovining Toshkent va O'rta Osiyo eparxiyasi, Rim-katolik cherkovi, Evangel' xristian-baptistlar cherkovlari ittifoqi. To'liq Evangeliya xristianlari markazi, Evangeliya-lyuteran cherkovi, Toshkent yahudiylar diniy jamoasi rahbarlari kiradi.

Hozirda Adliya vazirligi va uning tuzilmaviy bo'linmalari tomonidan mamlakatda 16 ta konfessiyaga mansub 2222 diniy birlashma ro'yxatga olingan. Asosiy aholisi (88%) islom diniga e'tiqod qiluvchi O'zbekistonda musulmon diniy tashkilotlari soni 2042 tani tashkil qiladi, bu ularning umumiy hajmining 92 foizi demakdir.

3-modda

Har bir inson yashash, erkin bo'lish va shaxsiy daxlsizlik huquqlariga egadir.

Insonning yashash huquqi – asosiy, tabiiy va ajralmas huquqi hisoblanadi. Bu huquq inson huquqlari haqidagi barcha xalqaro-huquqiy hujjatlar va jahonning deyarli barcha mamlakatlari konstitutsiyalarida insonning ajralmas, qonun bilan himoyalangan huquqi deb e'lon qilingan.

Dastlab yashash huquqining xalqaro-huquqiy reglamentasiyasi 1948-yildagi Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasida berilgandi. Biroz keyinroq u genotsid jinoyatini oldini olish va uning uchun jazolash to'g'risidagi konvensiyada (1948-y.), Inson huquqlari Amerika konvensiyasi 4-moddasida va uning Protokolida (1962-y.), Fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risidagi xalqaro paktning 6-moddasida (1966-y.), EKOSOSning (1984-y.) 50-sonli "O'limga hukm qilinganlarning huquqini himoya qilishni kafolatlovchi chora-tadbirlar" rezolyutsiyasida (1984-y.),

Fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risidagi xalqaro paktning o'lim jazosini bekor qilishga qaratirilgan Ikkinchi Fakultativ protokolda (1989-y.), Inson huquqlari va asosiy erkinliklarini himoya qilish yevropa konvensiyasida 6 va 13-Protokol (1950-y.) va boshqalarda mustahkamlandi. Ularning barchasida, yashash huquqi har bir insonning ajralmas huquqi sifatida qonun bilan himoya qilinadi.

Yashash huquqi bu borada yuzaga keluvchi boshqa barcha huquq va erkinliklar uchun asos vazifasini o'taydi. Unda jahon sivilizatsiyasining mutlaq qadriyati aks etadi, zero inson vafot etgan taqdirda boshqa barcha huquqlar o'z ma'nosi va ahamiyatini yo'qotadi. Bu fundamental huquqni ikki jihatdan: birinchidan, shaxsning o'z hayotiga davlat, uning vakillari yoki yakka shaxslar tomonidan bo'ladigan har qanday noqonuniy tajovuzdan ozod bo'lish huquqi sifatida; ikkinchidan, shaxsning o'z hayotini erkin tasarruf etish huquqi sifatida o'rganish mumkin.

Ishning mohiyatiga ko'ra, boshqa barcha huquqlar ushbu o'zak huquq atrofida jamlanadi. Masalan, ijtimoiy ta'minot, sog'liqni saqlash, atrof-muhitga bo'lgan huquqlar. shuning barobarida, shafqatsiz munosabat va jazolardan ozod bo'lish huquqi ham uning samarali tatbiq qilinishini ta'minlovchi qo'shimcha vositalar sifatida yuzaga chiqadi. Davlat ushbu huquqlarni tan olishga va inson hayoti uchun barcha mavjud vositalar yordamida munosib sharoitlar yaratishga majburdir. Shaxs hayoti va salomatligiga qarshi jinoyatlar o'ta og'ir jinoiy jazoga tortiluvchi harakatlar toifasiga kiritilishi bejiz emas.

Bu boradagi alohida muammo – davlatning eng oliy jazo chorasi sifatida o'lim jazosini qo'llash huquqidir.

Yashash huquqi Konstitutsiyada va, tarmoq qonunlarida belgilangan qonuniy vositalar majmuasi orqali ta'minlanadi.

Insonning yashash huquqini tatbiq qilinishi bevosita o'lim jazosini bekor qilish muammosi bilan bog'liqdir. "Xalqaro amnistiya" ma'lumotlariga ko'ra, 2007-yilning sentabr oyi holatiga:

92 ta davlat va hududiy tuzilmalar o'lim jazosini, butunlay bekor qildi;

11 ta davlat harbiy jinoyatlar kabi o'ta og'ir jinoyatlarni istisno qilgan holda, barcha jinoyatlar bo'yicha o'lim jazosini bekor qildi;

23 ta davlat o'lim jazosini jazo turi sifatida chiqarish va amalga oshirishga moratoriy e'lon qildilar, ya'ni ushbu turdagi jazo qonunchilikda saqlansa-da, amalda hukm qilinmaydi va amalga oshirilmaydi;

30 ta davlat o'lim jazosini amalda qo'llamaydi: ushbu davlatlar qonunchiligi bunday jazo turini nazarda tutadi, lekin keyingi 10 va undan oshiq yil davomida hukmlar amalga oshirilmagan.

Shu tariqa, jami 133 davlat yo o'lim jazosini qonunchilik tartibida bekor qilgan yoki uni amalda qo'llamayapti.

Yana 64 davlat o'lim jazosini saqlab qolgan va amalda qo'llab kelmoqda, biroq hibsga olinganlarni amalda qatl etayotgan mamlakatlar soni yildan-yilga kamayib bormoqda.

O'zbekistonda o'lim jazosi belgilanishi mumkin bo'lgan jinoyatlar turi bosqichma-bosqich va izchil kamayib borishi tendensiyasi "Inson, uning hayoti, erkinligi, sha'ni, qadr-qimmati va boshqa daxlsiz huquqlari oliy qadriyat hisoblanadi" (13-modda), shuningdek: "Yashash huquqi har bir insonning uzviy huquqidir. Inson hayotiga suiqasd qilish eng og'ir jinoyatdir" (24-modda), deya e'lon qilgan O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida hamda O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi (1994-yil 24-aprel) qabul qilingan vaqtdan kuzatila boshlandi.

2007-yil 15-iyulda O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatida ma'qullangan O'zbekiston Respublikasining "O'lim jazosining bekor qilinganligi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ba'zi qonun-hujjatlariga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi Qonuniga muvofiq, Jinoyat kodeksidan o'lim jazosi olib tashlandi va umrbod qamoq jazosiga yoki uzoq muddatga ozodlikdan mahrum qilishga almashirildi.

Ozodlik va shaxsiy daxlsizlik huquqi insonning erkinligini, o'z xatti-harakatlarini mustaqil belgilash, o'zini, o'z vaqtini o'zi boshqarish huquqini anglatadi. Bu huquq quyidagilardan tarkib topadi: 1) shaxsning o'zini o'z ixtiyoriga ko'ra boshqarishdagi individual erkinligi; 2) shaxsning jismoniy, ma'naviy va ruhiy daxlsizligi. Ozodlikdan noqonuniy mahrum etish jinoyat qonunchiligida jismoniy yoki ruhiy zo'rlik sifatida baholanadi. Biroq ozodlikni yoki daxlsizlikni majburiy cheklashni talab qiluvchi vaziyatlar mavjud. Bunday turdagi harakatlar qonunga asoslanishi lozim.

Fuqaro ozodligini cheklashning asosiy majburiy usullariga quyidagilar kiradi: hibsga olish, qamoqqa olish va jinoyat sodir qilganlikda ayblanayotgan shaxslarni qamoqda saqlash; o'ziga va atrofdagilarga xavf tug'diradigan ruhiy bemorlarni majburiy davolash; og'ir yuqumli kasalliklarga chalingan bemorlarni vaqtinchalik izolyasiyalash va davolash; balog'atga yetmaganlarni internatlarga, maxsus maktablar va shu kabilarga yuborish. Demokratik davlatlarda ushbu hollarda ozodlikni cheklashga, yuqorida qayd etilganidek, qonun asosida va faqat sud qarori

bilan yo'l qo'yiladi. Shaxs ozodligini noqonuniy cheklanishidan kafolatlash ma'muriy, jinoyat-protsessual va jinoyat huquqida batafsil belgilab qo'yiladi.

Shaxsiy hayotni hurmat qilish individual ozodlikning jihatlaridan biridir. Bu huquq insonga taqdim etilgan va davlat tomonidan kafolatlangan o'zi haqidagi axborotni nazorat qilish, shaxsiy, intim xarakterga ega ma'lumotlarning oshkor bo'lishiga to'sqinlik qilish imkoniyatini anglatadi. Shaxsiy hayotni individning o'zi tomonidan, ya'ni tashqi ta'sirdan xoli ravishda, nazorat qilinadigan jismoniy va ruhiy muhit deb ta'riflash mumkin. Qonunchilik bu muhitga kira olmaydi, lekin u ushbu muhitni har qanday noqonuniy aralashuvdan himoyalashi lozim.

Qonun shaxsiy hayotning daxlsizligi chegaralarini, uni noqonuniy tajovuzdan saqlash shakllarini belgilaydi. Demokratik rivojlangan davlat faqat istisno holatlarda, qonun va maxsus sud qarori asosida inson shaxsiy hayotining daxlsizligini buzishi, uning xatlari yoki telefon yoxud boshqa xabarlarini mazmuni bilan tanishishi mumkin.

Shunisi ravshanki, fuqaroning shaxsiy hayotiga oid ma'lumotlarni yig'ishga bo'lgan bunday zaruriy ehtiyoj faqat jinoyatchilikka qarshi kurash maqsadida, shuningdek, boshqa fuqarolarning salomatligi va xavfsizligini muhofaza qilish maqsadidagina yuzaga kelishi mumkin.

4-modda

Hech kim qullikda yoki erksiz holatda saqlanishi mumkin emas; qullik va qul savdosining barcha ko'rinishlari taqiqlanadi.

Xalqaro huquqda **ozodlikni cheklash va qullikdan himoya qilish** ning qonuniyligi masalasini belgilovchi xalqaro-huquqiy hujjatlarning butun boshli majmuasi ishlab chiqilgan. Bu boradagi asosiy universal hujjatlarga quyidagilar kiradi: Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi, "Fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risida"gi va "Iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar to'g'risida"gi xalqaro paktlar. Ozodlikni cheklash masalasini belgilovchi maxsus hujjatlarga quyidagilar kiradi: Qiynoq hamda muomala va jazolashning qattiq shafqatsiz, insoniylikka zid yoki qadr-qimmatni kamsituvchi turlariga qarshi konvensiya (1984-y.), Transmilliy uyushgan jinoyatchilikka qarshi konvensiya (2000-y.), BMTning balog'atga yetmaganlar ustidan odil sudlovni amalga oshirishdagi minimal standart qoidalari ("Pekin qoidalari" 1985-y.), Har qanday ko'rinishda qo'lga olingan yoki hibsdan saqlanayotgan barcha shaxslarni himoya qilish tamoyillari majmuasi (1988-y.), Mahbuslar bilan

muomalada bo'lishning minimal standart qoidalari (1955-y.), Jinoyatlar va hokimiyatni suiiste'mol qilinishi qurbonlari uchun odil sudlovning asosiy tamoyillari deklaratsiyasi (1985-y.), BMTning qamoqda saqlash bilan bog'liq bo'lmagan choralarga oid minimal standart qoidalari ("Tokio qoidalari" 1990-y.) va b.

Qullar savdosining zamonaviy ko'rinishi odam savdosi bo'lib, transmilliy uyushgan jinoyatchilik uchun eng rivojlanayotgan va o'ta daromadli faoliyat bo'lib qoldi. Statistik ma'lumotlar ko'plab xorijiy davlatlarda odam savdosi o'sib borayotgaligini ko'rsatmoqda.

BMTning rasmiy statistika ma'lumotlariga ko'ra, hozirda dunyoda taxminan 27 million nafar inson qullikda saqlanmoqda va bu ko'rsatgich yanada o'sib bormoqda.

BMT tadqiqotlari dalolat qilishicha, eng keskin vaziyat Nepal, Sudan, Birlashgan Arab Amirliklari, Hindiston, Gabon, Gaiti, M'yanma kabi davlatlardadir. AQSH Davlat departamenti ma'lumotlariga ko'ra, dunyo bo'ylab 4 milliondan oshiq kishi o'z ixtiyorisiz sotiladi, sotib olinadi, saqlanadi va jo'natiladi. Xalqaro ekspertlarning aniqlashlaricha, qul savdosidan jahon bo'yicha yillik daromad 9,5 milliard AQSH dollariga yetadi. Boshqa ekspertlarning baholashlaricha, ushbu bozorning umumiy aylanmasi 19 mlrd. AQSH dollariga yetadi.

Odam savdosiga jalb qilingan shaxslarning asosiy qismi jinsiy xizmatlar bozori ulushiga to'g'ri keladi. Fohishabozlik anchadan buyon jinoiy tashkilotlarning nafaqat milliy, balki xalqaro miqyosdagi faoliyatining asosiy daromadlaridan biri bo'lib kelmoqda. Bu savdoning aksariyat qurbonlari ayollar va bolalardir.

Amaldagi xalqaro-huquqiy hujjatlar hujjatni imzolagan har bir davlatda bu turdagi harakatni taqiqlash va u yuzasidan javobgarlikni belgilash majburiyatini yuklaydi.

Ko'rsatilgan shakllardagi odam savdosini taqiqlovchi hujjatlarga quyidagilar kiradi:

Qullik to'g'risidagi konvensiya (1926-y.), Majburiy mehnat to'g'risidagi konvensiya (1930 y.), Odam savdosi va fohishalikning uchinchi shaxslar tomonidan ekspluatasiya qilishga qarshi kurash haqidagi konvensiya (1949-y.), Qullikni, qulfurushlikni, qullikka o'xshash institutlar va odatlarni bekor qilish haqidagi qo'shimcha konvensiya (1966-y.), Insonlar, ayniqsa ayollar va bolalar savdosining oldini olish haqidagi, Birlashgan Millatlar tashkilotining transmilliy uyushgan jinoyatchilikka qarshi konvensiyasini to'ldiruvchi Protokol (2000-y.).

Mazkur sohada eng samarali hujjat BMT Bosh Assambleyasi tomonidan 2000-yil 15-noyabrdagi 55/25 – rezolyutsiyasi bilan qabul qilingan BMTning transmilliy uyushgan jinoyatchilikka qarshi konvensiyasi (O‘zbekiston parlamenti tomonidan 2003-yilda ratifikatsiya qilingan) va Insonlar, ayniqsa ayollar va bolalar savdosining oldini olish hamda uning uchun jazolash haqidagi protokol bo‘ldi.

Xalqaro huquq me‘yorlariga muvofiq, insonlar savdosi sohasidagi jinoyatlar sifatida quyidagilar e‘tirof etiladi:

6. Bolalarni ulardan bepul ishchi kuchi sifatida foydalanish maqsadida o‘g‘irlash va sotish, ularni o‘z ismi va asosiy inson huquqlaridan mahrum qilish. Ota-onalar yoki vasiylar tomonidan mukofot evaziga o‘z bolalarini davlatmand shaxslarga xizmatga berilishi.

7. Ayollarni mukofot evaziga, rad etish huquqini bermay, erga berish orqali uy qulligiga mahkum etish, shunday shartlarda turmushga chiqqan ayollarni boshqa shaxslarga yoki meros qilib berish.

8. Qarzdorning mehnati ko‘rinishidagi, qarzning kamayishiga hisoblanmaydigan va ishning davomiyligi hamda xarakteri chegaralanmagan qarz tutqunligi.

9. Yerdan foydalanuvchining krepostnoylik holati, bunda foydalanuvchi qonun, odat yoki kelishuv bo‘yicha boshqa shaxsga tegishli yerda yashashi va ishlashi, muayyan ishni ushbu shaxs uchun mukofot evaziga yoki mukofotsiz bajarishi shart va o‘z ahvolini o‘zgartira olmaydi (1-modda). Dehqonning krepostnoy holati milliy qonunchilik bilan oqlanishi mumkin emas.

10. Milliy qonunchilik bilan belgilanuvchi majburiy mehnat. Bunday mehnat faqat sud hukmi bilan, ijtimoiy maqsadlarda tabiiy ofatlarni, avariylar, halokatlarni bartaraf qilishda, shuningdek, harbiy xizmatda amalga oshishi mumkin. Bu yana Fuqarolik va siyosiy huquqlar haqidagi xalqaro pakt (1966-y.)ning 8-moddasida ham mustahkamlangan. Biroq XMTning №29-sonli “Majburiy yoki g‘ayriixtiyoriy mehnat haqida”gi konvensiyasida sud hukmiga ko‘ra katorga mehnati ham taqiqlangan.

5-modda

Hech kim qiynoqqa yoki shafqatsiz, g‘ayriinsoniy yoki qadr-qimmatni xo‘rlovchi muomala va jazoga duchor etilmasligi kerak.

Insonning qiynoqdan va boshqa shafqatsiz, g‘ayriinsoniy yoki qadr-qimmatni xo‘rlovchi muomala yoki jazodan himoyalani

huquqi birinchi bor Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasida belgilab beriladi. 1975-yilda Barcha shaxslarni qiynoqdan va boshqa shafqatsiz, g'ayriinsoniy yoki qadr-qimmatni xo'rovchi muomala yoki jazodan himoya qilish deklaratsiyasi qabul qilindi.

Fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risidagi xalqaro paktning 7-moddasi bu sohadagi qonuniy nazorat ko'lamini bir qancha kengaytiradi: "Hech kim qiynoqqa va boshqa shafqatsiz, g'ayriinsoniy yoki qadr-qimmatni xo'rovchi muomala yoki jazoga tortilishi mumkin emas. Jumladan, hech bir shaxsda uning erkin roziligisiz tibbiy yoki ilmiy tajribalar o'tkazish mumkin emas"

Qiynoq hamda muomala va jazolashning qattiq shafqatsiz, insoniylikka zid yoki qadr-qimmatni kamsituvchi turlariga qarshi konvensiya (1984-y.) qiynoqlarning oldini olishga qaratilgan maxsus hujjat sanaladi. Konvensiya BMT ning konvensiyaviy hujjatlaridan biri bo'lib, 1984-yil 10-dekabrda imzolangan (BMT BAning 39/46-rezolyutsiyasi). 2004-yil boshiga kelib konvensiyani 120 dan ortiq davlat imzoladi yoki ratifikatsiya qildi. O'zbekiston Respublikasi Parlamenti Konvensiyani 1995-yil 31-avgustda ratifikatsiya qilgan edi.

Konvensiyaning 1-moddasida "qiynoq" tushunchasiga shunday ta'rif beriladi: " biror shaxsga, undan yoki uchinchi shaxsdan ko'rsatma olish yoki iqror qildirish maqsadida, u yoki uchinchi shaxs sodir etgan yoki sodir etishlikda gumon qilinayotgan harakat jazolash, shuningdek, uni yoki uchinchi shaxsni qo'rqitish yoki majburlash yoxud barcha ko'rinishdagi kamsitishga asoslangan istalgan sababga ko'ra qasdan jismoniy yoki ma'naviy qattiq og'riq yoki azob beruvchi har qanday harakat bo'lib, bunda og'riq va azob davlat mansabdor shaxsi yoki rasmiy mavqeiga ega shaxs tomonidan yoki ularning ko'rsatmalariga binoan yoxud ular xabardor bo'lgan ikki so'zsiz roziliklari ostida amalga oshiriladi"

Konvensiyaning 2-moddasi davlatlar zimmasiga qiynoqlarning oldini olishga qaratilgan samarali choralar ko'rishni yuklaydi. Konvensiya belgilaydiki, "urush holati va urush tahdidi, ichki siyosiy beqarorlik yoki istalgan boshqa favqulodda holat qiynoqlarni oqlay olmaydi"

Bir qator universal hujjatlardan tashqari, ushbu huquqni ta'minlovchi mintaqaviy hujjatlar to'plami ham ancha salmoqlidir. Inson huquqlariga oid barcha mintaqaviy hujjatlar ham qiynoqlarni taqiqlovchi me'yorlarga ega. Inson huquqlarini va asosiy erkinliklarini himoya qilish Yevropa konvensiyasi (1950-y.) 3-moddasi, Inson huquqlari va asosiy erkinliklari haqidagi Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi konvensiyasi (1995-y.) 3-moddasi, Inson va xalqlar huquqlari haqidagi Afrika xartiyasi (1981-y.) 5-

moddasi, Individlar va xalqlarning inson huquqlari Osiyo-Tinch okeani deklaratsiyasi (1988-y.) 3-moddasi. Bundan tashqari, qiynoqlarni taqiqlovchi me'yorlar tizimiga Qiynoqlar va boshqa shafqatsiz, g'ayriinsoniy yoki qadr-qimmatni xo'rovchi muomala yoki jazolar oldini olish Yevropa konvensiyasi (1986-y.), Yevropa Kengashi tomonidan qabul qilingan Yevropa qamoq qoidalari (1987-y.), YeXHT Vena uchrashuvining (1989-y.), YeXHT insoniy mezonlar bo'yicha konferensiyasi Kopengagen yig'ilishi (1990-y.) yakuniy hujjatlari va boshqalar kiradi.

O'zbekiston Respublikasida qiynoqdan va boshqa shafqatsiz, g'ayriinsoniy yoki qadr-qimmatni xo'rovchi muomala yoki jazodan himoyalani huquqi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida, Jinoyat, Jinoyat-protsessual va Jinoyat-ijroiya kodekslarida belgilab qo'yilgan. Konstitutsiyaning 2-bo'limi, 26-moddasiga ko'ra: "Hech kim qiynoqqa solinishi, zo'ravonlikka shafqatsiz yoki inson qadr-qimmatini kamsituvchi boshqa tarzda tazyiqqa duchor etilishi mumkin emas"

O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining 17-moddasi 2-qismida: "Hech kim qiynoqqa solinishi, zo'ravonlikka, shafqatsiz yoki inson sha'ni va qadr-qimmatini kamsituvchi boshqa tarzda tazyiqqa duchor etilishi mumkin emas", deb belgilab qo'yilgan. Jinoyat-ijroiya kodeksining bu boradagi me'yorlari ham shu mazmundadir.

Avvalroq qayd etib o'tilganidek, Jinoyat va Jinoyat-protsessual kodekslaridan tashqari, O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-ijroiya kodeksi ham milliy qonunchilik tizimida alohida o'rin egallaydi. Unda jinoyat ishlar sodir etgan shaxslarning jazoni o'tashlariga oid asosiy tamoyillar va me'yorlar belgilab berilgan.

O'zbekiston jinoyat-ijroiya qonunchiligi tamoyillari xalqaro me'yorlar talablariga muvofiq ishlab chiqilgan. Jumladan, Fuqarolik va siyosiy huquqlar haqidagi xalqaro paktga ko'ra, "ozodlikdan mahrum etilgan barcha shaxslar insoniy muomalaga va inson shaxsiyatiga xos qadr-qimmatlari hurmat qilinishi huquqiga egadirlar" JIK 6-moddasi ushbu me'yorni to'liq takrorlaydi. Ushbu me'yor O'zbekiston jinoyat-ijroiya qonunchiligining insonparvarlik tamoyilini aks ettiradi. Kodeksda jinoyat-ijroiya qonunchiligining boshqa tamoyillari ham belgilab qo'yilgan: qonuniylik, demokratizm, mahkumlarning qonun oldida tengligi, jazolarni ijro etishning turli xilligi va individuallashtirilganligi, majburlash choralarining, sudlanganlarni to'g'ri yo'lga solish vositalarining va qonunga bo'ysunish xatti-harakatlarini rag'batlantirish vositalarining

oqilona qo'llanilishi, jazoning axloq tuzatish ta'siri bilan uyg'unlashtirish kabi.

O'zbekistonda amalga oshirilayotgan demokratik o'zgarishlarning yangi bosqichi sharoitida amaldagi qonunchilik me'yorlari qiynoqlardan himoya qilishga oid inson huquqlarini ta'minlash sohasidagi asosiy standartlar me'yorlari bilan boyitib borildi. Chunonchi, JK, JPK me'yorlariga 2003-yil 29-avgustda kiritilgan o'zgartishlar va qo'shimchalar natijasida JKning 235-moddasi dispozitsiyasiga "qiynoq" tushunchasi kiritildi.

6-modda

Har bir inson qayerda bo'lishidan qat'i nazar, o'zining huquqli subyekt sifatida tan olinishiga haqli.

Huquq subyekti sifatida tan olinish huquqi inson huquqlariga oid xalqaro standartlardan biri bo'lib, Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi (1948-y.)ning 12-moddasida, Fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risidagi xalqaro paktning 17-moddasida belgilab qo'yilgan. Ularga ko'ra, hech kimning shaxsiy va oilaviy hayotiga o'zboshimchalik bilan aralashuvga yo'l qo'yilmaydi va har bir kishi bu kabi aralashuvdan qonun bilan himoyalaniş huquqiga ega.

Huquq subyekti sifatida tan olinish subyektiv huquqi o'z tuzilishiga ko'ra ikki o'zaro bog'liq qonuniy huquqlilik guruhini qamrab oladi. Birinchisi shaxsiy hayot daxlsizligini ta'minlash bo'lsa, ikkinchisi uning sirlari daxlsizligini ta'minlashdir. Birinchi guruh huquqlar turar joy daxlsizligi, shaxsiy hujjatlar daxlsizligi, tashqi ko'rinish daxlsizligi va boshqalarni qamrab oladi. Ikkinchi guruh esa, inson shaxsiy hayotining turli ko'rinishlariga oid sirlar bilan bog'liq.

Zamonaviy yuridik adabiyotlarda, amaldagi qonunchilikda bo'lgani kabi, shaxsiy hayot erkinligi, daxlsizlik huquqi xususida yagona tushuncha mavjud emas, shuningdek, shaxsiy hayot tushunchasining aniq ta'rifi ham mavjud emas. Inson huquqlari sohasida bir guruh mutaxassislar shaxsiy hayot daxlsizligi huquqi bevosita fikrlash, vijdon va din erkinligi, o'z fikrini ifodalash erkinligi, yig'ilish va uyushmalar tashkil etish erkinligi, ozodlik huquqi, adolatli hal etish va oila qurish huquqlari bilan bog'liq, degan fikrdan kelib chiqadilar. Bunda ular tahlil qilishda Inson huquqlari va asosiy erkinliklarini himoya qilish haqidagi Yevropa konvensiyasining 8- va 12-moddalarini: shaxsiy va oilaviy hayotni, turar joy va xat-

xabarlarni hurmat qilish huquqi va nikohdan o'tish hamda oila qurish huquqini umumlashtiradilar.

Huquq subyekti sifatida tan olinish huquqi xususiy mulk huquqi yoki mualliflik huquqi kabi murakkab tarkibga ega huquqiy institut bo'lib, individning alohida qonuniy huquqlaridan tarkib topadi. Bu qonuniy huquqlar ro'yxati qonunlar va xalqaro huquqiy hujjatlarda belgilab qo'yilgan, lekin bu boradagi ijtimoiy aloqalarning muntazam rivojlanishi natijasida ular to'liq emas.

Huquq subyekti sifatida tan olinish huquqi mazmuni individning o'z shaxsiy ozodligini tatbiq qilish jarayonida uning shaxsiy hayotiga aralashuvning ruxsat berilgan chegarasini belgilash orqali aniqlanadi.

Huquq subyekti sifatida tan olish tizimi Yevropada eng keng rivojlangan, u yerda ushbu huquq bir qator mintaqaviy hujjatlar bilan ta'minlangan bo'lib, ularning eng ahamiyatliari Inson huquqlari va asosiy erkinliklarini muhofaza qilish to'g'risidagi Yevropa konvensiyasi (21-modda, 3-band, 1950-y. 4-noyabrda qabul qilingan, 1953-y. 3-sentabrda kuchga kirgan), 1981-yil 28-yanvardagi Shaxsiy ma'lumotlarning avtomatlashtirilgan tarzda qayta ishlanishida shaxs himoyasi to'g'risidagi Yevropa konvensiyasi, Yevropa parlamenti va Yevropa Ittifoqi Kengashining 1995-yil 24-oktabrdagi Xususiy shaxslarning shaxsiy ma'lumotlarni qayta ishlashga nisbatan huquqlarini himoya qilish va bu ma'lumotlarning erkin aylanishi to'g'risidagi 95/46/ES; 1997-y. 15-dekabrda Shaxsiy ma'lumotlarni qayta ishlash va telekommunikatsiya tarmog'ida maxfiylikni himoyalash to'g'risidagi 97/66/ES direktivalari va boshqalardir.

Inson huquqlari va asosiy erkinliklari muhofazasi to'g'risidagi Yevropa konvensiyasida (8-modda) ko'rsatiladiki, "Har bir inson o'z shaxsiy va oilaviy hayotining hurmat qilinishi, o'z turar joyi daxlsizligi va xat-xabarlari maxfiyligi huquqiga ega.

Davlat organlarining ushbu huquqning amalga oshirilishiga aralashishiga yo'l qo'yilmaydi, qonunda belgilangan holatlar bundan mustasno" Ushbu qoidalar O'zbekiston Konstitutsiyasida mustahkamlab qo'yilgan: "Har kim erkinlik va shaxsiy daxlsizlik huquqiga ega" (25-modda).

"Har kim o'z sha'ni va obro'siga qilingan tajovuzlardan, shaxsiy hayotiga aralashishdan himoyalaniish va turar joyi daxlsizligi huquqiga ega.

Hech kim qonun nazarda tutgan hollardan va tartibdan tashqari bironing turar joyiga kirishi, tintuv o'tkazishi yoki uni ko'zdan kechirishi,

yo'zishmalar va telefonda so'zlashuvlar sirini oshkor qilishi mumkin emas" (27-modda).

Shu tariqa, huquq obyektini sifatida bu yerda har bir fuqaro shaxsiy hayotining daxlsizligi, shuningdek, uning shaxsiy erkinligini tatbiq qilish yuzaga chiqmoqdaki, bu o'z ichiga quyidagilarni oladi:

o'zini o'zi boshqarish erkinligi (jumladan, o'zgalar nazoratisiz qolish) huquqi;

shaxsiy hayot siri (jumladan: shaxsiy sir, oilaviy sir, yo'zishmalar, telefondagi muloqot, pochta, telegraf va boshqa xabarlar maxfiyligi) huquqi;

shaxsiyatni himoya qilish (jumladan: o'z nomini himoya qilish; o'z sha'ni, qadr-qimmatini va obro'sini himoya qilish; milliy mansubligini himoya qilish; ona tilidan foydalanish va muloqot, tarbiya, ta'lim va ijod tilini erkin tanlash huquqini himoya qilish) huquqi;

turar joyini himoya qilish huquqi (turar joy daxlsizligi);

yashirin ovoz berish huquqi.

Yashirin ovoz berish huquqi bu yerda fuqaroning shaxsiy erkinligining bir qismi- ovoz berish erkinligini tatbiq qilishning zarur sharti bo'lmoqda.

Huquq subyektlilikning subyektiga quyidagilar kiradi:

yoshi, fuqaroligi va ishga layoqatidan qat'i nazar jismoniy shaxslar;

qonuniy vorislar, jumladan, merosxo'rlar – vafot etgan huquq egasining shaxsiy hayoti daxlsizligi huquqi o'tgan jismoniy va yuridik shaxslar.

Huquq subyekti sifatida tan olinish huquqi insonning tabiiy huquqlari sirasiga kirib, uning asosiy konstitutsiyaviy huquqlaridan biri hisoblanadi, insonga u tug'ilgandan tegishli bo'ladi, ajralmaydi va boshqa yo'llar orqali o'tmaydi. Tabiiy huquqlar konsepsiyasi birinchi bor Angliya parlamenti tomonidan 1689-yildagi Huquqlar haqidagi Billda aks ettirilgan, keyin 100 yil o'tgach, AQSH Konstitutsiyasida Huquqlar haqidagi Billda belgilangan.

Huquq subyekti sifatida tan olinish huquqini qonuniy himoyasi avvalo konstitutsiyaviy kafolatlar berish orqali amalga oshiriladi: o'zboshimchalik bilan har kimning shaxsiy hayotiga aralashuvga konstitutsiyaviy taqiq (23, 27-moddalar); davlat organlari va mahalliy o'zini o'zi boshqarish organlari, ularning mansabdor shaxslarning har kimni uning huquq va erkinliklariga daxldor hujjatlar va materiallar bilan

tanishish imkoniyatini yaratib berish konstitutsiyaviy majburiyatini yuklash, agar qonunda boshqa holat ko'zda tutilgan bo'lmasa (30-modda).

Bu kabi huquqni cheklashning konstitutsiyaviy asoslari konstitutsiyaviy tuzum asoslarini himoya qilish, axloq qoidalarini, boshqa shaxslarning salomatligi, huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish, mamlakat mudofaasini, davlat xavfsizligini ta'minlash yoki favqulodda holatlar bo'lishi mumkin.

Fuqarolarning **huquq subyektligini ta'minlovchi** huquqlar qatorida murojaat qilish, ya'ni petisiya huquqini ham ko'rsatib o'tish kerak. Davlat organlari va mahalliy o'zini o'zi boshqarish organlariga fuqarolarning petisiyalari buzilgan huquqlarini tiklash usuligina emas, balki ommaviy ishlarni hal etishda siyosiy qatnashuv shakli hamdir. Ushbu huquqning tatbiq qilinishi davlat va jamoatchilik xarakteridagi masalalarni hal etishda fuqarolarning shaxsiy tashabbusi va shaxsiy qiziqishining rivojlanishini nazarda tutadi. Qoidaga ko'ra, yozma murojaatlarning berilishi va ko'rilishi, shuningdek, ular bo'yicha qarorlar qabul qilinishi tartibini qonun belgilaydi.

Ushbu huquqning mohiyati fuqarolarning vakolatli davlat organlariga individual va jamoaviy murojaatlar yo'llash imkoniyatida namoyon bo'ladi. Shikoyat shaklidagi murojaatlar, ko'p hollarda fuqaroning hokimiyat vakillarining noqonuniy harakati (yoki harakatsizligi) natijasida yuzaga kelgan subyektiv huquqining buzilishini bartaraf etish talabini o'zida aks ettiradi. Shu sababli tahlil qilinayotgan huquqqa mansabdor shaxslarning belgilangan tartibda va belgilangan muddatlarda ular bo'yicha asosli va qonuniy qarorlar qabul qilish majburiyati muvofiq keladi. Shikoyatdan farqli o'laroq, taklif yoki arizaning predmeti jamoatchilik qiziqishi, davlat organlari tomonidan u yoki bu siyosiy yoki boshqa hodisani baholash talabi ham bo'lishi mumkin.

Konstitutsiyaning 30-moddasiga muvofiq: "O'zbekiston Respublikasining barcha davlat organlari, jamoat birlashmalari va mansabdor shaxslari fuqarolarga ularning huquq va manfaatlariga daxldor bo'lgan hujjatlar, qarorlar va boshqa materiallar bilan tanishib chiqish imkoniyatini yaratib berishi lozim"

7-modda

Barcha odamlar qonun oldida tengdir va hech bir tafovutsiz qonun bilan teng himoya qilinish huquqiga egadir. Barcha odamlar ushbu Deklaratsiyaga zid bo'lgan har qanday kamsitishdan va

shunday kamsitishga undaydigan har qanday gij-gijlashdan teng himoya qilinish huquqiga egadir.

Kamsitish hodisasi davlatlar paydo bo'lgandan boshlab insoniyat tarixining barcha rivojlanish bosqichlarida mavjud bo'lgan. Kamsitish (diskriminatsiya – lot. Discriminatio farqlash) muayyan fuqarolar toifasini irqiy yoki milliy mansubligi, jinsi, diniy va siyosiy qarashlar va h.k. bo'yicha huquqlarini cheklash yoki mahrum qilish.

Ammo XX asrning o'rtalariga kelibgina xalqaro-huquqiy tizim doirasida shaxsni kamsitmaslik tamoyili mustahkamlandi, u kamsitishni taqiqladi va insoniyat jamiyatining har bir a'zosiga barobar huquq va erkinlikni kafolatlashni maqsad qildi. Kamsitishni xalqaro miqyosda taqiqlash milliy-huquqiy tizimlar doirasida tegishli me'yorlarning yuzaga kelishiga kuchli turtki bo'ldi. Nisbatan qisqa muddat ichida kamsitishga qarshi kurashga oid ko'plab xalqaro va milliy me'yoriy huquqiy hujjatlar paydo bo'ldi. Kamsitishga qarshi kurash sohasidagi xalqaro hamjamiyat va alohida davlatlar sa'y-harakatlari tufayli sezilarli muvaffaqiyatlarga erishildi, ular tufayli ko'pgina toifadagi insonlar huquq va erkinliklarga ega bo'ldilar.

Shu bilan birga, keng ko'lamdagi me'yoriy huquqiy baza mavjudligiga qaramay, kamsitish zamonaviy dunyoning eng murakkab, global xarakterdagi, jahonning barcha mamlakatlarida mavjud va aholining keng qatlamlariga daxl qiluvchi muammolaridan biri bo'lib qolmoqda. U qurolli nizolar va xalqaro beqarorlik kelib chiqishining asosiy sabablaridan biridir. Globalizatsiyaning ommaviy migrasiya, terrorizm, ba'zi davlatlar va yirik korporasiyalarning maksimal foyda chiqarib olishga intilishlari hamrohlik qilayotgan yangi sharoitlarida jamiyatda qutblanish, tengsizlik kuchaymoqda. Avvalgidek tengsiz munosabatning qurbonlari ayollar, nogironlar, mahalliy xalqlar, ishchi-migrantlar, kamsonli millatlar va boshqa guruhdagi insonlar bo'lib qolmoqdalar. Axborot-kommunikasiya texnologiyalarining rivojlanishi jamiyatda murosasizlik kayfiyatining tez yoyilishiga sabab bo'lmoqda. Ilmiy taraqqiyotning yutuqlari kamsitish uchun asos bo'ladigan yangi belgilar, masalan, genetik merosxo'rlik kabilarni yuzaga keltirmoqda.

Kamsitishning mavjudligi kamsitishga qarshi kurashishga yo'naltirilgan xalqaro-huquqiy hujjatlarning yetarlicha ishlanmaganligi va samarasizligidan dalolat beradi. Kamsitishning ko'p qirralarda namoyon bo'lishi alohida toifadagi insonlarni, jumladan mahalliy xalqlarni, nogironlarni, nasliga ko'ra kamsitiladigan shaxslarni himoya qilishga

qaratilgan yangi xalqaro shartnomalar qabul qilishni talab etadi. Ayni vaqtda, xalqaro shartnoma organlar va sudlar tomonidan kamsitmaslik tamoyilining qo'llanishi tajribasi kamsitmaslik tamoyili mazmunini kengaytirish lozimligini ko'rsatmoqda. Tatbiq etish uchun muomalada yo'l qo'yilmaydigan kamsitishlardan tiyilishning o'zi kifoya qilmaydi, tamoyil davlatlar tomonidan insonlarning himoya qilinmagan qatlamlarini muhofaza qilish bo'yicha faol chora-tadbirlar qabul qilishni talab etadi. Kamsitmaslik tamoyili aniqlashtirilishga, mazmunidagi mavhumlikni bartaraf etishga muhtoj. Xalqaro huquqning kamsitishga qarshi kurash sohasidagi katta salohiyatini yuzaga chiqarish kerak, zero butun insoniyatning tinchligi va farovonligi ko'p hollarda uning tatbiq etilishiga bog'liqdir.

8-modda

Har bir inson unga konstitutsiya yoki qonun orqali berilgan asosiy huquqlari buzilgan hollarda nufuzli milliy sudlar tomonidan bu huquqlarning samarali tiklanishi huquqiga ega.

Konstitutsiya yoki qonun orqali berilgan asosiy huquqlar buzilgan hollarda nufuzli milliy sudlar tomonidan bu huquqlarning samarali tiklanishi huquqi shaxs sha'ni va qadr-qimmatining samarali himoyasi orqali ta'minlanadi. Insonning bu xususiyatlari hurmat qilinish huquqi va o'zgalarni hurmat qilish majburiyati bilan teng darajada qadrlidir. U o'z erkinligi, tengligi va himoyalanganligini his etadigan shaxsning rivojlanishi bilan erishiladi. Qadr-qimmat insonni ta'sir ko'rsatish obyektidan huquqiy davlatning faol subyektiga aylantiradi. Bu davlat insonga o'zini baholash, "o'z yo'lini belgilash" va o'zi tanlagan hayotiy qadriyatlarni himoya qilish huquqini beradi.

Qadr-qimmat inson huquqlarida namoyon bo'ladi, ularni himoya qilish davlatning vazifasidir. Shu bois keng ma'noda olib qaraganda, davlatning maqsadi inson qadr-qimmatini asrashdan iborat, deyish mumkin. Shu tariqa, "davlat xalqqa xizmat qilishi kerak", deyilganda birinchi navbatda davlat har bir insonning qadr-qimmatini himoyalashini ta'minlashi lozimligi anglashiladi. "Inson qadr-qimmatini" tushunchasini insonning butun hayoti uchun – tug'ilgandan to vafot etguniga qadar qo'llash mumkin. Ammo ba'zi hollarda bu konstitutsiyaviy tamoyil zikr etilgan hodisalardan keyin ham amalda bo'ladi. Misol tariqasida marhumning shaxsiy qadr-qimmatini himoya qilishni va ona qornidagi homilaning huquqlari haqidagi bahslarni keltirish mumkin.

Qadr-qimmatni himoya qilishning maqsadlari sifatida Konstitutsiyaning ko'plab me'yorlari qatnashishi mumkin: munosib hayot huquqi, shaxsiy hayot daxlsizligi, insonning o'z sha'ni va yaxshi nomini himoya qilishi, shaxsiy hayot haqidagi axborot yig'ishning taqiqlanishi, turar joyga kuch ishlatib kirib olishning taqiqlanishi va b.

Ko'plab jinoyat huquqi va jinoyat protsessual me'yorlari inson qadr-qimmatiga nisbatan g'amxo'rlik bilan sug'orilgan. Chunonchi, Jinoyat kodeksida tuhmat va tahqirlash kabi jinoyat tarkiblari ko'zda tutilgan. Jinoyat-protsessual kodeksi tergovchidan tintuv o'tkazilayotganda shaxsning intim hayotining ma'lum bo'lgan holatlari oshkor bo'lmasligi chora-tadbirlarini ko'rish, shaxsiy tintuv esa, tintilayotgan shaxs bilan bir jinsdagi odam tomonidan, o'sha jinsdagi guvohlar ishtirokida o'tkazilishi talab etiladi. Munosib muomala huquqidan nafaqat ayblanuvchilar, balki qamoqda jazo muddatini o'tayotgan mahkumlar ham foydalanadilar. Bunday me'yorlar ko'p bo'lib, ular huquqning boshqa tarmoqlarida ham mavjud. Ular inson qadr-qimmatini himoya qilish konstitutsiyaviy huquqning aniq tatbiqini namoyon etadi.

Fuqarolik kodeksida belgilab qo'yilgan fuqarolik-huquqiy kafolatlar alohida ahamiyatga ega. Bu yerda hayot, salomatlik, qadr-qimmat, shaxsiy daxlsizlik, sha'n va yaxshi ism, ishchanlik obro'si, shaxsiy hayotning daxlsizligi, shaxsiy va oilaviy sir, nom va mualliflik huquqi va boshqa konstitutsiyaviy shaxsiy huquqlar va erkinliklar nomoddiy boyliklar sifatida tasniflanadi. Vafot etgan kishiga mansub bo'lgan nomulkiy huquqlar va boyliklar boshqa kishilar tomonidan, jumladan, huquq egasining merosxo'rlari tomonidan amalga oshirilishi va himoya qilinishi mumkin.

Agar fuqaroga uning shaxsiy huquqlarini buzuvchi harakatlar orqali ma'naviy zarar (jismoniy yoki axloqiy azoblanish) yetkazilgan bo'lsa, u buzg'unchining zimmasiga yetkazilgan zararining pul ko'rinishidagi kompensatsiyasini to'lashni yuklash huquqiga ega. Sha'n, qadr-qimmat, ishchanlik obro'sini himoya qilish maqsadida fuqaro sudga murojaat qilish huquqiga ega, qolaversa, fuqaroning o'limidan keyin ham sha'ni va qadr-qimmatini himoyalash ko'zda tutiladi. Fuqaroning sha'ni, qadr-qimmatini yoki ishchanlik obro'sini badnom qiluvchi ma'lumotlarning tarqalishiga oid talablarini qondirish tartibi Qonun bilan belgilangan.

Aslida, bu shaxsiy hayot huquqining uzviy qismi bo'lib, shaxsiy erkinlik va inson qadriyatining ajralmas unsuri hamdir. Hech kim turar joyga unda yashovchi shaxslarning xohishiga qarshi o'laroq kirish

huquqiga ega emas, qonunda ko'rsatilgan hollarda yoki sud qarori asosida amalga oshirish bundan mustasno.

Konstitutsiyaning 27-moddasiga muvofiq: "Har kim o'z sha'ni va obro'siga qilingan tajovuzlardan, shaxsiy hayotiga aralashishdan himoyalani va turar joyi daxlsizligi huquqiga ega.

Hech kim qonun nazarda tutgan hollardan va tartibdan tashqari bironing turar joyiga kirishi, tintuv o'tkazishi yoki uni ko'zdan kechirishi, yozishmalar va telefonda so'zlashuvlar sirini oshkor qilishi mumkin emas"

Turar joyi qo'riqlash huquqiga uning egalari, qonuniy ijarachilari yoki ijara shartnomasi asosida unda yashovchilar egadirlar. Bunda turar joy deb vaqtinchalik istiqomat joyi (mehmonxona, internat, yotoqxona, pansionat) ham e'tirof etiladi. Daxlsizlik shaxsiy buyum va hujjatlarga ham tatbiq etiladi, bu esa noqonuniy tintuv va hujjatlarni olib qo'yishga yo'l bermaydi. Ammo turar joyga bunga huquqi bor shaxslar ko'chib kirishi mumkin, bunday harakatlar, hatto boshqa yashovchilar norozi bo'lgan holda ham, uning daxlsizligini buzish hisoblanmaydi.

Huquqni muhofaza qilish organlari tomonidan noqonuniy bostirib kirish va tintuv o'tkazishga qarshi kafolat – bu turar joy daxlsizligining asosiy mazmunidir, zero boshqa barcha holatlar (alohida shaxslar tomonidan amalga oshirilgan) – aslida – odatiy jinoyatlardir (o'g'rilik, bosqinchilik va b.). noqonuniy bostirib kirishdan jabrlanganlar zararni to'lash va aybdor mansabdor shaxslarni jazolash talabi bilan sudga murojaat qilish huquqiga egadirlar. Turar joy daxlsizligini buzish jinoyat sanaladi.

9-modda

Hech kim asossiz qamalishi, ushlanishi yoki quvg'in qilinishi mumkin emas.

Inson huquqlari umumiy nazariyasining shakllanishi jarayonida **asossiz qamalish, ushlanish yoki quvg'in qilinishdan himoya huquqi** bir qator xalqaro-huquqiy hujjatlarda mustahkamlangan bo'lib, ular orasida quyidagilar alohida o'rin tutadi: Mansabdor shaxslarning huquqiy tartibni saqlab turish bo'yicha xatti-harakatlari kodeksi (1979-y.), Mansabdor shaxslarning huquqiy tartibni saqlab turish bo'yicha xatti-harakatlari kodeksini samarali amalga oshirish uchun rahbariy tamoyillar (1985-y.) va Sud organlari mustaqilligiga taalluqli asosiy tamoyillarni samarali amalga oshirish tadbirlari (1990-y.).

Chunonchi, sudlar mustaqilligini ta'minlovchi beshinchi tamoyil sifatida Sud organlari mustaqilligiga taalluqli asosiy tamoyillar (1985-y.)da belgilanganki: "Har bir inson belgilangan yuridik tartiblarni qo'llovchi oddiy sud yoki tribunallarda ishi ko'rilishi huquqiga ega"

Asossiz qamalish, ushlanish yoki quvg'in qilinisdan himoya huquqi yana bir qator inson huquqlari haqidagi mintaqaviy hujjatlarda ham o'z aksini topdi. Masalan, Inson huquqlari va asosiy erkinliklarini himoya qilish haqidagi Yevropa konvensiyasi (1950-y.)ning 6,7-moddalarida va unga yozilgan 7-sonli protokolning 2, 4-moddalarida mazkur huquqning batafsil ta'rifi berilgan.

Odil sudlov huquqining asosiy tarkibiy qismlari quyidagi tamoyillardir: odil sudlovni faqat sud amalga oshirishi, shaxs sha'ni va qadr-qimmatini hurmat qilish, sud hokimiyatining mustaqilligi, odil sudlovning qonun va sud oldida barchaning barobarligi tamoyili asosida amalga oshirilishi, odil sudlovning tomonlarning tortishuvga qobiliyatli ekanligi asosida amalga oshirilishi, sud jarayonining ochiqligi, sud jarayoni tilini tanlashning erkinligi, protsessual harakatlar va qarorlardan shikoyat qilish erkinligi.

Odil sudlovning faqat sud tomonidan amalga oshirilishi tamoyil hokimiyatning uch turga bo'linishi va ulardan biri sud hokimiyati ekanligi xususidagi konstitutsiyaviy holatga borib taqaladi. Sud hokimiyatining vazifasi inson va fuqarolarning huquqlari, erkinligi va qonuniy manfaatlarini himoya qilishdir. U fuqarolik va jinoyat ishlariga oid sud orqali qonun asosida amalga oshiriladi.

Shu tariqa, sud hokimiyatining vazifasi odil sudlovni amalga oshirish hisoblanadi. Sud tomonidan odil sudlovning amalga oshirilishi sudning o'ziga xos mavqeini nazarda tutadi – u odil sudlovni amalga oshiruvchi yagona organ sanaladi. Boshqa hech qanday organ sud hokimiyati kabi funksiyalarga ega emas.

Shuni qayd etish lozimki, ko'pgina demokratik davlatlarning konstitutsiyaviy tajribasida inson huquqlari va erkinliklarini sud tomonidan himoyalaniishi tamoyili demokratik davlatning asosiy tamoyillari sifatida e'tirof etilgan.

Konstitutsiya "himoya qilish uchun barcha sharoitlar ta'minlab beriladi" mutlaq tamoyilini belgilagan holda shaxs qadr-qimmatini himoya qiladi. 27-moddaning matnida bu tamoyil insonning qiynoqqa solinishi, zo'ravonlikka, shafqatsiz yoki inson qadr-qimmatini kamsituvchi boshqa tarzda tazyiqqa duchor etilishini taqiqlash bilan to'ldiriladi. Shuningdek,

hech kimda uning rozilgisiz tibbiy, ilmiy yoki boshqa tajribalar o'tkazilishi mumkin emas.

10-modda

Har bir inson huquq va burchlarini belgilash va unga qo'yilgan jinoiy aybning qanchalik darajada asosli ekanligini aniqlashi uchun to'liq tenglik asosida uning ishi oshkora va adolat talablariga rioya qilingan holda mustaqil va xolis sud tomonidan ko'rib chiqilishi huquqiga ega.

Insonning odil sudlov huquqi insonning asosiy shaxsiy huquqlaridan biri bo'lib, shaxsiy huquq va erkinliklarni belgilovchi barcha xalqaro-huquqiy hujjatlarda mustahkamlab qo'yilgan.

Fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risidagi xalqaro pakt (1- qism, 14-modda) me'yorlari huquqiy boshqaruvga quyidagicha aniqlik kiritadi: "Barcha shaxslar sudlar va tribunallar oldida barobardirlar. Har kim unga qarshi har qanday jinoiy ish ko'rilayotganda yoki biror fuqarolik protsessida uning huquq va majburiyatlari aniqlanayotganda ishni qonun asosida tuzilgan vakolatli, mustaqil va xolis sud tomonidan adolatli va ochiq muhokama qilinishi huquqiga ega. Matbuot va oмма odob-axloq, jamoat tartibi yoki demokratik jamiyatda davlat xavfsizligi yuzasidan yoki buni tomonlarning shaxsiy hayoti talab qilganida yoxud – sud maqbul deb topgan darajada – oshkoralik odil sudlov manfaatlarini buzadigan holatlarda butun sud muhokamasiga yoki uning biror qismiga qo'yilmasligi mumkin, lekin jinoiy yoki fuqarolik ishlari bo'yicha har qanday sud qarori ochiq bo'lishi lozim, voyaga yetmaganlar manfaatleri boshqasini talab qiluvchi yoki uylanishga oid bahslarga yoxud bolalarga vasiylik qilishga oid ishlar bundan mustasno" Aynan mana shu xalqaro-huquqiy konvensiyaviy hujjat - Paktda birinchi bor, odil sud jarayonining asosiy tamoyillari keltirildi: adolat, qonuniylik, sud oldida fuqarolarning tengligi, oshkoralik, vakolatlilik, mustaqillik va xolislik.

Qayd etish lozimki, ko'pchilik demokratik davlatlar konstitutsiyaviy tajribasida inson huquqlari va erkinliklarini sudlar tomonidan himoyalaniishi tamoyili demokratik davlatning asosiy tamoyillaridan biri sifatida e'tirof etilgan. AQSH, Germaniya, Fransiya, Italiya, Ispaniya, Gretsiya va boshqa davlatlar konstitutsiyalarida insonning odil sudlov huquqi mustahkamlab qo'yilgan.

Milliy huquqqa keladigan bo'lsak, insonning odil sudlov huquqi konstitutsiyaviy darajada (O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining

26, 106, 3-qism 107 va 116-moddalari), kodekslar (O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual, Fuqarolik-protsessual kodekslari) darajasida va to'g'ridan-to'g'ri ta'sirga ega qonunlar (Yangi tahrirdagi "Sudlar to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni) darajasida mustahkamlangan.

O'zbekiston qonunchiligida odil sudlov huquqi va aybsizlik prezumpsiyasi O'zbekiston Konstitutsiyasining 26-moddasida keltirilgan. Konstitutsiyaning 26-moddasi 1-qismida shunday deyiladi: "Jinoyat sodir etganlikda ayblanayotgan har bir shaxsning ishi sudda qonuniy tartibda, oshkora ko'rib chiqilib, uning aybi aniqlanmaguncha u aybdor hisoblanmaydi. Sudda ayblanayotgan shaxsga o'zini himoya qilish uchun barcha sharoitlar ta'minlab beriladi" Ushbu me'yor mazmunidan kelib chiqadiki, har bir inson, huquqiy munosabatlar subyekt sifatida, adolatli sud muhokamasi huquqiga ega, agar aniqroq aytadigan bo'lsak, odil sudlov huquqiga ega.

2005-yilning 8-avgustida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Qamoqqa olishga sanksiya berish huquqini sudlarga o'tkazish to'g'risida"gi Farmoni imzolandi. Bu Farmon mamlakatda amalga oshirilayotgan keng ko'lamli sud-huquq islohotlarining yangi bosqichga ko'tarilganini ko'rsatdi. Mazkur qadam O'zbekistonning o'z zimmasiga olgan xalqaro-huquqiy majburiyatlarini, xususan, Fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risidagi xalqaro paktning 9-modda, 3, 4-bandi talablarini og'ishmay bajarishga sodiqlikning amaliy tasdig'i bo'ldi. Farmonga muvofiq, "Qamoqqa olishga sanksiya berish huquqini sudlar vakolatiga o'tkazish bosqichma-bosqich, chuqur o'rganib chiqish va jinoyat, jinoyat-protsessual va jinoyat-ijroiya qonunchiliklariga va O'zbekiston Respublikasi idoraviy me'yoriy aktlari tizimiga tegishli o'zgartish va qo'shimchalar kiritilganidan so'ng amalga oshiriladi"

11-modda

1. Jinoyat sodir etganlikda ayblangan har bir inson himoya uchun barcha imkoniyatlar ta'minlangan holda, ochiq sud majlisi yo'li bilan uning aybi qonuniy tartibda aniqlanmaguncha aybsiz deb hisoblanishga haqlidir.

2. Hech kim sodir etilgan vaqtda milliy qonunlar yoki xalqaro huquqlarga ko'ra jinoyat deb topilmagan xatti-harakati yoki faoliyatsizligi uchun jazoga hukm qilinishi mumkin emas. Shuningdek, jinoyat sodir etilgan vaqtda qo'llanishi mumkin bo'lgan jazoga nisbatan og'irroq jazo berilishi mumkin emas.

Aybsizlik prezumpsiyasi odil sudlovni amalga oshirishga taalluqli barcha asosiy hujjatlarda mustahkamlab qo'yilgan (Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi 11-modda, Fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risidagi xalqaro pakt 14-modda, 2-band).

Aybsizlik prezumpsiyasi tamoyili hozirgi zamon demokratik davlatlarda odil sudlovni amalga oshirishning asosiy tamoyillaridan hisoblanadi.

Aybsizlik prezumpsiyasi huquq uchun qandaydir yangilik sanalmaydi. Aybsizlik prezumpsiyasining ilk ko'rinishlarini Rim xususiy huquqida ko'rishimiz mumkin (presumption boni viri). Uning mohiyatiga ko'ra, fuqarolik-huquqiy munosabatlarning har bir ishtirokchisi beayb sanalgan (bona fide) va agar kimdir buning aksini da'vo qilsa, buni isbotlab berishi lozim bo'lgan. Kim da'vo qilsa, o'sha isbotlaydi ei insumbit probatio qui dicit (non quingat).

Birinchi bor jinoyat-protsessual instituti sifatida aybsizlik prezumpsiyasi 1789-yildagi Inson va fuqaro huquqlari Deklaratsiyasida ifodalangandi. Deklaratsiyaning 9-moddasida shunday deyilgan: "Hamonki har kim, to uning aybi isbotlanmaguncha, aybsiz sanaladi, shaxsni hibsga olish zarur deb topilgan holatlarda har qanday ortiqcha, zarur bo'lmagan qattiq choralar qonun bilan keskin to'xtatilishi lozim"

Deklaratsiyada ifodalangan tamoyil aynan aybsizlik prezumpsiyasi deb emas. "zarur bo'lmagan har qanday qattiqqo'llikni qo'llash"ni cheklash deb ta'riflangan.

Lug'atlarda aybsizlik prezumpsiyasi "aybsizlik prezumpsiyasi (lotincha praesumptio – faktni, toki aybi tasdiqlanmaguncha, yuridik jihatdan ishonchli deb tan olish) qonuniylikning jinoyat protsessual tamoyilining asosini tashkil qiladi, odil sudlovning demokratik huquqiy tamoyillaridan biri bo'lib, jinoyat ishlarini muhokama etishda qonuniylikni kafolatlaydi"

Xuddi shuningdek, Inson huquqlari va asosiy erkinliklari muhofazasi to'g'risidagi Yevropa konvensiyasi (1950-y.)ning 6-modda 2-bandida shunday deyiladi: "Jinoyat sodir etishda ayblanayotgan har bir shaxs, toki uning aybi qonunga muvofiq isbotlanmaguncha, aybsiz sanaladi" Shuningdek, Konvensiyaning 3-bandida aniqlashtirilganki: "Jinoyat sodir etganlikda ayblanuvchi har bir shaxs kamida quyidagi huquqlarga ega bo'ladi:

a) unga qo'yilgan ayb xarakteri va asoslari haqida unga tushunarli tilda tezlikda va batafsil xabardor qilinishi;

b) o'z himoyasini tayyorlash uchun yetarli vaqt va imkoniyatga ega bo'lishi;

c) o'zini shaxsan yoki o'zi tomonidan tanlangan himoyachi yordamida himoyalash, agar himoyachi xizmatini to'lashga yetarli mablag'i bo'lmasa, odil sudlov manfaatlari talab qilgan hollarda unga bepul tayinlangan himoyachidan foydalanish;

d) unga qarshi ma'lumot bergan guvohlarni so'roq qilish yoki ushbu guvohlar so'roq qilinishi huquqiga ega bo'lish, unga qarshi ma'lumot beruvchi guvohlar bilan bir tartibda o'zining guvohlarini ham chaqirish va so'roq qilish huquqiga ega bo'lish;

e) agar sudda ishlatilayotgan tilni tushunmasa yoki unda so'zlasha olmasa, bepul tarjimon xizmatidan foydalanish"

O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 4-modda 2-bandida belgilab qo'yilganki, "Hech kim sudning hukmi bo'lmay turib jinoyat sodir qilishda aybli deb topilishi va qonunga xilof ravishda jazoga tortilishi mumkin emas"

Aybsizlik prezumpsiyasi ikki jihatga ega: 1) muayyan jinoyat tarkibini aniqlash va uni sodir etishda aybdor shaxsni e'tirof etish qonunga qat'iy amal qilgan holda amalga oshirilishi lozim; 2) faqat sud hukmi bilangina shaxs aybdor sanaladi va ayblanadi, jazolanadi yoki jinoyat qonunchiligida ko'zda tutilgan boshqa qonuniy ta'sir choralariga tortiladi.

Shaxsning aybdorligini aniqlash isbotlash tartibiga amal qilish bilangina hal bo'lmaydi, balki birinchi navbatda jinoiy javobgarlikka jalb qilish uchun asos borligini aniqlash lozim bo'ladi. Bunday umumiy asos, Jinoyat kodeksining 16-moddasi 2-bandiga muvofiq, jinoyat qonunchiligida ko'zda tutilgan barcha jinoyat tarkibi belgilariga ega harakatni amalga oshirish sanaladi. Bu umumiy asos o'zida amaliy va yuridik asoslarni qamrab oladi. Shaxsni jinoiy javobgarlikka tortish uchun amaliy asos shaxs tomonidan bajarilgan harakat hisoblanadi.

Aybsizlik prezumpsiyasining jinoyat-protsessual tamoyili O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining 23-moddasida belgilab qo'yilgan. Bu tamoyilning mohiyati gumon qilinuvchi yoki sudlanuvchining aybdorligini isbotlash jarayonidan iboratdir, zero, insonni aybli deb hukm qilish va jinoyat qonunchiligida ko'rsatilgan davlat majburlov choralarini qo'llash uchun qonunda belgilangan tartibda muayyan jinoyatni aynan shu shaxs amalga oshirganligini isbotlash lozim.

12-modda

Hech kimning shaxsiy va oilaviy hayotiga o'zboshimchalik bilan aralashish, uy-joyi daxlsizligiga, uning yozishmalaridagi sirlarga yoki uning nomus va sha'niga o'zboshimchalik bilan tajovuz qilinishi mumkin emas. Har bir inson xuddi shunday aralashuv yoki tajovuzdan qonun orqali himoya qilinish huquqiga ega.

Insonning o'zboshimchalik bilan shaxsiy va oilaviy hayotiga aralashmaslik huquqi insonning tabiiy huquqi bo'lib, insonga tug'ilganidan xos va ajralmas asosiy konstitutsiyaviy huquqlaridan sanaladi. U inson huquqlari sohasida xalqaro standartlardan biri sanaladi va Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi (1948 y.) 12-moddasida, Fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risidagi xalqaro paktning (1966 y.) 17-moddasida va boshqa qator xalqaro-huquqiy hujjatlarda belgilab qo'yilgan.

Bunda huquq obyekti bo'lib har bir fuqaro shaxsiy hayotining daxlsizligi yuzaga chiqadi. U fuqaroning shaxsiy erkinligi tatbiqi bo'lib, o'z ichiga: o'zini o'zi boshqarish (jumladan, kimningdir nazoratisiz qolish), shaxsiy hayot siri (jumladan: shaxsiy sir, oilaviy sir, yozishmalar, telefonda so'zlashuvlar, pochta, telegraf va boshqa xabarlar siri), shaxsiyatni himoya qilish (jumladan, o'z nomini himoya qilish; o'z sha'ni, qadr-qimmatini va obro'sini himoya qilish, o'z milliy mansubligini himoya qilish; ona tilidan foydalanish va muomala, tarbiya, ta'lim va ijod tilini erkin tanlash huquqini himoya qilish), turar joyni himoya qilish (turar joy daxlsizligi), yashirin ovoz berish kabi huquqlarni qamrab oladi.

BMT BAning 1985-yil 13-dekabrda 40/114-sonli rezolyutsiyasida insonning barcha huquqlari va asosiy erkinliklari ajralmas va o'zaro bog'liq ekani va bir turkum huquqlarni rivojlantirish va himoyalash davlatning boshqa huquqlarni rivojlantirish va himoyalashdan ozod bo'lishi uchun sabab yoki oqlov bo'lib xizmat qilmasligi alohida ko'rsatib o'tilgan.

Shaxsiy daxlsizlik huquqini himoyalash noyuridik shaklda (fuqaroning o'z huquq va qonuniy manfaatlarini o'zi himoya qilishi) va yuridik shaklda (umumiy sur'atda – sud orqali yoki maxsus-ma'muriy tartibda) amalga oshirilishi mumkin.

Ma'muriy tartibda, qonunda aniq ko'rsatilgan hollarda, jabrlanuvchi o'zining huquqlarini buzgan mansabdor shaxs (organ) ustidan yuqori turuvchi organga yoki prokurorga shikoyat topshiradi, ular buzilgan huquqlarni qayta tiklash bo'yicha chora ko'rishga majburdirlar.

Ishni sud orqali ko'rishda esa, fuqarolik-huquqiy, ma'muriy-huquqiy va jinoyat-huquqiy himoya usullari mavjuddir.

Nomoddiy boylıklar sifatida shaxsiy hayot daxlsizligi huquqining fuqarolik-huquqiy himoyasiga sudga ariza berish orqali huquqbuzar shaxsdan:

huquqini tan olish;

huquq buzilishidan oldin mavjud bo'lgan holatni tiklash;

harakatlarini noqonuniy deb baholash;

huquqni buzuvchi yoki uning buzilishi xavfini tug'diruvchi harakatlarni bartaraf qilish;

davlat va mahalliy o'zini o'zi boshqarish organining aktini bekor qilish;

zararlarni qoplash;

ma'naviy (jismoniy yoki ma'naviy azoblanish) zararlarni qoplash; jabrlanganning javobini nashr etish;

sud orqali uning sha'ni, qadr-qimmatı yoki obro'sini badnom qiluvchi ma'lumotlarni (jumladan, ommaviy axborot vositalarida), agar bu ma'lumotlarni tarqatuvchi ular voqelikka muvofiq ekanligini isbotlay olmasa, raddiya berish.

O'zbekiston Respublikasi "Advokatura to'g'risida"gi Qonuni (1996 yil 27 dekabr) 9-moddasiga muvofiq, advokat advokatlik sirini saqlashga majbur. Bu sirning obykti esa, mijozning advokatga murojaati, yordam so'ralgan masala, mijoz advokatdan olgan konsultatsiya, maslahat, tushuntirishlar mohiyati, advokatning mijoz bilan suhbatı mazmuniga oid boshqa har qanday ma'lumotlar tashkil qiladi. Shu tariqa advokat, advokat yordamchisi, advokatlik byurosi, kollegiyalari va firmalari mansabdor shaxslari va texnik xodimlariga advokatlik sirini tashkil etuvchi ma'lumotlarni oshkor qilish va o'z manfaatlari hamda uchinchi shaxslar manfaatlari yo'lida qo'llash taqiqlanadi.

O'zbekiston Respublikasi "Notariat to'g'risida"gi Qonuni (1996-yil 26-dekabr) 6-moddasiga muvofiq, notariusga, notarial faoliyatni bajaradigan boshqa mansabdor shaxslarga, shuningdek, xizmat vazifalarini bajarish tufayli amalga oshirilayotgan notarial harakatlardan xabardor bo'lgan boshqa shaxslarga ularga ma'lum ma'lumotlarni; jumladan, mehnat shartnomasi tugaganidan so'ng ham, oshkor qilish taqiqlanadi. Amalga oshirilgan notarial faoliyat haqidagi ma'lumotlar (hujjatlar) faqat ushbu faoliyat ular nomidan yoki ular topshirig'iga ko'ra amalga oshirilgan shaxslargagina berilishi mumkin. Amalga oshirilgan notarial amallar to'g'risidagi ma'lumotnoma (ma'lumot) sud, prokuratura, tergov

organlariga, ularda bo'lgan ishlarga aloqasi bo'lgani tufayli berilishi mumkin. Fuqarolar xususiy mulkiga aylanayotgan mulk narxi haqidagi ma'lumotnoma soliq organlariga qonunda ko'zda tutilgan holatlarda taqdim etilishi mumkin. Vasiyat haqidagi ma'lumotnoma faqat vasiyat qiluvchining vafotidan keyin beriladi. Amalga oshirilayotgan notarial faoliyatdagi qonun buzilishlarida aybdor shaxslar qonunda belgilangan tartibda javobgarlikka tortiladilar.

Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksda fuqaroga ma'naviy yoki moddiy zarar keltiruvchi ma'lumotlarni oshkor qilish javobgarligi haqidagi umumiy me'yor ko'zda tutilgan. Ma'muriy javobgarlik kodeksining 46-moddasida shifokorlik yoki tijorat sirini, yozishmalar va boshqa xabarlar sirini, notarial faoliyat, bank amaliyotlari va omonatlari sirlarini, shuning barobarida fuqaroga, uning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlariga ma'naviy yoxud moddiy zarar keltirishi mumkin bo'lgan boshqa ma'lumotlarni oshkor qilish fuqarolarga minimal ish haqining ikkidan bir barobaridan ikki barobarigacha, mansabdor shaxslarga ikki barobaridan besh barobarigacha jarima solishga olib keladi.

Shaxs sha'ni va qadr-qimmatini insonga xos xususiyatlar bo'lib, ular ajralmaydi va boshqaga berib bo'lmaydi, insonga tug'ilganidan tegishli nomoddiy boyliklardir, ular insonning ruhiy dunyosini ifodalaydi. Siyosiy-huquqiy jihatdan fuqarolar sha'ni va qadr-qimmatini hayot, salomatlik yoki shaxs erkinligi kabi uzviy qadriyat sanaladi.

Insonning sha'ni va qadr-qimmatining himoya qilinish huquqining konstitutsiyaviy tarzda mustahkamlanishi O'zbekiston Respublikasining inson huquqlari sohasidagi xalqaro standartlarga sodiqligidan dalolat beradi. Ulardan biri shaxs sha'ni va obro'sining buzilmasligi bo'lib, u Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi (1948-y.) 12-moddasida va Fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risidagi xalqaro pakt (1966-y.) 17-moddasi 1-bandida mustahkamlab qo'yilgan. U yerda belgilanganidek: "Hech kimning sha'ni va obro'siga noqonuniy tajovuz qilinishi mumkin emas"

Me'yoriy-huquqiy hujjatlar matnlarida "sha'n", "qadr-qimmat", "tahqirlash", "sha'n va qadr-qimmatni xo'rlash" va boshqa asosiy tushunchalar aniq ta'riflanganmi?

Afsuski, yo'q. Sha'n va qadr-qimmatni himoya qilish – bu demokratiyani, uning rivojlanishi va davlatning zamonaviy taraqqiyotini himoyalash muammosidir.

Muammoga ushbu nuqtai nazardan yondashilganda, sud va shuningdek, OAVni, o'zini o'zi boshqarish tizimi yordamida, ya'ni sudgacha himoyani ham qo'shish orqali himoya turini kengaytirish lozim. Sha'n va qadr-qimmatni sudgacha himoya qilish nafaqat chcklangan sha'n va qadr-qimmatni himoya qilish uchun, balki OAVni davlat va boshqa hokimiyat tuzulmalaridan mustaqilligini mustahkamlash uchun ham zarurdir.

YeXHK insoniy mezonlar konferensiyasining Moskva kengashi (1991-yil 3-oktabr) hujjatida a'zo-davlatlar mustaqil ommaviy axborot vositalari erkin, ochiq jamiyatning muhim sharti ekanligini va inson huquqlari hamda asosiy erkinliklarini himoya qilishda alohida rol o'ynashini e'tirof etishdi.

Sha'n – bu shaxsning jamoatchilik bahosi, fuqaroning jamiyat a'zosi sifatidagi ijtimoiy va ma'naviy xususiyatlari mezonidir. Shaxsning jamoatchilik bahosi bevosita insonning o'ziga bog'liq, chunki u insonning faoliyati, alohida xatti-harakatlari, atrofidagi insonlarga, jamiyat va davlatga munosabati asosida shakllanadi. U inson faoliyatining ijtimoiy ahamiyati va foydaliligiga bog'liq bo'lib, real xizmatlari va yutuqlarini aks ettiradi. Aynan insonning xatti-harakati asosida uning ma'naviy-axloqiy qiyofasi haqida tasavvur shakllanadi, boshqa individlar, jamoa va jamoatchilik tomonidan shaxs xususiyatlarini baholash ro'y beradi. Har bir inson o'z jamoatchilik bahosiga ega bo'lib, u doimiy holat emas, chunki amalga oshiriladigan xatti-harakatlarga qarab o'zgarishi mumkin.

Qadr-qimmat – o'z xususiyatlari, qobiliyatlari, dunyoqarashini, o'zining ijtimoiy ahamiyatini o'zi baholashdir. Har bir inson o'zi jamiyatda egallab turgan mavqeini anglaydi. Inson tomonidan o'zining jamiyatdagi o'rmini va o'zining ahamiyatini anglash ko'p jihatdan uning xatti-harakati va fe'l-atvorini belgilaydi. Shaxs qadr-qimmatini insonning jamiyatdagi obro'sini ko'rsatuvchi obyektiv xususiyatlari yalpi hajmi bilan ham belgilanadi: ma'lumoti va bilim darajasi, jamiyatdagi o'rmi, jamiyatda umumqabul qilingan fe'l-atvor qoidalariga amal qilish darajasi, dunyoqarashi va ma'naviy xususiyatlari, madaniyati va boshqalar.

13-modda

1. Har bir inson har bir davlat doirasida erkin yurish va yashash joyi tanlash huquqiga ega.

2. Har bir inson har qanday mamlakatdan, xususan o'z mamlakatidan chiqib ketish va o'z mamlakatiga qaytib kelish huquqiga ega.

Erkin yurish, turish va yashash joyi tanlash huquqi O‘zbekiston Respublikasi hududida qonuniy tarzda yashayotgan har kimga tegishlidir. Ushbu huquqni belgilash orqali davlat mamlakat hududini fuqarolarning o‘zlariga tegishli ekanligini e‘tirof etadi. Ular o‘z manfaatlariga ko‘ra va hech qanday ruxsatnomalarsiz bir joydan boshqasiga ko‘chishlari va o‘zlariga yashash joyi tanlashlari mumkin.

Qonun muayyan hududlarda (chegara chizig‘ida, yopiq harbiy shaharchalarda, yopiq ma‘muriy-hududiy tuzilmalarda, ekologik halokat zonalarida, yuqumli yoki ommaviy yuqumli kasalliklar va odamlarning zaharlanishi xavfi sababli maxsus yashash sharoitlari va tartiblari, shuningdek, favqulodda va harbiy vaziyat joriy qilingan hududlar) yurish erkinligini cheklashi mumkin. Binobarin, bu hududlardan tashqarida har qanday transport vositasida yoki piyoda yurish erkinligini hech qanday cheklash mumkin emas.

Har bir davlat ichida erkin yurish, turish va yashash joyi tanlash huquqi, chiqish va o‘z mamlakatiga to‘sqinliksiz qaytib kelish huquqi, xalqaro hamjamiyat tomonidan tan olinadi va inson huquqlariga oid barcha asosiy xalqaro-huquqiy hujjatlarda belgilab qo‘yilgan. Mazkur huquq shaxsning o‘z taqdirini o‘zi belgilash erkinligining muhim unsuri, insonning kasbiy va ma‘naviy rivojlanishining, uning munosib hayotining sharti hisoblanadi. Xalqaro standartlarga muvofiq, O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi ushbu huquqni kafolatlaydi. **Konstitutsiyaning 28-moddasiga muvofiq: “O‘zbekiston Respublikasi fuqarosi respublika hududida bir joydan ikkinchi joyga ko‘chish, O‘zbekiston Respublikasiga kelish va undan chiqib ketish huquqiga ega. Qonunda belgilangan cheklashlar bundan mustasnodir”.**

Shu bilan birga, ushbu huquq mutlaq xususiyatga ega emas; ko‘chib yurish erkinligi qonunda belgilangan, davlat xavfsizligini, jamoat tartibini, aholi salomatligi yoki ma‘naviyatini yoxud boshqa shaxslarning huquq va erkinliklarini muhofaza qilish uchun zarur cheklavlar obyekt bo‘lishi mumkin. Bular chegara chizig‘iga, ekologik halokat zonalar, favqulodda yoki harbiy vaziyat joriy qilingan hududlarga tegishli bo‘lishi mumkin.

14-modda

1. Har bir inson ta‘qib tufayli boshqa mamlakatlardan boshpana izlash va o‘sha boshpanadan foydalanish huquqiga ega.

2. Bu huquqdan nosiyosiy jinoyat sodir etish uchun yoki Birlashgan Millatlar Tashkilotining maqsad va prinsiplariga zid xatti-harakat tufayli ta‘qib paytida foydalanish mumkin emas.

Deklaratsiyada belgilangan ta'qib tufayli boshqa mamlakatlardan boshpana izlash va o'sha boshpanadan foydalanish huquqi BMTning 1951-yil 28-iyuldagi Qochoqlar maqomi to'g'risidagi konvensiyasi va Qochoqlar maqomiga oid 1967-yil 31-yanvardagi Protokolida rivojlantirildi.

“Qochoqlar maqomi to'g'risida”gi Konvensiyada belgilanganidek, qochoq – bu irqi, e'tiqodi, fuqaroligi, muayyan ijtimoiy guruhga mansubligi yoki siyosiy qarashlari tufayli ta'qib qilinish qurboniga aylanishdan asosli ravishda xavfsiragani uchun o'z fuqaroligi mansub bo'lgan mamlakatdan tashqarida bo'lgan va o'z mamlakati himoyasidan foydalana olmaydigan yoki oqibatidan xavfsiragani bois bunday himoyadan foydalanishni istamayotgan; yoki, aniq fuqarolikka ega bo'lmay va yuqoridagi kabi hodisalar tufayli o'zining oldingi odatiy yashash joyi bo'lgan mamlakatdan tashqarida bo'lgan, ortga qayta olmaydigan yoki aytib o'tilgan omillardan xavfsirashi tufayli qaytishni istamayotgan shaxsdir.

Boshpana berish masalasi bo'yicha YI da keng tajriba to'plangan. Yevropa hamjamiyati doirasida Kengashning 2001-yil 20-iyuldagi 2001/55/ES “Ko'chirilgan shaxslarning ommaviy oqimi holatida vaqtinchalik himoya taqdim etishning minimal standartlari va ushbu shaxslarni qabul qilish va bunday qabulning oqibatlari tufayli a'zo davlatlarning sa'y-harakatlaridagi muvozanatni saqlab turish chora-tadbirlari to'g'risida”ga direktivasi va 2003-yil 18-fevraldagi 343/2003 “A'zo davlatlarning birida uchinchi davlat fuqarosi tomonidan berilgan boshpana ajratish to'g'risidagi arizani ko'rib chiqishga javobgar a'zo-davlatni aniqlash mezonlari va mexanizmlari haqida”gi Dublin reglamenti qabul qilingan.

YI mamlakatlari Umumyevropa boshpana berish tizimini yaratish vazifalariga muvofiq, uchta muhim hujjatni ishlab chiqdi va qabul qildi:

- Kengashning 2003-yil 27-yanvardagi 2003/9/ES direktivasi, u boshpana izlayotgan shaxslarni qabul qilishning minimal standartlarini belgilaydi (12);

- Kengashning 2004-yil 29-apreldagi qochoqlar sifatidagi uchinchi mamlakat fuqarolari yoki fuqaroligi bo'lmagan shaxslar yoxud boshqa shakldagi xalqaro himoyaga muhtoj shaxslar tasnifi va maqomining, taqdim etilayotgan himoya mazmunining minimal standartlari haqidagi 2004/83/ES direktivasi (13);

- Kengashning 2005-yil 1-dekabrdagi qochoq maqomini berish va bekor qilish bo'yicha a'zo-davlatlar tartiblari bo'yicha minimal standartlar haqidagi 2005/85/ES direktivasi.

Umuman olganda, direktiva qoidalari qochoq deb tasniflanishi mumkin bo'lgan shaxslarning manfaatlarini juda samarali himoya qiladi. Shu bilan birga, qabul qilingan hujjat boshqa vazifani ham bajaradi: qochoqlar masalasi bilan shug'ullanuvchi vakolatli organlar ishini yengillatishga huquqiy omillar yaratadi. Jumladan, unda tezkor tekshiruv o'tkazish imkoniyatlari ko'rsatib o'tiladi, shunday maxsus tartiblar kiritiladiki, ular doirasida boshpana berilishi bo'yicha arizaning ko'rilishidan oldin dastlabki tekshiruv, chegarada yoki tranzit hududda tezkor tadbirlar, arizachi kelgan uchinchi mamlakatga chiqish imkoniyatlarini o'rganish kabilar amalga oshirilishi mumkin.

15-modda

1. Har bir insonning fuqaro bo'lish huquqi bor.

2. Hech kim o'zboshimchalik bilan o'z fuqarolidan yoki o'z fuqaroligini o'zgartirish huquqidan mahrum qilinishi mumkin emas.

Qadimdan davlatlar fuqarolik va chet elliklarning huquqiy mavqei masalalari bo'yicha hamkorlik qilib keladilar. Bu hol davlatlarning chet eldagi fuqarolari huquqlari himoyasidan manfaatdor ekanliklari bilan izohlanadi. Buni avvalo muntazam rivojlanib borgan xalqaro savdo-iqtisodiy aloqalar talab etardi.

Fuqarolik masalasi bo'yicha xalqaro-huquqiy baza ancha keng va fuqarolik institutiga bog'liq turli muammolarga oid bir qator konvensiyalar hamda xalqaro shartnomalarni o'z ichiga oladi. Ularning orasida, 1948-yil 10-dekabrida qabul qilingan Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasidan tashqari, quyidagilar asosiy o'rin egallaydi: Fuqarolik to'g'risidagi Yevropa konvensiyasi (Strasburg, 1997-yil, 6-oktabr), Turmushga chiqqan ayol fuqaroligi haqidagi konvensiya (1957-yil 20-fevral), Fuqarosizlikni kamaytirish haqidagi konvensiya (1961-yil 30-avgust), Ko'p fuqarolik holatlarini kamaytirish va ko'p fuqarolik holatida harbiy majburiyat haqidagi konvensiya, 118-sonli Ijtimoiy ta'minot sohasida davlat fuqarolari, chet elliklar va fuqaroligi bo'lmagan shaxslarning teng huquqli ekanligi haqidagi konvensiya, shuningdek, 1930-yil 12-apreldagi Fuqarosizlikning aniq hodisasiga taalluqli Protokol, Fuqarosizlikka oid Maxsus Protokol va boshqa qator xalqaro xususiyatga ega aktlar.

Xalqaro huquq me'yorlariga muvofiq, individ huquqiy maqomining asosini fuqarolik huquqiy munosabatlari tashkil qiladi.

Fuqarolikning mazmuni insonning davlat bilan munosabatidan iborat, ya'ni: "Fuqarolik – bu jismoniy shaxsning davlat bilan barqaror huquqiy aloqasi bo'lib, ularning o'zaro huquq va majburiyatlari majmuasida ifodalanadi va ushbu shaxsning tegishli davlat suveren hokimiyatiga qayerda turishidan qat'i nazar bo'ysunishini anglatadi... Fuqarolik – bu u yoki bu shaxsning davlatchilik shakllangan jamiyatga yuridik mansubligidir. Fuqarolik – bu barqaror huquqiy aloqadir, chunki fuqaroning uzoq muddat chet elda bo'lganida ham u uzilmaydi"

Xalqaro huquq doktrinasida va ba'zi davlatlar milliy qonunchiligida "fuqarolik" atamasi o'rniga "tabaalik" atamasi, yana butunlay teng ma'noda, ishlatiladi. Namoyon bo'lishicha, bu atamalar teng ma'noli emas. Tabaalik fuqarolikdan avvalo quyidagilar bilan farq qiladi:

birinchidan, u monarxiya davlatiga oid institut bo'lib, tabaa insonning monarx bilan siyosiy-huquqiy aloqasini anglatadi;

ikkinchidan, bunday huquqiy aloqa fuqarolikda bo'lgani kabi o'zaro va teng majburiyatli aloqa emas, balki bir tomonlama xarakterga ega.

Uchinchidan, tarixiy jihatdan tabaalik instituti burjuaziya inqiloblari davrida fuqarolik instituti yuzaga kelishidan avval bo'lgan.

Fuqaro (patrid) – bu muayyan aniq bir davlatga mansub shaxsdir. Konstitutsiyaning 21-moddasiga muvofiq: "O'zbekiston Respublikasining butun hududida yagona fuqarolik o'rnatiladi.

O'zbekiston Respublikasining fuqaroligi, unga qanday asoslarda ega bo'lganlikdan qat'i nazar, hamma uchun tengdir.

Qoraqalpog'iston Respublikasining fuqarosi ayni vaqtda O'zbekiston Respublikasining fuqarosi hisoblanadi.

Fuqarolikka ega bo'lish va uni yo'qotish asoslari hamda tartibi qonun bilan belgilanadi"

Fuqarolik – bu insonning davlat bilan barqaror huquqiy aloqasi bo'lib, inson qadr-qimmatini, huquqlari va asosiy erkinliklarini e'tirof etish va hurmat qilishga asoslangan o'zaro huquqlari, majburiyatlari majmuida namoyon bo'ladi.

Konstitutsiya inson va fuqarolar huquq va erkinliklarining ustuvorligi va himoyalanganligi konstitutsiyaviy tuzumning eng muhim asoslaridan biri ekanligini e'lon qilib, O'zbekiston Respublikasi fuqaroligining asosiy me'yorlarini o'rnatadi. Bu holat fuqarolik shaxs konstitutsiyaviy-huquqiy

maqomining u bilan davlat o'rtasidagi o'zaro munosabatlarini aniqlovchi birlamchi unsuri ekanligi bilan izohlanadi.

Fuqarolik haqidagi konstitutsiyaviy me'yorlar ularni aniqlashtiruvchi qonunchilik holatlari bilan yaxlitlikda ishlatiladi. Fuqarolik haqidagi amaldagi qonunchilik fuqarolikning huquqiy rasmiylashtirilishda ijobiy rol o'ynadi.

Fuqarolikni ko'p hollarda shaxsning muayyan davlatga huquqiy mansub ekanligi deb ta'riflaydilar, bu esa, davlat va shaxs aloqalarini bu institut bilan huquqiy bilvosita ifodalashni bir tomonlama xarakterlaydi, zero bu munosabatlarda individ davlat faoliyatining obykti sifatida emas, balki to'la huquqli subyekti sifatida ishtirok etadi.

Konstitutsiyada va Fuqarolik to'g'risidagi qonunda fuqarolikning boshqa tamoyillari ham ta'riflangan: fuqaroni fuqarolikdan yoki uni almashtirish huquqidan mahrum qilish; chet eldagi O'zbekiston Respublikasi fuqarolarini himoya qilish; O'zbekiston Respublikasi hududidagi chet el fuqarolari va fuqaroligi bo'lmagan shaxslarning huquq va erkinliklari xalqaro huquq me'yorlariga muvofiq ravishda ta'minlanadi.

Ular O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, qonunlari va xalqaro kelishuvlarda belgilangan tartibda majburiyatga egadirlar.

16-modda

1. Balog'at yoshiga yetgan erkaklar va ayollar irqi, millati yoki diniy belgilari bo'yicha hech qanday cheklashsiz nikohdan o'tishga va oila qurishga haqli. Ular nikohdan o'tishda, nikohda turgan vaqtlarida va uni bekor qilish vaqtida bir xil huquqdan foydalanadi.

2. Nikohdan o'tayotgan har ikki tomonning erkin va to'liq roziligi asosidagina nikoh tuzilishi mumkin.

3. Oila jamiyatning tabiiy va asosiy hujayrasi sanaladi va jamiyat hamda davlat tomonidan himoya qilinishga haqli.

Umumjahon deklaratsiyasi me'yorlariga muvofiq, **erkak va ayol tengligini ta'minlash** masalalari BMT kun tartibiga 1975-yilda – Xalqaro ayollar yilida qo'yilgandi. 1975-1985-yillarni BMT Ayollar o'n yilligi deb e'lon qildi. Ketma-ket ayollar masalasiga oid muhim xalqaro konferensiyalar bo'lib o'tdi. Bular Mexiko (1975.), Kopengagen (1980), Nayrobi (1985) va Pekin (1995) Ayollar masalasi bo'yicha BMT konferensiyalari bo'lib, ularda dunyoning 189 davlatidan 17 ming nafar vakil qatnashdi.

Bundan tashqari, ayollar tashkilotlari gender masalalarini BMTning barcha hujjat va dasturlariga kiritishga erishdilar. Ulardan eng muhimlari inson huquqlariga taalluqli bo'lib, bunda 1948-yilda qabul qilingan Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi asosiy o'rinni egallaydi.

Keyingi qadam BMT tomonidan 1979-yilda Ayollarga nisbatan har qanday shakldagi kamsitishni yo'qotish Konvensiyasi (CEDAW) bo'ldi. Unda ratifikatsiya qilgan barcha davlatlar amal qilishi lozim bo'lgan huquqiy me'yorlar belgilab berildi. Keyingi o'n yil davomida aksariyat davlatlar ushbu konvensiyani imzolashi va ratifikatsiya qilishi uchun ayollar tashkilotlariga ancha kuch sarflashlariga to'g'ri keldi. Hozirda buni 160 ta davlat amalga oshirdi.

Konvensiyaning 1-moddasi kamsitishni atroflicha ta'riflaydi: "Siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy, fuqarolik yoki boshqa har qanday sohada jins asosida har qanday ajratish, mahrum qilish yoki cheklash..." keyingi moddalar hukumatlarning "har bir sohada ayollarning har tomonlama rivojlanishlari va yuksalishlarini ta'minlash" borasidagi majburiyatlari sanab o'tiladi.

Konvensiya yuzasidan olingan majburiyatlarni bajarishni nazorat qilish BMT ayollarga nisbatan kamsitishni yo'qotish qo'mitasiga yuklatilgan. Qayd etish lozimki, bu qo'mita BMTning a'zolari faqat ayollardan iborat yagona organidir.

1993-yildagi inson huquqlari bo'yicha Vena konferensiyasida ayolning insoniy huquqlari tamoyilini tasdiqlash nuqtai nazaridan muhim xalqaro-huquqiy hujjatlar – Vena Deklaratsiyasi va Harakatlar dasturi qabul qilindi. Bu hujjatlarda, jumladan, shunday deyiladi: "Xotin-qizlarning insoniy huquqlari umuminson huquqlarining ajralmas, tarkibiy va bo'linmas qismi sanaladi. Ayollarning siyosiy, fuqarolik, iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy hayotda milliy, mintaqaviy va xalqaro darajalarda to'liq va barobar qatnashishi, shuningdek, jins yuzasidan kamsitishning har qanday ko'rinishini bartaraf qilish xalqaro hamjamiyatning birlamchi maqsadlari hisoblanadi" Vena deklaratsiyasi ayollarga nisbatan zo'ravonlik muammosiga (ham jamoat, ham xususiy sohada) ham umuminson huquqlarining ajralmas qismi sifatida qaraydi. Ushbu ishning natijasi o'laroq, 1993-yil 20-sentabrda Bosh Assambleya Ayollarga nisbatan zo'ravonlikni yo'qotish deklaratsiyasini tasdiqladi. Ushbu hujjatga muvofiq, gender asoslardagi zo'ravonlik o'z ichiga jismoniy, jinsiy yoki ruhiy zararga olib keluvchi yoki olib kelishi mumkin bo'lgan ham xususiy, ham jamiyat hayotidagi har qanday harakatlar; jumladan,

tahdidlar, majburlash, ozodlikdan mahrum etishni qamrab oladi. Bu tushunchalarga yana tahqirlash, urish, jinsiy zo'rov va boshqalar kiradi.

Ayollar ahvolini yaxshilash bo'yicha BMTning IV umumjahon konferensiyasi (Pekin, 1995-y.) muhim voqea bo'ldi. Unda ikkita hujjat – Pekin Deklaratsiyasi va Pekin harakatlar platformasi qabul qilindi. Ularda jahon hamjamiyatining gender teng huquqliligi qadriyatiga oid rejalar tasdiqlanadi – “Erkaklar va ayollar o'rtasida teng huquqlar, imkoniyatlar va resurslardan foydalanish, oila majburiyatlarini teng taqsimlanishi va ular o'rtasidagi uyg'un sherikchilik ularning farovonligi va oila farovonligi uchun, shuningdek, demokratiyaning mustahkamlanishida hal qiluvchi ahamiyatga ega” (15-modda).

Pekin harakatlar platformasining 118-bandida ayollarga nisbatan zo'rlik o'ziga xos tarixga ega bo'lib, erkak va ayollar o'rtasidagi notenglik muammosidan kelib chiqishi haqida so'z boradi. Bu ayollarning erkaklar tomonidan xo'rlanishi va kamsitilishiga olib keladi, shuningdek, tenglik munosabatlarining rivojlanishiga to'sqinlik qiladi. Shaxsiy yoki jamoat hayotida alohida shaxslar yoki davlat tomonidan ayollarga nisbatan har qanday zo'ravonlik inson huquqlarining buzilishi demakdir. Chunki birinchi navbatda, ayollar huquqi – inson huquqining bevosita tarkibiy qismi. Pekin uchrashuvining rezolyutsiyasida aytiladiki, davlatlar ayollar va bolalarga nisbatan har qanday zo'ravonliklarga qarshi turishi kerak va bu qonunchilikda o'z aksini topishi lozim. Ayollarga nisbatan zo'rovni, jumladan, uy zo'ravonliklari va zo'ravonlikning boshqa shakllarini tagtugi bilan yo'qotish bo'yicha milliy rejalar ishlab chiqish va amalga oshirish zarur. Ayollar ahvoli bo'yicha komissiya har yili mart oyida Nyu-Yorkda uchrashuv o'tkazadi va Harakatlar platformasining tatbiqi bo'yicha monitoring olib boradi.

1996-yil iyulida BMI Iqtisodiy va Ijtimoiy Kengashining ayollarga nisbatan zo'ravonlikni tugatish haqidagi 1996/12 rezolyutsiyasi qabul qilindi. Ushbu hujjatda ayollarga nisbatan zo'ravonlik tufayli alohida shaxslar va jamiyat katta ijtimoiy va iqtisodiy zararlar ko'rayotgani, shuningdek, sog'liqni saqlash sohasidagi xarajatlar ko'pligidan chuqur xavotir ifodalanadi. 1997-yil dekabrda BMTning “Ayollarga nisbatan zo'ravonlikni tugatish maqsadida jinoyatchilikning oldini olish va jinoyat odil sudlov sohasidagi chora-tadbirlar” rezolyutsiyasi qabul qilindi.

Pekinda konferensiya o'tkazilganidan so'ng, ayollarga nisbatan zo'ravonlikka qarshi kurash bo'yicha turli yuridik me'yorlar, tamoyillar, dasturlar va harakat rejaları ishlab chiqildi. Ular hukumat idoralari va jamoat tashkilotlari hamkorligida de-yure va de-fakto amalga

oshirilayotgan ishlarning muhimligini ta'kidladilar. Pekin harakatlar platformasi monitoringida muvofiqlashtiruvchi rol' YNIFEM (BMTning ayollar masalasi bo'yicha Xalqaro taraqqiyot fondi) ga tegishli bo'lib, u 2000-yilda Nyu-Yorkda, – “Pekin plyus besh” konferensiyasi tashkilotchisi bo'ldi.

YNIFEM tomonidan qabul qilingan harakatlardan biri “Zo'rvonlikni to'xtatamiz” global tarmog'i va bahs varag'ini yaratish hamda 1999-yil 8-martda, o'tgan yuz yillikning so'nggi Xalqaro xotin-qizlar kunida Internet orqali global konferensiya o'tkazish bo'ldi. Unda dunyodagi barcha mamlakatlar ayollar tashkilotlari harakatlari taqdim etildi.

O'zbekiston Markaziy Osiyoda birinchi bo'lib, BMTning “Ayollarga nisbatan zo'rvonlikning barcha shakllarini tugatish haqida”gi konvensiyasini ratifikatsiya qildi. Ushbu konvensiya ayollarning xalqaro miqyosdagi huquqlarini tasdiqladi va davlatlar tomonidan ularni ta'minlash va himoyalash harakatlari rejasini belgiladi. Hozirda O'zbekistonning 70 dan ortiq qonunlari ayollar asosiy huquq va erkinliklarini ta'minlash muammosiga bevosita aloqadordir.

O'zbekistonda insonning oiladagi zo'rvonlikdan himoyalash huquqini muhofaza qiluvchi, shuningdek, huquqni muhofaza qiluvchi organlar xodimlarining oiladagi zo'rvonlikning oldini olish va tugatish borasidagi faoliyatini boshqaruvchi bir qator qonunchilik va me'yoriy-huquqiy hujjatlar qabul qilingan.

O'zbekistonning ayollar huquqlarini belgilovchi qonunchilik tizimini Respublika Konstitutsiyasi, O'zbekiston Respublikasining to'g'ridan-to'g'ri ta'sir ko'rsatuvchi Kodeks va Qonunlari tashkil etadi. O'zbekiston Konstitutsiyasining 18-moddasiga muvofiq: “O'zbekiston Respublikasida barcha fuqarolar bir xil huquq va erkinliklarga ega bo'lib, jinsi, irqi, millati, tili, dini, ijtimoiy kelib chiqishi, e'tiqodi, shaxsiy va ijtimoiy mavqeidan qat'i nazar, qonun oldida tengdirlar.

Imtiyozlar faqat qonun bilan belgilanib qo'yiladi hamda ijtimoiy adolat prinsiplariga mos bo'lishi shart”

O'zbekiston Respublikasi Oila kodeksi 3-moddasiga muvofiq, “Barcha fuqarolar oilaviy munosabatlarda teng huquqlidirlar” “Er-xotin barobar huquqlardan foydalanadilar va barobar javobgarlikka egadirlar”, - deyiladi 19-moddada.

Jinoyat kodeksi ham ayollar huquqlarini buzish yoki cheklashni taqiqlaydi – 104, 105, 118, 119, 121-moddalarda ayol kishiga tan jarohatlarini yetkazish, zo'rlash, jinsiy ehtiyojini kuch ishlatib qondirish,

ayolni u xizmat, moddiy yoki boshqa ko'rinishdagi tobelikda bo'lgan shaxs tomonidan jinsiy aloqaga kirishishga majburlash bo'yicha javobgarlik ko'zda tutilgan.

O'zbekistonda ayollarni kamsitishni yo'qotish va ularning mamlakat iqtisodiy hamda ijtimoiy hayotida faol qatnashishga jalb qilish uchun huquqiy sharoitlar yaratilgan. Ayollar va erkaklar huquqlarining tengligi va jins asosida kamsitishning taqiqlanishi Konstitutsiyada mustahkamlab qo'yilgan. Qonunchilikda ayollarga o'z mehnat huquqlaridan foydalanish hamda ularni himoya qilishda teng imkoniyatlar berilgan. O'zbekiston Konstitutsiyasi 37-moddasi hamda Mehnat kodeksining 6-moddasiga muvofiq, mehnat munosabatlarida jinsi bo'yicha hech qanday cheklovlar qo'yilmaydi. Ushbu holatlar bo'yicha kamsitishga uchragan shaxslar ma'naviy yoki moddiy zararni undirish uchun belgilangan tartibda sudga murojaat qilishlari mumkin.

Bundan tashqari, mehnat sohasida ularga oilaviy majburiyatlarning bajarilishi bilan bog'liq qo'shimcha kafolatlar ko'zda tutilgan: homilador va bolali ayollarni ishga qabul qilishdagi (ozod etilishda) kafolatlar, noqulay mehnat sharoitiga ega ishlarda ayollar mehnatidan foydalanishni taqiqlash, homiladorlik va tug'ish, shuningdek, bola parvarishi ta'tillari, qo'shimcha dam olish kuni, ta'tillar berish va b.

17-modda

1. Har bir inson yakka holda, shuningdek, boshqalar bilan birgalikda mulkka egalik qilish huquqiga ega.

2. Hech kim zo'rvonlik bilan o'z mulkidan mahrum etilishi mumkin emas.

Mulkka egalik qilish huquqi, jumladan, yerga egalik qilish insonning huquq va erkinliklarining muhim ko'rinishi bo'lib, qonun bilan himoya qilinadi. Bu boradagi o'zgartirish va qo'shimchalar faqat qonun bilan amalga oshishi mumkin. Fuqaro har qanday ishlab chiqarish, madaniy va boshqa maqsadlardagi mulkka egalik qilish huquqiga ega. Qonun va xalqaro shartnomalarga muvofiq, davlat yoki jamoat xavfsizligi nuqtai nazaridan unga tegishli bo'la olmaydigan mulklar bundan mustasno.

Mulkka egalik qilish huquqini xalqaro-huquqiy tartibga solish va himoyalash 1948-yilda, Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasida ushbu qoida mustahkamlab qo'yilganidan so'ng boshlandi. Bunga qadar mulkchilik va mehnat huquqlari fuqarolik huquqlari bilan

umumlashtirilgan edi. Ammo ularni tan olishdagi muayyan qiyinchiliklar hozirda ham mavjud. Chunonchi, Yevropa ijtimoiy xartiyasi (Yevropa Kengashi tomonidan 1961-yilda qabul qilingan) hanz aksariyat davlatlar tomonidan ratifikatsiya qilinmagan.

Bugungi kunda shaxsning huquqiy maqomini ta'minlashda ijtimoiy-iqtisodiy huquqlarning ahamiyati, shubhasiz, kattadir. Iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar to'g'risidagi xalqaro paktida qayd etilganidek, "qo'rquv va muhtojlikdan ozod, erkin inson shaxsi ideali har kim o'z iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlaridan o'zining fuqarolik va siyosiy huquqlari qatori foydalana oladigan sharoitlar yaratilgandagina amalga oshishi mumkin" Bu nuqtai nazarni BMT Bosh Assambleyasi tasdiqlab, "iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy, fuqarolik va siyosiy huquqlarning bo'linmasligi va o'zaro bog'liq"ligini e'lon qildi (1986-yil 4-dekabr rezolyutsiyasi). Davlatlarning ijtimoiy-iqtisodiy huquqlarni himoyalash sohasidagi majburiyati ilg'or iqtisodiy va ijtimoiy islohotlarni o'tkazish, o'z xalqining iqtisodiy taraqqiyot jarayonida to'liq qatnashishini ta'minlash, ushbu huquqlardan foydalanishda barchaga barobar imkoniyatlar yaratish uchun o'z resurslarini qo'llashdan iborat. 1974-yil 12-dekabrda Davlatlar iqtisodiy huquqlari va majburiyatlari xartiyasida qayd etilganidek, har bir davlat o'z xalqining iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy taraqqiyotini qo'llab-quvvatlashga javobgardir.

Mulkka egalik qilish huquqiga oid manbalar orasida xalqaro-huquqiy me'yorlar asosiy rol' o'ynaydi. Universal me'yorlar BMT Nizomining umumiy tamoyillarida (1, 13, 55, 56, 62 va 68-moddalar), Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasining qoidalarida (22-27 moddalar). Iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar to'g'risidagi xalqaro pakt me'yorlarida, Xalqaro Mehnat Tashkiloti (XMT) konvensiyaviy standartlarida mavjud. XMT tomonidan bu borada 170 dan ortiq konvensiyalar qabul qilingan. Ulardan quyidagilar muhim ahamiyatga ega: "Majburiy mehnat haqida" (1930-y.), "Adolatli mukofotlash haqida" (1951-y.), "Mehnat va bandlik sohasidagi kamsitish haqida" (1958-y.), "Bandlik sohasidagi siyosat haqida" (1964-y.), "Oilaviy majburiyatga ega mehnatkashlar haqida" (1981-y.), "Bandlik va ishsizlikdan himoyalashga ko'maklashish haqida" (1988 y.) va b.

Ijtimoiy-iqtisodiy huquqlarni boshqarish manbalarining boshqa guruhini mintaqaviy kelishuvlar (inson huquqlari va asosiy erkinliklarni himoya qilish Yevropa xartiyasi, Yevropa ijtimoiy xartiyasi kabilar) dagi me'yorlar tashkil etadi. Uchinchi guruh me'yorlarga davlatlar milliy

qonunchiligida mustahkamlangan ijtimoiy-iqtisodiy huquqlarni himoyalash va ularga rioya etish kafolatlari bilan bog'liq qoidalar kiradi.

Iqtisodiy faoliyat erkinligi fuqaro shaxsiy erkinligining namoyon bo'lishidir. U quyidagi huquqlarni tatbiq qilish bilan amalga oshiriladi: o'z qobiliyati va mulkini tadbirkorlik va qonunda taqiqlanmagan boshqa faoliyatda qo'llash; xususiy mulkchilik, kelishuv erkinligi, yaxshi nom (ishchanlik obro'si), zararni qoplash, mahsulot, xizmat va moliyaviy vositalarning erkin ko'chirish huquqlari va b.

Mulkka egalik qilish ijtimoiy-iqtisodiy huquqi ikkinchi avlod inson huquqlariga tegishlidir. Ular individ hayoti ijtimoiy-iqtisodiy sharoitini qo'llab-quvvatlash va huquqiy mustahkamlashga taalluqli bo'lib, insonlar qo'rquv va muhtojlikdan ozod bo'ladigan sharoitlar yaratish maqsadida insonning mehnat va maishiy hayot, bandlik, farovonlik, ijtimoiy himoyalanganlik sohalaridagi mavqeiini belgilaydi. Ularning hajmi va tatbiq qilinganlik darajasi ko'p hollarda iqtisodiyot va resurslar holatiga bog'liqdir, shu sababli birinchi avlod hisoblanuvchi fuqarolik va siyosiy huquqlarga qaraganda, ularning tatbiq etilishi kafolati kamroq rivojlangan.

Inson huquqlarining boshqa ko'rinishlaridan farqli o'laroq, ijtimoiy-iqtisodiy huquqlarning xususiyatlari quyidagilardir:

insonning muayyan ijtimoiy-iqtisodiy hayot sohasidagi o'mi;

asosiy qoidalarning tavsivaviy, "qat'iy bo'lmagan" iboralarga egaligi (masalan, "munosib hayot", "adolatli va qulay mehnat sharoiti", "munosib turmush");

ijtimoiy-iqtisodiy huquqlar tatbiq etilishining iqtisodiyot va resurslar holatiga bog'liqligi. Iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar to'g'risidagi xalqaro pakt 2-moddasida ushbu huquqlar bosqichma-bosqich va "mavjud resurslar asosida imkon doirasida" ta'minlanishi lozimligi aytiladi.

Ikkinchi avlod inson huquqlariga uzoq davr mobaynida ikkinchi darajali ahamiyat berib kelindi, bu huquqlarni boshqarish imkoniyati salbiy baholandi. Buning sababi, ushbu huquqlarni aniq belgilash va yuridik tasniflashning iloji yo'q, degan hukmron tasavvur bo'ldi. Chunki ular davlatning ushbu huquqlarni ta'minlash va huquqiy himoya borasidagi bevosita majburiyatlarini yuzaga keltira olmaydi. Keyinroq bu tendensiya ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy huquqlar tengligini inkor qilish bilan almashdi.

18-modda

Har bir inson fikr, vijdon va din erkinligi huquqiga ega; bu huquq o'z dini yoki e'tiqodini o'zgartirish erkinligini va ta'limotda, toat-ibodat qilishda va diniy rasm-rusm hamda marosimlarni ommaviy yoki xususiy tartibda ado etish, o'z dini yoki e'tiqodiga yakka o'zi, shuningdek, boshqalar bilan birga amal qilish erkinligini o'z ichiga oladi.

Fikr tafakkur natijasi, mahsuli sifatida tevarak atrofni va ushbu olamdagi o'zlikni anglashni aks ettiradi va tasavvurlarda, qarashlarda, mulohazalarda, e'tiqodda namoyon bo'ladi. Fikrlash erkinligi insonning ruhiy erkinligini, uning ichki dunyosini ifodalaydi, shu sababli o'z holicha huquqni boshqarish obyekti bo'la olmaydi. Shu bilan birga, tafakkur, fikr insonning har qanday faoliyati asosida yotadi, uning ijtimoiy faolligini, boshqa odamlar, jamiyat, davlat bilan munosabatini belgilaydi, ya'ni tashqarida aks etadi. Fikrlash shakli lisoniy, so'zlar yordamida ifodalash (og'zaki yoki yozma), boshqa belgilar yordamidagi muloqot tizimi, masalan, badiiy shakllar bo'lishi mumkin. Konstitutsiya tomonidan har kimga fikrlash erkinligining kafolatlanishi huquqiy talablar nuqtai nazaridan davlatning inson shaxsiy fikrlari va e'tiqodlarining shakllanish jarayoniga aralashmasligini, boshqa har qanday aralashuvdan himoya qilishini, har qanday g'oyaviy zug'umga, zo'raonlikni yoki shaxs ustidan nazoratga yo'l qo'yilmasligini anglatadi.

So'z erkinligi – bu davlat tomonidan kafolatlangan, jamiyat, davlat va boshqa sohalardagi turli xil masalalar bo'yicha o'z fikrlari va e'tiqodini og'zaki yoki yozma nutqda, yig'ilishlarda, mitinglarda va boshqa namoyishlarda to'sqinliklarsiz ifodalash imkoniyatidir. O'z fikrini erkin ifodalash huquqi, xalqaro-huquqiy me'yorlarda keltirilganidek, o'z fikrida turish va har qanday vositalar orqali, hokimiyat tomonidan hech qanday aralashuvlarsiz va davlat chegaralariga bog'lanib qolmasdan axborot hamda g'oyalarni izlash, olish va tarqatishni o'z ichiga oladi (Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasining 19-moddasi, Fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risidagi xalqaro paktning 10-moddasi). Fikrini ifodalash erkinligi ko'pgina boshqa huquq va erkinliklar, avvalo saylovlarda qatnashish huquqi, petisiya huquqi, vijdon erkinligi, ta'lim olish huquqi, ijod erkinligi va boshqalar asosida yotadi.

Fikr va so'z, o'z fikrini ifodalash erkinligi inson erkinligini real namoyon bo'lishida katta ahamiyatga ega. Ammo bu erkinlik mutlaq, chegarasiz bo'la olmaydi. So'z, insoniy muloqotning bosh vositasi o'laroq,

insonlar ongiga va xatti-harakatiga juda katta ta'sir ko'rsatadi, u bunyod etishi va buzishi, ijtimoiy taraqqiyotga chorlashi va zo'rovonlikka undashi, insonning ichki dunyosini boyitish va shaxsiy qadr-qimmatni xo'rlashi mumkin. Shu bilan so'z erkinligini amalga oshirish bilan bog'liq muayyan ma'naviy va huquqiy cheklovlar zaruriyati obyektiv izohlanadi.

Inson fikrlari uning mulohazalari va e'tiqodida aks etgach, insonning ichki dunyosini, ongi mazmunini aks ettiradi, o'ziga xosligini belgilaydi. Fikr – ongning harakatchanroq unsuridir. E'tiqod – qarashlarning barqaror tizimi bo'lib, shaxsning qadriyatlar ko'lamini belgilaydi.

Fikr va so'z konstitutsiyaviy erkinligi o'z fikri, e'tiqodi va mulohazalarini to'sqinliklarsiz ifodalashinigina emas, ularni ifodalashga yoki ulardan voz kechishga majburlashga yo'l qo'yilmasligini ham anglatadi. Bu taqiqqa barcha – davlat organlari, mahalliy o'zini o'zi boshqarish organlari, siyosiy partiyalar va boshqa jamoat tashkilotlari, ularning mansabdor shaxslari, jamiyatning barcha a'zolari amal qilishlari lozim. Bu bilan insonning ichki dunyosi himoya qilinadi; shaxsning erkin rivojlanishi, jumladan, o'z e'tiqodlarini majburan emas, balki o'z ixtiyori va voqelikni anglash jarayonida, erkin bahslar va turli g'oyalarni muhokama qilish tufayli uning huquqi kafolatlanadi.

Fikr erkinligi huquqi Yevropa Kengashi Parlament Assambleyasining ommaviy axborot erkinligining aniq namoyon bo'lishiga oid qator qarorlarida mustahkamlab qo'yilgan Avvalo "Ommaviy axborot vositalari va inson huquqlari haqida"gi deklaratsiyaning qabul qilinishiga bag'ishlangan 428-sonli rezolyutsiyani (1970-y.) ko'rsatish mumkin. Unda OAV o'z funksiyalarini jamoatchilik manfaatlarini yo'lida amalga oshirishlari uchun amal qilinishi lozim bo'lgan tamoyillar sanab o'tiladi. Ular sirasiga quyidagilar kiradi:

- a) fikrlarni ifodalash huquqi OAVga joriy qilinishi kerak;
- b) OAVda fikrlarni ifodalash erkinligi axborot va g'oyalarni izlash, olish, berish, nashr qilish va tarqatish erkinligini qamrab olishi kerak;
- c) hokimiyat jamoatchilikda qiziqish uyg'otuvchi savollar yuzasidan maqbul doirada axborot taqdim etishi, OAV esa, davlat ishlari haqida to'liq va uzil-kesil axborotni yetkazishlari lozim;
- d) OAVning davlat nazoratidan mustaqilligi qonunda yozib qo'yilgan bo'lishi kerak. Mustaqillikka har qanday cheklash ijroiya hokimiyati organlarining emas, faqat sud qarori asosida bo'lishi mumkin;
- e) matbuot yoki teleradiodasturlar mazmunida ham bevosita, ham bilvosita senzura bo'lmasligi lozim; cheklovlar faqat Inson huquqlari

yevropa konvensiyasining 10-moddasida ruxsat berilgan o‘rinlarda kiritilishi mumkin;

f) OAVning ichki tuzilishi mas’ul muharrirlarning o‘z fikrlarini bayon etish erkinligini kafolatlashi lozim, ularning mustaqilligi himoyalangan bo‘lishi kerak;

g) OAV mustaqilligi monopoliyalar tomonidan bo‘ladigan tahdidlardan himoyalaniishi lozim;

h) xususiy korxonalar ham, moliyaviy guruhlar ham, OAV sohasida monopoliyaga haqli bo‘lmashliklari lozim va hukumat nazoratidagi monopoliyalarning yuzaga kelishiga ruxsat bermaslik kerak;

i) chet el jurnalistlari erkinligini ta’minlash, jumladan, ularning mavqei, majburiyatlari, imtiyozlari va o‘zboshimcha deportasiya qilishdan himoyalash uchun maxsus choralar ko‘rish zarur, bu chet ellik jurnalistlarning voqealarni aniq yoritish majburiyatlariga muvofiq keladi.

Bir tomondan, bu hujjatlarda ba’zi hukumatlarning, jumladan, iqtisodiy va siyosiy bosim o‘tkazib, senzura, jurnalistlarni haydash, viza bermasdan, mamlakat ichida va milliy chegaralararo axborot tarqatishni hamda bosmaxona va boshqa kasbiy jihozlardan foydalanishni cheklash orqali matbuot erkinligiga to‘sqinlik qilish harakatlari qoralanadi. “Jurnalistlarni ularning kasbiy faoliyati asosida hibsga olish va ushlab inson huquqlarining jiddiy buzilishidir,- deyiladi 1996-yil 11-yanvarda Sanoda qabul qilingan Deklaratsiyada, – o‘z mamlakatlarini tark etishga majbur bo‘lgan jurnalistlarga erkin qaytib borish va o‘z kasbiy faoliyatlarini davom ettirish imkoniyatini ta’minlash kerak. Ishdan asossiz bo‘shatilgan shaxslarga o‘z lavozimiga qayta tiklanish imkonini berish kerak” Bunda qayd etiladiki, ba’zi hukumatlar axborot va kommunikatsion texnologiyalarning ehtimoliy xavfidan ommaviy axborot erkinligini cheklash uchun foydalanadilar.

Boshqa tomondan, mazkur deklaratsiyalar demokratiya va matbuot erkinligiga qaratilgan umumjahon tendensiyasini qo‘llab-quvvatlaydilar. Ular “jurnalistlar tomonidan faoliyati va moliyalashtirilishi jurnalistlarning o‘zlari tomonidan amalga oshiriladigan, zarur hollarda oshkoralik asosida va moliyalashtirayotgan muassasa tahririyat siyosatiga aralashmasligi kafolati bilan subsidiyalar ko‘rinishida madad olgan holda o‘zlarining mustaqil OAVlarini ochishlari”ni rag‘batlantiradi. Ular “fikrlar xilma xilligini rag‘batlantirish maqsadida hukumatdan mustaqil bosma va elektron axborot vositalarining rivojiga” xalqaro yordam yuborishga, davlat OAVlariga esa, “davlat xizmati ochiq muassasalari sifatida ularning

jurnalistik va tahririyat mustaqilligini ta'minlovchi mavqe" berishga chorlaydilar.

Insonning asosiy va ma'naviy erkinliklaridan biri **viydon erkinligidir**. Axloqiy jihatdan viydon erkinligi – bu insonning o'z e'tiqodiga ko'ra fikr va ish yuritish huquqi, ma'naviy baholashdagi va o'z xatti-harakati hamda fikrlarini nazorat qilishdagi mustaqilligidir. Ancha davrlar viydon erkinligi tor ma'no – din borasidagi erkinlik ma'nosini anglatib keldi. Viydon erkinligiga erishish – demokratik jamiyat tuzumini yaratishning asosiy omilidir, zero demokratiya fuqaroni ham ideologik, ham materialistik ruhdagi har qanday ta'limotlarning g'oyaviy hukmronlik qilishidan himoyalashni nazarda tutadi.

Umume'tirof etilgan xalqaro standartlarga muvofiq, viydon erkinligi huquqi boshqa shaxslarning huquq va erkinliklarini, davlat qonunlarini, axloq talablari va jamoat tartibini hurmat qilish majburiyati bilan bog'liq. Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi me'yorlari (18-modda), Fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risidagi xalqaro pakt (18-modda), Din va e'tiqod asosidagi murosasizlik va kamsitishning har qanday ko'rinishlarini tugatish haqida Deklaratsiya (1979-y., 25-noyabr) va Milliy yoki etnik, diniy va ozchilik muloqot qiladigan tilga mansub shaxslar huquqlari haqida deklaratsiya (1952-yil, 18-dekabr) "viydon erkinligi" tushunchasini yoritib, viydon erkinligi huquqini himoya qilish tartibi va mexanizmini belgilab beradi. Din va e'tiqod asosidagi murosasizlik va kamsitishning har qanday ko'rinishlarini tugatish haqida Deklaratsiya (1979-y., 25-noyabr)ning 6-moddasiga muvofiq,

Fikrlash, viydon, din yoki e'tiqod erkinligi huquqi o'z ichiga quyidagi erkinliklarni oladi:

- a) ibodatlarni ado etish yoki din va e'tiqodlari tufayli yig'ilish;
- b) tegishli xayriya yoki insonparvarlik muassasalarini tuzish va faoliyat olib borish;
- c) diniy marosimlar, odatlar va e'tiqodga bog'liq zarur matcriallar va buyumlarni tegishli hajmda ishlab chiqish, olish va qo'llash;
- d) shu sohadagi tegishli ma'lumotlarni yozish, nashr etish va tarqatish;
- e) din va e'tiqod masalalari bo'yicha bunga mos keluvchi joylarda ta'lim berish;
- f) alohida shaxslar va tashkilotlardan ixtiyoriy moliyalash va boshqa xayriyalar so'rash va olish;
- g) u yoki bu diniy e'tiqod me'yorlariga ko'ra tegishli rahbarlarni tayyorlash, tayinlash, saylash yoki meros asosida tayinlash;

h) din va e'tiqod ko'rsatmalari asosida dam olish kunlariga amal qilish, bayramlarni nishonlash va marosimlarni o'tkazish;

i) milliy va xalqaro miqyosda alohida shaxslar va din sohasidagi jamoalar bilan aloqalar o'rnatish va olib borish.

“Har bir inson fikr, vijdon va din erkinligi huquqiga ega. Bu huquq o'z ixtiyoriga ko'ra biror din yoki e'tiqodda bo'lish va o'z diniga amal qilish, ham yakka holda, ham boshqalar bilan kelishgan holda ommaviy tarzda yoki xususiy tartibda marosimlarni bajarish, diniy ibodatlar hamda ta'limni amalga oshirish orqali o'z e'tiqodini ifodalashni nazarda tutadi.

Hech kim o'z ixtiyoriga ko'ra din va e'tiqodga ega bo'lish erkinligini cheklovchi majburlashga tortilishi mumkin emas”, deyiladi Deklaratsiyaning 1-moddasida.

Deklaratsiyaning 2-moddasi esa, “Hech kim din yoki e'tiqodi tufayli davlat, muassasa, shaxslar guruhi yoki alohida shaxslar tomonidan kamsitilishi mumkin emas. Ushbu Deklaratsiya maqsadlarida “murosasizlik va diniy e'tiqodlar tufayli kamsitish” iborasi din yoki e'tiqod asosidagi, teng huquqlilik asosida inson huquq va asosiy erkinliklarini tan olish, foydalanish hamda amalga oshirishni yo'q qilish yoki tugatishni maqsad qilib qo'ygan yoki ularga olib boruvchi har qanday ajratish, chetlatish, cheklash yoki afzallik berishni anglatadi”

1966-yilda qabul qilingan Fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risidagi xalqaro pakt diniy erkinlik cheklanishi mumkin bo'lgan sabablarning uzil-kesil ro'yxatini e'lon qildi. 18-moddaning 3-bandida shunday deyiladi: “Din yoki e'tiqodga amal qilishga faqat qonun tomonidan belgilangan va jamoat xavfsizligini, tartibini, boshqa shaxslarning salomatligi va ma'naviyatini, shuningdek, asosiy huquq va ozodliklarini saqlash uchun zarur bo'lgan cheklovlariga joriy qilish mumkin” Bu O'zbekiston Respublikasi “Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risida”gi Qonuni 3-moddasi 4-bandiga muvofiq keladi.

1989-yildagi Yevropada xavfsizlik va hamkorlik kengashi a'zo davlatlari vakillarining Vena uchrashuvi yakuniy hujjati a'zo-davlatlar amal qilishi lozim bo'lgan asosiy tamoyillarni e'lon qildi:

- din yoki e'tiqod asosida shaxslar yoxud birlashmalarning fuqarolik, siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy hayotning barcha sohalaridagi inson huquqlari va asosiy erkinliklaridan foydalanish borasida kamsitilishining oldini olish va tugatish hamda dindorlar va dinga ishonmaydiganlar o'rtasida haqiqiy tenglikni ta'minlash bo'yicha samarali choralar ko'rish;

turli birlashmalardagi dindorlar hamda dindorlar va dinga ishonmaydiganlar o'rtasida o'zaro murosallilik va hurmat muhitini rag'batlantirish;

- ularning iltimoslariga ko'ra, tegishli davlatlarda ular uchun ko'zda tutilgan mavqeni taqdim etish;

diniy birlashmalarning ibodat qilish va yig'ilish uchun barchaga ochiq joylarni tashkil etish va saqlash, o'zining ierarxik va institusional tuzilmasiga muvofiq, ixtiyoriy moliyaviy va boshqa xayriyalarni so'rash va olish huquqlarini hurmat qilish;

har kimning o'zi tanlagan tilda, yakka holda yoki boshqalar bilan birgalikda diniy ta'lim berish va olish huquqini hurmat qilish;

ushbu ma'noda, boshqalar qatorida, ota-onalarning o'z farzandlariga o'zlarining shaxsiy e'tiqodlariga muvofiq diniy va ma'naviy tarbiya berish erkinliklarini hurmat qilish;

- tegishli muassasalarda xodimlar tayyorlashga ruxsat berish;

- dindorlar va diniy birlashmalarning o'zlari tanlagan tilda muqaddas kitoblarni, diniy nashrlarni va din yoki aqidaga amal qilishga oid boshqa buyum hamda materiallarni olish va qo'llash hamda tasarruf etish huquqini hurmat qilish;

diniy shaxslar, muassasalar va tashkilotlarga diniy nashrlar va materiallar ishlab chiqarish, import qilish va tarqatishga ruxsat berish;

diniy birlashmalarning jamoatchilik bilan, jumladan, ommaviy axborot vositalari orqali muloqot qilishga qiziqishini moyillik bilan ko'rib chiqish.

Vijdon erkinligi insonning istagan dinga amal qilish yoki hech qaysi dinga amal qilmaslik, diniy marosimlarni amalga oshirish va ateistik targ'ibot olib borish huquqini anglatadi. Davlat ushbu huquqni ta'minlovchi maxsus kafolatlar tizimini belgilaydi.

Vijdon erkinligi barcha demokratik konstitutsiyalarda e'tirof etiladi. Vijdon va din erkinligi kafolati quyidagilarni o'z ichiga oladi: 1) fuqarolarning dinga munosabatidan qat'i nazar, qaysi dinga mansubligi sababli fuqarolar huquqining cheklanishiga, diniy sabablarga ko'ra dushmanlik va nafratni qo'zg'ashga yo'l qo'ymaydigan tenghuquqliligi; 2) diniy va ateistik tuzilmalarning davlatdan ajratilganligi; 3) davlat tuzilishining dunyoviy xarakterdaligi; 4) dinlar, diniy birlashmalarning qonun oldida tengligi.

Davlat, uning organlari va mansabdor shaxslar fuqarolarning dinga o'z munosabatlarini bildirish masalasiga, diniy birlashmalarning qonuniy faoliyatiga aralashish huquqiga ega emaslar. Har bir fuqaro diniy

qarashlari va e'tiqodlarini og'zaki, yosma va boshqa istalgan shaklda erkin ifodalashi va tarqatishi mumkin. Fuqarolar, birgalikda muayyan dinga amal qilishga qaror qilib, diniy jamoalarga birlashadilar va ishlab chiqilgan nizom asosida, hokimiyat roziligini so'rab o'tirmay, o'z birlashmalarin ro'yxatdan o'tkazib, o'z faoliyatlarini olib boradilar.

Ushbu konvensiyaning asosiy qoidalari O'zbekiston Respublikasi milliy qonunchiligiga va birinchi navbatda Respublika Konstitutsiyasiga kiritilgan. 31-moddaga muvofiq: "Hamma uchun vijdon erkinligi kafolatlanadi. Har bir inson xohlagan dinga e'tiqod qilish yoki hech qaysi dinga e'tiqod qilmaslik huquqiga ega. Diniy qarashlarni majburan singdirishga yo'l qo'yilmaydi"

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 61-moddasida mustahkamlab qo'yilganki, "Diniy tashkilotlar va birlashmalar davlatdan ajratilgan hamda qonun oldida tengdirlar. Davlat diniy birlashmalarning faoliyatiga aralashmaydi"

Davlatning dindan ajralganligi tamoyili davlat diniy tashkilotlarga qanday bo'lmasin, davlat funksiyalarini yuklamaydi, diniy tashkilotlar faoliyatini moliyalamaydi, ularning faoliyatiga, agar u qonunchilikka zid bo'lmasa, aralashmaydi, demakdir.

O'zbekiston Respublikasi "Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risida"gi Qonuni 5-moddasiga muvofiq, davlat turli dinlarga amal qiluvchi va dinga e'tiqod qilmaydigan fuqarolar o'rtasida, turli dinlarga mansub diniy tashkilotlar o'rtasida o'zaro murosa va hurmat o'matilishini qo'llab-quvvatlaydi, diniy va boshqa shakldagi mutaassiblik va ekstremizmga, munosabatlarni qarshi qo'yish va keskinlashtirishga qaratilgan harakatlarga, turli dinlar o'rtasida nizolar qo'zg'atishga yo'l qo'ymaydi. Dindan davlatga qarshi, konstitutsiyaga qarshi targ'ibot maqsadlarida foydalanish, dushmanlik va nafrat, millatlararo kelishmovchilik qo'zg'atish, ma'naviy tartib va fuqarolar o'rtasidagi totuvlikni buzish, tuhmat, ahvolni beqarorlashtiruvchi uydirmalarni tarqatish, aholi orasida vahima uyg'otish va davlat, jamiyat hamda shaxsga qarshi qaratilgan boshqa harakatlarni amalga oshirishga yo'l qo'yilmaydi.

19-modda

Har bir inson e'tiqod erkinligi va uni erkin ifoda qilish huquqiga ega; bu huquq hech bir to'siqsiz o'z e'tiqodiga amal qilish erkinligini hamda axborot va g'oyalarni har qanday vosita bilan, davlat chegaralaridan qat'i nazar, izlash, olish va tarqatish erkinligini o'z ichiga oladi.

E'tiqod va uni erkin ifoda qilish erkinligi, ya'ni o'z fikrlari, g'oyalari va mulohazalarini oshkora ifodalash va ularni qonuniy yo'l bilan tarqatish imkoniyati demokratik tuzumning zarur unsuri va individlar hamda ularning birlashmalari uchun siyosiy plyuralizm (fikrlar xilma xilligi) va madaniy rang-baranglikni ta'minlashning zarur sharti hisoblanadi.

Fikr, so'z va e'tiqod erkinligi har bir individning fikr yuritish, boshqa shaxslarning mulohazalarini qamrab olgan turli axborotlarni olish va o'z mulohazalarini qonun ruxsat bergan shakl va chegaralarda tarqatish imkoniyatini nazarda tutadi.

Totalitarizm tanlash erkinligi va uning ayrim ko'rinishi bo'lgan matbuot erkinligiga mantiqan ziddir, zero u "o'zimizniki – begona" dixotomiyasiga asoslanadi va "bosh chiziq"dan og'ishadigan har qanday fikrlar bo'lishiga imkon bermaydi. Fransuz ma'rifatparvar ideologi Vol'ter yozgan edi: "... insonlarda o'z mulohazalarini ifodalash erkinligisiz hech bir erkinlik yo'q"

Shu vaqtning o'zida qayd etib o'tish kerakki, ham milliy, ham xalqaro miqyosda yuqorida keltirilgan erkinliklarning ta'rifi yuzasidan ham, ularni insonning huquq va erkinliklarining qaysi toifasiga kiritish borasida ham turli xil yondashuvlar mavjud.

Fuqarolik va siyosiy huquqlar xalqaro pakti (19-modda)da mazkur huquq aniqlashtiriladi: "Har bir inson to'siqlarsiz o'z fikrida turish huquqiga ega.

2. Har bir inson o'z fikrini erkin ifodalash huquqiga ega; bu huquq davlat chegaralaridan mustaqil holda, og'zaki, yozma yoki matbuotda; shuningdek ifodalashning badiiy shakli orqali yoki o'z ixtiyoriga ko'ra boshqa usullarda har qanday turdagi axborot va g'oyalarni izlash, olish va tarqatish erkinligini o'z ichiga oladi"

So'z erkinligi ko'rsatilgan aktlarda bevosita belgilab qo'yilmagan, biroq uning mavjudligi nazarda tutilgan. Bu kabi yondashuvlar 1975-yildagi Yevropada Xavfsizlik va hamkorlik kengashi yakuniy hujjatida va Yangi Yevropa uchun Parij xartiyasida aks ettirilgan.

Fikr, so'z va e'tiqod erkinligi, yangi kommunikasiya vositalari rivoji tufayli ommaviy axborot vositalari erkinligiga o'zgarib, boshqa bir qator xalqaro-huquqiy hujjatlarda mustahkamlandi. Misol tariqasida YUNESKOning Vindukda (Namibiya, 1991-y.), Almatida (Qozog'iston, 1992-y.), Sant'yago-de-Chilida (1994-y.), Sanoda (Yaman, 1996-y.)gi mintaqaviy seminarlarida qabul qilingan va YUNESKO Bosh konferensiyasi 28-sessiyasining 28 S/4.6 rezolyutsiyasida tasdiqlangan

Mustaqil va plyuralistik matbuot rivojini qo'llab-quvvatlash haqidagi Deklaratsiyalar seriyasi va boshqalarni keltirish mumkin.

Fuqarolarning siyosiy huquq va erkinliklari orasida **so'z erkinligi** asosiy o'rin egallaydi va insonning eng muhim konstitutsiyaviy huquqlaridan biri sanaladi. Bu fundamental erkinlikning ustuvorligi g'oyasini himoya qila turib, fransuz ma'rifatparvar ideologi Vol'ter yozgan edi: "...insonlarda o'z fikrlarini ifodalash erkinligisiz hech qanday erkinlik yo'q"

G'oyaviy plyuralizm, ya'ni siyosiy, iqtisodiy, ma'naviy va boshqa g'oya va qadriyatlarning boyligi va rang-barangligi jamiyatning siyosiy hayotiga fundamental demokratik tamoyillarni joriy qilishga ko'maklashadi. Binobarin, fikr va so'z erkinligi, fuqarolik ahamiyatiga ega muammolar yuzasidan oshkora munozara erkinligi kabi, demokratik tolerant jamiyatning namoyon bo'lish shaklidir.

Hamonki jamiyat hech qachon intellektual yaxlitlikni yarata olmas va o'zini qandaydir yagona g'oyada ifodalay olmas ekan, uning har bir a'zosi o'z individualligini, u yoki bu muammo bo'yicha o'z tasavvurini saqlab qoladi. Fikr va so'z erkinligi mazmun-mohiyatiga ko'ra inson individualligi namoyon bo'lishining, har bir shaxsning o'ziga xosligi va noyobligi tasdiqlanishining kuchli omili hisoblanadi.

Insonga uni o'z mavqeini ifodalash yoki undan voz kechishga majburlash maqsadida qanday bo'lmasin kuch ishlatib ta'sir ko'rsatishga yo'l qo'yilmaydi.

Binobarin, **so'z erkinligining** muhim yuridik oqibatlari sirasiga fuqaroni u ifodalagan fikrlar tufayli, agar amaldagi qonunchilikka rioya etilgan bo'lsa, har qanday ta'qib etishning noqonuniyligi, shuningdek, fuqarolar ifodalagan fikrlar asosida ularni kamsitishga yo'l qo'yilmasligi kiradi.

So'z erkinligi o'zaro uzviy aloqada va ajralmas yaxlitlikdagi tuzulmaviy unsurlarni o'z ichiga oladi. Birinchidan, bu har bir insonning o'z fikrlari, g'oyalari va mulohazalarini oshkora ifodalash va ularni xohlagan qonuniy yo'l bilan tarqatish erkinligidir. Ikkinchidan, bu matbuot va boshqa ommaviy axborot vositalarining senzurdan xoli bo'lish, fikrlarni ifodalash erkinligini moddiylashtirish imkonini beruvchi axborot organlarini tashkil etish va qo'llash huquqi kabi erkinligi. Uchinchidan, bu ijtimoiy qiziqish uyg'otuvchi yoki fuqarolar huquqlariga ta'sir qiluvchi axborot olish, ya'ni axborot manbalariga bog'lanish erkinligi huquqi.

Senzura (rasmiy hokimiyat tomonidan bosma, audiovizual va boshqa mahsulotning mazmuni, nashri va tarqatilishi ustidan doimiy nazorati)

ning taqiqlanishi soʻz erkinligining eng taʼsirchan kafolati hisoblanadi. Demokratik davlatlar axborot erkinligini eʼlon qilib, senzurani taqiqlaydilar.

Zamonaviy konstitutsiyalarning koʻpchiligida senzura taqiqlangan boʻlsa-da, bu hol fikrni ifodalash erkinligi cheksiz va mutlaqdir, degan maʼnoni anglatmaydi. Qoidaga koʻra, soʻz erkinligidan qonuniy davlat hokimiyatini kuch bilan agʻdarishga chorlashda, davlat va qonun bilan himoyalangan boshqa sirlarni oshkor qilishda, jinoyatga gij-gijlashda, milliy, irqiy, diniy va boshqa nizolarni qoʻzgʻashda, boshqa shaxslarni tahqirlash va tuhmat qilish, jamiyat maʼnaviyati va odob-axloqiga tajovuzda foydalanish taqiqlanadi. Boshqacha qilib aytganda, fikrlash erkinligini qoʻllash alohida majburiyat va javobgarlik yuklaydi hamda koʻrilayotgan huquqni suiisteʼmol qilishga imkon bermaydigan muayyan qonuniy cheklovlar bilan birga keladi.

Oʻzbekiston tomonidan “Oʻzbekiston Respublikasi bir tomondan, Yevropa hamjamiyatlari va aʼzo-davlatlari ikkinchi tomondan oʻzaro sherikligini taʼsis etuvchi sheriklik va hamkorlik toʻgʻrisida” Bitim (SHHB) ning imzolanishi soʻz, fikr va eʼtiqod hamda, shunga muvofiq, ommaviy axborot vositalari erkinligini himoya qilish tizimi respublikamiz uchun ham dolzarb boʻlib bormoqda. Tegishli Umumyevropa hujjatlari va ularning amalda qoʻllanilishi ommaviy axborot erkinligiga bevosita taʼsir koʻrsatmoqda. Bu avvalo Inson huquq va erkinliklarini himoya qilish toʻgʻrisidagi Yevropa konvensiyasiga taalluqlidir. Uning 10-moddasida shunday deyiladi:

“1. Har bir inson oʻz fikrini erkin ifodalash huquqiga ega. Bu huquq oʻz fikrida turish, axborot va gʻoyalarni davlat organlari aralashuvisiz va davlat chegaralaridan mustaqil ravishda olish va tarqatish erkinligini oʻz ichiga oladi. Bu modda davlatlarga radioeshittirishlar, televizion yoki kinematografiya korxonalarini litsenziyalashni joriy qilishga toʻsqinlik qilmaydi.

2. Majburiyat va javobgarlik yuklovchi ushbu erkinliklarning amalga oshirilishi davlat xavfsizligi, hududiy yaxlitligi yoki jamoatchilik tinchligi yoʻlida, tartibsizlik va jinoyatchilikni oldini olish, salomatlik va odob-axloqni himoya qilish, boshqa shaxslarning obroʻsi va huquqlarini himoya qilish, maxfiy olingan axborotning oshkor etilishining oldini olish yoki odil sudlovning nufuzi va xolisligini taʼminlash maqsadlarida qonunda belgilangan va demokratik jamiyatda zarur boʻlgan rasmiyatchiliklar, shartlar, cheklovlar yoki jarima sanksiyalari bilan birikib keladi”

Qayd etish lozimki, ushbu me'yorni qo'llash bo'yicha nizolarni hal etish Yevropa komissiyasi va Inson huquqlari bo'yicha Yevropa sudining tajribasida anchagina shakllanib bo'ldi. Jumladan, Komissiya va Sud, o'z fikrini ifodalash nafaqat davlat tomonidan ijobiy qabul qilinadigan yoki umuman e'tibor berilmaydigan axborot va g'oyalargagina emas, balki hokimiyat va aholining ba'zi qismlarini lol qoldiradigan va xavotir uyg'otadigan axborot va g'oyalarga ham joriy etilishini belgilab, "o'z fikrini ifodalash" tushunchasiga kengaytirilgan sharh berdilar. Ayni vaqtda Komissiya OAVdagi tijorat xususiyatiga ega "ifodalash" (reklama), 10-modda amal doirasiga tushsa-da, bevosita "siyosiy" chiqishlarga qaraganda kamroq himoyadan foydalanadilar.

Fikr, so'z va e'tiqod erkinligi huquqini milliy miqyosda ta'minlash muammosiga keladigan bo'lsak, ko'rsatilgan erkinliklar birinchilardan bo'lib qonunan mustahkamlab qo'yildi. Masalan, 1789-yildagi Fransiya inson va fuqaro huquqlari deklaratsiyasi 11-moddasida begilab qo'yilgan: "Fikr va mulohazalarni erkin ifodalash insonning eng qimmatli huquqlaridan biridir: shu sababli har bir fuqaro fikrini erkin ifodalashi, yozishi va nashr etishi mumkin va bunda qonunda ko'rsatilgan holatlarda ushbu erkinlikni suiiste'mol qilgani uchun javobgar bo'ladi"

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi (29-modda 1-bandda) fikr, so'z va e'tiqod erkinligi mufassal yoritilgan: "Har kim fikrlash, so'z va e'tiqod erkinligi huquqiga ega. Har kim o'zi istagan axborotni izlash, olish va uni tarqatish huquqiga ega, amaldagi konstitutsiyaviy tuzumga qarshi qaratilgan axborot va qonun bilan belgilangan boshqa cheklashlar bundan mustasnodir"

Qolaversa, O'zbekiston Konstitutsiyasida (67-modda) "Ommaviy axborot vositalari erkindir va qonunga muvofiq ishlaydi. Ular axborotning to'g'riligi uchun belgilangan tartibda javobgardirlar. Senzuraga yo'l qo'yilmaydi", deb mustahkamlab qo'yilgan. Ushbu qoida O'zbekiston Respublikasi "Ommaviy axborot vositalari to'g'risida"gi Qonunining (1997-yil, 26-dekabr) 4-moddasida bu masala yanada aniqlashtiriladi: "O'zbekiston Respublikasida ommaviy axborot vositalari senzurasiga yo'l qo'yilmaydi. Hech kim chop etilayotgan xabarlar yoki materiallarni oldindan kelishib olishni, shuningdek, matnni o'zgartirishni yoki ularni nashrdan (efirdan) olib tashlashni talab etish huquqiga ega emas"

Me'yor juda lo'nda bo'lsa-da, Konstitutsiyaning umumiy matnida boshqa me'yorlar mazmuni bilan uyg'unlashib, zarur aniqlik va tizimlilikni yuzaga keltiradi.

Ommaviy axborot vositalari mazmunini boyitishga Konstitutsiyaning 29-moddasidagi boshqa me'yorlar ham xizmat qiladi. Chunonchi, Konstitutsiya har kimga fikr va so'z erkinligini, axborotni xohlagan qonuniy yo'l bilan erkin izlash, olish, berish, ishlab chiqarish va tarqatish huquqini, insonni o'z fikr va e'tiqodini ifodalashga yoki ulardan voz kechishga majburlashga yo'l qo'yilmasligini kafolatlaydi. Bu bilan, birinchidan, ushbu erkinliklarning nisbatan o'ziga xosligi, ikkinchidan, ularning chuqur o'zaro aloqasi, uchinchidan, masalaning mohiyati yuridik jihatdan bir-birini to'ldirishi ta'kidlanadi. Chunonchi, ommaviy axborot sohasida ularga OAV to'g'risidagi Qonunning 47-moddasi 1-bandida belgilangan jurnalistning axborotni izlash, so'rash, olish va tarqatish, o'z shaxsiy mulohazalari va baholarini uning imzosi ostida tarqatilishi mo'ljallangan xabar va materiallarda ifodalash bilan o'z imzosi ostida o'zining e'tiqodiga zid keluvchi xabar yoki materialni tayyorlashdan voz kechish huquqi birga keladi.

Ommaviy axborot erkinliklarining konstitutsiyaviy kafolatlari orasida Konstitutsiyaning 8, 34 va 35-moddalarida belgilangan iqtisodiy faoliyat erkinligi va xususiy mulk huquqini, shuningdek, hech qanday mafkura majburiy yoki davlat mafkurasi sifatida o'rnatilishi mumkin emasligini ko'zda tutuvchi g'oyaviy xilma-xillik tamoyilini (13-modda) keltirish mumkin. Bu bilan axborot plyuralizmini, jumladan, ommaviy axborot vositalarini yig'ish va monopoliyaashtirish orqali tugatishga urinishlarga qarshi turish uchun muayyan himoya mexanizmlari shakllanadi.

Ommaviy axborot erkinligining konstitutsiyaviy kafolatlari sifatida mansabdor shaxslarning insonlar hayoti va salomatligiga tahdid soluvchi fakt va holatlarni yashirish yuzasidan javobgarligini o'rnatuvchi, har kimning atrof-muhit holati haqidagi ishonchli axborot olish, ijod erkinligi, intellektual mulkni himoya qilish, sud ishining oshkoraligi va boshqa huquqlarini mustahkamlovchi me'yorlarni ham ko'rsatib o'tish mumkin. Jurnalist va tahririyatning axborot va uning manbasi maxfiylikini ta'minlash yuzasidan javobgarligi belgilangan OAV to'g'risidagi Qonunda shaxs huquqlari himoyasi ko'zda tutilgan.

So'z va o'z fikrini ifodalash erkinligidan har kimning axborotni xohlagan qonuniy yo'l bilan izlash, olish, berish, ishlab chiqarish va tarqatish huquqi kelib chiqadi. Konstitutsiyada kafolatlangan axborot erkinligi huquqi turli usullar orqali: shaxslararo muloqot orqali, ommaviy axborot vositalari (OAV), moddiy axborot tashuvchilar, o'quv muassasalari, yig'ilish va mitinglar, fuqarolar yig'ini, turli klublar,

ma'ruzaxonalar, ko'rgazmali qurollar (plakatlar va b.) va boshqa o'zi istagan usullar orqali amalga oshirilishi mumkin. Ushbu huquqlar, agar ularni qo'llashda qonunchilikda ko'zda tutilgan qoidalarga amal qilingan bo'lsa, masalan: OAV, miting, namoyish, yurish, va piket o'tkazishda, qonuniy sanaladi.

Axborot erkinligi, avvalambor, har kimning turli ma'lumotlarni izlash va olish huquqida namoyon bo'ladi.

20-modda

1. Har bir inson tinch yig'inlar o'tkazish va uyushmalar tuzish huquqiga ega.

2. Hech kim biror bir uyushmaga kirishga majbur qilinishi mumkin emas.

Hozirgi zamon konstitutsiyalarining ko'pchiligida fuqarolarning siyosiy faolligi shakllaridan bo'lgan **yig'ilishlar, mitinglar, namoyishlar va boshqalarni o'tkazish erkinligi** belgilab qo'yilgan. Ushbu demokratik institutlar jamiyat va davlat hayotining istalgan masalasi bo'yicha jamoaviy yoki individual fikrning oshkora ifoda shakli hisoblanadi. Mazkur siyosiy erkinliklardan fuqarolar ham o'z shaxsiy rivojlanishi, o'z fikrini ifodalash va o'zini namoyon qilish yo'lida, ham ijtimoiy-siyosiy hayotda faol ishtiroki yo'lida foydalanadilar.

Ko'rilayotgan erkinliklarning huquqiy mazmuni uch turdagi qonuniy huquqlarning mavjudligini qamrab oladi: shaxsiy ijobiy harakatlar (oshkora tadbirlar tashkil etish va ularda qatnashish) huquqi; talab qilish (ommaviy oshkora tadbirlarni o'tkazishning zaruriy moddiy omili sifatida jamoat binolarini, ko'cha va boshqalarni taqdim etish) huquqi; yuridik da'vo qilish (zarur hollarda davlat tomonidan majburlash yoki davlat tomonidan himoya qilinish ko'magidan foydalanishga bo'lgan yuridik imkoniyat) huquqi. Ko'rinib turibdiki, ushbu huquq umumhuquqiy tamoyil – qonunda taqiqlanmagan barcha narsa mumkindir degan tamoyil shaklida yuzaga chiqadi (tabiiyki, ijtimoiy munosabatlarning ushbu sohasiga qo'llangan holda).

Yig'ilish, miting, namoyishlar erkinligini amalga oshirish uchun, qoidaga ko'ra, oshkora tadbirlarning oldindan xabar beriladigan tartibi joriy etiladi. Bunda tashkilotchilar davlat hokimiyati organlarini o'tkaziladigan tadbir haqida xabardor qilib qo'yadilar. Bunda hokimiyat faqat tadbirning maqsadi va o'tkazilish shartlari jamoat tartibiga tahdid uyg'otsagina oshkora tadbirga to'sqinlik qilishga haqlidirlar.

Shaxsning asosiy huquq va erkinliklarini jamiyat manfaatlarini va boshqa shaxslarning huquq va erkinliklarini ta'minlash nuqtai nazaridan cheklash imkoniyati suiiste'mol bo'lmasa-da, himoya qilinayotgan jamiyat manfaatlariga mos kelmaydigan cheklov choralari amalga oshirish xavfini tug'diradi. Shu sababli qonunda oshkora tadbir noqonuniy deb topilishi mumkin bo'lgan sabablarning qat'iy ro'yxati mustahkamlab qo'yilgan.

Oshkora tadbirlarning maqsadi Konstitutsiyaga va amaldagi qonunchilikka zid bo'lmasligi kerak. Qonunchilikka muvofiq, quyidagi hollarda oshkora tadbirlar hokimiyat organlari vakillari talabiga ko'ra taqiqlanishi mumkin: 1) tadbirni o'tkazish bo'yicha ariza berilmagan bo'lsa; 2) uni taqiqlash haqida qaror qabul qilingan bo'lsa; 3) uni o'tkazish tartibi buzilgan bo'lsa; 4) fuqarolar hayoti va salomatligiga xavf uyg'otsa; 5) jamoat tartibi buzilgan bo'lsa. Ko'pgina davlatlarda oshkora tadbirlarni o'tkazish "jamoat yo'li"da, ya'ni shahar transporti qatnaydigan joylarda taqiqlanadi. Rossiya qonunchiligida oshkora tadbirlarni tashkil etish va o'tkazishning belgilangan tartibi buzilishi bo'yicha jinoiy va ma'muriy javobgarliklar belgilab qo'yilgan.

Jamoat tashkilotlariga birlashish huquqi boshqa siyosiy huquq va erkinliklar qatori, individning ijtimoiy-siyosiy hayotda qatnashishini ta'minlaydi. Bu huquq, shuningdek, ittifoqlar va uyushmalar huquqi nomi bilan mashhur bo'lib, qonun talablari doirasida har qanday ittifoq tuzish huquqini anglatadi. Jamoat tashkilotlari umumiy maqsadga erishish uchun manfaatlar umumiyligi asosida birlashgan fuqarolarning erkin xohish bildirishlari natijasida tashkil etiladi. Odatda, bu huquq jamoat tashkilotlari faoliyati erkinligi va ularning teng huquqliligi tamoyilini nazarda tutadi. Umumiy qoidaga ko'ra, qonun ro'yxatdan o'tishi lozim bo'lgan birlashmalar turi, ushbu ro'yxatdan o'tish tartibi, shuningdek, jamoat tashkilotlari ustidan nazoratning shakllarini belgilaydi.

Fuqarolar birlashmalari ularning manfaatlarini qondirish va himoya qilishga yo'naltirilgandir. Jamoat birlashmalari tashkil topishi va faoliyatining asosiy tamoyillari, odatda, konstitutsiyalarda mustahkamlab qo'yiladi. Masalan, O'zbekiston Konstitutsiyasi ularning sirasiga ixtiyorilik, tashkil etilish va faoliyat erkinligini kiritadi. Qonunchilik jamoat birlashmalarini jamoat tashkiloti, ijtimoiy harakat, jamoat fondi, jamoat muassasasi, ijtimoiy tashabbus organi kabi tashkiliy-huquqiy shakllarda tashkil etish huquqini mustahkamlaydi. Fuqarolarning siyosiy faolligini yo'naltiruvchi asosiy jabhalar sifatida siyosiy partiyalar, kasaba

uyushmalari, xotin-qizlar va yoshlar tashkilotlari, ijodiy, tadbirkorlik va boshqa ittifoqlar yuzaga chiqadi.

Birlashish huquqi faqat qonunda aniq ko'rsatilgan holatlarda cheklanadi. Konstitutsiyalar va qonunlarda ushbu huquqni cheklashning eng ko'p uchraydigan ko'rinishi yashirin jamiyatlar, harbiylashtirilgan tashkilotlar va jamiyatga qarshi maqsadlardagi birlashmalar tuzishni taqiqlashdir.

21-modda

1. Har bir inson bevosita yoki erkin saylangan vakillar vositasi orqali o'z mamlakatini boshqarishda qatnashish huquqiga ega.

2. Har bir inson o'z mamlakatida davlat xizmatiga kirishda teng huquqqa ega.

3. Xalq irodasi hukumat hokimiyatining asosi bo'lishi lozim; bu iroda davriy va soxtalashtirilmagan, yalpi va teng saylov huquqidan yashirin ovoz berish yo'li bilan yoki ovoz berish erkinligini ta'minlaydigan boshqa teng qiymatli shakllar vositasida o'tkaziladigan saylovlarda o'z aksini topishi lozim.

Fuqarolarning davlat ishlarini boshqarishda qatnashish huquqi fuqarolarning davlat qarorlarini qabul qilish va amalga oshirish sohasiga jalb qilinishini yuridik jihatdan ta'minlaydi. Bu huquq, ma'rifatparvarlik an'analarning klassik konsepsiyalari mantig'iga ko'ra insonlarning tabiiy tengligi va tug'ma ozodligi bilan izohlanadi. U jamiyatning fuqarolarni faol siyosiy faoliyatga jalb qiluvchi butun siyosiy tizimining demokratik tashkil etilishi bilan kafolatlanadi.

Fuqarolarning davlat ishlarini boshqarishda qatnashish huquqi siyosiy huquq bo'lib, unga haqli ravishda, qonun hamda oshkora hokimiyat tomonidan ta'minlangan, davlatning ijtimoiy-siyosiy hayotida va davlat hokimiyatini amalga oshirishda (individual va jamoaviy tarzda) ishtirok etish imkoniyati sifatida qaralgan. Bu bilan fuqaroning davlatdan chetlashishining oldi olinadi. Fuqarolarning siyosiy huquqlari boshqa barcha huquqlari amal qilishining o'zgarmas sharti sanaladi, zero ular demokratiya tizimining tabiiy asosini tashkil etadi va hokimiyat o'zini cheklashi va asoslanishi lozim bo'lgan qadriyatlar sifatida yuzaga chiqadi.

Umumjahon deklaratsiyasida bayon etilgan fuqarolik va siyosiy huquqlar 1966 yilda qabul qilingan va 1976 yilda kuchga kirgan Fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risidagi xalqaro paktda aniqroq va ravshanroq keltirilgan. Ushbu xalqaro pakt a'zolari 129 ta davlat bo'lib, bu eng ko'p

a'zoga ega, bajarilishi majburiy bo'lgan va erkin saylovlar huquqini kafolatlovchi xalqaro vositaga aylantiradi. Ushbu hujjatning 25-moddasida har bir fuqaroning "umumiy va barchaga barobar saylov huquqi asosida, yashirin ovoz berish yo'li bilan o'tkaziladigan hamda saylovchilarning erkin xohish bildirishini ta'minlovchi haqiqiy davriy saylovlarda saylash va saylanish" huquqi e'lon qilinadi.

Fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risidagi xalqaro pakt ko'ptomonlama xalqaro shartnoma sifatida qabul qilingan va Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasidan farqli o'laroq, a'zo-davlatlar uchun majburiy xarakterga ega hujjat sifatida qabul qilingan. Saylov standartlari bo'yicha asosiy universal xalqaro manbalar sirasiga Ayollarning siyosiy huquqlari to'g'risidagi konvensiya (1952-yil 20-dekabr), Ayollarga nisbatan kamsitishning barcha shakllarini tugatish haqidagi konvensiya (1979-yil 18-dekabr), Irqiy kamsitishning har qanday ko'rinishini tugatish haqidagi xalqaro konvensiya (1965-yil 25-dekabr)larni kiritish mumkin. BMT doirasida ishlab chiqilgan ushbu xalqaro-huquqiy hujjatlarda saylovlarda ishtirok etishda ayollar huquqlariga nisbatan hamda har qanday irqiy kamsitishlarga yo'l qo'yilmasligiga e'tibor berilgan, irqiy kamsitish deganda esa: "siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy yoki jamiyat hayotining boshqa sohalarida inson huquqlari va asosiy erkinliklarini tan olish, qo'llash va amalga oshirishni yo'q qilish yoki kamaytirishni maqsad qilgan yoki ularning oqibati bo'lgan, terisining rangi, nasabi, milliy yoki etnik kelib chiqishi bo'yicha har qanday ajratish" tushunilgan (Mazkur konvensiyaning 1-moddasi 1-qismi). Qolaversa, davlatlar erkaklar va ayollar o'rtasida amaliy tenglik o'rnatilishini tezlatishga qaratilgan maxsus choralar ko'rishni zimmalariga oldilar. Ayollar siyosiy huquqlari haqidagi konvensiyaning 1 va 2-moddalarida shunday deyiladi: "Ayollar milliy qonunchilikda ko'rsatilgan, oshkora saylovlar talab etiladigan har qanday muassasalarga bo'ladigan barcha saylovlarda erkaklar bilan teng shartlarda, hech qanday kamsitishsiz ovoz berish huquqiga egadirlar. Ayollar milliy qonunchilikda ko'rsatilgan, oshkora saylovlarni talab qiluvchi har qanday muassasalarga barcha saylovlarda erkaklar bilan barobar shartlarda, hech qanday kamsitilishsiz saylanish huquqiga egadirlar" Ayollarga nisbatan kamsitishning har qanday shaklini tugatish haqidagi konvensiyaning 7-moddasi quyidagilarni belgilaydi: "A'zo-davlatlar ayollarga nisbatan mamlakatning siyosiy va ijtimoiy hayotidagi kamstishlarni tugatish bo'yicha tegishli choralarni ko'radilar va, jumladan, ayollarga erkaklar bilan barobar huquqlar beriladi:

a) barcha saylovlar va oshkora referendumlarda ovoz berish va oshkora saylanadigan barcha organlarga saylanish;

b) hukumat siyosatini shakllantirish va amalga oshirishda qatnashish va davlat mansablarini egallash, shuningdek, davlat boshqaruvining barcha darajalarida barcha davlat funksiyalarini amalga oshirish”

Irqiy kamsitishlarning har qanday ko‘rinishlarini tugatish haqidagi xalqaro konvensiyaning 5-moddasida mustahkamlanganki, “A‘zo-davlatlar irqiy kamsitishni uning barcha ko‘rinishlarida taqiqlash va tugatish hamda har bir kishining qonun oldida irqi, terisining rangi, milliy yoki etnik kelib chiqishidan qat’i nazar tengligini, xususan, quyidagi huquqlarni amalga oshirishga nisbatan: siyosiy huquqlar, jumladan, saylovlarda qatnashish – saylash va o‘z nomzodini qo‘yish – umumiy va barobar saylash huquqi, mamlakatni boshqarishda qatnashish huquqi asosida..., ta‘minlash majburiyatini zimmalariga oladilar. Siyosiy huquq va erkinliklar, davlat tabiatini aks ettirish, hokimiyatni nazorat qilish vositalari, demokratik tartibni baholash mezoni omili sifatida, zamonaviy jamiyatning ajralmas belgilaridir. Yuridik adabiyotlarda ularni: 1) davlat va uning organlarining tashkil etilishi va faoliyat yuritishida vakillik va bevosita demokratiyaning turli shakllari orqali (saylov huquqlari, petisiya huquqi) qatnashish qonuniy huquqi; 2) jamiyat hayotida faol qonuniy qatnashish (so‘z va matbuot erkinligi, yig‘ilish va manifestatsiyalar erkinligi, birlashmalar huquqi) huquqi.

Shaxsiy, siyosiy huquq va erkinliklardan farqli o‘laroq, ular insoning muxtorligini ta‘minlashga emas, balki uning siyosiy jarayonlarning faol ishtirokchisi sifatida namoyon bo‘lishini ta‘minlashga qaratilgan. Bu toifa huquqlarning qimmati shundaki, ular fuqaro, jamiyat va davlat o‘rtasidagi aloqalarning mustahkamlanishiga sharoit yaratadi. Siyosiy huquq, mazmun-mohiyatiga ko‘ra, shaxsiy erkinlikning qirralaridan biridir: inson, ongli mavjudot, hamda siyosiy idrok va siyosiy iroda sohibi sifatida, siyosiy jarayonlarning mustaqil va erkin ishtirokchisi bo‘lib ish ko‘rish huquqiga ega.

Shuni alohida ta‘kidlab o‘tish kerakki, siyosiy huquqlar, odatda, fuqarolargagina joriy qilinadi, ya‘ni siyosiy huquqlarga egalik muayyan davlat fuqarosi bo‘lish bilan bog‘liq. Inson huquqlaridan farqli o‘laroq, fuqaro huquqlari individning davlat bilan munosabatlari (oshkora manfaatlar) sohasini qamrab oladi.

Dastlab burjuaziya konstitutsionalizmi doirasida e‘lon qilingan siyosiy huquq va erkinliklar kelgusida kengaytirilgan konstitutsiyaviy-huquqiy mavqega ega bo‘ldi va avval milliy, keyinroq xalqaro huquqning

eng muhim instituti sifatida qaror topdi. Inson huquqlari haqidagi ko'plab universal va mintaqaviy ahamiyatdagi zamonaviy xalqaro-huquqiy hujjatlar, insonning ajralmas huquq va erkinliklari hajmini belgilab, so'z va e'tiqod erkinligi, tinch yig'ilish va uyushmalar erkinligi, davlat boshqaruvida qatnashish huquqi kabilarni qamrab oladi.

Shuni ta'kidlash muhimki, inson va fuqarolarning siyosiy huquq va erkinliklarini hayotga joriy etish milliy huquq me'yorlari yordamida va vositasidagina amalga oshirilishi mumkin. Demokratik jamiyat mavjudligini siyosiy plyuralizm va uning qadriyatlari shakllanishisiz, jamiyat ongi va xatti-harakatlarining xilma xilligisiz, fuqarolarning ijtimoiy-siyosiy hayotda faol ishtirokisiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Shu sababli demokratik davlatda siyosiy huquq va erkinliklar ommaviy jamiyat idroki tomonidan ikkinchi darajali narsa sifatida emas, balki asosiy insonparvarlik qadriyati sifatida qabul qilinadi.

Fuqarolarning davlat ishlarini boshqarishda bevosita ishtiroki saylovlarda, referendumlarda o'z xohishlarini ifodalashlari orqali, shuningdek, qonun chiqaruvchi, ijroiya yoki sud hokimiyati ishida shaxsan ishtiroki orqali amalga oshadi. Ushbu o'zak tamoyil siyosiy huquqning kafolatlari va shu vaqtning o'zida aniq tatbiq etish shakllari sifatida qator boshqa huquqlar: saylash va saylanish huquqi, referendumda qatnashish huquqi, mansabga erishishda tenglik huquqi, shuningdek, odil sudlovni amalga oshirishda qatnashish huquqi xizmat qilishi tasodif emas. Bundan shunday haqli xulosa qilish mumkinki, davlat va jamiyat ishlarini boshqarishda qatnashish huquqi davlat va uning fuqarosi o'rtasidagi munosabatning asosiy tamoyili bo'libgina qolmay, fuqaroning asosiy huquqlaridan biri hamdir.

Ko'pchilik demokratik konstitutsiyalarda fuqarolarning davlat ishlarini boshqarishda qatnashish huquqi yuqorida ko'rsatilgan huquqlarning yalpi ko'rinishida mustahkamlanadi.

Saylov huquqini maksimal darajada kafolatlashga intilib, zamonaviy demokratik davlatlar avvallari mavjud bo'lgan (mulkiy, turg'unlik, jinsga oid va b.) cheklovlardan voz kechdilar. Ma'lumki, sho'ro jamiyatida totalitar tuzum sharoitida saylov huquqlarini sinfiy va milliy belgilarga ko'ra cheklash holatlari mavjud edi. Siyosiy huquqlardan foydalanishga qat'iy sinfiy uslubda yondashish bevosita avtoritar hokimiyatni jamiyatning davlat ishlarini boshqarish sohasida siyosiy jihatdan qatnashish tajribasiga ega a'zolarining turli nazoratlaridan ozod bo'lishga intilishidan kelib chiqardi.

Saylov huquqi unsurlari sifatida quyidagilar yuzaga chiqadi: 1) saylash huquqi (saylov va referendumlarda erkin va mas'uliyatli o'z xohishini ifodalash); 2) davlat hokimiyati organlariga saylanish huquqi; 3) saylovchilar tomonidan ishonchlarini oqlamagan saylangan shaxslarni chaqirib olish huquqi. Bunga qo'shimcha qilib aytish kerakki, hozirgi zamon konstitutsiyalari va saylovga oid qonunlar saylash va saylanish huquqiga ega bo'lish uchun zarur minimal talablarni belgilaydi.

22-modda

Har bir inson jamiyat a'zosi sifatida milliy kuch-harakatlar hamda xalqaro hamkorlik vositasida va har bir davlatning tuzilishi, shuningdek, resurslariga muvofiq ijtimoiy ta'minotga va o'zining qadr-qimmatini saqlash, shaxsining erkin rivojlanishi uchun zarur bo'lgan iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy sohalaridagi huquqini amalga oshirishga haqli.

Individning ijtimoiy mavqeini mustahkamlash va asosiy huquq hamda erkinliklarini tatbiq qilish kafolati **insonning ijtimoiy ta'minot huquqidir**. Ijtimoiy ta'minot huquqi "Ijtimoiy, iqtisodiy, va madaniy huquqlar to'g'risida"gi xalqaro paktning 9-moddasida mustahkamlangan bo'lib, asosan jamiyat hisobidan moddiy yordam va turli ko'rinishdagi bepul xizmatlarga muhtojlarni ta'minlashni nazarda tutadi. Ushbu huquqlarni amalga oshirish Paktda ko'rsatilgan boshqa huquqlar, xususan, munosib hayot darajasi, oila, onalar va bolalarni himoya qilish va yordam berish, jismoniy va ruhiy salomatlikning eng yuqori erishiladigan darajasi huquqlarini tatbiq qilishning zarur sharti hisoblanadi.

Paktning 9-moddasida sxematik shaklda bayon etilgan ijtimoiy ta'minot huquqi, ijtimoiy sug'urtani ham qamrab olgan holda, XMT tomonidan qabul qilingan qator xalqaro konvensiyalar va tavsiyalarning predmeti sanaladi.

Bu xalqaro hujjatlar tibbiy xizmat ko'rsatish, kasallik, homiladorlik va tug'ruq, nogironlik va qarilik, boquvchisini yo'qotish, ishlab chiqarish jarohatlarini olish, ishsizlik bo'yicha pulli nafaqalar, oilaviy nafaqalar masalalarini qamrab oladi. Ushbu barcha nafaqalarni qamrab olgan, keng ko'lamli xarakterga ega hujjatlarga 1952 yildagi Ijtimoiy ta'minotning minimal me'yorlari to'g'risidagi 102-konvensiyasi va 1962-yildagi Ijtimoiy ta'minotdagi teng huquqlilik to'g'risidagi 118-konvensiyalar kiradi. 102-konvensiya uni ratifikatsiya qilgan davlatlar unda qayd etilgan

to'qqizta nafaqa turidan kamida uchtasini ta'minlashlari lozimligini ko'zda tutadi.

118-konvensiya chet elliklar va fuqaroligi bo'lmagan shaxslar ham to'liq hajmda ijtimoiy ta'minot bilan ta'minlanish huquqini berilishini ko'zda tutadi. Ammo Konvensiyani ratifikatsiya qilayotganda davlatlar uning bir yoki bir nechta ijtimoiy ta'minot turlariga joriy qilinishini ko'rsatib o'tishlari mumkin.

Dunyoning ko'pchilik davlatlari ijtimoiy ta'minot sohasidagi Konstitutsiyaviy qonunchiligi umumiy xarakterga ega va ular qoidaga ko'ra ijtimoiy ta'minotga bo'lgan huquqning alohida tarkibiy qismlarini sanab o'tmaydi. Turli nafaqa va pensiyalarning hajmlari turli mamlakatlarda xilma-xildir.

Ijtimoiy huquqlar insonga munosib turmush tarzi va ijtimoiy himoyalanganlikni ta'minlaydi. Eng asosiylaridan biri ijtimoiy ta'minot huquqi bo'lib, u ijtimoiy sug'urtalash, pensiya ta'minoti va tibbiy xizmat ko'rsatishni qamrab oladi.

Ijtimoiy ta'minot huquqi (yoshiga ko'ra, kasallik, nogironlik, boquvchisini yo'qotish, bola tarbiyasi va qonunda ko'rsatilgan boshqa holatlarda) mohiyati davlatning obyektiv sharoitlarda mehnat qilish va mehnatdan daromad olish qobiliyati yoki imkoniyatidan mahrum bo'lgan (to'liq yoki qisman) fuqarolarga yetarli mablag' berishni, shuningdek, oilalarga bola tug'ilishi va tarbiyalanishi munosabati bilan yordam berishni kafolatlashida aks etadi. Huquqlarning ushbu majmuasi Iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar to'g'risidagi xalqaro paktning 9-12 moddalarida va Bola huquqlari to'g'risidagi konvensiyasining 26-moddasida mustahkamlangan.

Ushbu huquqning amalga oshishi boshqa huquqlar, jumladan, munosib hayot darajasini ta'minlash, oilani, onalik va bolalikni himoyalash va yordam berish, jismoniy va ruhiy salomatlikning yuksak darajasi huquqlarining tatbiqi bilan bog'liqdir.

Ijtimoiy himoya huquqini ta'minlash kafolatlari XMT tomonidan qabul qilingan qator xalqaro konvensiya va tavsiyalarning predmetlari sanaladi. Ijtimoiy ta'minotning minimal me'yorlari to'g'risidagi 102-konvensiya davlatlarning to'qqiz turdagi ijtimoiy nafaqalar, jumladan, profilaktika va davolash xarakteridagi tibbiy yordam, kasallik bo'yicha vaqtincha yo'qotilgan mehnat qobiliyatini tiklash maqsadida, ishsizlik bo'yicha, qarilik, homiladorlik, nogironlik yoki boquvchisini yo'qotganlik tufayli nafaqalar to'lash majburiyatini belgilaydi. Ijtimoiy ta'minot sohasidagi tenghuquqlilik to'g'risidagi 118-konvensiya chet elliklar va

fuqaroligi bo'lmagan shaxslarning davlat fuqarolari bilan teng huquqlarga egaligini belgilaydi.

23-modda

1. Har bir inson mehnat qilish, ishni erkin tanlash, adolatli va qulay ish sharoitiga ega bo'lish va ishsizlikdan himoya qilinish huquqiga ega.

2. Har bir inson hech bir kamsitishsiz teng mehnat uchun teng haq olish huquqiga ega.

3. Har bir ishlovchi kishi o'zi va oilasi uchun insonga munosib yashashni ta'minlaydigan adolatli va qoniqarli daromad olishga, zarur bo'lganda ijtimoiy ta'minotning boshqa vositalari bilan to'ldiriluvchi daromad olish huquqiga ega.

4. Har bir inson kasaba uyushmalari tuzish va o'z manfaatlarini himoya qilish uchun kasaba uyushmalariga kirish huquqiga ega.

Iqtisodiy huquqlar insonga xo'jalik faoliyatining asosiy omillarini erkin boshqarish imkonini beradi. Ularga: mehnat qilish huquqi; xususiy mulk huquqi; tadbirkorlik huquqi; ish tashlash huquqi va boshqalar kiradi. Bundan tashqari, ishchilar va ish beruvchilar jamoaviy kelishuv bitimi imzolash huquqiga egalari; o'z manfaatlarini himoyalash uchun milliy yoki xalqaro tashkilotlarga erkin birlashish huquqi.

Iqtisodiy huquqlar qatorida yetakchi o'rinni **har bir insonning yashash uchun o'zi erkin tanlagan yoki o'zi erkin rozi bo'lgan mehnat bilan daromad olish imkoniyatiga ega bo'lish huquqini o'z ichiga oluvchi mehnat qilish huquqi** (Iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar to'g'risidagi xalqaro paktning 6-moddasi) egallaydi. Bu huquq insonning doimo mavjud bo'lgan, inson mavjudligining eng oddiy moddiy omillarini yaratish, shuningdek, shaxsning har tomonlama rivojlanishini ta'minlash uchun zarur bo'lgan ehtiyojini aks ettiradi. Mehnat qilish va ishsizlikdan himoyalash huquqi Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasining 23-moddasida ham qayd etilgan.

Konstitutsiyada har kimning mehnatga nisbatan o'z qobiliyatlaridan erkin foydalanish, faoliyat turi va kasbini tanlash huquqi kafolatlanadi, adolatli va qulay mehnat sharoitlari huquqi e'tirof etilgan. Qonunchilik ish beruvchiga o'z xodimlarini tegishli mehnat sharoiti bilan ta'minlash majburiyatini yuklaydi. Ushbu majburiyat bajarilmagani tufayli xodim salomatligiga zarar yetgan taqdirda, ish beruvchi yetkazilgan moddiy va ma'naviy zararni qoplashga majbur.

Fuqaroning erkin mehnat qilish konstitutsiyaviy huquqi quyidagilarni anglatadi: 1) erkin va mustaqil tanlash imkoniyati – ishlash yoki ishlamaslik;

2) faoliyat turi va kasbni erkin tanlash, bu yuridik jihatdan mehnat majburiyatlarining shartnomaviy xarakterida, ma'muriyatni tegishli sur'atda xabardor qilganidan so'ng, ish joyini o'zgartirish huquqida, belgilangan pensiya yoshiga yetgach ishlash huquqida va boshqalarda aks etadi;

3) majburiy mehnatning taqiqlanganligi. Majburiy mehnat deb, Fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risidagi xalqaro paktning 8-moddasiga muvofiq, fuqaro erkin tanlamagan mehnat nazarda tutiladi. Majburiy (g'ayriixtiyoriy) mehnatga faqat harbiy xizmat majburiyatlarini, sud hukmini bajarishda, yoki favqulodda holatlar sharoitida ruxsat beriladi (XMTning 1930-yildagi Majburiy mehnat to'g'risidagi 29-konvensiyasi).

Mehnat qilish huquqining amalda ro'yobga chiqishi barcha istovchilarni ish bilan ta'minlash, aholining to'liq bandligi muammosini hal etish vazifasida aks etadi. Shu tariqa, mehnat qilish huquqi davlat tomonidan barcha shaxslarga taqdim etiluvchi ishsizlikdan himoyalash huquqini nazarda tutadi (Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasining 23-moddasi). XMTning Bandlik sohasidagi siyosat to'g'risidagi 122-konvensiyasida qayd etiladiki, "Ishsizlik va to'liqsiz bandlikini tugatish (maqsadlarida) Tashkilotning har bir a'zosi to'liq, samarali va erkin tanlangan bandlikni qo'llab-quvvatlashga qaratilgan faol siyosatni bosh maqsad sifatida e'lon qiladi va amalga oshiradi" (1-modda).

Ushbu tamoyil XMTning 1991 yildagi Bandlikka ko'maklashish va ishsizlikdan himoyalash to'g'risidagi 168-konvensiyasida yanada mustahkamlandi va rivojlantirildi. Ushbu Konvensiyaga ko'ra, ishga qabul qilishdan bosh tortish faqat bo'sh o'rinlarning yo'qligi yoki talabgorning yetarli malakaga ega emasligi holatlaridagina oqlanishi mumkin. Asossiz ishdan haydash noqonuniy bo'lib, zarur hollarda ishchilar oldingi ish o'rinlariga sud orqali qayta tiklanishlari mumkin.

Bundan tashqari, o'z fuqarolarining himoyalanganligini oshirish uchun davlat kasbiy-texnik ta'limni rivojlantirish, iqtisodiy o'sish va to'liq ishlab chiqarish bandligi yuzasidan munosib choralar ko'rishga majbur. (Iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar to'g'risidagi xalqaro paktning 6-moddasi).

Mehnat huquqi har bir shaxsning adolatli va qulay mehnat sharoiti huquqini ham o'z ichiga oladi. Bu huquq, Iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar to'g'risidagi xalqaro paktning 7-moddasida kafolatlangan bo'lib,

quyidagi jihatlarni o'z ichiga oladi: a) mehnat uchun haq barcha ishchilarga kamida adolatli ish haqini va o'zlari hamda oilalarining qoniqarli yashashini ta'minlashi lozim; teng ahamiyatli mehnat uchun hech qanday farqlashsiz teng haq to'lash; b) mehnat sharoiti xavfsizlik va gigiyena talablariga javob berishi kerak; c) har bir shaxs xizmat yuzasidan yanada yuqori darajalarga ko'tarilishda faqat mehnat staji va malaka asosida teng imkoniyatga ega bo'lishi lozim; d) barcha ishchilar dam olish, bo'sh vaqt, ish vaqtining oqilona chegaralanganligi va davriy haq to'lanadigan ta'til, bayram kunlari uchun mukofotlar olish huquqiga ega. Konstitutsiyada mehnat uchun adolatli haq to'lash tamoyili mehnat uchun haq to'lashda kamsitishni, ya'ni jinsi, yoshi, irqi, millati, tili, ijtimoiy kelib chiqishi, mulkiy va mansab holati, dinga aloqasi, e'tiqodi, jamoat tashkilotlariga mansubligi, shuningdek, xodimning ishchanlik xususiyatlariga va mehnati natijasiga aloqador bo'lmagan boshqa holatlar bo'yicha huquqlarda cheklash yoki afzallik berishni taqiqlashda; qonunga binoan barcha ish beruvchilar uchun majburiy bo'lgan, boshlang'ich baza sifatida minimal ish haqi darajasini belgilashda namoyon bo'ladi.

24-modda

Har bir inson dam olish va bo'sh vaqtga ega bo'lish, shu jumladan ish kunini oqilona cheklash huquqi va haq to'lanadigan mehnat ta'tili olish huquqiga ega.

Ish kunining oqilona cheklanganligi va davriy haq to'lanadigan ta'til huquqini o'z ichiga oluvchi dam olish va bo'sh vaqt huquqi inson huquqlarini ta'minlash jarayonida o'ziga xos ahamiyat kasb etadi. Bu huquqlarning Birlashgan Millatlar Tashkiloti boshqaruvining predmeti bo'lganligi, ularning alohida ahamiyatini ko'rsatadi. Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi, shuningdek, Iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar to'g'risidagi xalqaro paktida qayd etilganki, har bir inson ish kunining oqilona cheklanganligi va davriy haq to'lanadigan ta'til huquqini o'z ichiga oluvchi dam olish va bo'sh vaqt huquqiga ega. Ammo dam olish huquqini rivojlantirish va tatbiq qilish muammosini hal etishda Xalqaro Mehnat Tashkiloti alohida rol o'ynaydi.

Dam olish huquqi – har bir insonning ajralmas huquqi. Butun insoniyatning barqaror va bosqichma-bosqich rivojlanishida ushbu huquqning amalga oshishi muhim shartlardan hisoblanadi. Mamlakatda ushbu huquq qanchalik hayotiy va samarali amalga oshirilayotganiga iqtisodiy, ba'zi hollarda siyosiy sharoit ham bog'liq bo'ladi. Iqtisodiy,

ijtimoiy, madaniy huquqlar to'g'risidagi xalqaro paktning (1966-yil 19-dekabr) 7-moddasida shunday deyiladi: "Ushbu paktga qatnashuvchi davlatlar har kimning dam olish, bo'sh vaqt va ish vaqtining oqilona chegaralanganligi hamda davriy haq to'lanuvchi ta'tilni, shuningdek, bayram kunlari uchun mukofotlarni o'z ichiga olgan adolatli va qulay mehnat sharoiti huquqiga egaligini e'tirof etadilar"

XMTning birinchi sessiyasidayoq Sanoat korxonalarida ish vaqtini kuniga 8 soat va haftasiga 48 soat qilib chegaralash to'g'risidagi 1-konvensiya qabul qilindi (1919-yil). XMTning 1935-yildagi 19-sessiyasi: "Ishsizlik shunchalik keng ko'lam olgani va shunchalik uzoq muddat davom etayotgani, natijada hozirda jahondagi millionlab ishchilar o'zlari javobgar bo'lmagan va qonunan xalos bo'lish huquqiga ega bo'lganlari holda yo'qchilik va mahrumlikdan azoblanayotganliklarini: ishchilar imkon qadar texnik taraqqiyot mevalaridan foydalanishlarini ma'qul hisoblab...; xalqaro mehnat konferensiyasining o'n sakkizinchi va o'n to'qqizinchi sessiyalarida qabul qilingan rezolyutsiyalarni hayotga tatbiq qilish yo'lida bandlikning barcha toifalari uchun ish vaqtini imkon qadar ko'proqqa qisqartirish borasida sa'y-harakatlarni amalga oshirish zarur deb hisoblab, 1935-yilning 22-iyunida quyidagi Konvensiyani qabul qiladiki, u 1935-yildagi Qirq soatlik ish haftasi to'g'risidagi 47-konvensiya deb nomlanishi mumkin"

Konvensiyada 40 soatlik ish haftasi "xodimlar hayoti darajasining pasayishiga olib kelmaydigan" usulda joriy qilinishi lozimligi alohida ta'kidlangan. XMTning 1969 yilda qabul qilingan ish vaqti davomiyligini qisqartirish haqidagi 116-Tavsiyasi ish vaqtining maksimal chegarasini haftasiga 48 soat qilib belgilaydi. Bu tavsiya XMTning har bir a'zodavlatiga ish vaqti davomiyligini bosqichma-bosqich ravishda haftasiga 40 soat qilib belgilash siyosatini ishlab chiqish va hayotga tatbiq qilishni taklif etadi. Hozirda rivojlangan mamlakatlar ham 40 soatlik ish haftasini joriy etgan, ba'zi firma va yirik korxonalar esa, o'z ishchi va xodimlari uchun 36 soatlik ish haftasini belgilaganki, bu inson huquqlari va erkinliklari sohasidagi muhim yutuq sanaladi. XMTning 1979-yil 6-iyunda Jenevada chaqirilgan Bosh konferensiyasi ish vaqtining davomiyligi va ko'cha transportida dam olish davri haqidagi 153- Konvensiyani qabul qildi. Bu konvensiya haydovchilarning ish vaqtlari davomiyligini alohida belgilab berdi. Hech qaysi haydovchiga transport vositasini 4 soatdan ortiq tinimsiz boshqarishga ruxsat berilmaydi, boshqarishning maksimal davomiyligi, belgilangandan ortiq ishlashni ham hisobga olganda, kuniga to'qqiz soatdan yoki haftasiga qirq sakkiz soatdan oshmasligi kerak.

Haydovchilarning kundalik dam olishi ish kuni boshidan hisoblaganda istalgan 24 soat davomida ketma ket bo'lgan 10 soatdan kam bo'lmasligi lozim

XMT Bosh konferensiyasi 1930-yil 28-iyunda Savdo muassasalarida ish vaqtini belgilash haqidagi 30-konvensiyani qabul qildi. Bu konvensiya tijorat yoki savdo tashkilotlarida, telegraf korxonalarida ishlovchi shaxslar asosan kanselyariya ishlari bilan band muassasalarda ishlovchi shaxslarga nisbatan qo'llaniladi. Bu shaxslar uchun konvensiya ish vaqti davomiyligini kuniga o'n soatdan va haftasiga qirq sakkiz soatdan oshmaydigan qilib belgiladi.

Xalqaro Mehnat Tashkiloti tomonidan haftalik dam olishlar va yillik haq to'lanadigan ta'tillar haqida qator konvensiyalar qabul qilindi; Sanoatda haftalik dam olish haqidagi 1921-yildagi 14-konvensiya; 1957-yildagi Savdo va muassasalarda haftalik dam olish haqidagi 106-konvensiya; 1970-yildagi Haq to'lanadigan ta'tillar haqidagi 132-konvensiya (qayta ko'rib chiqilgan).

Chunonchi, Haq to'lanadigan ta'tillar haqidagi 132-konvensiyada aytiladiki, "Konvensiya qoidalari milliy qonunchilik orqali, boshqa yo'llar bilan hayotga tatbiq qilib bo'lmaydigan darajada: jamoaviy shartnomalar, arbitraj qarorlari, sud qarorlari yoki ish haqini belgilash bo'yicha rasmiy organlar orqali yoxud muayyan mamlakatda mavjud sharoitlarni hisobga olgan holda bu borada mamlakat tajribasiga muvofiq keluvchi boshqa istalgan yo'llar orqali amalga oshiriladi. Konvensiya dengizchilardan tashqari, barcha yollash bo'yicha ishlaydigan shaxslarga tatbiq qilinadi. Konvensiyada ta'tillarni taqdim etish va ish haqini to'lashning barcha shartlari va tartibi ishlab chiqilgan va qayd qilib o'tilgan.

Konvensiyaning 3-moddasiga ko'ra: "Ushbu Konvensiya tatbiq qilinadigan har bir shaxs belgilangan minimal davomiylikdagi yillik haq to'lanadigan ta'til huquqiga ega, ta'til bir ish yili uchun uch ish haftasidan kamini tashkil qilishi aslo mumkin emas" Har qanday haq to'lanadigan yillik ta'til huquqiga ega bo'lish uchun minimal ish davri talab etilishi mumkin. Ana shunday istalgan ish davrining davomiyligi olti oydan oshmasligi lozim.

Rasmiy va an'anaviy bayram kunlari va dam olish kunlari, yillik haq to'lanadigan ta'til davriga to'g'ri keladimi, yo'qmi, yillik minimal haq to'lanadigan ta'tilning qismi deb hisoblanmaydi. Bundan tashqari, ushbu Konvensiyada ko'zda tutilgan ta'tildan foydalanayotgan har bir shaxs ushbu ta'tilning to'liq davri uchun o'zining me'yoriy yoki o'rtacha ish haqini, jumladan, ushbu shaxs ta'tildami yoki yo'qligidan qat'i nazar

beriladigan muntazam to'lov bo'lmagan va odatda, natura holatida ajratiladigan mukofotning istalgan qismining naqd pul shaklidagi ekvivalentini oladi. Ko'rsatilgan ish haqi hokimiyatning vakolatli organi belgilaydigan usulga muvofiq hisoblab chiqiladi.

Yillik haq to'lanadigan ta'tilni bo'laklarga bo'lishga vakolatli hokimiyat organi tomonidan ruxsat berilishi mumkin. Yillik haq to'lanadigan ta'tilning uzluksiz qismi ta'til berilgan yilning oxiridan hisoblaganda o'n sakkiz oydan kechiktirmasdan taqdim etiladi va foydalaniladi.

Yillik haq to'lanadigan ta'til – bu ishdan bo'sh kalendar kunlari (bayram va dam olish kunlaridan tashqari) ni tashkil qiluvchi, ishchi-xodimga uzluksiz dam olish va ish qobiliyatini tiklash uchun ish joyi (mansabi) va o'rtacha ish haqini saqlab qolgan holda taqdim etiluvchi dam olish muddatining ko'rinishidir. Hozirda XMTning amaldagi ikkita – Yillik haq to'lanadigan ta'tillar haqidagi 52-konvensiyasi (Jeneva, 1936-yil 24-iyun') va qayta ko'rib chiqilgan Haq to'lanadigan ta'tillar haqidagi 132-konvensiyasi (Jeneva, 1970-yil 3-iyun') mavjud. Birinchi Konvensiya 1936-yilda qabul qilingan bo'lib, qisman eskirgan va ko'pchilik rivojlangan davlatlar ancha keyingi, jahon qonunchiligining Ikkinchi jahon urushidan keyingi rivojlanishini hisobga olgan 132-konvensiyani ratifikatsiya qilishni lozim topdilar. Ammo aynan 1936-yilgi Konvensiya ba'zi davlatlarda hanuz amalda bo'lgan yillik haq to'lanadigan ta'til huquqi o'rnatishning asosini yaratdi. 52-Konvensiyaga muvofiq, ushbu Konvensiya tatbiq qilinadigan har bir shaxs 1 yil davom etgan uzluksiz ishdan keyin kamida 6 kunga teng yillik haq to'lanadigan ta'tilga chiqish huquqiga ega. Qayd etish lozimki, ta'til davomiyligi, milliy qonunchilikda belgilangan qoidalarga asosan, ish stajining davomiyligiga proporsional ravishda o'sib boradi. 16 yoshga to'lmagan shaxslar, jumladan o'quvchilarga kelsak, ular kamida 12 ish kuniga teng yillik haq to'lanadigan ta'tilga chiqish huquqiga ega. Ta'tilga bayram kunlari, shuningdek, ishdagi kasallik tufayli uzilishlar kirmaydi. Konvensiya milliy qonunchilik yillik haq to'lanadigan ta'tilni bo'lishga ruxsat berishi mumkinligini ko'zda tutadi. Ammo bu hol ta'tilning Konvensiyada belgilangan minimal davomiylikdan oshgan qismiga tegishli bo'lishi kerak. Ta'tilga chiqayotgan har bir kishi o'zining odatdagi mukofotiga teng ta'til haqini oladi. Ularni hisoblash milliy qonunchilik tomonidan yoki jamoaviy shartnoma orqali belgilanadi. Har bir ishga yollovchi xodimning ishga kirgan sanasini, uning ta'tili davomiyligi, ta'tilga chiqish sanasi va ta'til haqining hajmini belgilovchi yozuvlar qayd etib borilishi

kerak. Yillik haq to'lanadigan ta'tilni inkor qiluvchi yoki bunday ta'tilga chiqish huquqini bekor qiluvchi har qanday kelishuv qonuniy kuchga ega emas. Xodim holatining "yaxshilash prezumpsiyasi" ni mustahkamlovchi me'yor o'sha davr uchun progressiv ahamiyatga ega bo'ldi. Unga ko'ra, milliy qonunchilikning xodim uchun yanada yaxshiroq sharoit yaratuvchi har qanday qoidasi Konvensiya me'yoriga nisbatan afzallikka ega bo'ladi. Milliy qonunchilikda o'zining yillik ta'tili davomida haq to'lanadigan ishda ishlagan xodim shu muddat uchun ta'til haqidan mahrum bo'lishi ko'zda tutilishi mumkin. Tadbirkor aybi bilan ishdan haydalgan xodim ishlatilmagan ta'til uchun kompensatsiya olish huquqiga ega. 1936 yilgi Konvensiyaning ahamiyatini yuqori baholash mumkin. U, mohiyatiga ko'ra, ko'pgina mamlakatlarda haq to'lanadigan ta'tillar institutining huquqiy asosi bo'ldi.

Konvensiyaning me'yorlari O'zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksida o'z aksini topdi, yillik haq to'lanadigan ta'til huquqi esa, eng yuqori darajada – Konstitutsiyada qayd etib o'tilgan.

25-modda

1. Har bir inson o'zining hamda oilasining salomatligi va farovonligini ta'minlash uchun zarur bo'lgan turmush darajasiga ega bo'lish, jumladan kiyim-kechak, oziq-ovqat, tibbiy xizmat va zarur ijtimoiy xizmatga ega bo'lishga hamda ishsizlik, kasallik, nogironlik, bevalik, qarilik yoki unga bog'liq bo'lmagan sharoitlarga ko'ra tirikchilik uchun mablag' bo'lmay qolgan boshqa hollarda ta'minlanish huquqiga ega.

2. Onalik va bolalik alohida g'amxo'rlik va yordam huquqini beradi. Barcha bolalar, nikohda yoki nikohsiz tug'ilishidan qat'i nazar, bir xil ijtimoiy himoyadan foydalanishi kerak.

Munosib hayot darajasi huquqi oila, onalar va bolalarni himoya qilish va ularga ko'mak berish oilani ijtimoiy qo'llab-quvvatlashning turli shakllarini ko'zda tutadi. Iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar to'g'risidagi xalqaro paktning 10-moddasiga muvofiq, oilalarga himoya va ko'mak taqdim etish, onalikni himoyalashning maxsus choralari, bolalar va o'spirinlarni alohida himoyalash va ko'mak berish, bolaning jismoniy yoki ma'naviy salomatligiga yo uning rivojlanishiga zarar yetkazadigan holatda bolalar mehnatini taqiqlash kabilar kiradi. Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasiga muvofiq, nikohdan yoki nikohsiz tug'ilgan barcha bolalar bir xil ijtimoiy himoyadan foydalanishlari lozim.

Iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar to'g'risidagi xalqaro pakt (1966-yil 19-dekabr)da salomatlikni saqlash haqidagi me'yorlar yanada rivojlantirildi, jumladan, 12-moddada: "1. Ushbu Paktda qatnashayotgan davlatlar har bir insonning eng yuksak jismoniy va ruhiy salomatlik darajasi huquqini tan oladilar.

2. Ushbu paktda qatnashayotgan davlatlar ushbu huquqni to'liq amalga oshirish uchun qabul qilishlari lozim bo'lgan choralar quyidagilar uchun zarur bo'lgan chora-tadbirlarni qamrab oladi:

a) o'lik tug'ilishni va bolalar o'limi qisqarishini va bolaning sog'lom rivojlanishini ta'minlash;

b) tashqi muhit gigiyenasining barcha jihatlarini va sanoatdagi mehnat gigiyenasini yaxshilash;

c) epidemik, endemik, kasbiy va boshqa kasalliklarning oldini olish va davolash hamda ularga qarshi kurash;

d) barchani tibbiy yordam va kasal bo'lganda tibbiy davolash bilan ta'minlovchi sharoitni yaratish"

XMTning ba'zi konvensiyalari sog'liqni saqlash, sog'lom turmush tarzini ta'minlash va barchaning rivojlanishi bilan bog'liq. Bir ishchi ko'tarishi mumkin bo'lgan yukning maksimal chegarasi haqidagi 127-konvensiya; Ionlashtiruvchi radiatsiyadan ishchilarni himoya qilish haqidagi 115-konvensiya; Xodimlarni ish joylaridagi havoning ifloslanishi, shovqin va vibratsiya tufayli vujudga keluvchi kasbiy xatardan himoya qilish haqidagi 148-konvensiya kabi nufuzli hujjatlar ishchi va xizmatchilarning salomatligini himoyalashga yo'naltirilgandir.

Chunonchi, 115-konvensiyada qayd qilinadiki, radiatsiyaga aloqador ishda ishlovchi barcha ishchilar ishga kirayotganida tegishli tibbiy tekshiruvdan o'tadilar. Radioaktiv moddalarning ionlashtiruvchi radiatsiyasining ishchilarga ta'siri darajasini o'lchash va belgilangan darajalarga amal qilinayotganligini tekshirish uchun ishchilar va ish joylari ustidan nazorat amalga oshirilish lozim.

Xalqaro Mehnat Tashkiloti Bosh konferensiyasi, 1953-yildagi Xodimlar salomatligini saqlash haqidagi tavsiyalarni, 1959-yildagi Korxonalaridagi sog'liqni saqlash xizmatlari haqidagi tavsiyalarni va qator konvensiyalarni inobatga olib, 1977-yil 20-iyunda Ish joyida shovqin va vibratsiyaga uchraydigan ishchilarni himoya qilish haqidagi 148-konvensiyani qabul qildi. Unda qayd qilinadiki, havoning ifloslanishi, shovqin va vibratsiya tufayli yuzaga keladigan kasbiy xatarlarning oldini olish va cheklash, shuningdek, ushbu xatarlardan himoya qilishga qaratilgan choralar qabul qilinishi lozim. Tadbirkorlar belgilangan

choralarni amalga oshirmaslik bo'yicha javobgardirlar. Ushbu Konvensiyaning 2-moddasida aytiladiki: "Ish joyidagi havoning iflosligi, shovqin yoki vibratsiya tufayli vujudga kelgan kasbiy xatarga uchragan yoki uchrashi mumkin bo'lgan ishchilar salomatligining ahvoli tegishli davr oralig'ida vakolatli hokimiyat organlari tomonidan belgilangan sharoitlarda va holatlarda nazorat qilinadi. Bunday nazorat ishga tayinlanishdan oldingi tibbiy ko'rikni va vakolatli hokimiyat organi belgilagan shaklda davriy tekshiruvlarni o'z ichiga oladi"

Xalqaro-huquqiy amaliyot tahlili shunday xulosa qilish imkonini beradiki, keyingi yillarda atrof-muhit sifatini munosib tarzda qo'llab-quvvatlash borasidagi xalqaro hamkorlik tobora katta ahamiyat kasb etib bormoqda. Atrof muhitga ta'sir ko'rsatishning ayrim shakllari, masalan, atmosfera va xalqaro daryolar ifloslanishining ayrim turlari, Tinch okeanining ifloslanishi global xarakterga ega va qayerda yashamasin, har bir insonning manfaatlari va salomatligiga daxl qiladi.

Aytish kerakki, butunjahon tashkilotlari sog'liqni saqlashga katta e'tibor beradilar, chunki ishchilar salomatligi haqida qayg'urish butun jamiyatning siyosiy-iqtisodiy hayotiga ham ta'sir ko'rsatadi.

Onalik va bolalikni himoya qilish, o'smirlar huquqlarini muhofaza qilish tamoyilining alohida jihatlari XMTning qator konvensiyalarida alohida qayd etiladi. XMTning "Onalikni muhofaza qilish haqida"gi 103-konvensiyasi ayollarga homiladorlik davrida kamida 12 haftalik ta'til berishni ko'zda tutadi, ulardan kamida 6 haftasi tug'ruqdan keyingi muddatga to'g'ri kelishi kerak. Homiladorlik va tug'ruq bo'yicha ta'til davomida ayolni ishdan bo'shatish haqidagi buyruq noqonuniy sanaladi. XMTning "Ijtimoiy siyosatning asosiy maqsadlari va me'yorlari haqida"gi 117-konvensiyasida va ishga qabul qilishning eng kichik yoshi chegarasiga bag'ishlangan qator konvensiyalarda (№ 10, 15, 58, 59, 60, 112, 123, 137) yoshlarni ishga qabul qilishning eng kichik yoshi belgilanadi. Qishloq xo'jaligi uchun bu 14 yoshni, boshqa hollarda – 15 yoshni tashkil qiladi. "O'smirlarning sanoatdagi tungi mehnati haqida"gi 90- Konvensiyasi 18 yoshga to'lmagan yoshlarni bunday ishlarga jalb qilishni taqiqlaydi.

O'zbekiston Respublikasi siyosati munosib hayot va insonning erkin rivojlanishi uchun qulay sharoit yaratishga qaratilgan ijtimoiy davlat ekanini e'lon qilib, insonlarning munosib va erkin hayotlarini himoyalashni ta'minlashga qaratilgan muayyan ijtimoiy siyosatni hayotga tatbiq qilish majburiyatini zimmasiga oladi. Shu munosabat bilan,

qonunchilik ijtimoiy huquqlarning tatbiqini belgilaydi, alohida toifadagi fuqarolarni ijtimoiy himoyalash bo'yicha qo'shimcha kafolatlar o'rnatadi.

Munosib hayot va insonning erkin rivojlanishini ta'minlovchi shart-sharoitlar yetarli turmush darajasi, ruhiy va jismoniy salomatlik huquqida belgilangan. Iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar to'g'risidagi xalqaro paktning 11-moddasiga muvofiq, har bir inson yetarli ovqatlanish, kiyim va turar joy bilan ta'minlanishi lozim, uning turmush sharoiti muntazam yaxshilanib borishi kerak. "Har bir insonning ochlikdan xoli bo'lishdek asosiy huquqi"ni ta'kidlab, Pakt davlat zimmasiga oziq ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarish va taqsimlash uslublarini yaxshilash va tabiiy resurslardan yanada samarali foydalanishga qaratilgan zarur choralar ko'rishni yuklaydi. XMTning "Ijtimoiy siyosatning asosiy maqsadlari va me'yorlari haqida"gi 117-konvensiyasida yashash minimumini aniqlashda ishchilar oilalarining oziq-ovqatlari va ularning kaloriyaliligi, turar joy, kiyim, tibbiy xizmat va ta'lim kabi asosiy ehtiyojlari alohida e'tiborga olinadi.

Munosib turmush darajasini ta'minlash huquqi va turmush sharoitini yaxshilash huquqi jismoniy va ruhiy salomatlik jihatidan erishiladigan eng oliy darajadagi huquqni ham o'z ichiga oladi. Ularni davlatlar, Iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar to'g'risidagi xalqaro paktning 12-moddasiga binoan, quyidagilar orqali ta'minlashi lozim: o'lik go'dak tug'ilishining oldini olish va bolalar o'limini kamaytirish; tashqi muhitning barcha jihatlarini va mehnat gigiyenasini yaxshilash, epidemik, kasbiy va boshqa kasalliklarni davolash va ularga qarshi kurashni yaxshilash; barchani tibbiy yordam bilan ta'minlash, kasal bo'lganda tibbiy davolash bilan ta'minlovchi shart-sharoitlarni yaratish.

Munosib turmush darajasini ta'minlashning jihatlaridan biri har kimga turar joy huquqini taqdim qilishdir. Konstitutsiya turar joy huquqini doimiy turar joy bilan ta'minlanganlikning kafolatlangan imkoniyati deb ta'riflaydi. Uning ichiga fuqarolarning mavjud turar joylardan barqaror foydalanish yuridik imkoniyati, uning daxlsizligi, turar joydan o'zboshimchalik bilan mahrum etishga yo'l qo'yilmasligi, shuningdek, boshqa turar joy olish orqali yashash sharoitini yaxshilash kiradi.

Sog'liqni saqlash va tibbiy yordam huquqi Konstitutsiya (davlat va munisipal sog'liqni saqlash muassasalarida bepul tibbiy yordam olish imkoniyatini taqdim etadi) va boshqa me'yoriy-huquqiy aktlar va federal dasturlar tomonidan kafolatlangan.

Qonunchilik fuqarolar sog'lig'ini saqlashning asosiy tamoyillarini belgilaydi. Ular quyidagilardir: 1) sog'liqni saqlash sohasida inson va

fuqaro huquqlariga amal qilish; 2) profilaktika choralariga ustuvorlik berish; 3) tibbiy-ijtimoiy yordamning hammabopligi; 4) salomatligini yo'qotgan fuqarolarning ijtimoiy himoyalanganligi; 5) davlat hokimiyati organlari, mulkchilik shaklidan qat'i nazar boshqarmalar, korxonalar, muassasalar va tashkilotlarning, mansabdor shaxslarning fuqarolar sog'lig'ini saqlashga oid huquqlarni ta'minlamaganligi, insonlar hayoti va salomatligi uchun tahdid soluvchi fakt va holatlarni yashirganlik uchun javobgarlik. Davlat fuqarolarga ular da biror bir kasallik mavjudligi tufayli har qanday turdagi kamsitilishga uchrashdan himoyani ta'minlab beradi.

Insonning ijtimoiy-iqtisodiy huquqlarini xalqaro miqyosda himoyalash va Birlashgan Millatlar Tashkiloti maqsad va vazifalarini (ular sirasiga: turmush darajasini oshirishga, aholining to'liq bandligini ta'minlashga, iqtisodiy va ijtimoiy taraqqiyot va rivojlanish shart-sharoitlariga, iqtisodiy, ijtimoiy sohalardagi, sog'liqni saqlash borasidagi xalqaro muammolarni hal etishga, inson huquqlarini umumjahon miqyosda hurmat qilinishi va unga amal qilinishiga ko'maklashish) amalga oshirish uchun Iqtisodiy va Ijtimoiy Kengash (EKOSOS) tashkil etilgan va o'z faoliyatini yuritib kelmoqda. U ijtimoiy-iqtisodiy huquqlarni himoya qilish sohasidagi yetakchi nazorat instansiyasi va BMT hamda uning ixtisoslashtirilgan muassasalari iqtisodiy va ijtimoiy faoliyatining asosiy muvofiqashtiruvchisidir.

EKOSOS, BMTning Nizomiga (61, 72-moddalar) muvofiq, iqtisodiy va ijtimoiy hayot, madaniyat, ta'lim, sog'liqni saqlash va shu kabi boshqa sohalardagi xalqaro masalalar yuzasidan tadqiqotlar o'tkazish va ma'ruzalar tayyorlash, tegishli masalalar bo'yicha konvensiyalar loyihalarini tayyorlash, o'z vakolatiga kiruvchi muammolar yuzasidan xalqaro konferensiyalar o'tkazish vakolatini olgan.

Ammo bu guruh huquqlar himoyasi borasidagi xalqaro nazorat fuqarolik va siyosiy huquqlar himoyasiga qaraganda kamroq ahamiyatga ega. U o'z ichiga yakka shaxslar tomonidan shikoyatlar berish imkoniyatini olmaydi. Iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar to'g'risidagi xalqaro pakt qoidalariga ko'ra (16, 25-moddalar), davlatlar Pakt qoidalariga rioya etish borasida o'zlari amalga oshirgan choralar hamda ijtimoiy-iqtisodiy sohada erishilgan progress haqida BMT Bosh kotibiga ma'ruzalar taqdim etishlari lozim, u esa, o'z navbatida, bu ma'ruzalarni ko'rib chiqish uchun EKOSOSga va shu sohada ixtisoslashgan muassasalarga yuboradi. Ushbu taomil fuqarolarning ijtimoiy-iqtisodiy huquqlariga amal qilinishi nazoratining yagona shaklidir. Bundan tashqari, ijtimoiy-iqtisodiy huquq va erkinliklarni

amalga oshirishni nazorat qilish ushbu guruh huquqlarning nisbatan yaqinda rivojlanganligi, ushbu masalalarga oid xalqaro-huquqiy me'yorlardagi, ushbu sohada davlatlar o'z zimmalariga olgan xalqaro majburiyatlardagi asosiy defmitsiyalar va kafolatlarning ba'zi noaniqliklari tufayli o'ziga xos qiyinchiliklarga to'qnash kelmoqda.

Keyingi vaqtlarda insonning asosiy iqtisodiy va ijtimoiy huquqlari sohasidagi davlatlarning o'z zimmalariga olgan majburiyatlariga amal qilishlarini nazorat qiluvchi xalqaro organlar faoliyati jo'shqin tus oldi. Kamsitishning oldini olish va ozchilikni himoya qilish quyikomissiyasi doirasida ovqatlanish huquqi, kambag'allikka qarshi kurashish, turar joy huquqining tatbiq etilishiga ko'maklashish kabi masalalar yuzasidan maxsus ma'ruzalar tayyorlash tashkil etildi. 1985-yilda EKOSOSning iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar bo'yicha qo'mitasi tashkil etildi. Uning amaliy faoliyati 1987-yilda boshlandi. Qo'mita mustaqil nazorat organi bo'lib, davlatlar ma'ruzalarini ko'rib chiqish, ular yuzasidan umumiy xulosa chiqarish va bu haqda EKOSOSga xabar berish vakolatiga ega.

Ijtimoiy-iqtisodiy huquqlar, bir tomondan, aholining tegishli faolligini, uning bozor erkinligini ta'minlaydi, boshqa tomondan-ehtimoliy xatarlardan himoya taqdim etadi. Me'yoriy boshqaruvning mana shu ikki jihati o'rtasida ziddiyat yuzaga keladi. Iqtisodiy erkinlik va tenglik qadriyatlarini jamoatchilik e'tirofiga sazovor bo'ladi va ijtimoiy adolat, integratsiya, davlat va fuqaroning o'zaro javobgarligi qadriyatlarini qatorida insonning ajralmas huquq va erkinliklari yagona tizimida mustahkamlanadi. Ijtimoiy-iqtisodiy huquqlar tatbiq etilishining kafolatlari huquqiy davlatning demokratik va ijtimoiy shaklda barqaror mavjudligining muhim omillaridandir.

26-modda

1. Har bir inson ta'lim olish huquqiga ega. Ta'lim olishda hech bo'lmaganda boshlang'ich va umumiy ta'lim tekin bo'lishi lozim. Boshlang'ich ta'lim majburiy bo'lishi kerak. Texnik va hunar ta'limi hammaning qurbi etadigan darajada bo'lishi, oliy ta'lim esa har kimning qobiliyatiga asosan hamma uchun yetarli imkoniyat doirasida bo'lmog'i kerak.

2. Ta'lim inson shaxsini to'la barkamol qilishga va inson huquqlari hamda asosiy erkinliklariga nisbatan hurmatni kuchaytirishga qaratilmog'i lozim. Ta'lim barcha xalqlar, irqiy va diniy guruhlar o'rtasida bir-birini tushunish, xayrixohlik va

do'stlikka xizmat qilishi hamda Birlashgan Millatlar Tashkilotining tinchlikni saqlash borasidagi faoliyatiga yordam berishi kerak.

3. Kichik yoshdagi bolalari uchun ota-onalar ta'lim turini tanlashda imtiyozli huquqqa egadir.

Madaniy huquqlar insonning ma'naviy rivojlanishini kafolatlaydi, har bir individga siyosiy, ma'naviy, ijtimoiy va madaniy progressning foydali ishtirokchisi bo'lishda ko'mak beradi. Ularga: ta'lim olish huquqi, madaniy qadriyatlar bilan tanishish huquqi, jamiyatning madaniy hayotida erkin qatnashish huquqi, ijod huquqi, ilmiy progress natijalaridan foydalanish va ularni amalda qo'llash huquqi va boshqalar kiradi.

Ta'lim olish huquqi xalqaro standartlarining asoslari Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasidan tashqari, Iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar to'g'risidagi xalqaro paktning 13-moddasida ifodalangan. Ushbu hujjatlarda ta'lim olish huquqining to'liq amalga oshishi shartlari ko'rsatib o'tilgan: hamma uchun majburiy va bepul boshlang'ich ta'lim; o'rta, kasbiy-texnik va oliy ta'limning hammabopligi; ota-onalarning o'z farzandlari uchun maktab tanlash va o'z e'tiqodlariga muvofiq farzandlarini diniy va ma'naviy tarbiyalash erkinliklari. Alohida shaxslar va muassasalar xususiy o'quv yurtlari tuzish va unga rahbarlik qilish huquqiga faqat undagi ta'lim davlat tomonidan belgilangan talablar minimumiga muvofiq bo'lgandagina egadirlar.

Xalqaro-huquqiy me'yorlar ta'limning ustuvor maqsadlari etib, inson shaxsiyati va qadr-qimmatining to'liq rivojlanishi, inson huquqlari va erkinliklarini hurmat qilish, ta'limning zarurligi, erkin jamiyatning foydali ishtirokchilari bo'lish imkoniyatini yaratish, barcha millatlar, etnik va diniy guruhlar o'rtasidagi o'zaro tushunish, murosasozlik va do'stlikka ko'maklashishni belgilaydi.

Ta'lim sohasidagi kamsitishga qarshi kurashish haqidagi konvensiya ta'lim olishda barchaga barobar: "irqi, terisining rangi, jinsi, tili, dini, siyosiy yoki boshqa e'tiqodi, milliy yoki ijtimoiy kelib chiqishi, iqtisodiy mavqei yoki tug'ilishi bo'yicha hech qanday ajratish, chetlatish, cheklash yoki afzallik berishlarsiz" imkoniyatlar taqdim etishga yo'naltirilgan. Buning uchun davlatlar o'z zimmlariga quyidagi majburiyatlarni oladi: a) boshlang'ich ta'limni majburiy va bepul; o'rta ta'limni – hammabop; oliy ta'limni – to'liq tenglik asosida, har kimning qobiliyatiga qarab belgilash; b) barcha bir xil bosqichdagi davlat muassasalarida bir xil ta'lim darajasini va ta'lim sifatini ta'minlash; v) ta'lim olish va malaka oshirishni rag'batlantirish; o'qituvchilik kasbiga tayyorlashni ta'minlash.

Ta'lim sohasidagi xalqaro standartlarga Konstitutsiyaning davlat yoki munisipal ta'lim muassasalari va korxonalarida bepul asosiy umumiy va o'rta-kasbiy ta'lim olishni kafolatlovchi qoidalari muvofiq keladi.

27-modda

Har bir inson jamiyatning madaniy hayotida erkin ishtirok etishga, san'atdan bahramand bo'lishga, ilmiy taraqqiyotda ishtirok etish va uning samaralaridan foydalanish huquqiga ega.

Shaxs huquqiy mavqeining muhim tarkibiy qismi **madaniy hayotda qatnashish huquqi va unga bog'liq bo'lgan adabiy, badiiy, ilmiy va boshqa turdagi ijod erkinligidir.** Ijod erkinligi istalgan ilmiy, adabiy yoki badiiy ishlar bilan bog'liq ravishda yuzaga keladigan ma'naviy va moddiy manfaatlarini, intellektual mulkni himoya qilishni o'z ichiga oladi. Iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar to'g'risidagi xalqaro paktning 15-moddasi "ilmiy tadqiqotlar va ijodiy faoliyat uchun shubhasiz zarur" erkinliklarni hurmat qilishni e'lon qiladi.

Madaniy huquqlar mazmuni va ularni amalga oshirish kafolatlari YUNESKO tomonidan qabul qilingan (1968, 1980, 1982-yillar) qator tavsiyalarda rivojlantirilgan va to'ldirilgan. Ularda, jumladan, o'z madaniyatini rivojlantirish har bir xalqning huquqi va burchidir; barcha millatlar, milliy ozchiliklar, etnik guruhlar madaniy an'analarni saqlab qolish va rivojlantirish bo'yicha bir xil huquqlarga egadir; har bir kishi bilim olish, barcha xalqlar san'ati va adabiyotidan bahra olish imkoniyati, yer sharining barcha qismlarida ilm-fan taraqqiyotida qatnashish, uning ne'matlaridan foydalanish va madaniy hayotning boyishiga ko'maklashish imkoniyati bilan ta'minlanishi lozim; davlatlar madaniyatni demokratlashtirish bo'yicha, madaniyat huquqlarini ta'minlash va ularning samarasida hech qanday cheklashsiz foydalanishni kafolatlash bo'yicha choralar ko'rishlari zarur; davlatlar ijod erkinligini himoya qilishi lozim, ijodiy xodimlarga ko'maklashishi, ularning o'z ixtiyorlariga ko'ra kasaba uyushmalari va kasbiy tashkilotlar tuzish huquqlarini ta'minlashlari kabilar qayd qilingan.

Insonning madaniy huquqlarini rag'batlantirish va himoya qilish bevosita xalqaro ixtisoslashtirilgan tashkilot – YUNESKOning vazifalari doirasiga kiradi. Bu yerda shikoyatlarni qabul qiluvchi bosh amaliy tuzilma Konvensiyalar va tavsiyalar bo'yicha qo'mita hisoblanadi. Qo'mita har bir sessiyada YUNESKO ijroiya kengashiga ko'rib chiqilgan shikoyatlar va tayyorlangan tavsiyalardan iborat ma'ruza taqdim etadi.

YUNESKO vakolati doirasiga ta'lim huquqini, ilmiy yutuqlardan foydalanish huquqini, madaniy hayotda qatnashish huquqini, axborot, jumladan o'z fikriga ega bo'lish va uni ifodalash huquqi va boshqalarni himoyalash kiradi.

28-modda

Har bir inson ushbu Deklaratsiyada bayon etilgan huquq va erkinliklar to'liq amalga oshirilishi mumkin bo'lgan ijtimoiy va xalqaro tartib bo'lishi huquqiga egadir.

Deklaratsiyada e'lon qilingan **huquq va erkinliklar to'liq amalga oshirilishi mumkin bo'lgan ijtimoiy va xalqaro tartib bo'lishi huquqi** BMTning Inson huquqlari komissiyasining 2003-yil 29-avgustdagi "Aholi ishtiroki, teng huquqlilik, ijtimoiy adolat va kamsitmaslikni demokratiyaning eng muhim asoslari sifatida mustahkamlash haqidagi rezolyutsiyasi"da belgilab qo'yildi. BMTning Inson huquqlari komissiyasi, demokratiya, inson huquqlari va asosiy erkinliklarini rivojlantirish va hurmat qilish o'zaro bog'liq va bir-birini to'ldirib kelishini e'tirof etib, insonning barcha huquqlari universal, bo'linmas, o'zaro bog'liq va aloqadorligini va xalqaro hamjamiyat inson huquqlariga global tarzda, adolatli va teng asosda, bir xilda va e'tibor bilan yondashishi lozimligini eslatib, a'zo-davlatlar deb e'lon qilingan barcha davlatlarda hammaning fuqarolik, siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlarini har tomonlama himoyalashni ta'minlash va rag'batlantirish yo'lidagi kurashga sodiqligini qo'llab-quvvatlab, taraqqiyot uzoq muddatli asosda faqat rivojlanish strategiyalari xalq ehtiyojlariga javob bersagina va ularning ishlab chiqilishida ham, amalga oshirilishida ham xalq ishtiroki ta'minlanganidagina barqaror bo'lishi mumkinligini tan olib, bunda insonning birlamchi, uning yashab qolishi uchun zarur ehtiyojlarini qondirish demokratiyaning o'zgarmas sharti ekanligi faktini ta'kidlab, tasdiqladiki, demokratiya xalqning o'z siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy tizimlarini aniqlash imkonini beruvchi o'z xohishini erkin bildirishiga, uning o'z hayotining barcha jabhalarida har tomonlama qatnashishiga asoslanadi. Ushbu ma'noda milliy va xalqaro miqyosda inson huquqlari va asosiy erkinliklarini rag'batlantirish va himoyalash universal bo'lishi va hech qanday shartlarsiz amalga oshirilishi lozimligini va barcha demokratiyalarga umumiy xususiyatlar xos bo'lsa-da, demokratiyaning birorta ham yagona universal modeli mavjud emasligini tasdiqlaydi.

Komissiya tasdiqladiki, demokratiyani mustahkamlash har bir individning barcha huquqlarini – ular xoh fuqarolik huquqlari bo‘lsin, xoh iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar bo‘lsin, jumladan, universal va ajralmas huquq, hamda Taraqqiyot huquqi deklaratsiyasida ko‘rsatilganidek, asosiy inson huquqlarining tarkibiy qismi sifatidagi taraqqiyot huquqini ham, rag‘batlantirish va himoya qilishni talab etadi.

Inson huquqlari komissiyasi barcha davlatlarni demokratiyani rag‘batlantirishga chorladi. Zero, u insoniyat oilasining barcha a‘zolariga xos qadr-qimmatni hamda ularning teng va ajralmas huquqlarini tan olishga asoslangan holda, kamsitish va chetlatishning har qanday shakllarini inkor qilib, insonlar farovonligiga ko‘maklashadi, tenglik va adolat tamoyillari asosida rivojlanishga yordam beradi, o‘z fuqarolarini jamiyat to‘qnash keladigan turli muammolarni muhokama qilishda va qarorlar qabul qilish jarayonida maksimal darajada keng va to‘liq ishtirokini rag‘batlantiradi; barcha davlatlar va xalqaro hamjamiyat qashshoqlikni yo‘qotish va jamiyatlarning rivojlanishiga ko‘maklashish maqsadlariga qaratilgan, adolat, teng huquqlilik va teng qatnashish tamoyillariga asoslangan samarali choralarni rag‘batlantirish bo‘yicha sa’y-harakatlarini yanada kuchaytirishga chaqirildi.

Inson huquqlari komissiyasi Inson huquqlari komissiyasining barcha mexanizmlarini va inson huquqlari sohasidagi shartnomaviy organlarni bundan buyon ham tegishli mandatlarini ado etayotganlarida demokratiyaning asoslari sifatida aholining ishtirok etishi, tenghuquqlilik, ijtimoiy adolat va kamsitmaslik masalalarini inobatga olishga chorladi.

29-modda

1. Har bir inson jamiyat oldida burchlidir, faqat shu holatdagina uning shaxsi erkin va to‘liq kamol topishi mumkin.

2. Har bir inson o‘z huquqi va erkinliklaridan foydalanishda o‘zgalarning huquq va erkinliklarini demokratik jamiyatda yetarli darajada bo‘lishini hamda hurmat qilinishini ta‘minlash, axloq, jamoat tartibi, umum farovonligining odilona talablarini qondirish maqsadidagina qonunda belgilangan cheklanishlarga rioya etishi kerak.

3. Ushbu huquq va erkinliklarni amalga oshirish Birlashgan Millatlar Tashkilotining maqsad va prinsiplariga hech zid bo‘lmasligi kerak.

Konstitutsiyaning 19-moddasiga muvofiq: “O‘zbekiston Respublikasi fuqarosi va davlat bir-biriga nisbatan bo‘lgan huquqlari va

burchlari bilan o‘zaro bog‘liqdirlar. Fuqarolarning Konstitutsiya va qonunlarda mustahkamlab qo‘yilgan huquq va erkinliklari daxlsizdir, ulardan sud qarorisiz mahrum etishga yoki ularni cheklab qo‘yishga hech kim haqli emas”

O‘zbekiston Respublikasi fuqarosi va davlat o‘zaro huquqlar va o‘zaro majburiyatlar bilan bog‘liqdirlar. Bu esa, davlatda ham, fuqarolarda ham nafaqat huquq, balki majburiyat ham borligini nazarda tutadi. Odil sud – bu sudlarning jinoiy. fuqarolik va boshqa ishlarni xolis va har tomonlama tekshirish va hal etishga qaratilgan, demokratik tamoyillarga asoslangan va protsessual boshqariladigan faoliyati bo‘lib, asosiy vazifasi adolatni, qonuniylikni va huquqiy tartibni saqlashdir.

O‘zining yuridik xususiyatlari, me‘yoriyligi samarasi o‘laroq, Konstitutsiya, uning huquqlar va erkinliklarga oid qoidalari jamiyat munosabatlariga bevosita boshqaruv ta‘sirini o‘tkazmoqda. Bunda huquq va erkinliklar, bu borada zarur hollarda ularni aniqlashtirishga, ularni o‘ta samarali qo‘llash uchun qoidalar, mexanizmlar va taomillarni belgilashga qaratilgan qonunchilik aktlari mavjudmi yoki hali mavjud emasmi- bundan qat‘i nazar, bevosita amalda, deb sanaladi. Har bir huquq subyekti – davlat yoki jamoat organi, mansabdor shaxs, davlat xizmatchisi yoki fuqaro – o‘zining yuridik salmoqqa ega harakatlarini avvalo Konstitutsiya bilan muvofiqlashtirish, unga ergashishi lozim. Konstitutsiya unga zid keladigan aktlarni bekor qilish va harakatlarni to‘xtatish uchun huquqiy asos bo‘ladi. Sudda, boshqa organlarda o‘z huquq va erkinliklarini himoya qilishda bevosita konstitutsiyaviy normalarga tayanish qonuniydir, shuningdek, bu kabi tayanish ushbu organlar tomonidan qaror qabul qilinayotganda amalga oshirilishi ham xuddi shunday qonuniydir.

Konstitutsiyaning 20-moddasiga binoan: “Fuqarolar o‘z huquq va erkinliklarini amalga oshirishda boshqa shaxslarning, davlat va jamiyatning qonuniy manfaatlari, huquqlari va erkinliklariga putur yetkazmasliklari shart”

30-modda

Ushbu Deklaratsiyadagi hech bir narsa biror bir davlat, kishilar guruhi yoki alohida shaxslar mazkur Deklaratsiyada bayon etilgan huquq va erkinliklarni yo‘q qilishga yo‘naltirilgan faoliyat bilan shug‘ullanishi yoki harakat qilishi mumkin deb talqin etilmasligi kerak.

Inson huquq va erkinliklari muammosini zamonaviy dunyoqarashning oldingi o‘rinlariga qo‘yish – bu ma‘naviy madaniyat va

odob-axloqdagi yirik o'zgarishlardan dalolatdir. Dastlab inson huquqlari institutining rivojlanishi faqat davlatning ichki huquqida amalga oshdi. Shaxsning huquqiy ahvolini qonun bilan mustahkamlab qo'yish hatto BMT Nizomi qabul qilingandan keyingi ilk yillarda ham davlatning ichki vakolatiga mansub edi. Hozirda ahvol tubdan o'zgardi: inson huquqlari ham ichki, ham xalqaro huquq bilan boshqariladi. Bunda xalqaro huquqning roli tobora oshmoqda, bu hol, birinchidan, davlatlar tomonidan amal qilinishi lozim bo'lgan asosiy inson huquq va erkinliklarini belgilovchi xalqaro tamoyil va me'yorlarning tobora aniqroq ishlab chiqilayotgani va aniqlashtirilayotganida namoyon bo'ladi, ikkinchidan, davlatlarning o'z zimmalariga olgan majburiyatlarini bajarishlarini nazorat qilish bo'yicha xalqaro organlar tashkil etilishida aks etadi.

Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi tomonidan e'lon qilingan inson huquqlari xalqaro boshqaruv obyekti bo'ldi. BMT Nizomida ushbu universal tashkilot a'zo-davlatlarining: "Insonning asosiy huquqlariga, inson shaxsining qadr-qimmatini va qadriyatiga, erkak va ayollarning teng huquqligiga ishonchni mustahkamlash"da qat'iy ekanliklari aytiladi, "irqi, jinsi, tili va dinidan qat'i nazar barchaning inson huquqlari va asosiy erkinliklariga hurmatni rivojlantirish va rag'batlantirish"dagi xalqaro hamkorlik BMTning bosh maqsadlaridan biri sifatida e'lon qilinadi. BMTning ushbu qoidalari bilan bizning davrimizga kelib xalqaro huquqning umumtirof etilgan tamoyillaridan biriga aylangan inson huquq va erkinliklarini himoya qilish tamoyilining rivojlanishiga asos solingan edi. Asl insonparvar va demokratik qadriyatlarga asoslangan zamonaviy davlatda zamonaviylik va taraqqiyot hamda insonning ham davlatning ichkarisida, ham global dunyo miqyosida siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy-madaniy muammolarni hal etishda amalda ishtirok etishining chambarchas aloqasi haqidagi g'oya tobora yaqqol namoyon bo'lmoqda. Demokratik davlat va huquqiy tartibning ustuvor omilini tashkil etib, inson huquqlari muayyan siyosiy tuzumning mazmuni va mohiyatini belgilabgina qolmaydi, balki insonni passiv kuzatuvchidan dunyoda ro'y berayotgan barcha voqea-hodisalarning faol ishtirokchisiga aylantirishga chorlaydi. Insonning ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy huquqlari va erkinliklarini himoya qilish borasidagi hamkorlikning asosiy shakllaridan biri individning huquqiy mavqeiga va davlatlarning ushbu standartlarga ichki huquqiy tartib doirasida rioya qilish majburiyatlariga oid muayyan standartlarni qamrab olgan xalqaro kelishuvlarni ishlab chiqishdir. Ushbu kelishuvlarning aksariyati BMT doirasida ishlab chiqilgan. Biroq inson huquqlari muammosini hal etish, g'oyaviy

to'siqlarni tugatishga nisbatan yondashuvlarda keyingi yillarda kuzatilayotgan evolyutsiya jarayoni, davlatlarning inson huquqlari borasidagi kengayib borayotgan hamkorliklari mazkur sohadagi munosabatlarni takomillashtirishni talab etadi. Davlatlarning ichki huquq me'yorlarini inson huquqlari sohasidagi xalqaro standartlarga maksimal darajada yaqinlashtirish – bu huquqiy davlat qurishning zarur shartlaridan biridir.

Даврон Қувонович Ахмедов, Гавхар Юлдашевна Юлдашева

**ИНСОН ҲУҚУҚЛАРИ УМУМЖАҲОН
ДЕКЛАРАЦИЯСИГА
ШАРҲЛАР**

Davron Quvonovich Ahmedov, Gavhar Yuldashevna Yuldasheva

**INSON HUQUQLARI UMUMJAHON
DEKLARATSIYASIGA
SHARHLAR**

Мухаррир: *С.Усмонов.*

Техник муҳаррир: *А.Боймаматов.*

Компьютерда саҳифаловчи: *Ф.Нурлибаев.*

Босишга руҳсат этилди: 14.02.2009.

Ҳажми: 12,0 б.т. Адади: 100. Буюртма: № 1415

ТДЮИ кичик босмаҳонасида босилди.

Тошкент шаҳри, Сайилгоҳ, 35